O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Y.E. ALIYEV

# INNOVATSION IQTISODIYOT

# O‘QUV QO‘LLANMA

TOSHKENT - 2019

**UDK:338:6.01**

**BBK:**
**K:**

**Y.E.Aliev. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019- yil, 236 bet.**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada innovatsion iqtisodiyot tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari, innovatsion faoliyat infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari, innovatsion jarayonlarda inson omilini faollashtirish, innovatsion xizmatlar bozorini rivojlantirish, innovatsiyalarni sohalar bo‘yicha turlari, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni rivojlantirishda xorijiy tajribalar, innovatsion marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish, O‘zbekiston milliy innovatsion tizimi, intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish, innovatsion menejment strategiyalari va innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi, iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish oid masalalar yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma namunaviy o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, oliy o‘quv yurti talabalari uchun mo‘ljallangan.

In this handbook, the concept of innovative economy and its specific features, scientific and methodological foundations for the development of innovative economy, organizational and economic mechanisms of innovation activity, factors of innovative economy development, activation of human factor in innovation processes, development of market of innovative services, effective use of innovative technologies, effective use of foreign experience, innovation marketing technologies, national innovation system of Uzbekistan, intellectual capital, intellectual property formation and management, innovation management strategies and innovation marketing activities, innovation projects financing system, the formation of innovative clusters in the economy.

The curriculum is based on the standard curriculum and is intended for university students.

| | |
|---|---|
| **Taqrizchilar:** | B.T. Salimov - iqtisod fanlari doktori, professor Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti |
| | E.Yusupov - iqtisod fanlari doktori, professor Toshkent davlat agrar universiteti |

*Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti Ilmiy kengashining 2019 yil 30 maydagi 11- sonli qaroriga ko‘ra bakalavriyat talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.*

© Innovatsion iqtisodiyot: O‘quv qo‘llanma. 2019- yil.

# MUNDARIJA

**KIRISH** ..... 3

**1- bob. “Innovatsion iqtisodiyot” fanining nazariy asoslari**

1.1. Innovatsion iqtisodiyot tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari ..... 5

1.2. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari..... 11

1.3. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ... 20

**2- bob. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar**

2.1. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari..... 33

2.2. Innovatsion iqtisodiyotda inson omilini faollashtirish ..... 45

2.3. Innovatsion iqtisodiyotda xizmatlar bozorini rivojlantirish ..... 67

**3- bob. Iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalar va xorijiy tajribalardan foydalanish**

3.1. Innovatsiyalarning sohalar bo‘yicha turlari..... 81

3.2. Iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalardan samaralifoydalanish..... 90

3.3. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish ..... 103

3.4. Korxonalarda eksport salohiyatni oshirishda innovatsion marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish ..... 110

**4- bob. Mamlakatimizning milliy innovatsion tizimini rivojlantirish**

4.1. O‘zbekiston milliy innovatsion tizimi..... 116

4.2. Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish vaboshqarish ..... 130

4.3. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash..... 138

**5- bob. Innovatsion iqtisodiyotni samarali boshqarish va uni moliyalashtirish**

5.1. Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari ..... 157

5.2. Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish ..... 161

5.3. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi ..... 170

5.4. Iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish zaruriyati ..... 180

**Testlar**..... 193

**Glossariy** ..... 229

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati** ..... 231

# KIRISH

Jahonda hozirgi taraqqiyot bosqichida innovatsion iqtisodiyotga o‘tilayotgan bo‘lib, u turli faoliyat sohalarida yangi texnologik yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali tizimiga asoslanadi. Tabiiy resurslar mavjudligi va cheklanganligi muhim rol o‘ynagan davrda texnologik rivojlanishni jadallashtirish uchun ularni iloji boricha samarali ishlatish lozim. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotda innovatsion kashfiyot strategiyasini tanlash va amalga oshirish, tubdan yangi texnologiyalarni qo‘llash hamda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishasosda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlashimiz mumkin.

Ushbu qo‘llanma mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni innovatsion taraqqiyot dasturini amalga oshirishdagi roli, innovatsion rivojlanishini belgilovchi omillari, innovatsion faoliyatni boshqarishning muhim muammolari, sanoat korxonalarida ilmiy loyihalarning mohiyati va ularni ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion taraqqiyotni ta'minlovchi omillar, sanoatda innovatsion taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchlar, barqaror iqtisodiy yuksalishini ta'minlovchi omillar, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning prinsipial xususiyatlari va yo‘nalishlari kabi masalalarni qamrab oladi.

Ilm-fan yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi Yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Sanoatni innovatsion rivojlanishida mavjud iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo‘lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Mehnatni bilimlar bilan almashtirish talabalarga mehnat

faoliyatini ijodkorlik, innovatsiyalar, g‘oyalarni ishlab chiqish bo‘yicha ajralib turadigan yangi faollik turiga almashtirish orqali ma'naviy yo‘naltirilgan faoliyat - intellektual faollikni oshirishga xizmat qiladi.

# 1- BOB. “INNOVATSION IQTISODIYOT” FANINING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Innovatsion iqtisodiyot tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, innovatsiyalarni joriy etish, milliy korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsion faoliyatni rivojlantirish insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylanmoqda. Innovatsion faoliyatni doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o‘zgarishiga jiddiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

“Innovatsion iqtisodiyot” fani “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modellari”, “Axborot tizimlari”, “Huquqshunoslik”, “Innovatsion marketing” va “Innovatsion menejment” kabi fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganiladi.

Ushbu sohada eng yangi va zamonaviy ilmiy izlanishlarni olib borgan va shu sohaga oid ilmiy asarlar muallifi bo‘lgan Jati Senguptaning innovatsiyalarga bergan ta'rifiga to‘xtalib o‘tsak. “Texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar mahsulot innovatsiyasi, sanoatda “ilmiy izlanish va rivojlanish”ko‘rinishidagi investitsiyalar va taqlid va takomillashtirishni o‘z ichiga olgan texnologiyalar transferini o‘zida mujassam etadi.Innovatsiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin, ammo har qanday shaklda u mahsulot tannarxini kamaytirish yoki bozor talabini kengaytirishga yordam qiladi. Innovatsiyalarning ba'zi bir muhim turlari sifatida:

texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar;

endogen yoki ekzogen innovatsiyalar;

sanoat rivojlanishida tanlov mexanizmi innovatsiyasi;

texnologiyalar konsorsiumi orqali shakllantiriladigan innovatsiyalardan iborat.

Fanning vazifasi - o‘rganuvchida innovatsion faoliyatning mohiyati, roli, asosiy elementlari va bosqichlari bo‘yicha tizimli tushunchalarni shakllantirish, innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy

mexanizmi mohiyatini ochib berish, intellektual mulk obyektlarini yaratish, huquqiy muhofazasini ta'minlash, ixtiro, kashfiyotlar tizimini tashkil qilish va boshqarish sohasidagi asosiy tushunchalar, O‘zbekiston va boshqa davlatlarning innovatsion tizimi va shu sohaga tegishli bo‘lgan me'yoriy hujjatlarni o‘rgatishdan iboratdir.

Endogen innovatsiyalar esa o‘z ichiga innovatsiyalarga investitsiya kiritishga moyillikni bozor tomonidan rag‘batlantirishni qamrab oladi. Bozor rag‘bati deganda monopoliyadan patentlash qonunlari orqali himoyalanish va texnologik musobaqada g‘olib chiqishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual mulk huquqini yaratish, ularni muhofaza qilish, huquqiy egalarining manfaatlarini himoya qilish, innovatsiya sohasiga oid xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish, xalqaro shartnomalarga kirish orqali milliy mualliflarining huquqlarini butun dunyoda muhofaza qilish kabi muhim masalalar davlat ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab olindi. Hozirgi globallashuv jarayonlarida “Innovatsion iqtisodiyot” fanining ahamiyati benihoya kattadir. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk, ixtirolar, yangi kashfiyotlar hamda ularni patentlash, litsenziyalash va sertifikatsiyalashning o‘rni salmoqlidir. Chunki, dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin bunyod etilgan ixtiro bu mulk hisoblanib, undan barcha xalqlar foydalanishi mumkin. Bu masala o‘z navbatida patent olish va uni sotish orqali tartibga solinadi.

Ekzogen innovatsiyalarni ilmiy va notijorat institutlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasini misol sifatida keltirish orqali yoritadigan bo‘lsak, innovatsiyalarning bu turi ba'zan yangi mahsulot va yangi jarayonga sababchi bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. Solounni iqtisodiy o‘sish modelida barcha texnologik rivojlanishlar ekzogen innovatsiya sifatida qaralgan bo‘lsada, pirovardida sanoatda va butun bir mamlakat uchun ishlab chiqarish imkoniyatlarini keskin o‘zgartirdi.

Innovatsiyalarning keyingi ikki turi kamroq e'tiborga sazovor bo‘lishi mumkin. Evolyusion tanlov mexanizmi firmalarni dinamik bozor samaradorligi va patent tizimi orqali tanlaydi. Bu mexanizm texnologik o‘zgarishlarning o‘ziga xos xususiyatini ham bozor strukturasining endogen aspektlarini hisobga oladi.

Patentlash tizimi texnologik tanlovning ikkinchi instrumentlar

tizimidir. U mulkchilik huquqini aniqlashtirib texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.

Innovatsion faoliyat ishlab chiqarish va inson hayotiy faoliyatining boshqa sohalari ehtiyojlarini qondirishning muhim uslublaridan biri hisoblanadi. U foydalaniladigan mahsulotlarning sifat o‘zgarishlari, faoliyat vositalari va uslublarini yangilash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ammo sifat o‘zgarishlari faqatgina fundamental bilimlar asosida o‘zgartirish mumkin bo‘lib, ular texnik bosqichdan ishlab chiqarish sohasiga o‘tgan holda, unda progressiv o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, sanoati rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyat mahsulotlarini sotish hisobiga milliy daromadning 20 foizgacha o‘sishini ta'minlashi mumkin.

Innovatsion faoliyat O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish jarayonlari va ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etishning asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Innovatsiya - mavjud tizimlar rivojlanishini boshqarish jarayoni bo‘lib, unda innovatsiyaviy mahsulot amaliy qo‘llanilish bosqichigacha olib kelinadi va bozor muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Mamlakatlar raqobatdoshligini baholashning ko‘rsatishicha, korxonalar rivojlanishining asosiy strategiyasi bo‘lib, quyidagi tamoyillarga asoslangan boshqaruv siyosatini amalga oshirish uchun xizmat qiladi:

- tabiiy va iqlim resurslardan oqilona foydalanish;
- jamg‘arilgan boyliklardan o‘z o‘rnida foydalanish;
- investitsiyalarni faol jalb qilish;
- innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash.

Innovatsion faoliyatning eng muhim amaliy vazifalaridan biri - innovatsiyaviy jarayonlarni amalga oshirishning samarali tizimini shakllantirish va u quyidagilarni amalga oshirishni talab etadi:

- innovatsion faoliyatga tegishli nazariy bazasini ishlabchiqish;
- innovatsion faoliyat sohasida mavjud muammolarni yechishuslublarini asoslash;
- innovatsion jarayonlar samaradorligini baholash uslubiyotiva ularga ta'sir ko‘rsatish vositalarini ishlab chiqish.

Korxonada ro‘y berayotgan innovatsion jarayonlarning samaradorligi, innovatsiyaviy strategiyani shakllantirishda qo‘llaniladigan usul va uslublar, innovatsiyaviy mahsulot kategoriyasi, ishlab chiqilayotgan innovatsiya turlari, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining ishlab chiqarishga jalb etish va uni qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘ladi. Ular orasida eng muhim elementlar bo‘lib quyidagilar sanaladi:

- innovatsiyaviy xaraktyerdagi yechimlarni ishlab chiqish va amalgaoshirishning samarali strategiyalari;
- muayyan tashkiliy tuzilmada bunday strategiyani amalga oshirish jarayonini boshqaruv mexanizmi.

Innovatsion faoliyat nazariyasi va innovatsion strategiyani uslubiy jihatlarini o‘rganish davri o‘tgan asr boshlariga to‘g‘ri keldi va ko‘pgina yirik olimlar tomonidan amalga oshirildi.

Hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot va bozor ehtiyojlari, mahsulot nomenklaturasi va sifatiga yangi talablarni shakllantirgan holda talab va taklif kon'yukturasidagi o‘zgarishlarga olib kelmoqda.

Innovatsion faoliyatni asosiy qoida va kategoriyalarini o‘rganish uchun «innovatsiya» tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini to‘liq o‘rganishimiz lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsiya (ingl. inovation) potensial ilmiy-texnik taraqqyotni (ITT) yangi mahsulot va texnologiyalar ko‘rinishida real taraqqiyotga aylanishi” deb ta'riflanadi.

Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan va unga muvofiq innovatsiya deganda bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo‘llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan yangicha yondashuv ko‘rinishidagi innovatsiyaviy faoliyat natijalari tushuniladi.

Ushbu muammo bo‘yicha ko‘p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunda innovatsion faoliyat sohasida yagona, umumiy tarzda qabul qilingan terminologiya mavjud emas. Shuning uchun ham shu sohadagi ilmiy adabiyotlarni qisqacha tahlilini keltirish va innovatsion faoliyat sohasidagi asosiy tushunchalarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Innovatsiyaviy nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V.Zombart,

V.Mitcherlix, Y.Shumpeter ishlariga to‘g‘ri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y.Shumpeter katta hissa qo‘shgan.

1930-yillarda Y.Shumpeter tomonidan innovatsiya tushunchasi kiritildi va u mahsulot ishlab chiqarish, sotish, yetkazish jarayonlarida yangi yoki takomillashtirilgan texnik, texnologik, tashkiliy xaraktyerdagi qarorlarni qo‘llash oqibatida mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘z ichga oladi deb ta'kidlaydi. Y.Shumpeter tomonidan innovatsiyaga berilgan ushbu ta'rifda ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalari to‘g‘risidagi konsepsiyasi, innovatsiyalar nazariyasiga bo‘lgan ikkita eng tarqalgan yondashuvdan birining asosini tashkil etadi. Birinchi yondashuvda yangi omillardan foydalanish to‘g‘risidagi tushunchaga, ikkinchi yondashuvda esa yangi yaratilgan mahsulot va yangi yaratilgan texnologiyaga asoslangandir.

Y.Shumpeter “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (Theory of Economic Development) nomli mashhur asarida innovatsion jarayon natijasidagi o‘zgarishlarni besh yo‘nalishga ajratib ko‘rsatib bergan.

Bu yo‘nalishlar quyidagilardan iboratdir:

-yangi texnik va texnologik o‘zgarishlar yoki ishlab chiqarish jarayonini yangi bozor talablari asosida tashkil etish;

-yangi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulot turlarini deversifikatsiyalash;

-ishlab chiqarish jarayonlarida yangi xom-ashyolardan foydalanish;

-ishlab chiqarishni tashkil etishda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish;

-yangi iste'mol bozorlarini shakllantirish.[1]

“Innovatsiya” tushunchasiga bo‘lgan ikkinchi yondashuv ishlab chiqarishda muayyan turdagi texnika, texnologiya va boshqa yangi mahsulotlardan foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga asoslanib ayrim olimlar ishlab chiqarish faoliyatini innovatsiyaviy va ilmiy-texnik jihatlaridan biri deb biladilar. Bundan kelib chiqqan holda «innovatsiya» tushunchasi jarayon hamda natija sifatida tushuniladi.

Innovatsiyalar iqtisodiy samaradorligini ta'minlash zaruriyatini

[1]Шумпетер Й. Теория экономического развития. М 1982 год 388 стр.

hisobga olgan holda, bir qator Rossiyalik iqtisodchilar (M.Ionov, A.Kulagin, V.Loginov) innovatsiyani «xarajatlar tejalishini yoki bunday tejash uchun sharoit yaratilishini ta'minlovchi yangi mahsulot yoki xizmat, ishlab chiqarish uslubi, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa sohalardagi yangilik» sifatida ko‘rishganlar.

Fikrimizcha, “innovatsiya” yangicha g‘oya, ishlab chiqarishga tadbiq etilgan yangicha yondashuv, yangi texnologiya va ishlab chiqarilgan yangi mahsulot, boshqaruvdagi yangicha usul, umuman, barcha jabhalardagi yangi islohotlardir. Bunda innovatsiya nafaqat so‘nggi yangilik, balki hayotga tadbiq etilgan, jamiyat a'zolariga iqtisodiy va ijtimoiy naf keltiruvchi vosita bo‘lishi lozim. Innovatsion faoliyatning maqsadi, vazifalari va uslublarining tadqiqotini davom ettirish uchun, innovatsiyaviy boshqaruv obyektini ifodalash va uning asosiy tavsiflari va xususiyatlarini aniqlash kerak. Buning asosiy zaruriyati shundaki, innovatsion faoliyat korxonaning raqobat asosida rivojlanishi strategiyasining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, boshqaruv infratuzilmasini yaxshilash va faoliyat maqsadlariga yanada samaraliroq erishish imkonini beruvchi turli xil yangiliklardir.

## Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsion faoliyat konsepsiyasi tushunchasini sharhlab bering.
2. Korxonaning innovatsion salohiyati va uni amaliyotda foydalanish qobiliyatini qanday aniqlash mumkin?
3. Intellektual salohiyat qanday aniqlanadi va uni innovatsion salohiyati bilan qanday farqi bor?
4. Korxonaning innovatsion salohiyati qanday baholanadi?

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
2. Christine G. Mark R. Innovation, intellectual property and economic growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p. 385.
3. SalixovS.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.:TDIU, 2013.

## 1.2. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari

Innovatsiyalar nazariyasi holatini va korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishni tashkil etish sharoitlarining tahlili ko‘rsatishicha, innovatsion faoliyatning samaradorligi u qanchalik to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Muayyan korxonada innovatsion faoliyat jarayonlarni tashkil etishning o‘zi jiddiy muammolardan biriga aylanadi. Hozirgi kunda innovatsion jarayonni tashkil etishning ko‘plab modellari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning har biri korxona rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan holda to‘liq yoki qisman foydalanilishi mumkin.

Innovatsion faoliyatning nazariy uslubiy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan bo‘lib ular tomonidan tarli xil fikrlar bildirilgan. Innovatsiya nazariyasini ishlab chiqishda yana bir texnologik bosqichlarning evolyusiyasi bilan bog‘liq muammolarni birinchi marta rus olimi N.D.Kondratiev o‘zining “Uzun to‘lqinlar nazariyasi” asarida o‘z izlanishlari natijasida olingan fikrlarini bildirgan(1.2.1-rasm).

Uning nazariyasiga ko‘ra davrlarning dastlabki 4 sikli sanoatning rivojlanish davriga, 5-to‘lqin sanoatdan keying postindustrial davrga, 6-to‘lqin elektronika, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar va ginetikaning rivojlanish davrlariga to‘g‘ri keladi.

**1.2.1- rasm. Kondratiev dunyo iqtisodiyoti evolyusiyasini**

## 6 ta siklga ajratdi

Amerikalik iqtisodchi olim J.Brayt “Innovatsiya jarayoni ilm va texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o‘zida birlashtiruvchi innovatsiyalarning tijoratlashuviga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir”[2] degan g‘oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, “innovatsiya jarayoni g‘oya paydo bo‘lishidan boshlab, tijorat asosida hayotga tadbiq etish jarayonigacha bo‘lgan barcha bosqichni o‘z ichiga oladi” deb ta'kidlaydi.

Yana bir rus olimi B.A.Makarenko ishlarida innovatsiyalar mohiyatini to‘liq va atroflicha yoritib berilgan. U bergan tarifga ko‘ra:

Innovatsiyaning mazmun va mohiyati:

-texnika va texnologiya avlodi almashinuvini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotga mablag‘ yo‘naltirish;

-fan-texnika taraqqiyotining mas'uli bo‘lgan yangi texnika, texnologiyadan samarali foydalanish;

-yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etishdan iboratdir.[3]

Korxonalarning innovatsion rivojlanishning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashning zaruriy sharti ekanligi barchamizga ma'lum. Bu borada P.Drukerning quyidagi fikriga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Uning fikricha “biznesning asosiy maqsadi mijozlarni jalb qilish bo‘lganligi sababli korxonani ikkita asosiy funksiyasi mavjud marketing va innovatsiya”dan iborat deb hisoblaydi.[4]

Albatta dunyo iqtisodchi olimlarining innovatsiyaga bergan ta'riflari va yondashuvlari turlicha bo‘lib, ularning izlanishlarida o‘ziga xoslikni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Innovatsion faoliyat va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishda jahon olimlari bilan bir qatorda yurtimiz iqtisodchi olimlari o‘zlarini bir qator tadqiqotlarini olib borishgan. M.Saidovning fikricha, innovatsion faoliyat

---

[2] Очковская М.С. Инновации как качественный фактор экономического роста. Автореф. диссертации из соискание ученой степени кандидата экономических наук. - М.: Дело, 2006 - С.4

[3] Макаренко В.А Современный словарь В 2 т.- М-2000

[4] Drucker P.F 2007. Management: tasks, responsibiliries, practices. Transaction Publishes, New Branswick, N.J.: London.

iqtisodiyotni rivojlantirishga qo‘yilmalarning samaraliligi bilan tavsiflanadi, ishlab chiqarishda mavjud bo‘lgan oldingi avlod texnikasi va texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirish jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon g‘oyaning paydo bo‘lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan tortib ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo‘lgan faoliyatni o‘z ichiga oladi deb ta'kidlaydi[5].

Innovatsion faoliyatning asosiy kategoriyalarini aniqlashga bo‘lgan yondashuvlarning ko‘pligi tufayli, innovatsiyaviy boshqaruv atamalarini izohlashga bo‘lgan yagona yondashuvni shakllantirish lozim. Shudan kelib chiqqan holda innovatsion faoliyat nazariyasiga berilgan turli xil fikrlarni hisobga olgan holda quyidagicha fikr bildirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yangilik bu - samaradorlikni oshirish bo‘yicha faoliyatning biror sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ishlanma va tajribalar natijasidir.

Yangiliklar quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- kashfiyotlar;
- tovar belgilari;
- ratsionalizatorlik takliflari;
- yangi takomillashtirilgan mahsulot yoki texnologiya hujjatlari;
- nou-xau;
- ilmiy yondashuvlar yoki turli xil tamoyillar;
- marketing tadqiqotlari natijalari va boshqalar.

Asosiy maqsad - yangilikni joriy etgan holda uni innovatsiya shakliga aylantirish, ya'ni innovatsion faoliyatni tugallash va ijobiy natijaga ega bo‘lgan holda innovatsiyalar diffuziyasini muntazam davom ettirish jarayonidir.

Innovatsion faoliyat bu - boshqaruv obyektini o‘zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha samaradorlikni oshirish maqsadida yangilikni joriy qilish natijasidir.

[5] Drucker P.F 2007. Management: tasks, responsibiliries, practices. Transaction Publishes, New Branswick, N.J.: London.

“Innovatsion faoliyat” tushunchasini izohlashga bo‘lgan nazariya va amaliyotdagi ayrim farqlarni ta'kidlab o‘tish lozim. Buning asosiy sababi shundaki, zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyat innovatsiyalarni boshqarish tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Demak, uning tuzilmasi, funksiyalari, boshqarish uslub va vositalariga hamda faoliyat maqsadlariga o‘zining katta ta'sir ko‘rsatadi.

Ammo innovatsion faoliyat to‘g‘risida, innovatsiya obyekti sifatida to‘laroq tasavvur shakllantirish uchun berilgan fikrlarni atroflicha o‘rganish lozim bo‘ladi:

- birinchidan, bu obyektiv iqtisodiy qonunlar asosidagi fan- texnikaning o‘zaro bog‘liq rivojlanishi jarayonidir. U xo‘jalik amaliyotida yangi ilmiy bilimlarni yaratish, tarqatish va amaliy qo‘llash yo‘li bilan, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, ishlab chiqarish bazasini tubdan yangilanishini nazarda tutadi;

- ikkinchidan, bu ishlab chiqarish innovatsion salohiyatini tashkil etuvchi elementlar majmuasidan foydalanishdir. Bu yerda yuqori malakali ilmiy va ishlab chiqarish kadrlarini ekspluatatsiya qilish sohasidagi jarayon va hodisalar hamda xodimlarning korxona innovatsiyaviy faoliyati natijalariga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantiruvchi tashkiliy, ijtimoiy, ekologik, huquqiy tadbirlar ko‘ribchiqiladi.

Shunday qilib, umumiy ko‘rinishda innovatsion faoliyat asosini fundamental nazariy tadqiqotlar tashkil etadi. Bunday tadqiqotlarning natijasi - oldin noma'lum bo‘lgan qonunlar, obyektiv mavjud hodisa va jarayonlarning ilmiy kashf etilishidir. Keyinchalik, yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilishi natijasida ularni moddiylashtirish usul va shakllari ishlab chiqiladi.

Bu jarayonlarda yangilikni tarqatish to‘g‘risida qaror qabul qilingandan so‘ng u yangi sifat darajasiga chiqadi hamda innovatsiyaga aylanadi. Innovatsion ishlanmalarni bozorga kiritish jarayonini bevosita tijoratlashtirish faoliyatidan iborat bo‘ladi. Yangilikni paydo bo‘lishi va uni amaliyotda innovatsiyaga aylanishi o‘rtasidagi vaqt oralig‘i innovatsiyaviy lag deb ataladi.

Innovatsion faoliyat ilmiy, ilmiy-texnik natija va intellektual salohiyatni, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (xizmat) olish

maqsadida qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bozor sharoitlarida innovatsion faoliyatning asosiy komponentlari bo‘lib, innovatsion faoliyat sohasini tashkil etuvchi g‘oya, yangiliklar, o‘zlashtirilgan investitsiyalar xizmat qiladi.

Iqtisodiyot real sektoridagi ko‘pchilik korxonalarda innovatsion faoliyatini boshqarish, bevosita innovatsiyaviy jarayon orqali kelajakdagi natijalarga erishishga qaratilgan bo‘ladi.

Innovatsion jarayon - juda ham keng tushuncha bo‘lib, uni turli nuqtai nazardan turlicha talqin qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchidan, bu ilmiy-tadqiqot, innovatsion ishlab chiqarish va marketing faoliyatini belgilangan talablar asosida amalga oshirilishidir. Ikkinchidan, uning yangilik darajasini hayotiy siklining vaqtinchalik bosqichlari sifatida ko‘rish mumkin. Uchinchidan, mahsulot yoki xizmatlarni yangi turlarini ishlab chiqish va tarqatishni moliyalashtirish va investitsiyalash jarayonlaridan iborat bo‘ladi. Bunday holatda u innovatsion loyiha sifatida o‘zini namoyon qiladi.

Innovatsion faoliyatni asosini biz ilmiy bilimni innovatsiyaga aylanish jarayonini tushunamiz, ya'ni hodisalarning shunday ketma-ketligiki unda innovatsion faoliyat g‘oyadan tortib oxirgi pirovard mahsulotga aylanish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi.

Innovatsion jarayon faqatgina innovatsiya joriy etilishi bilan tugamaydi balki yangilikni amaliyotga kirib borishi bilan olinadigan mahsulotlar takomillashtiriladi va natijada uning samarasini oshirishga olib keladi.

Innovatsion faoliyat quyidagi tuzilmalar asosida ta'riflanishi mumkin bo‘ladi. Fundamentam tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar, tajriba, konstruktorlik ishlari, birlamchi o‘zlashtirish, tarqatish, yangilikdan foydalanish, yangilikni takomillashtirish va yangi fundamental natijalarga bo‘lgan zaruriyati hisoblanadi (1.2.2-rasm).

Har bir bosqich, boshqaruvning turli xil shakli va uslublarini qo‘llash zaruriyatini aniqlovchi o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘ladi. Ammo bunda ushbu bosqichlarning integratsiyalashuvigina innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatini ta'minlashiga xizmat qiladi. Shuni ham hisobga olish lozimki, alohida bitta bosqichda boshqaruv mexanizmini takomillashtirish butun innovatsion faoliyat natijasini samardorligini oshirishga xizmat

qilmasligi ham mumkin.




**1.2.2- rasm. Innovatsion faoliyatni o‘ziga xos tavsiflanishi**

Ayrim bosqichlardagi asosiy natijalar boshqa bosqichlarda o‘z qiymatini yo‘qotadi va butun ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashuviga xizmat qilmasligi ham mumkin. Shuning uchun ham butun jarayonlarni uzluksizligi, egiluvchanligi va dinamikasini ta'minlovchi bosqichlani o‘zaro birlashmasi shakllantirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda boshlang‘ich marketing tadqiqotlarini olib borish va bozorni tahlil qilish juda muhim omillardan hisoblanadi.

Innovatsion jarayonlarni boshqarishda ilmiy-texnika g‘oyalarini shakllanishidan tortib uni tijorat asosida amalga oshirilishigacha bo‘lgan barcha bosqichlar (boshqaruv sikllari) yig‘indisini o‘z ichiga qamrab oladi. Natijada har bir yangilik g‘oyasini yaratilishidan tortib uni amalga oshirilishigacha bo‘lgan vaqt davri innovatsion sikl deb ataladi.

Innovatsion jarayonlar amalga oshishining samardorligi ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ya'ni, boshqaruv sifatini ta'minlanishi, boshqaruv tizimidagi har bir alohida bo‘g‘in ishining o‘zaro bir biriga muvofiqligi, axborot-uslubiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligi shular jumlasidandir.

Innovatsion faoliyatni boshqarish tizimi yuqorida qayd etilgan barcha elementlar shakllantirilganda va ularni o‘zaro muvofiqlashtirilganda, ma'lum bir ilmiy-texnik natijalarga ega bo‘lishi va ularni o‘zlashtirish muddatlarini qisqarishini ta'minlanishiga olib keladi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish, boshqaruv jarayonining barcha elementlarini yagona tizimga birlashtiradi va u innovatsiyani yaratish hamda amalga oshirishda innovatsiyaviy jarayonning o‘zida shakllantiradi.

Korxonada innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali tizimlarini yaratish va rivojlantirish imkoniyati ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarini shakllanganlik darajasi, boshqaruv tizimi va mexanizmlarini holati, boshqaruvning tashkiliy tuzilmasining turlari va yo‘naltirilganligi, xo‘jalik va innovatsion siyosat tendensiyalari va boshqalar shular jumlasidan hisoblanadi.

Innovatsion jarayonning mohiyati shunda namoyon bo‘ladiki u innovatsiyalar tashabbusi bilan chiqish, yangi mahsulot va operatsiyalar ishlab chiqish, ularni bozorda sotish va diffuziyalash bo‘yicha maqsadli yo‘naltirilgan harakatlar zanjirini ifodalaydi. Innovatsion jarayon ettita elementni o‘z ichiga oladi, ularning umumiy bir ketma-ketlikdagi zanjirga birlashuvi innovatsion jarayon strukturasini tashkil etadi.

Vaqtinchalik monopol foydani qo‘llab quvvatlanishi ustundir. Ortiqchalikni inkor etilishi ta'siri firmalarning investitsiyaviy qarorlarini keskinlik bilan qabul qilishiga olib keladi. Chunki, kutilgan daromad aslida yuqoriroq bo‘ladi. Shu ortiqchalik samarasiga bog‘liq holda bilimlar diffuziyasi dasturiy ta'minotlar texnologiyasi va transmilliy kompaniyalar tomonidan ko‘paytirilgan bevosita investitsiyalar orqali sur'atlar tezlashtiriladi.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri innovatsion faoliyat, iqtisodiy rivojlanishning mazkur yo‘nalishida faollikni ta'minlovchi omillarni, shuningdek, innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar xususiyatlari o‘rganish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Shunday qilib, hozirgi paytda mamlakatda investitsion faoliyat amalga oshirilayotgan sharoitlar quyidagicha tavsiflanadi:

- qonunchilik tomonidan yaqin, o‘rta va uzoq istiqbollarga belgilangan

milliy maqsadlar va ularga erishish bo‘yicha aniq ifodalangan mexanizmlarning yaratilganligi;

- makroiqtisodiy barqarorlik vazifalariga bo‘ysundirilgan davlat strukturalari faoliyati natijalari doim ham texnologik rivojlanish va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga mos kelavermasligi, ayrim hollarda esa unga zid kelishi;

- mamlakatning milliy xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi manfaatlarini ta'minlash vositasi sifatida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish ehtiyojlarining hozirgi siyosiy darajada aniq ifodalanmaganligidir.

Mamlakatning milliy maqsadlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi innovatsion siyosat o‘tkazishni quyidagicha ifodalash mumkin:

- milliy xavfsizlikni ta'minlash;

- iqtisodiy barqarorlikka erishish, iqtisodiyotning imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy quvvatini oshirish;

- sanoatni texnologik qayta jihozlash, jahon bozorida mamlakatimiz tovar va xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish;

- tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muammolarini hal qilish;

- aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish, munosib turmush tarzini ta'minlash, soliqni saqlash va ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratish;

- oziq-ovqat, xomashyo, material va energiyaga bo‘lgan milliy ehtiyojlarni kafolatli ta'minlashdan iborat.

Boshqa mamlakatlar tajribalaridai kelib chiqqan holda innovatsion jarayonning tarkibiy qismlarini quyidagicha aks ettirish mumkin:

- maxsus tarmoqlar, institutlar, universitetlar va firmalarning ilmiy-tadqiqot bo‘linmalarini davlat tomonidan moliyalashtiriluvchi yoki boshqa turda qo‘llab quvvatlanuvchi fundamental ilmiy-tadqiqotlar va izlanish loyihalari uchun mas'ul bo‘ladi. Sanab o‘tilgan korxonalar hisobotlar, turli hujjatlar, ixtirolar, ilmiy maqolalar shaklida intellektual mahsulot ishlab chiqaradi hamda ilmiy kadrlar tayyorlash bilan shug‘ulladi;

- texnik va sanoat-texnik korxonalar innovatsion nou-xauga ega bo‘lib, boshlang‘ich loyihalar ustida ishlaydilar, sinov namunalari yaratish va ularni sinab ko‘rish bilan shug‘ullanadilar, texnik tavsiflar, patentlar, standartlar va

reglament tayyorlaydilar. Mazkur tuzilmalar namunalar tayyorlash uchun kuchli ishlab chiqarish quvvatlari, professional va texnologik markazlarga ega bo‘lishi kerak;

- ilmiy va muhandis texnik xodimlar, shuningdek, innovatsion faoliyatning joriy muammolarini yechishda talab qilinuvchi malakali kadrlar uchun ta'lim va o‘qitish tuzilmalari;

- tadqiqot va loyihalarning bajarilishini nazorat qiluvchi hamda ularning sanoat sektori bilan o‘zaro aloqalarini muvofiqlashtiruvchi korxonalar;

- mahsulot va xizmatlarga talabni va ularning tarqalishini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi konsalting korxonalari;

- ilmiy-texnik axborot xizmatlari istiqbolli loyihalar haqida ma'lumot to‘plash, tayyorlash va tarqatish bilan shug‘ullanadi;

- iste'molchilar va mahsulotni sotish masalalari bilan shug‘ullanuvchi professionallarni birlashtiruvchi bozor strukturalaridan tashkil topadi.

## Takrorlash uchun savollar

1. Bozor tuzilmasi va uning yangi texnologiyalar rivojlanishiga ta'siri qanday?
2. Endogen o‘sish nazariyasi va kapital jamlanishi tushunchasiga ta'rif bering?
3. Bilimlar diffuziyasi tushunchasiga ta'rif bering?
4. Innovatsiyaning hayotiylik davri nechiga bo‘linadi.

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Goncharenko L.P, Arutyunov YU.A. Innovatsionnaya politika. Uchebnik. - M.: 2009. - 352 str.

2. Fatxuddinov R.A. Innovatsionnuy menedjment. Uchebnik,- SPB.: Piter, 2004. - 400 str.

3. Atkinson, Robert D. Innovation economics : the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012

4. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.

## 1.3. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish infratuzilmasining asosiy tamoyillarini shakllantirishda milliy iqtisodiyot talablari va imkoniyatlariga mosligini, moslashuvchanlik holati, xalqaro iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Bunda milliy innovatsion tizimning bir segmenti sifatida funksional-to‘laqonli innovatsion tuzilma yaratish zarur hisoblanadi (1.3.1-rasm).




**1.3.1- rasm. Innovatsion faoliyatni tashkiliy infratuzilmasi**

Texnik jihozlanish kadrlar tarkibi bo‘yicha raqobatbardosh ilmiy texnik mahsulot va texnologiyalar ishlab chiqish va tijoratlashtirish, ularni ichki va tashqi bozorlarda amalga oshirishni ta'minlay oladigan, innovatsion sohaning amaldagi va sifat jihatidan yangi subyektlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutilishi zarur.

Innovatsion tadbirkorlik infratuzilmasi alohida bo‘lib o‘tadigan va innovatsion deb nomlangan turga moslashib oladigan tadbirkorlikni ta'minlovchi tizimni ifodalaydi. U innovatsion sohaning tadqiqotchilik-loyihalash sektorini iqtisodiyotning real sektori va yakuni iste'molchi bilan birlashtiradi.

Bevosita innovatsiyalash, ya'ni innovatsiyalarni taklif sifatida yaratish uchun va innovatsion tadbirkorlik, ya'ni bu takliflarni amalga oshirish va ilgari surish uchun infratuzilma elementlarining mazmun-mohiyatiga kengroq e'tibor qaratish zarur (1.3.1-jadval).

Mazkur infratuzilma turlarining ayrim elementlari mos kelishi yoki umumiy bo‘lishi mumkin, bu - axborot xizmatlari ko‘rsatuvchi firmalar, tajriba va muhandislik markazlari, moliyaviy strukturalar, patentli-litsenziyali korxonalardir.

**1.3.1- jadval**

**Infratuzilma elementlarining qiyosiy jadvali**

| Innovatsion tadbirkorlik uchun | Bevosita innovatsiyalash uchun |
|---|---|
| Joriy qiluvchi firmalar<br>Muhandislik markazlari<br>Injeniring firmalari<br>Axborot xizmati ko‘rsatuvchi firmalar<br>Konsalting firmalari<br>Reklama faoliyati bo‘yicha firmalar Banklar va boshqa kredit korxonalari Innovatika ixtisoslashgan auditorlik firmalari<br>Ilmiy-texnik shirkatlar<br>Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari<br>Sertifikatsiya markazlari<br>Lizing kompaniyalari Patent-litsenziyali korxonalar Biznes-inkubatorlar<br>Texnologiyalar transferi markazlari Sug‘urta kompaniyalari | Sanoat universitetlari va xalq xo‘jaligining boshqa sektorlari<br>Tadqiqotchilik majmualari Fanlar akademiyasi Kutubxonalar va ma'lumotlar to‘plamlari<br>Sinov tariqasidagi ishlab chiqarishlar<br>Tajriba laboratoriyalari va markazlari<br>Axborot xizmati ko‘rsatuvchi firmalar<br>Patent-litsenziyali korxonalar Ilmiy parklar<br>Innovatsion markazlar Innovatsion-ishlab chiqarish komplekslari |

Korxonalarni innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish quyidagilarga imkon beradi:

yangi yoki takomillashtirilgan texnologiyalar, mahsulotlar, asbob-uskunlarni joriy qilish hisobiga mahsulot (tovar, xizmat) ishlab chiqarishning o‘sishini ta'minlash;

innovatsion mahsulot hajmi ulushini innovatsion faol korxonalar mahsulotlari umumiy hajmining 20foiz foizga yetkazish;

fan-texnika va ishlab chiqarish sohalaridagi qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish;

ITTKI innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi usullarini joriy qilish hisobiga innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha resurslar jalb qilish;

zaruriy innovatsion infratuzilma (texnologiyalar, innovatsion texnologik markazlar, kichik innovatsion-texnologiya, korxonalar va boshqalar) innovatsion faoliyat subyektlariga iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yaratish va rivojlantirish;

innovatsion faoliyat qatnashchilarining munosabatlarini tartibga soladigan qonunchilik va normativ-huquqiy asoslar shakllantirish;

innovatsion sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimlari yaratish;

korxonalar innovatsion faolligini oshirishni ta'minlaydigan, samarali faoliyat ko‘rsatadigan, bozorga yo‘naltirilgan innovatsion tizim yaratish;

yangiliklar kiritish asosida ishlab chiqarishda jadal tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;

mahsulot (tovar, xizmat) raqobatbardoshligi va ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;

ichki va tashqi bozorlarda sanoat va fan-texnika yangi birlamchi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sharoitlar yaratish;

innovatsion faoliyat sohasida xalqaro hamkorlik va tarmoqlararo kooperatsiya ilg‘or tajribalari va ustunliklaridan maksimal darajada foydalanish.

Bizga ma'lumki, yangi tovar ishlab chiqarishda muvaffaqiyat keltirishning uchta omili mavjud. Ya'ni o‘z raqobatchilariga nisbatan tovarlarining ustunligi, iste'molchilar tomonidan qabul qilish uchun ajralib turuvchi xususiyatlarining mavjudligi, firmaning innovatsion marketing, yuqori ITTKI va ishlab chiqarish, ya'ni texnologik nou-xauning mavjudligidir. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan muvaffaqiyat keltiruvchi omillar innovatsion marketingda muhim o‘rin tutadi.

Ma'lumki, ishlab chiqaruvchi korxonalarida savdo vasof foyda hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga harakat qiladi.Bunda ular marketing faoliyatini yanada rivojlantirishga, unda yangi tovarlar ishlab chiqarish, yangi xizmat turlarini joriy etish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham bu o‘rinda korxonalar faoliyatiga yangiliklarni kiritish, yangi tovar ishlab chiqarish, innovatsion marketing usullarini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda innovatsion faoliyatni amalga oshirishni rag‘batlantiruvchi asosiy kuch sifatida, tovar bozorlaridagi keskin raqobat sharoitidagi potensial daromad miqdori xizmat qilishi mumkin. Innovatsion faoliyat o‘zgarishi omillari o‘rtasida uskunalar xarid qilish, loyiha-

konstruktorlik va texnologik ishlar keng tarqalgan. Ichki va tashqi bozorlarda keskin raqobat mavjudligi innovatsiyalarning asosiy maqsadlarini belgilab beradi.

Innovatsion jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli texnologik bazani yangilash, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlarni egallash va bu bilan iqtisodiy o‘sishning yanada yuqori sur'atlariga erishishda o‘z aksini topadi. Innovatsion rivojlanish omillari iqtisodiy o‘sishning asosini tashkil etgan holda ishlab chiqarish sohasining ko‘pgina xususiyatlarini ham belgilaydi (1.3.2-rasm).

Paydo bo‘lishiga qarab ular ichki va tashqi omillar bo‘lishi mumkin.

Ichki omillar:

- ishlab chiqarish rivojlanishining moddiy-texnik bazasi;
- korxona ixtisosligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning maqsadi;
- boshqaruv turi va tashkiliy tuzilmasi;
- boshqaruv uslubi va uslubiyoti;
- ishlab chiqarishning yangilik darajasi;
- turli xil xodimlarning talab qilingan va mavjud malakaviy darajasi;
- xodimlarni rag‘batlantirish tizimi;
- xodimlarning innovatsiyaviy faolligi darajasi;
- tashkiliy madaniyat va boshqalar.

Tashqi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bozor tuzilmalari;
- soliq tizimi;
- qonuniy-huquqiy tizim;
- moliya-kredit tizimi;
- umumiqtisodiy, ijtimoiy va tashqi siyosiy xarakterga ega omillar;
- tarixiy va milliy omillar.




**1.3.2- rasm. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini rivojlanishga ta'sir etuvchi omillari**

Innovatsion asosga ega bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish masalasini yechish jarayonida, korxonada innovatsion faoliyatning asosiy maqsadlar tizimini ifodalashi lozim. Bu ayniqsa, o‘z rivojlanishining faol strategiyasini amalga oshirayotgan korxonalar uchun muhimdir.

Bunday strategiyani amalga oshirish umumiy ko‘rinishda bir nechta omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning mazmuni va yo‘nalishi quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlanish darajasi;
- boshqaruv mexanizmi va tizimining holati;
- korxonaning moddiy-texnik salohiyati darajasi;
- tashkiliy tuzilmalarning turlari va yo‘nalishlari;
- o‘zgarishlarga ehtiyoj sezish va xodimlarning ularga tayyorgarlik darajasi.

Innovatsiyaviy jarayonni boshqarish zaruriyati va imkoniyatlarini aniqlash, uni amalga oshirish sharoitlarini ifodalash imkonini beradi. Bularga birinchi navbatda turli xil ehtiyojlar kiradi. Ularni ichki va tashqi muhit ehtiyojlari hamda shaxsiy ehtiyojlarga ajratish mumkin bo‘ladi.

Birinchi guruhni biror yangi tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan makrodarajadagi ehtiyojlarni shakllantiradi. Ular mazkur mahsulot

bozorining shakllanishi va faoliyati xususiyatlari, raqobatbardoshlik darajasi, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar hatti-harakati, ushbu soha yoki tarmoqdagi davlat siyosati, umumjahon bozor tendensiyalari va hokazolar bilan aniqlanadi.

Ikkinchi guruh korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining turli jihatlarini, umumxo‘jalik siyosatining istiqboli va tendensiyalarini, ilmiy-texnik va resurs salohiyatini aks ettiruvchi korxona ehtiyojlaridan iborat.

Uchinchi guruh murakkab tizim sifatidagi innovatsion jarayonni rivojlanishini ta'minlovchi, ichki ehtiyojlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, innovatsion jarayonlarni ayrim elementlarini (tashkiliy, texnik, texnologik, kadrlar va hokazo) holati va o‘zaro aloqalarini ko‘rib chiqish lozim.

Ko‘rsatilgan omillarni hisobga olgan holda, innovatsion jarayonlarni boshqarishning samarali tizimini yaratish, zaruriy nazariy ishlanmalar mavjudligini talab qiladi. Bu yerda, tegishli tushunchalarni ta'riflash zaruriyati muammosi alohida turadi. Uning tarkibiga umumiy boshqaruv usul, uslub va vositalari bilan bir qatorda, faqatgina innovatsion boshqaruv tizimida samarali bo‘lgan o‘ziga xos elementlar ham kirishi lozim. Innovatsion faoliyat ta'minotining uslubiy muammolarini hal etish, undan samarali foydalanish shartlaridan biri hisoblanadi.

Yangi mahsulotlarning o‘ziga xosligini tadqiq etgan holda, innovatsion faoliyatni boshqarishni tashkil etish bo‘yicha bir qator muammolarni mavjudligini ko‘rishimiz mumkin:

ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanishini tashkil etishning universal shaklini shakllantirishning murakkabliligi;

innovatsion va kundalik ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda boshqaruv sifatining turli-tumanligi;

innovatsion jarayonlarni amalga oshirish bosqichlarida turli xil boshqaruv tizimlariga bo‘lgan talabi;

bozor ehtiyojlarida kelib chiqqan holda innovatsion faoliyatni boshqarishning moslashuvchan tizimini barpo etish mexanizmini murakkabligi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion siyosatni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha

huquqiy-me'yoriy bazani yaratish;

- innovatsion tizimda sof raqobatli muhitni shakllantirish;

- xususiy korxonalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsion-texnologik ishlanmalarni rag‘batlantirish;

- raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotishni ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish;

- innovatsion sohadagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ularni malakasini nazoratini ta'minlash;

- innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish;

- ilmiy va ilmiy-texnik mahsulot uchun davlat buyurtmalar tizimini takomillashtirish;

- soliq, bojxona va boshqa imtiyozlarni joriy etish hisobiga mablag‘ kiritilayotgan investorlarni va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida innovatsion loyihalarga investitsiyalar kiritish manbasi sifatida ammortizatsion jamg‘armalarga ajratmalar miqdorlarini bozor talabidan kelib chiqqan holda o‘zgartirish;

- chet ellik hamkorlar bilan birga ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxonalarni tashkil etish maqsadida qulay sharoitlarni yaratishni ko‘zda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- rivojlangan turli mamlakatlar bilan hamkorlikda ko‘rgazma va yarmarkalar faoliyatini muntazamligini ta'minlash;

- milliy innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha turli mamlakatlar bilan axborot almashishi uchun xalqaro innovatsion axborot tizimiga kirish;

- ilmga oid texnika va tajriba-sinov parklarini shaklantirishda innovatsion uskunalar lizingini rivojlantirish zarur.

Mamlakatimiz innovatsion tizimini shakllantirishda hududiy ilmiy-innovatsion tizimi (HIIT) asosiy elementlardan hisoblanadi (1.3.3-rasm).




**1.3.3- rasm. Hududiy ilmiy-innovatsion tizim strukturasi**

Milliy innovatsion tizimining asosiy qismi sifatida ta'lim, fan va ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishning integratsion va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmi sifatida innovatsion klaster orqali butun hududning innovatsion

salohiyatidan foydalanishga qaratilgan ЬагеКа innovatsion шка^Пта1агш о^ ^ЫДа оНбШ 1о21т.

1Е11Ьи maqsadlarda qonunchiliklarga muvofiq ИоШа respublikada hududiy ilmiy-innovatsion йгшшпд Muvofiqlashtiruvchi Kengashini tashkil е^ББ ¡огдоШЬи Kengash ilmiy-texnik ishlanmalarni innovatsion 1оуШада о‘tishdап bosh1ab и1агптд ish1ab chiqarishda о‘z1ashtirish, к1сЬІк innovatsion tadЬігкогlikni ^ехпорагк1аг, Ь1гпеБ-ткиЬа1ог1аг, іппovatsioп- texnik markaz1arni) qo‘11аЬ-quvvat1ashga asosiy іппovatsioп faoliyat Ьosqich1ariш ата1да oshirish исКип zaruriy sharoit1arni ta'min1ab ЬегаШ.

Іппovatsioп faoliyatпі ЬаоПаБкЬНББ ЬагсЬа БиЬуек11аг Ьагака^апш davlat tomonidап Ьoshqarish, mапfaatdor ШгПта1агптд іппovatsioп jarayonlarпіng гко^ашББЫда hamda £ап4ехшка уи.Шд1агттд miпtaqa iqtisodiyotiga jorіy etishga ко‘так1аББиусЬІ іппovatsioп 1оуШа1агш ата1да обЫНбЬ ББагоШапш уагаЙББ исЬип іппovatsioп Иа^ейагш ББакПапЬоББт ta1aЬ etadi.

Іппovatsioп fao1iyatпіng pirovard пatijasi Ьо‘НЬ іппovatsioп mahsu1ot (texпo1одiya) hisoЬ1апadi. Іппovatsioп mahsu1oti (texпo1ogiyasi) о^ттд hajmi ЬПап farq1апadi, и уапді texпo1ogiyaпi joriy еЬНББІ evaziga когхопа ish1aЬ chiqarish ¡ткотуаИапт о^ББІт ifoda1ovchi ko‘rsatkich1arda о^ акБ1П1 topadi.

Іппovatsioп fao1iyat о^ ^ЫДа та'1ит Ьosqich1i jarayoп1агпі о1аШ. иБКЬи ЬоБд^ИН jarayoп1аг о‘rtasidagi Ьog‘1iq1ikпі quyidagicha ifoda1ash титкт (1.3.4-гаБт).

| ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1-боскич | | 2-боскич | | 3-боснч |
| Илмий гоя ва ишланмалар (янги техника, технология, лойихалар, дастур- лар, махсулот, товар намуналари ва бошкалар)га зарурат-ларни яратиш | ► | Реал маблагларни (капитал инвес-тицияларнп), инновацион ишланмаларнп яратиш | ► | Инновацион махсулотлар (янги техника, технология, янги махсулот ва товар намунаси, лойиха, дастурий махсулот ва бошкалар)ни яратиш |

**1.3.4-rasm. Innovatsion faoliyatni tashkil сЯнусЫ jarayonlar**

Innovatsion faoliyatni mazmun va mohiyatiga, pirovard olinadigan

natijasiga ko‘ra korxonalar tomonidan olib boriladigan ichki investitsiya faoliyatining tarkibiy qismi, ya'ni uning bir bo‘lagi deb hisoblash mumkin. Ichki investitsiya faoliyati innovatsion faoliyatdan tashqari kapital qurilish, yangi texnika va texnologiyalarni sotib olish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish, rekonstruksiya qilish kabi ishlarni ham bevosita o‘z ichiga oladi. Demak, ichki investitsion faoliyat innovatsion faoliyatga nisbatan mazmunan keng tushuncha hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga sarflangan mablag‘lar jami kapital investitsiyalarini yangi g‘oya, ishlanmalar, jarayonlar, mahsulot, xizmat turlarini yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq etishga taalluqli bo‘lgan qismidir.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat makon va zamonda yuz bergan va berayotgan, o‘zining moddiy va nomoddiy ko‘rinishdagi hamda pulda baholanadigan mulk shaklidagi pirovard mahsuliga ega bo‘lgan, bunga erishish uchun ma'lum sarf-xarajatlarni talab qiladigan xo‘jalik faoliyatining bir turi hisoblanadi. Aynan shu mazmunda korxonalarning innovatsion faoliyati ularda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi hamda o‘tkaziladigan audit predmetini tashkil qiluvchi obyektlardan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat subyektlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar;
- innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar;
- innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan intellektual mulk egalari, korxonalar loyihalari, qurilmalar, sanoat namunalari, texnologik jarayonlar, “nou-xau”, kashfiyot va ixtirolar mualliflari, dizaynerlar;
- innovatsiyalar amalga oshirishga kapital kirituvchi investorlar hisoblangan banklar, fondlar, koorporatsiyalar, lizing firmalari va h.k.;
- innovatsion jarayonga xizmat ko‘rsatadigan va uning infratuzilmasini ta'minlaydigan vositachilar: konsalting va injiniring firmalari, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, texnopolislar, axborot markazlari va h.k.;
- innovatsion faoliyatni boshqarish, muvofiqlashtirish va tartibga solishda ishtirok etadigan davlat organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari.

XXI asrda innovatsion loyihalar va yangi g‘oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Texnologiya taraqqiyoti asrida ilmiy loyihalarni ishlab chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biridir.

Xorijiy adabiyotlarda “innovatsion infratuzilma” atamasi yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni, texnologik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishda o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan korxonalar yig‘indisi sifatida ta'riflanadi.

Innovatsion faoliyat infratuzilmasi - innovatsion faoliyat subyektlariga innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar jamlanmasidir.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy tizimlarda innovatsion faoliyatning samarali tashkil etilishi, uni uzoq muddatli, raqobatdosh rivojlanishining asosiy shartlaridan biriga aylanib qoladi. Bu esa o‘z navbatida innovatsion faoliyat sohasidagi yig‘ilgan jahon tajribasini milliy xususiyatlarga moslashtirgan holda iqtisodiyotimizda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## Takrorlash uchun savollar

1.Innovatsiyalarni amalga oshirishda tanlovning ahamiyati nimada.

2. Innovatsion faoliyatning bugungi infratuzilmasini tushuntiring.

3. Iqtisodiyotning tarmoq korxonalari faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bo‘yicha qanday davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar


1. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.

2. Christine G. Mark R. Innovation, intellectual property, and economic growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.385.

3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: TDIU, 2013 y.

4. Atkinson, Robert D. Innovation economics : the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012.

5. https://www.youtube.com/watch?v=vWM08DzTuhY Innovation Economics: The Race for Global Advantage.

# 2- BOB. INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

## 2.1.Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish omillari

Xizmatlar sohasidagi mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar o‘z ichiga quyidagi jarayonlarni olib, prinsipial jihatdan yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish, mavjud xizmatlarga yangi funksiyalar va xususiyatlar qo‘shish orqali uni takomillashtirish, xizmatlar bilan ta'minlashda (masalan, ularning samaradorligi va tezligi nuqtai-nazaridan) sezilarli darajada yaxshilanishlarni kiritish mumkin.

Xizmatlar sohasidagi jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishning yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish va joriy etishni o‘z ichiga oladi[6].

Innovatsion faoliyatda agar ular yangi yoki sezilarli yaxshilangan xizmatlarni, ularni ishlab chiqarish va yetkazib berish usullarini joriy etishga bevosita bog‘liq bo‘lmasa, bular texnologik innovatsiyalar hisoblanmaydi. Tashkiliy va boshqarish bo‘yicha o‘zgartirishlar (boshqarishning ilg‘or usullariga o‘tish, jiddiy o‘zgartirilgan tashkiliy tuzilishni joriy etish, korxonaning iqtisodiy strategiyasida yangi yoki sezilarli o‘zgartirilgan yo‘nalishlarni amalga oshirish) hamda sifat standartlarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shu sohada faoliyat yuritayotgan ekspertlarning hisoblashicha, korxonalarni yangi mahalliy va xorijiy texnologiyalarni joriy qilishga rag‘batlantiruvchi, asosiysi buning uchun imkoniyat taqdim etuvchi tashkiliy va institutsional muhit yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi deb hisoblashadi. Innovatsion bozorda faqat hukumatgina innovatsiyalar ruhini uyg‘otishi mumkin degan yolg‘on tasavvur vujudga kelishi mumkin. Faqat uning strategik muammosi kuchli iroda, real foyda va resurslar bilan ta'minlangan holda tadbirkorlikning rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berishi mumkin.

Demak, davlatning iqtisodiy siyosatida top-down va bottom-up

---

[6]Ca.anxoB C.A. HHHOBamoH (|)ao.an;iTHn 6omrçapum. ^apcnuk. - T.: T^HY. 2013. 296.

yondashuvlari imkoniyatlarini birlashtiruvchi kompleksli innovatsion siyosat zarur bo‘ladi. Mahalliy kompaniyalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o‘quv yurtlari bu faoliyat jarayonlarida faollikni oshirishi lozim.

“Sanoat evolyusiyasi asosan innovatsiyalar va bozor strukturasi dinamikasi orqali tanlov mexanizmiga bog‘liqdir. Bu yerda yangi texnologiyalar va firmalarning kirish va chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi”.

Umumiy jihatdan innovatsion jarayon bu voqea-hodisalarning ketma-ketlikdagi zanjiri bo‘lib, uning davomida yangilik oddiy bir g‘oyadan muayyan mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha “pishib etadi”[7] va xo‘jalik amaliyotida tarqaladi.

Bu jarayonni quyidagi sxema ko‘rinishida aks ettirish mumkin:

Ft At I L Q O‘ Si M S;

bu yerda:

Ft - fundamental tadqiqotlar;

At - amaliy tadqiqotlar;

I - ishlanmalar;

L - loyihalashtirish;

Q - qurilish;

O‘ - o‘zlashtirish;

Si - sanoat ishlab chiqarishi;

M - marketing;

S - sotuv.

Iqtisodiyotda har qanday tizimning innovatsion faoliyati uning rentabelligini yuqori suratlarda amalga oshishini va raqobatbardoshliligini ta'minlovchi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar innovatsiya hayotiy sikli bo‘yicha turli xil vazifalarni bajaradilar. Innovatsion faoliyat jarayonni o‘zi ham 5 ta bosqichdan tashkil topadi (2.1.1-rasm):

Bugungi kunda eng keng tarqalgan variantda tadqiqot va texnik bosqich vazifalari ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan korxonalar tomonidan amalga oshirilsa, ishlab chiqarish korxonalari

---

[7]Салихов С.А. Инновацион фаолиятни бошкариш. Дарслик. - Т.: ТДИУ, 2013. 34-б.

innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish vazifalarini bajaradi.




**2.1.1- rasm. Innovatsion jarayonlarni amalga oshirish bosqichlari.**

Korxonaning tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarini, ularning ko‘lami va qamrovini aniqlovchi omil sifatida korxonaning inson kapitali (intellektual, ta'lim saviyasi va kadrlar malakasi) maydonga chiqadi, ish o‘rinlarining texnik jihozlanganligi, ishlab chiqarish fondlari va eksperimental baza holati, innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish - bular barchasi korxonaning asosiy resurslaridan hisoblanadi.

Bir qator bajarilgan ilmiy ish natijalarida turli olimlar tomonidan innovatsion salohiyat tushunchasi korxona, soha, mintaqa va davlat tomonidan innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarning umumlashgan xususiyatlarini qayd etish maqsadida qo‘llaniladi. Turli olimlar tomonidan “innovatsion salohiyat” tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan (2.1.1-jadval).

V.P. Baranchieva va V.N.Guninaning ilmiy ishlarida innovatsion salohiyat - korxonaning innovatsion maqsadlariga erishish uchun innovatsion loyiha yoki innovatsion o‘zgarishlar dasturini amalga oshirish bo‘yicha tayyorgarligi o‘lchovi deb talqin etiladi.

2.1.1- jadval

**“Innovatsion salohiyat” tushunchasiga berilgan ta'riflar**

| Mualliflar | Ta'rif |
|---|---|
| Abramishin A.Y<br>Voronina T.P<br>Molchanova O.P<br>Tixonova Y.A<br>Shlenov YU.V | Innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnik va boshqa resurslar yig‘indisi |
| Kovalyov G.D | Ishlab chiqarishda yangiliklar yaratishga yo‘naltirilgan yangi va takomillashgan mahsulotlarni olish texnologiyalarini joriy qilishga zarur bo‘lgan o‘z ichiga intellektual, moddiy va moliyaviy resurslarni qamrab olgan innovatsion resurslar majmui |
| Sarev V.V<br>Kanorovich A.A<br>Chernish V.V | Korxona oldida turgan ilmiy-texnik rivojlanish muammolarini hal qilishga mo‘ljallangan kadrlar, moddiy-texnik va axborot resurslarining yig‘indisi |
| Mazen A. | Korxonaning innovatsion faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini ifodalovchi ko‘rsatkich |
| Lisin B.K<br>Fridlyanov V.N | Innovatsiyalarni joriy qilish va yangiliklarni kiritishni ta'minlash bo‘yicha ilmiy-texnik, texnologik, infratuzilmaviy, moliyaviy, huquqiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa imkoniyatlardir |
| Gunin V.N<br>Baranchiev V.P<br>Fatxuddinov R.A<br>Gorfinkel V.YA<br>Chernishev B.N<br>Porshnev A.G | Korxonaning innovatsion maqsadlariga erishish uchun innovatsion loyiha yoki innovatsion o‘zgarishlar dasturini amalga oshirish bo‘yicha tayyorgarligi o‘lchovi |
| Boven A.A.<br>Cherednikova L.Y<br>Yakimovich V.YA | Korxonani ham o‘zining (ITTKI bo‘limlarida o‘z kuchi bilan yaratilgan) ham birovning (patent, litsenziya, nau-xau ko‘rinishida sotib olingan) loyihasini amalga oshirishga tayyorgarlik darajasi |
| Jids G.I | Nafaqat yangiliklarni yaratish, balki ularni samarali qo‘llash bo‘yicha ijtimoiy ishlab chiqarishning tayyorgarlik darajasi |
| Shlyaxto I.V | Nafaqat yangiliklarni yaratish imkoniyati, balki ularni izchillik bilan jahon andozalar darajasida samarali qo‘llashga tayyorgarlik imkoniyati |
| Bazilevich A.I | Ishlab chiqarish, boshqaruv, marketing, moliyaviy va boshqa faoliyat sohalarida innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda joriy qilish qobiliyati |
| Kochetkov S.V | Amalda mavjud resurslar doirasida qo‘yilgan innovatsion maqsadlarga erishish qobiliyati |
| Yuldoshev N.K.<br>Mirsaidova SH.A<br>Goldman Y.D | Innovatsion salohiyat - o‘z ichiga innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy, moliyaviy, aqliy, axborot, ilmiy-texnik resurslarni oluvchi turli xildagi majmuadir |
| Zaynutdinov SH.N. | Innovatsionsalohiyatmamlakatningtexnikavatexnologiyasiyangilanishi, undailmiytexnikarivojlanishidarajasini, diversifikatsiyasiyosatiningkuchayishinianglatadi |

Bizning fikrimizcha, innovatsion salohiyat - subyektning qaysi tarmoq, sohada faoliyat ko‘rsatishidan, mulkchilik shaklidan, tashkiliy huquqiy maqomida qat'iy nazar istalgan bir xo‘jalik yurituvchi

subyektning yangi ishlanmalarini ishlab chiqish, kashfiyotlar yoki ixtirolarni, foydali modellarni yaratish, ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha mavjud barcha intellektual kadrlar, axborot, moddiy-texnik va boshqa resurslari yig‘indisidan iborat bo‘ladi (2.1.2-jadval).

2.1.2- jadval

**Innovatsion faoliyatni rivojlanishiga ta'sir etuvchitarkibiy qismlar**

| Tarkibiy qismlar | Mazmuni |
|---|---|
| Xodimlar salohiyati | Ishchilar tarkibi, ishchilarning malaka darajasi, xodimlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi |
| Moliyaviy iqtisodiy salohiyat | Moliyaviy barqarorlik, likvidlilik, foydalilik, korxona rentabelligi, bozordagi mavqeyi, innovatsiyalarning foydaliligi, asosiy kapital, ITTKIga investitsiyalar, moliyalashtirish manbalari |
| Ishlab chiqarish texnologik salohiyati | Ishlabchiqarishfondlariningholativatexnologikdarajasi, ishlabchiqarishningzamonaviyinnovatsionvaaxborottexnologiyalari, ilg‘oruskunalar, materiallar, laboratoriyavaofisjihozlari |
| Ilmiy-texnik salohiyat | ITTKIlarni o‘tkazish, ITTKIlar natijalarini tijoratlashtirish darajasi, yangi ilmtalab ishlanmalarni ishlab chiqish tajribasi, intellektual mulk obyektlari (ro‘yxatga olingan va joriy qilish bosqichigacha olib borilgan). |
| Tashkiliy boshqaruv salohiyati | Tashkiliy tuzilma, innovatsion infratuzilma, innovatsion menejmentning samaradorligi, innovatsiyalarni boshqarishning marketing strategiyalari, innovatsiyalarni moliyalashtirishni tashkil qilish, intellektual mulk bo‘yicha qonunchilik darajasi intellektual mulkni boshqarish |
| Innovatsion faollik omillari | Korxonaning mulk shakli o‘lchamlari, tarmoq mansubligi, korxona xodimlarining innovatsion faoliyatini amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyati |

Innovatsion faoliyatni samaradorligini oshiruvchi va uni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlaridan ko‘rinadiki, innovatsion salohiyat xodimlar, moliyaviyiqtisodiy, ishlab chiqarishning texnologik, ilmiy- texnik, tashkiliy boshqaruv salohiyatidan, innovatsion faollik omillaridan tashkil topsa, innovatsion faollik innovatsion tizimning asosiy unsurlari - bilim, texnologiyalar, AKTlardan samarali foydalanish imkoniyatlari, shuningdek barcha yangiliklarni joriy qilishga tayyorgarlikni tavsiflaydi.

Innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi tashkiliy innovatsiyalar - bu biznesni yuritishda, ish o‘rinlarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishda yangi uslublarni ishlab chiqishdir. Bunday innovatsiyalar boshqaruv va transaksion xarajatlarni qisqartirish, korxona tomonidan ishchilarning ish

o‘rinlari (ish vaqtlari) bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, bozorda mavjud bo‘lmagan aktivlarga yo‘l topish yoki yetkazib berish narxini kamaytirish yo‘li bilan korxona faoliyatining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Umuman olganda innovatsiyalarni turlarga ajratganda turli olimlarni yondashuvi xilma xildir. Masalan, Valras va Bomollar innovatsiyalarni turlarga ajratishda mikroiqtisodiy tomondan yondashib, har bir turdagi innovatsiyani model ko‘rinishidagi hisob kitobini olib borishgan. Ularga ko‘ra, innovatsiyalarning mahsulot turini kengaytirishdagi ahamiyati asosiy e'tibor markazi bo‘lgan. Romerning fikricha esa innovatsiyalarni turlarga ajratishda biznesga kirib kelish imkoniyatini bera olish va qilingan xarajatlarini hech qiyinchiliksiz qoplay olish asosiy me'zon sifatida keltirilgan.

Biznesni yuritishdagi innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining yangi tashkiliy usullarini ishlab chiqishni bildiradi va ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bilimlarni boshqarishning korporativ usullarini joriy etish;
- xodimlarning saviyasini oshirishga va ko‘chib yurishini kamaytirishga mo‘ljallangan o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- ishlab chiqarish va yetkazib berishni to‘liq boshqarish, jumladan yetkazib berish zanjirini, ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni, shuningdek sifatni boshqarish tizimini joriy etish.

Innovatsion faoliyatda ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha innovatsiyalar - bu korxonaning alohida faoliyat turi doirasida yoki turli faoliyatlari (tarkibiy bo‘linmalari) o‘rtasida ishlarning bajarilishi bo‘yicha xodimlar orasida javobgarlik va vakolatlarni taqsimlashning yangi usullarini yo‘lga qo‘yishdir. Shuningdek, faoliyat tarkibini belgilash, ya'ni faoliyatning turli yo‘nalishlarini integratsiyalashtirish bo‘yicha yangi konsepsiyalarini joriy etishdir.

Korxona innovatsion salohiyatining tarkibiy qismlari innovatsion salohiyatni o‘rganish asosida biz innovatsion salohiyatni aniqlashda quyidagi asosiy yondashuvlarni qayd etishimiz mumkin:

- innovatsion faoliyatni amalga oshirishga jalb qilinishi mumkin bo‘lgan resurslar majmui sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyati sifatida;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida.

Fikrimizcha, quyidagi yondashuvlar o‘zaro ta'sir kuchiga ega, innovatsion faoliyatga, qobiliyatga ega bo‘lish bir qator imkoniyatlarning mavjudligi bo‘lsa, o‘z navbatida bu innovatsion salohiyatni amalga oshirishga imkoniyat va zarur bo‘lgan tayyorgarlik darajasini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi (2.1.3-jadval).

2.1.3- jadval

**Innovatsion faoliyatda salohiyat tushunchasiga berilgan ta'riflar**

| | |
|---|---|
| Resurslar yig‘indisi sifatida | Abrameshin A.Y., Voronina T.P., Molchanova O.P., Tixonova Y.A., Shlenov Yu.V., Kovalyov G.D., Srev V.V., Kantorovich A.A., Chernish V.V., Yuldashev N.K., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. |
| Innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyati sifatida | Mazin A., Lisin B.K., Fridlyanov V.N., Umarov I.YU., Saidkarimova S.S., Oblakulova SH.B. |
| Innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik sifatida | Gunin V.N., Brancheev V.B., Fatxuddinov R.A., Porshnev A.G., Gorfinkel V.YA., Bovin A.A., Cherednikova L.Y., Yakimovich V.YA., Ro‘ziev A.S. |
| Innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati | Bazilevich A.I., Kochetkov S.V., Qahhorov A.J. |

Innovatsion jarayonlarda salohiyatning iqtisodiy mohiyati va tadqiqot maqsadiga muvofiq keladigan ta'rifi deb quyidagi tahrirni keltiramiz: innovatsion faoliyatda salohiyat - turli xil samaralarga ega bo‘lish maqsadida innovatsiyalarni mavjud resurs bazasi yordamida yaratishni va ulardan foydalanishni ta'minlashga korxonaning qobiliyati, imkoniyati va tayyorgarlik darajasidir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyatda salohiyat tuzilishini ikkita bosqichga ajratish mumkin(2.1.2-rasm).

**2.1.2- rasm. Innovatsion faoliyatda salohiyat tuzilishi bosqichlari**

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sanoat korxonasining innovatsion faoliyat salohiyatini oshirish uchun har bir tarkibiy qismni tizimli ravishda takomillashtirib borishini ta'minlash lozim (2.1.3-rasm).




**2.1.3- rasm: Innovatsion faoliyatni shakllanishga ta'sir etuvchi omillar**

Sanoat korxonasida innovatsion faoliyat salohiyatini oshirish uchun har bir tarkibiy qismni tizimli ravishda takomillashtirilib borishini ta'minlash

lozim.

Fikrimizcha, innovatsion faoliyatning samaradorligi va innovatsion faoliyat salohiyati holatini u yoki bu tarkibiy qismning mavjudligi hamda sifatini aniqlab beradi.

Innovatsion faoliyat salohiyati biron-bir tarkibiy qismining yo‘qligi yoki etishmasligi, uni qayta ko‘rib chiqish va rivojlantirish zarurligini taqozo etadi. Sanoat korxonasi innovatsion salohiyatini rivojlantirishni faqatgina uning tarkibiy qismlarini rivojlantirish orqaligina amalga oshirish mumkin. Shu sababli, har qanday korxona innovatsion salohiyatini oshirish uchun uning birinchi darajali tarkibiy qismlarini rivojlantirishi lozim (2.1.4-rasm).




**2.1.4- rasm. Innovatsion faoliyat salohiyatni bevosita tarkibiy qismlari**

Shu bilan bir qatorda innovatsion faoliyatda salohiyatni ikkinchi darajali tarkibiy qismlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratish zarur (2.1.5-rasm).




**2.1.5-rasm. Innovatsion faoliyat salohiyatning bevosita tarkibiy qismlari**

Chunki, korxona innovatsion faoliyat salohiyat darajasi muayyan dinamikada bo‘lib, undagi o‘zgarishlar iqtisodiy o‘sishga yoki kamayishiga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham birinchi darajali ta'sir etuvchilar kadrlar salohiyati, moliyaviy, iqtisodiy, tashkiliy va texnologik salohiyatlar o‘z ta'sirini ko‘rsatadi (2.1.6-rasm).




**2.1.6-rasm: Innovatsion faoliyatda salohiyat dinamikasi.**

Demak, innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi salohiyat dinamikasi darajasi, unga turli omillarning ta'siri natijasida vujudga keladi (kadrlar tarkibining o‘zgarishi, texnik ta'minotning o‘zgarishi, mablag‘ jalb etish va boshqalar).

Korxonalarni innovatsion salohiyatini to‘laqonli obyektiv baholash jarayoni, birinchidan, uni tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar tarkibini aniqlash, ikkinchidan esa, ularga ta'sir ko‘rsatuvchi omillarning ta'sir etish darajasini o‘lchashdan tashkil topadi.

Korxonalar innovatsion salohiyatining shakllanishi va rivojlanishi yoki darajasi o‘zgarishi ma'lum bir omillar ta'siri natijasida sodir bo‘ladi. Korxona innovatsion salohiyatini boshqarishni obyektiv va har tomonlama tadqiq etish davomida, unga ta'sir o‘tkazuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish muammosi dolzarb va yetarlicha ishlab chiqilmagan bo‘ladi.

Innovatsion faoliyatda salohiyat omili deganda, korxona innovatsion o‘sishining jadalligi va tavsifiga ta'sir o‘tkazuvchi shartlar, sabab va ko‘rsatkichlarni tushunamiz. Bunda innovatsion jarayon, ko‘plab omillarning o‘zaro ta'siri natijasi sifatida maydonga chiqadi.

Korxona innovatsion salohiyatining shakllanishi va amalga oshirilishi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalaridan to mahsulotning ommaviy ishlab chiqarish yoki innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilishigacha, innovatsion jarayonni jadallashtiruvchi omillar va sharoitlar majmuining o‘zaro tizimli ta'siri bilan bog‘liq.

Innovatsion salohiyat amalga oshirilayotgan va tugatilish bosqichlaridagi mavjud innovatsion loyihalarda, shuningdek, innovatsion faoliyatning rivojlanish elementlarining barchasini o‘zaro bog‘lovchi vositalarni qamrab oluvchi infratuzilmada aks etadi.

Innovatsion faoliyatda salohiyatni shakllanishi va amalga oshirilishi, innovatsiyalarning ishlanishi va targ‘ib qilinishini sekinlashtiruvchi va rag‘batlantiruvchi omillar makro, mezo, mikrobosqichlarga ta'sir o‘tkazadi. Makro va mezobosqich omillari innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini belgilab beradi.

Aholining ongli faoliyati ijtimoiy belgilovchi mohiyatga ega bo‘lib, mamlakatda amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlar jarayonida faol ishtirok etishni talab qiladi.

## Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsion jarayon, g‘oyalarni murakkab zanjirini ifodalab bering?
2. Innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko‘rsatib bering?
3. Innovatsion faoliyatni bashqarishni qanday qonuniyatlarini bilasiz?
4. Innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlarini sharhlang?

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar


1. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
2. Christine G. Mark R. Innovation, intellectual property, and economic growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.385.
3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.:TDIU, 2013 y.
4. Atkinson, Robert D. Innovation economics : the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
5. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 170 bet.
6. Milnera B.Z. Innovatsionnoe razvitie: ekonomika, intellektualnue resursbi, upravlenie znaniyami. Uchebnik. - M.: 2010. - 624 str.


## 2.2. Innovatsion iqtisodiyotda inson omilini faollashtirish

Inson omilini faolligini oshirish, yangicha dunyoqarash va ishlab chiqarish madaniyatining shakllanishi murakkab jarayondir. U inson faoliyatini ongli asosini tashkil etadi.Inson omilining faolligi, turli xil ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy, ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash yoki aksincha, unga o‘ziga xos munosabatni bildirish jarayonida shakllanib boradi.Inson omilining faolligi ijtimoiy jarayonlar va unda amal qiladigan ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.Ijtimoiy jarayonlarning

bosh harakatlantiruvchi kuchi - xalq ommasining ongli faoliyatidir. Fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok etmasalar, mavjud jarayonlar sustlashadi. Keng xalq ommasining faolligisiz mamlakatda islohotlar va rivojlanish ko‘zda tutilganidek samara bermaydi.

Ilmiy menejment ta'limotining dastlabki davridan boshlab, boshqaruv ishini samarali tashkil etish bo‘yicha inson omilini faollashtirishga bevosita va bilvosita ahamiyat qaratilgan.Masalan,

F. Teylor kishi aql-zakovatiga katta e'tibor bergan. U, korxona ustasi quyidagi to‘qqiz sifatga ega bo‘lish kerakligini ta'kidlagan:

aql-zakovat;
muayyan ma'lumot;
ish tajribasi;
odob;
g‘ayrat;
ziyraklik;
halollik;
to‘g‘ri fikr yuritish;
yaxshi salomatlik.

Iqtisodiyotni boshqarish sohasining yana bir yirik nazariyotchisi G. Emerson (1853-1931) “Unumdorlikni o‘n ikki tamoyili” asarini yozib, bu asarda birinchi bo‘lib inson faoliyatini maqbullashtirishga qarashlar tizimini bayon qilib berdi. G.Emerson quyidagi tamoyillarga asoslangan maksimal mehnat unumdorligiga erishish usulini ishlab chiqdi va bular:

aniq belgilangan g‘oya va maqsadlar;
aqli rasolik;
asosli maslahat;
qat'iy intizom;
xodimlarga nisbatan adolatli munosabat;
markazlashtirish, tezkor, ishonchli, to‘liq, aniq va doimiy hisob- kitob;
me'yor va tartib;
sharoitini mo‘tadillashtirish; operatsiyalarni me'yorlash;
yozma standart qo‘llanmalar;
unumdorlik uchun rag‘batlantirish.

Ilmiy boshqaruv rivojlanishiga hisob-kitob va rejalashtirishning chizma

usulini ishlab chiqqan Genri Gant (1861-1919) va ishni maqbullashtirish uchun standart harakatlarni qo‘llab, ayrim ishlarni bajarish usullarini taklif etkan Frenk Gilbert (1868-1924)lar salmoqli hissa qo‘shishgan. Shuningdek, menejment nazariyasiga fransuz muhandisi Anri Fayol boshqaruv vazifalarini maqbullashtirish - oldindan ko‘ra olish, tashkil etish, buyurish, kelishuv, nazorat qilishga tenglashtirgan.

Genri Ford ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishning tashkiliy-texnikaviy tamoyillarini yaratdi. Bu faqat boshqaruv texnikasi va tashkil etishning rivojlanishida emas, balki mehnat unumdorligi o‘sishida ham yangi bosqich bo‘ldi. G.Ford ham F.Teylor singari kam xarajat bilan yuqori mehnat unumdorligiga erishishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa-da, lekin unga boshqa yo‘l bilan erishishga harakat qildi. Ya'ni F.Teylor inson mehnatini tashkil etishga alohida e'tibor bergan bo‘lsa, G.Ford texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni takomillashtirishga e'tibor qaratgan.

Klassik maktab namoyondalari xodimlarga nisbatan qattiqqo‘llik tamoyilini qo‘llash g‘oyasini ilgari surishadi.

Boshqaruvning “mumtoz” maktabi insonni turli-tuman faoliyatini boshqarishga qo‘llash mumkin bo‘lgan tamoyillarni asoslab berishga harakat qilgan. U boshqaruvni tashkil etishning qator tamoyillarini o‘rgangan. Bu maktab haqiqiy ilmiy boshqaruv nazariyasi darajasiga ko‘tarila olmadi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida inson va uning qobiliyatlari o‘z hollaricha kapitaldir degan iqtisodiy maktablar keng yoyildi. Ularning namoyondalari sifatida L.Valras, Dj.Klark, G. Makleod, Dj.Mak-Kulloh, I.Fisher insonni kapital sifatida ko‘rishgan. L.Valras fikriga ko‘ra “Inson - tabiiy va abadiy kapitaldir. Tabiiy, chunki u sun'iy tarzda kiritilmagan, abadiy, chunki har bir avlod o‘ziga o‘xshaganlarni takror barpo etadi”. Bir qator iqtisodchilar insonni o‘zini emas, balki uning orttirilgan va nasldan- naslga o‘tadigan qobiliyatlari kapitaldir, degan fikrni bildirishgan. Dj.S.Mill: “Inson mavjudoti kaptal - emas, inson bu - boylik mavjud bo‘lishining maqsadidir”. Lekin mehnat jarayoni davomida amalga oshadigan va vosita sifatida yuzaga chiqadigan insonning orttirilgan qobiliyatlarini kapital kategoriyasiga kiritish mumkin. Shuningdek, mamlakat ishchilarning mohirligi va qat'iyligi uning asbob-uskuna, mashinalardek ushbu mamlakatning boyligi hisoblanadi” degang‘oyalar bilan chiqishgan. Lekin “inson kapitali” nazariyasi bu olimlar

davrida tan olinmadi.

XX asrning 30-yillaridan e'tiboran personalni boshqarishning zamonaviy bosqichi boshlandi. U insonning ishlab chiqarishdagi xulq- atvorini o‘rganishni, davlat tomonidan personal bilan ishlash sohasini boshqarishni nazarda tutar edi. Insoniy munosabatlar nazariyasining eng yorqin namoyondalariga E.Meyo, F.Rotlisbergil, K.Anjeris, R.Likart, R.Bleyk va boshqalar kiradi.

E.Meyo “Inson munosabatlari” nazariyasini ilgari surdi. Uning g‘oyalarining mohiyati shundaki, mehnat jarayonida ruhiy va ijtimoiy omillar Yetakchi ahamiyatga ega. Shu sababli, E.Meyo fikriga binoan ishlab chiqarish va boshqaruvning barcha muommolariga inson munosabatlari nuqtai nazaridan qarash lozim. Bu nazariya orqali insonning ma'lum ijtimoiy va ruhiy ehtiyojlari qondirilsa, u yanada unumli mehnat qilishi mumkin degang‘oyaga asoslangan.

Bu maktabning yana bir namoyondasi D.Mak Gregorning fikricha boshqaruvni tashkil etishga ikki xil yondashuv mavjud:

1) Majburlash va rag‘batlantirish usullari.

2)Tashabbuskorlik va mustaqillikni iloji boricha namoyon qilish uchun sharoit yaratish.

“Indusrial psixologiyayo‘nalishi asoschisiGuto Myustererg (1863-1916)ning “Biznes psixologiyasi”, “Psixologiya va industrial samaradorlik” kitoblari birinchi marta xodimlarni boshqarishning psixologik jihatlariga dahldor bo‘ldi, ishga qabul qilishda, kadrlarn tayyorlashda va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish sohasidagi tashkiliy tadbirlarda testlashtirish ahamiyatini bayon qilib berdi. AQSHda psixologik koorporatsiyaning tashkil etilishi (1918- y.) personal bilan ishlash amaliyotida boshqa psixologiya usullaridan keng foydalanishga asos yaratdi. Guto Myunstererg asosiy tamoyillarini ifodalab bergan bo‘lib, ularga muvofiq rahbarlik lavozimlariga xodimlarni tanlab olish lozim. U o‘z fikriga ko‘ra biznesga uchta eng dolzarb masalalarni qo‘ygan bo‘lib, ular quyidagichadir:intellektual sifatdagi ishlarni bajarish uchun eng mos keladigan kishilarni qanday qilib tanlash kerak (kadrlarni ilmiy tanlash); qanday psixologik sharoitda har bir xodimdan eng yaxshi natijalar ko‘tish mumkin, bu masalalar ular qanday ishlab chiqilgan, turli ishlarga bo‘lgan qobiliyatlarini aniqlash uchun testlar qanday tuzib

chiqilgan. G.Myunstererg “psixotexnika” asoschisi bo‘lib, bu 50-yillarda “amaliy psixologiya” deb atalgan edi.

XX asrda inson kapitali konsepsiyasi iqtisodiy bilim taraqqiyotining eng istiqbolli yo‘nalishiga aylandi. Inson kapitalining ko‘zga ko‘ringan nazariyotchilaridan D.Turou “Inson kapitali konsepsiyasi” zamonaviy iqtisodiy tahlilda muhim rol o‘ynaydi degan ilmiy ta'rifini bergan.

“Emperik” (progmatik) maktab menejment zarurligini umuman inkor etib, ochiq emperizmni targ‘ib qiladi. U boshqaruvning maqsadi - rahbarlik qilish bo‘yicha ijobiy tajriba va mavjud xatolarni o‘rganishdan iborat, deb tasdiqlaydi. Bu maktab vakillarini ko‘proq nazariy maslahatlar berib, ko‘proq aniq vaziyatlarni tahlil etish bilan shug‘ullanish kerak, deydilar. Albatta, tajriba o‘rganish muhim, ammo faqat amaaliyotga asoslanib menejmentni shakllantirish mumkin emas. “Emperik” maktabning eng yorqin namoyondalari T.Draker, R.Devis, L.Nyuman, D.Miller va boshqalardir.

Bu yo‘nalish ijtimoiy tizimlar maktabini vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. Uning taniqli namoyondalari D.March, G.Saymon, A.Etsioni va boshqalar “Ijtimoiy tizimlar” “Inson munosabatlari” maktablari xulosalariga asoslanib, korxona o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta'sir ko‘rsatuvchi omillar majmuidan iborat kompleks sifatida qarab, inson bu omillarning biri deb hisoblaydi. “Ijtimoiy tizimlar” maktabi o‘zidan avvalgi maktablarga nisbatan keng ko‘lamdagi muommolarni hal etishga boshqaruv nazariyasini yaxlit holga keltirishga harakat qiladi lekin boshqaruv nazariyasini tuzishga intilish uni hozirgi kapitalistik dunyo sharoitidan uzoqlashib ketishga va natijada uning keng yoyilmasligiga olib keldi.

O‘tgan asr 50-yillar boshida menejment nazariyasi rivojlanishiga “yangi” maktab o‘zini katta ta'sir ko‘rsatadi. U menejmentga aniq fanlar uslub va usullari qaror qabul qilishni matematik modellash, matematik mantiq, dasturlash, iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish usullarini joriy qilish bilan ajralib turadi. “Yangi” maktab eng yorqin namoyondalari, R.Akkof, L.Kreyn, V.Lyus va boshqalardir. Bu maktabning shakllanishi kibernetika va jarayonlarni o‘rganishni rivojlantirish bilan bog‘liqdir.

“Yangi” maktab “Ijtimoiy tizimlar” maktabining mantiqiy davomidir. Rus olimi A.K.Gastev (1882-1941)boshqaruvlar nazariyasi va amaliyotiga salmoqli hissa qo‘shgan .Uning “Qanday ishlamoq kerak”, “Mehnatni

me'yorlash va tashkil etish”, “Mehnat qo‘llanmalari”, “Madaniyat qo‘zg‘oloni”, “Ishlab chiqarishni MMI usullari bilan tartibga solish” kitoblari nashr etildi. A.Gastev rahbarligi ostida MMIda mehnatni tashkil etishning yangi usullarini o‘rganish, loyihalash va joriy qilish, turli ixtisoslikka ega ishchilarni o‘qitish va malakasini oshirishning maqbul tizimini yaratish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. A.Gastev tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar hozirgi davrda ham ahamiyatlidir. Mehnatni ilmiy tashkil etish va boshqaruv fanining yana bir tashabbuskori - P.M.Kerjensev 1923-1924- yillar davomida “Mehnatni ilmiy tashkil etish”, “Tashkil etish tamoyillari”, “Vaqt uchun kurash”, “O‘zingni o‘zing tashkil et” singari asarlarini yozdi. P.Kerjensev tomonidan tavsiya etilgan ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni standartlash, mehnat sharoiti, moddiy vositalardan to‘g‘ri foydalanish haqidagi takliflari juda dolzarb edi.

Mehnatni tashkil etish va boshqarish nazariyasiga P.A.Popov, O.A.Ermanskiy va boshqalar ham salmoqli hissa qo‘shganlar.

Insonning xulq-atvorini tushuntiradigan ko‘pgina nazariyalar yaratilgan. Jumladan, faylasuflar qadim zamonlardan buyon shaxsning faolligi manbalari va qo‘zg‘atuvchi manbalarini belgilashga urunib kelganlar. XX asr Amerika psixologiyasidagi yo‘nalish bo‘lgan bixeviorizm keng mashhur bo‘lib ketdi, uning tadqiqot majmuyi shaxs xulq-atvorining turli shakllari bo‘lib, ular tashqi muhitnng rag‘batlantiruvchi omillariga organizmning reaksiyasi majmui sifatida tushuniladi.

Insonning ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning xulq-atvorini tushuntirib beradigan nazariyalar ko‘proq rivoj topdi. Bunday nazariyalarning eng mashhur mualliflari A.Maslou, E.Kat, D.Mak Klelland, F.Gredburg va boshqa bir qator olimlardir.

Ishlab chiqarish jarayoniga muntazam ravishda sarflanadigan turli xil resurslar orasida, inson omili ko‘proq ta'sir kuchini ko‘rsatadi. Uning ongi va dunyoqarashini shakllantirish yoki o‘zgartirish muayyan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Foydalaniladigan resurslar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, ular an'anaviy ravishda uchta asosiy guruhga bo‘linib, natural yoki tabiiy resurslar, (fransuz iqtisodchisi J.B.Eyning ta'rifi bo‘yicha yer), oddiy resurslar (kapital) va inson resurslaridan iborat bo‘lib, bu ularni ishlab chiqarish omillari, deb atash

mumkin.

Makroiqtisodiy boshqarish zamonaviy menejmentning tarkibiy qismi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan makroiqtisodiyotning afzalliklari haqida birinchi marta tashkiliy va inson omilining roli haqidagi 1-xalqaro simpoziumda rasman gapirilgan bo‘lib, bu simpozium 1974-yil avgustda Gonolulada o‘tkazilgan edi. O‘shandan buyon mazkur muommoga qiziqish barqaror ravishda ortib bormoqda. Makroiqtisodiyotning mohiyatini yapon iqtisodchilari Noro va Kogi “ishtirok etish ergonomikasi” deb atadilar. Hamma sohalarda insonni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar: har qanday korxona (tizim sifatida) unumdorlik, mahsulot (xizmat ko‘rsatish) sifati, xavfsizlik texnikasi, kasb kasalliklari, oqilona tashkiliy dizayn, ishlab chiqarishni boshqarish, psixologik omillarni hisobga olish sharoitida ishdan qoniqish hosil qilish sohalaridagi o‘z ko‘rsatkichlarini yaxshilashi mumkin, degan umumiy fikrga keldilar. Lekin shu shart bilanki, yangi texnologiyani joriy etish va qarorlar qabul qilish sohalariga xodimlar jalb etiladi.Agar tashkiliy o‘zgarishlar odamlarga ta'sir ko‘rsatsa, u holda, ular bu o‘zgarishlar jarayoniga jalb etilishi lozim va ularning yangiliklarini amalga oshirishdagi ishtiroki ularga bu sanoqli sifatlardangina foydalaniladi.Lekin inson omilini tashkil etuvchi ijtimoiy-ruhiy holatlar bilan bog‘liq ko‘plab insoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, mehnatga munosabat bo‘yicha elementlari ham mavjudki, ular hozirgi davrgacha e'tibordan chetda qolib ketmoqda.

Xodimlarning o‘z imkoniyati va salohiyatidan foydalanish darajasining past bo‘lishi, ko‘p jihatdan ularning mehnatga ishtiyoqi yoki layoqatining yo‘qligida emas, balki faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olmaganligi, uni yaxshilash uchun qanday sifatlardan foydalanish zarurligi yoki qaysidir sifatlarni nazardan chetda qoldirib, imkoniyatlarini boy berayotganligini bilmay qolishligidadir. Shuning uchun mehnat jamoalarida insoniy sifatlar samaradorligini doimiy ravishda oshirib borish borasida chora-tadbirlar amalga oshirish lozim.

Inson omili turmush tarzining rivojlanish xususiyati va yo‘nalishi bilan shakllanadi. Ularni tahlil qilish orqali oldinda turgan dolzarb vazifalarni aniqlab olish va xodimlarning amaliy faolligini oshirishga erishish mumkin.

Davlat innovatsion siyosati haqida gapirganda doimo innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash haqida yodda tutish lozim. Agar

iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida “kadrlar hamma narsani hal qiladi” qoidasi aksariyat holatlarda to‘g‘ri bo‘lib chiqsa, iqtisodiyotning ko‘p ilm talab qiladigan sektorlarida ushbu fikrning ahamiyati bir necha marotaba ortadi.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda bilim vositalari birinchi darajali, eng muhim aktivlar hisoblanadi. Oqibatda yetarli darajada bilimlarga ega bo‘libgina qolmay, ularni amaliyotda qo‘llay oladigan, bilimlar eskirib borishi bilan ularni uzluksiz yangilab beradigan malakali mutaxassislar tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar tayyorlash masalalari bilan an'anaviy ravishda oliy o‘quv yurtlari (OO‘Y) shug‘ullanib keladi. Biroq, so‘nggi yillarda xorij tajribasining ko‘rsatishicha, OO‘Y bu masalani mintaqaviy va federal hukumatlar, shuningdek, yirik biznes vakillari ko‘magida ancha samaraliroq hal etishlari mumkin ekan.

XXI asrda davlatlarning iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan ishlab chiqarishning barcha sohalarini intellektuallashtirish va ilmiy-innovatsion taraqqiyot bilan ta'minlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda YAIM o‘sishining 70 foizdan 85 foizigacha yangi texnologiyalar, asbob- uskunalar, yangi bilim yoki yechimlarga ega bo‘lgan mahsulotlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Fan-texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlari mamlakatimiz iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tobora keng va chuqur kirib bormoqda. Innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasidan erishiladigan sinergetik samara vositasida mintaqalar va butun davlat jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tayanch elementiga aylanadi.

Mutaxassislarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni to‘g‘risida to‘xtalar ekanmiz, “Tyuksberi, Krandall va Kreyilar 20 ta eng ko‘zga ko‘ringan innovatsiyalarning bergan samarasini tekshirishdi va undan xususiy tarzda olingan o‘rtacha daromad indeksi 27 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, ijtimoiy bergan samarasi 99 foiz ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, 4 barobar ko‘proq deganidir”[8] deb ta'kidlashgan.

Milliy dasturini amalga oshirishning asosiy maqsadi belgilandi. Dasturning strategik maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

---

[8]Innovation economics : the race for global advantage / Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell, USA: Yale University Press, 2012. P 153

Birinchi bosqich - (1997-2000- y.y., o‘tish bosqichi) kadrlar tayyorlash tizimi potensialini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy, me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratishdan boshlandi.

Ikkinchi bosqich - (2000-2005- y.y.) Milliy dasturni keng miqyosda amalga oshirish. Tizim faoliyatining samaradorligini, mehnat taqsimotini, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikning monitoringi asosida uning asosiy g‘oyalari va qoidalari o‘rganildi.

Uchinchi bosqich - (2005 - 2009- y.y.) to‘plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida va o‘zgarib borayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda, uni takomillashtirish va yanada rivojlantirish yo‘llari belgilandi.

Mavjud modellarda inson kapitali uchun yo‘naltirilgan investitsiyadan keladigan natijalarni baholashga qaratilgan. Ya'ni mehnat resursini ayni holatdagi inson omili faolligini baholashning mexanizmi yo‘q. Bu albatta korxonada resurslarining inson kapitali to‘g‘risidagi ma'lumotni bilishlik shaffofligiga o‘z ta'sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Korxonaning biznes va boshqa faoliyatni baholovchilarga inson aktivining sifati to‘g‘risida har tomonlama keng ma'lumot bermaydi. Inson kapitalining qiymati (salohiyati) noma'lum bo‘lgach, investorlar ham inson kapitali uchun investitsiya kiritish bo‘yicha qaror qabul qilishda qiynalishadi.

Korxona biznesini va inson kapitali qiymatini doimiy baholab borish inson kapitalini uzluksiz rivojlanishi natijasida korxonaning raqobatdoshligini orttirib boradi va biznesning jozibadorligini oshiradi. Inson kapitali konsepsiyasi mualliflaridan S.Fisher inson kapitali xususida shunday deydi: “Inson kapitali tug‘maqobiliyat va iste'dod hamda egallangan malakani ham o‘zida jam etadi”.

Jahondagi turli mamlakatlarda turmush sifatini baholash uchun Pokistonlik iqtisodchi Mahbub ulHaq boshchiligidagi BMT ekspertlar guruhi tomonidan integral ko‘rsatkich - inson salohiyatini rivojlantirish indeksi (ISRI) ishlab chiqildi. Bu o‘rinda mazkur indeksning konseptual tarkibi Hindistonlik iqtisodchi olim Nobel mukofoti laureati Amartiya San izlanishlari natijasi asosida yaratilganligini ta'kidlash lozim.

Mahbub ulHaqning ta'kidlashicha, “Insonni rivojlantirish konsepsiyasi bugungi kunda eng yaxlit rivojlanish modeli hisoblanadi. U iqtisodiy o‘sish,

ijtimoiy investitsiyalar, odamlar imkoniyatlarini kengaytirish, asosiy ehtiyojlarni qondirish va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish, siyosiy va madaniy erkinliklar hamda inson hayoti barcha boshqa sohalarni qamrab oladigan rivojlanishning barcha masalalarini mujassamlashtirgan. U tor ma'nodagi texnokratik yoki haddan tashqari falsafiy konsepsiya emas. U hayotni aks ettiradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot rivojlanishining so‘nggi bosqichlarida innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Birinchi Prezidentmiz I.A.Karimovning 2008- yildagi “Ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha choralari” 916-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarning innovatsion jarayonining natijaviyligi jami omillar, ya'ni amalga oshirish sharoiti, resurslar ta'minoti, menejment tizimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi bilan aniqlanadi. Innovatsion salohiyat tushunchasi iqtisodiyot fanida XX asrning so‘nggi yillarida paydo bo‘ldi. Innovatsion salohiyat mamlakatning texnika va texnologiyasi yangilanishi, unda ilmiy-texnika rivojlanishi darajasini, diversifikatsiya siyosatining kuchayishini anglatadi. Ba'zi iqtisodchi olimlarimiz innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatdan yuqori qo‘yishadi. Bunda ular ilmiy-texnika darajasiga ko‘proq e'tibor qaratishadi. Bizning fikrimizcha, bunday qarashlar unchalik to‘g‘ri emas. Chunki har qanday holatda iqtisodiy salohiyat innovatsion salohiyatga qaraganda ancha keng tushuncha bo‘lib, u mamlakatdagi ishlab chiqarish salohiyati, resurslar salohiyati, moddiy-mineral salohiyati, qazilma boyliklar salohiyati va boshqalarni qamrab oladi.

Innovatsion salohiyatni kuchaytirish katta hajmda investitsiyani jalb etishni talab qiladi. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlar yangi texnika va texnologiyani yaratishga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga YaIMning 5-7 foizini sarflaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jihatlari, ya'ni yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.

Korxonaning innovatsion salohiyati elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy-texnik resurslar;
- moddiy va nomoddiy aktivlar;

- moliyaviy resurslar;
- tashkiliy resurslar;
- kadrlarga oid resurslar;
- ijtimoiy-ruhiy omillar.
- Shundan kelib chiqib, korxona innovatsion jarayonlarni tashkil etish uchun ixtiyorida quyidagilarga ega bo‘lishi lozim:
- g‘oya va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun yetarli pul mablag‘lar;
- yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi;
- yangiliklarni amalga oshirish va uni joriy etish uchun qobiliyatli xodimlar;
- har qanday innovatsion jarayon asosida yotuvchi asosiy g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyati.

Mazkur masalada turmush darajasi (yoki farovonlik darajasi) bilan turmush sifatini farqlay olishi kerak. Turmush darajasi moddiy farovonlik darajasini, ya'ni odamlarning moddiy ehtiyoji qondirilganligining darajasini ifoda etadi. Uning mamlakat bo‘ylab o‘rtacha ko‘rsatkichini aholi jon boshiga YaIM ko‘rsatkich ifoda qiladi.

Turmush sifati esa “nomoddiy” yoki pulda ifodalanmaydigan hamda faqat pul bilan belgilanmaydigan xususiyatlar: odamlarning salomatligi va umr ko‘rish davomiyligi, dam olish vabo‘sh vaqtini o‘tkazish, madaniy rivojlanish, o‘zligini namoyon qilish, bilimlar, va ma'naviy boylikning boshqa ne'matlaridan foydalanish imkoniyatlarini qamrab oladi.

ISRIning hisoblash usuli bo‘yicha kompleks ko‘rsatkichlardan uchtasining o‘rtacha arifmetik qiymati olinadi. Bu ekspertlar tomonidan baholanadigan BMTning milliy statistik ma'lumotlari va hisobotlari ko‘rsatkichlariga tayanadi:

1. Muayyan davr uchun shkala bo‘yicha 25 dan 85 yoshgacha kutilayotgan hayot davomiyligi;

2. Katta yoshdagilarni o‘rta ta'lim olishga imkoniyati va muvofiq yosh guruhlaridagi o‘quvchilarning barcha darajadagi ta'limda ishtirok etish ulushi;

3. Real YaIMning odam boshiga to‘g‘ri keladigan milliy valyutaning AQSH dollari qiymatiga to‘g‘ri keladigan ekvivalenti.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qaysi mamlakatda davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasi kam bo‘lib, inson omilining faolligi yuqori bo‘lsa, ushbu mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida demokratik tamoyillar ustuvorlik kasb etadi. Jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri demokratik va fuqarolik jamiyat qurish jarayonida fuqarolarning mamlakatda amalga oshadigan yangilanish va islohotlardagi faoliyatini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Bu kabi omillar iqtisodiy hayotda hamda davlat va jamiyat boshqaruvida amalga oshiriladigan islohotlar jarayonida ham o‘ziga xos uyg‘unlikni taqazo etadi.

Har qanday demokratik davlatning rivolanishdagi asosiy maqsadi - jamiyatni baxtli va farovon hayot bilan ta'minlashdir. Taraqqiyot nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyati yuqoriligi bilan, balki har bir insonning kamol topishi va uni rivojlanishiga qanchalik yo‘nalganligi bilan o‘lchanadi. Inson omiliga turli xil yondashuvlar, usullar orqali murojaat etilib uni faollashtirishga harakat qilib kelinadi. Lekin buning uzul-kesil usuli hanuzgacha ishlab chiqilgan emas. Hayotda va ishlab chiqarishda qaysidir omillar muhim va ustuvor hisoblanib, asosiy e'tibor shunga qaratib kelinadi, ayrimlari esa ahamiyatsizdek chekkada qolib ketaveradi. Vaqt kelib e'tibordan chetda qolgan omillarning o‘rnida hosil bo‘lgan bo‘shliq o‘zini salbiy ta'sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashabbusi va ulkan sa'y- harkatlari natijasida inson taraqqiyoti konsepsiyasi hozirda dunyoning barcha mamlakatlaridagi siyosatchilar va oddiy insonlarning o‘y- hayollariga qadar kirib bordi. Har qanday demokratik jamiyat rivojining asosiy maqsadi - inson degan, bir qarashda oddiy, ammo zamirida biror ma'no yashiringan fikr har bir mamlakat hukumati oldiga jamiyatda yuqoridagi maqsadga erishishga yordamlashadigan hayot tarzini shakllantirish ichki va tashqi siyosat yuritish vazifasini qo‘ydi.

Har qanday mamlakat u boy yoki kambag‘al bo‘lishidan qat'iy nazar, inson taraqqiyoti g‘oyalarga sodiqligini quyidagilar orqali ko‘rsatish mumkin:

- iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratish;
- ijtimoiy murosa va barqarorlik yo‘lida imkoniyatlar kiritish;
- aholiga ish faoliyat sohasi, daromad olish, ijtimoiy ne'matlar olishning

rivojlanish imkoniyatlarini erkin tanlash uchun keng huquq va imkoniyatlar yaratish;

- jamiyat hayotiga talluqli bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda omma ishtirokini kengaytirish.

Barqaror inson taraqqiyoti konsepsiyasi odamlarni ishlab chiqarish faoliyatidan ko‘zlangan maqsadi, manbai - insonning taraqqiy ettirishga e'tibor qaratadi. Bu yerda ishlab chiqarish maqsad emas balki insonning shu yuksak nomga loyiq kun kechirish yo‘lidagi vositasidir. Shu bilan birga bunda aks ta'sir ham mavjud kishilarning taraqqiyot darajasini oshirish orqali ishlab chiqarishnng yanada yuqori darajasiga erishiladi. Jamiyatni rivojlanganlik darajasi nafaqat mamlakatning iqtisodiy salohiyati yuqoriligi bilan balki, bu salohiyatdan har bir insonni uyg‘un va har taraflama rivojlantirish uchun qanchalik foydalanilayotganligi bilan o‘lchanadi.

Keyingi paytda inson mehnati natijalarini baholashda nomoddiy aktiv ko‘rinishidagi intellektual mulk ya'ni ilm-fan jadal rivojlanmoqda. Mahsulot sifatiga bo‘lgan talabning ortib borishi, raqobatning kuchayishi, innovatsion texnologik g‘oyalarning rivojlanishi, ishlab chiqarishni mutassil ravishda murakkablashuviga olib kelmoqda. Bu esa xodimlar tayyorgarlik darajasini oshirishga, inson omilining yanada faollashtirishzaruratini yuzaga keltirmoqda. Inson omili faolligini baholashda ayrim elementlar etishmaslik holatlari mavjud. Bu bilan esa juda keng doirada, chuqur ilmiy yechimlar orqali yondashuvni taqozo etmoqda,ya'ni ushbu masalani yanada chuqurroq talqin etish uchun sinergetik yondashish zaruriyatiga ehtiyoj sezilmoqda. Shu o‘rinda sinergetikning lug‘aviy ma'nosiga ta'rif berib o‘tadigan bo‘lsak, sinergeya - grekcha so‘z bo‘lib, (yordamlashuv, harakat, hamkorlik, o‘zaro ta'sir, o‘zaro ishtirok) fanlararo ilmiy-tadqiqotyo‘nalishi bo‘lib, u orqali xaos (tartibsizlik, aralash-quralash)dan tartibli jarayonga o‘tkazuvchi umumiy qonuniyatlarni o‘rganuvchi murakkab tizimdan iboratdir. Bunda ko‘p fanlar, jumladan, fizika, matematika, kimyo, biologiya, filosofiya, psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlar ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, sinergetikaning ma'nosi o‘zini-o‘zi tashkil etish hamdir.

Zamonaviy tushuncha bo‘yicha iqtisodiyotda sinergiya kooperatsiya, muvofiqlashtirish, kelishgan (kogerent) harakat va ehtimol hamkor, sherik qo‘shilib ketish kooperativ o‘zaro harakat shaklining namoyon bo‘lishidir.

Sinergetika nazariyasining asoschisi nemis fizik olimi German Xaken (1969 y) hisoblanadi. Keyinchalik asli rossiyalik bo‘lgan belgiyalik fizikoximik olim Ilya Prigojindir. U sinergetik yo‘l bilan tabiiy fanlardagi murakkab jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha ulkan yutuqlarga erishib, 1979-yil ximiya bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Inson kapitali uni tashkil etuvchisi inson omili hayotdagi eng murakkab jarayon bo‘lib, uni tartibga solishda sinergetik yondashuv juda ham muhimdir. Ya'ni, sinergetik yondashmasdan inson omilining mohiyatini ochib bo‘lmaydi. Bunga sabab inson omiliga nisbatan chuqur yondashilmaganida va bu tizimga solinmay, uning ayrim elementlaridagina foydalanib, boshqalari e'tibordan tashqarida qolib ketayotkanligidadir. Bunda ayniqsa insoniy, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarning bevosita ishlab chiqarishda hisobga olinmayotganligini misol tariqasida aytish mumkin. Natijada, inson omilini risoladagidek tashkil etishda katta bo‘shliqqa duch kelinmoqda.

Inson omili umumtarzda keng ma'nodagi inson va uning imkoniyatlarini nazarda tutadi. Bunday kuchni barpo etish uchun juda keng miqyosdagi insoniy sifatlar majmui ishtirok etadiki, ana shularning barchasidan unumli foydalanish insoniyatga yutuqlar, omadlarga erishishda va orzu-umidlarga etishishda beqiyos vosita vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarishda inson rolga yangicha qarashning ifodasi sifatida 80-yillarning o‘rtasida iqtisodiy adabiyotlarda “Inson omili” va “Mehnat salohiyati” degan terminlar tez-tez foydalaniladigan bo‘ldi. Bu bilan odatda insoniy (yoki goho shaxsiy) degan tushunchalar iqtisodiyotda insonning faol roliga e'tibor qaratish lozimligini nazarda tutadi. Bu eng ko‘p darajada yangi ijtimoiy sharoitda hali tirik mehnat manbaidan samarali foydalanishga mos emasligini tavsiflaydi.

“Inson omili” tushunchasiga “ishchi kuchi” va “mehnat resurslariga” nisbatan keng va chuqur ma'no singdirilgan. Odamlarning mehnat resurslari doirasida ko‘rilishi amalda ularni ishlab chiqarishda moddiy buyum omiliga, ya'ni texnika, xom-ashyo, energiya va boshqalar bilan tenglashtirib qo‘yilganligini bildiradi. Bunday yondashuvda odamlarga xo‘jalik faoliyatida odamlarga ongli subyekt sifatida emas boshqaruv obyekti sifatida qaralmoqda. Ishlab chiqarishda inson omili nima, degan savolga javob yo‘q. Akademik T.I.Zaslavskaya “Inson omili” - “bu o‘zaro ta'sir etuvchi, turli pog‘ona (klass)

holatlarini egallovchi qatlam va guruhlarning jamiyatni taraqqiyparvar rivojlanishini ta'minlovchi faoliyat va o‘zaro ta'sirdir” - deya ta'rif beradi. Umuman olganda inson omili - insonni turli o‘lchovlarda namoyon etadi: mehnatkash, fuqaro va oila a'zosi, ko‘p qirrali his-tuyg‘ular egasidir.

Inson omili juda keng ma'nodagi tushuncha bo‘lib, unga quyidagicha ta'rif berishni tavsiya etamiz: inson omili - bu insonning jismi va ruhiyatining qobiliyati, olami, qudrati va insoniylik makonidir. Ya'ni, umuman olganda insoniylik - kelbati (gabariti)dir.

Insonni faollashtirish - unda mujassam topgan xususiyatlar, imkoniyatlar va sifatlar evazigagina amalga oshadi. O‘ylab topilgan sun'iy yo‘l-yo‘riqlar uzoqqa bormay, ma'lum masofada qolib ketadi, izini yo‘qotadi. Tizgin bilan boshqarish - istalgan natijani bermasligi hayotiy haqiqatdir. Lekin shunday bo‘lsada, insonlar faolligini oshirish uchun qulay va erkin usulning yo‘qligi, bu ishni ma'muriy-buyruqbozlik yo‘li bilan amalga oshirishga e'tibor ustuvorroqdir.

Ijtimoy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning maqsad va mohiyatini anglab etishda insonning shaxsiy orzu-havaslari, uning ichki dunyosi, talab va ehtiyojlari hisobga olinmasa, yoki ilmiy asosga ega bo‘lmasa, buning pirovard yechimi hech qachon ijobiy natija bermaydi. Rivojlanishning bosh maqsadi bilan uni amalga oshirish vositalari, shakllari, uslublari o‘rtasida vujudga kelgan nomuvofiqliklar ijtimoiy taraqqiyot sur'atlariga, odamlarning fe'l-atvoriga, g‘oyaviy, axloqiy-ruhiy dunyosiga o‘z ta'sirini o‘tkazmay qolmaydi. Iqtisodiy taraqqiyot odamlar manfaati uchun xizmat qilishi kerak, buning uchun ularning rivojlanish darajasi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

BMT Rivojlanish dasturi ta'rificha; “Insonni rivojlantirish omillarini kengroq tanlash imkoniyati bilan ta'minlash jarayonidir. Bunday tanlov cheksiz bo‘lishi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi prinsipal ahamiyatga egadir. Biroq rivojlanishning barcha darajasida uzoq va sog‘lom hayot kechirish, bilimlarni egallash va munosib turmush kechirishda rivojlantirishning asosiy mohiyatidir. Agar insonda bunday asosiy tanlov bo‘lmasa u boshqa imkoniyatlardan ham foydalana olmaydi” deyiladi.

Bugungi kunda jamiyat oldida turgan vazifalarni odamlarning ongli, asosli, hayotbaxsh va yaratuvchan faoliyatisiz hal qilib bo‘lmaydi. Inson omilini faollashtirmasdan turib qilinadigan harakatlar foyda bermasligi

mumkin. Insonlarga sa'y-harakatlar orqali namoyon bo‘luvchi ma'naviy ishonch,ruh, chin ishtiyoq, ongli faollik zarur. Q.X.Abdurahmonovning “Inson kapitalini ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriroqdir” degan fikrini ilgari suradi. R.A.Ubaydullaeva O‘zbekistonda ijtimoiy imperativlar shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos jihati sifatida inson kapitaliga asosiy investor sifatida davlat namoyon bo‘lishini ta'kidlagan.

Yuqorida menejment ilmining inson omili bilan bog‘liq ko‘plab tadqiqotlarining ilmiy-tahliliy, iqtisodiyotni boshqarishdagi eng oliy maqsad avvalo inson omilini faollashtirishga e'tibor qaratadi. Bu bilan inson omili ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni vujudga keltirishning muhim jihati sifatda asoslanadi va iqtisodiyotni barpo etuvchi asosisi sifatida doim olimlarni o‘ziga jalb etib keladi.

Ma'lumki, keyingi paytda inson mehnati natijalarini baholashda nomoddiy aktiv ko‘rinishidagi intellektual mulk ya'ni ilm-fan jadal rivojlanmoqda. Mahsulot sifatiga bo‘lgan talabning ortib borishi, raqobatning kuchayishi, innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi, ishlab chiqarishni mutassil ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa xodimlar tayyorligini doimiy shay holatda tutish, inson omilining yanada follashtirishni zarurat qilib qo‘ymoqda. Inson omili bilan bog‘liq ko‘plab tadqiqotlarning tahlillari iqtisodiyotni boshqarishdagi oliy maqsad - inson omilini faollashtirish yo‘li bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni vujudga keltirishning muhim jihati sifatida asoslanadi.

Mualliflik yondashuvi sifatida ta'kidlash joizki, har bir xodimning faollik darajasini aniqlash, ularning qaysi faoliyatga ko‘proq moyillik borligini aniqlab, shu yo‘nalish bo‘yicha faoliyat yuritish bo‘yicha imkoniyat yaratib berishi kerak. Masalan, rahbarlik, innovatsion faoliyat, sifatga va yangilikka intilish borasida ish olib borish, mehnat unumdorligini oshirish va h.k. Xodimlarning inson omili faolligini aniqlash va shu asosda mehnatni intellektual boshqarish malakali mehnat, yuqori sifatli ishchi kuchiga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Boshqaruvda mehnat resurslarining tabaqalashtirish siyosatini olib borish lozim. Firmalar va korxonalarda xodimlarni tanlash, malakasini oshirishga katta ahamiyat qaratmoqlari, navatorlarni shakllantirishlari zarur bo‘ladi. Shuningdek zamonaviy xodimlarning ijodiy mehnatga ilgari surilgan g‘oyalarini amalga oshirishga

imkon yaratilishi, munosib rag‘batlantirishi, xodimlarning qarorlarni tayyorlash va qabul qilishdagi ishtiroklarini kengaytirish, o‘zini-o‘zi boshqarishi mehnatni tashkil etishning muhim jihati bo‘ladi.

Inson omili shu davrga qadar yaxlit tizim sifatida qaralmadi. Undan foydalanish tarqoq holda, zaruratga qarab ishlab chiqarishga uning ayrim elementlaridangina foydalaniladi. Bu esa mavjud vazifa va masalalarni to‘laqonli ado etish imkonini bermaydi. Inson omilini tarkibiy-tashkiliy tuzilmasi va uning turkumlar kesimidagi elementlarini shakllantirish muhim ahamiyatga molik masala. Shu sababli, inson omilining murakkab va serqirra xarakteridan kelib chiqqan holda uning insoniy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlar, mehnatga munosabat, ilm va kasb-hunar qismlardan tashkil topgan elementlarining tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilib, unda ishtirok etayotgan insoniy sifatlarning o‘zaro bog‘lanishi, o‘zaro ta'sirini o‘rganilishi xodimning mehnat jarayonidagi faolligini baholash imkonini beradi. Inson omili va uni tashkil etuvchi insoniy sifatlar tizimi va ulardan hosil bo‘ladigan hodisa va voqealar o‘zini o‘zi tashkil etish murakkab tizimlar nazariyasi - sinergetika asosida sodir bo‘ladi.

Shu davrga qadar inson kapitalini baholashda asosan uni tashkil etish uchun yo‘naltiriladigan investitsiyalarning qaytim darajasi bilan o‘lchab kelinadi. Lekin unda insonning mehnat jarayonidagi faolligini hisobga oladigan mexanizm mavjud emas. Shu sababdan inson kapitalini baholashdagi reprezentativ xatolik sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Buning uchun mehnat resurslaridagi inson omilining faollik koeffitsentini ishlab chiqish va uni amaldagi inson kapitalini baholash modellarida ham qo‘llash ulardan foydalanishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda inson omili, inson manfaatlari, uning huquqi va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasigacha ko‘tarildi.

“Inson omili” tushunchasiga “ishchi kuchi” va “mehnat resurslari” tushunchalariga nisbatan ancha kengroq va chuqurroq ma'no singdiriladi. Inson omili o‘zaro bir-biri bilan munosabatda bo‘ladigan turli mavqeni egallagan sinflar, qatlamlar va guruhlar tizimidan iborat bo‘lib, ularning faoliyati va o‘zaro munosabati jamiyatning ilg‘or rivojlanishini ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, inson omili uni mehnatkash, fuqaro, oila boshlig‘i va inson sifatida butun his-tuyg‘ulari va fikrlar xilma-xilligi bilan aks ettiradi.

Inson omili - korxona, muassasalarning birgalikda faoliyat yuritishi uchun birlashgan kishilardir. Tarkibi jihatidan u birinchi navbatda shaxs, ishchi guruhi, mehnat jamoasidir. Bu faqat jamoa xodimi emas, balki ijtimoiy hayotning jamoa subyektidir, u ijtimoiy, demografik, iqtisodiy va siyosiy tuzilmaga ega bo‘lib, uning elementlarining o‘zaro harakati jamiyat rivojlanishini ta'minlaydi.

Inson omili, inson kapitali va inson salohiyatining aniq manzarasi, amal qilish doirasi to‘g‘risida hali ilm-fanda muayyan to‘xtamga kelingan emas. Turli davrlarda turli olimlar ushbu masalaga turlicha o‘z nuqtai nazarlari bilan yondashib keladi va talqin etadi. Bu masalaga subyektiv fikr bilan yondashadigan bo‘lsak, inson omili, inson kapitali va inson salohiyati bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanish doirasidagi kategoriyalardir. Inson kapitali va inson salohiyati inson omili negizida shakllanadi. Ya'ni, inson omili deganda, insonda mavjud bo‘lgan barcha xususiyatlar yaxlit holda qamrab olinishi kerak. Ularni inson hayotini har bir daqiqasi va turli damlarda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi.

Inson kapitali xususida fikr yuritadigan bo‘lsak, bu inson omiliga nisbatan torroq doiradagi faoliyat shaklini o‘zida ifoda etib, xodimlarni ishlab chiqarishdagi imkoniyati va professional kasb mahoratini belgilashda qo‘llaniladi. Bunda u ko‘proq xodimning muayyan soha, yo‘nalish va funksional kasbi bo‘yicha faoliyatini ta'minlab berish bilan o‘z vazifasini ado etadi. Ya'ni xodim o‘z faoliyat yuritayotgan ish o‘rnida inson kapitali sifatida ilm,malaka, tajriba va hakozolardan tashkil topadi. Korxonalar faoliyatidan kelib chiqqan holda inson kapitalining manzarasi shakllantiriladi va rivojlantirilib boriladi. Inson kapitali orqali korxonada mehnat unumdorligi, mahsulot sifati, innovatsion siyosat yuritish va boshqa ishlab chiqarish turlariga erishish imkoni mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham ish joylarida inson kapitalini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Ya'ni xodim mutassil o‘z ustida ishlashi va ilm, tajriba, malakasini oshirib borishi lozim bo‘ladi. Bir korxonada yuqori inson kapitaliga ega bo‘lgan xodim, ixtisosligi boshqa korxonaga o‘tishi bilan uning kapital qiymatida o‘zgarish sodir bo‘ilishi mumkin. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlangan mamlakatlarda xodimlarning bir korxonada faoliyat yuritishi bir umrga, yoki uzoq muddatga yollanishi kuzatiladi.

Xodimda o‘z kasb-koridan tashqari boshqa imkoniyat va xususiyatlar ham bo‘lishi, bulardan bevosita ish joyida foydalanishning hojati bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun bunday holat inson kapitali doirasidan tashqarida qoladi, lekin inson omilining doirasidan tashqariga chiqib ketolmaydi va shaxsning turli ko‘rinishlardagi intellektual mulki yoki imkoniyati sifatida o‘zini namoyon qiladi.

Inson salohiyati ham keng ma'nodagi tushuncha bo‘lib, undan ham, inson kapitali doirasida to‘la foydalanishga zarurat bo‘lmasligi mumkin. Masalan, iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarda san'at,madaniyat va adabiyot sohasi bo‘yicha muayyan iqtidorga ega bo‘lishi mumkin. Lekin xodim, o‘zidagi bu salohiyatni bevosita ish joyida qo‘llay olmaydi. Chunki mehnat faoliyatining yo‘nalishi bo‘yicha bunday sifatga hojat yoki ehtiyoj bo‘lmaydi. Shu sababdan insonning bunday salohiyati - inson kapitalining tarkibidan o‘rin ololmay, ushbu doiradan tashqarida qoladi. Shu sababdan bu qism ham inson omili sifatida har bir shaxsning o‘zida mujassamlanadi va o‘zining shaxsiy istagi intilishi, qiziqishi natijasida rivojlanib boradi. Mana shulardan xulosa qilib aytish mumkinki, inson kapitali va inson salohiyati bitta yaxlit majmua tarzida inson omilini tashkil etadi.

Shu yerda ushbu masalaga subyektiv yondashib, fikr qiladigan bo‘lsak, taraqqiyotning tub asosida inson omilini faollashtirish yotadi. Inson kapitalini rivojlantirish ham inson omilini faollashtirish orqali sodir bo‘ladi.

Inson omilini, inson shaxsiy sifatlarining mehnat faolligiga ta'sir ko‘rsatuvchi butun majmua sifatida namoyon bo‘lishi deb qarash kerak. Mazkur tushuncha insonning ishlab chiqarish jarayonidagi hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi.

Jamiyat tadbirkorlar, menejerlar va muhandis-texnik xodimlarning shaxsiy sifatlariga, ularning halolligi, betartibligi, ijtimoiy manfaatlarga sodiqligiga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib boradi. Ishlab chiqarishning real ravishda umumlashtirilishi, xususiylashtirilishi va ixtisoslashtirilishi tizimliiqtisodiy aloqalar miqdorini ko‘paytiradi. Bu aloqalarning hammasini tez harakat qiluvchi EHMlarni qo‘llanish bilan ham avtomatlashtirish, optimallashtirish, muvofiqlashtirish mumkin emas.

Inson omiliga nisbatan berilgan turli ilmiy asarlardagi ta'rif va sifatlardan kelib chiqqan holda, ularni umumlashtirib, quyidagicha ta'rif berish mumin:

Inson omili - inson his-tuyg‘ulari, aql-idroki, ilmi, insoniy sifatlari, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlari, tabiati, fe'l atvori, mehnatga munosabati, malaka, tajriba, ongi, dunyoqarashi, jismi, sog‘ligi, yoshi, jinsi, e'tiqodi, ruhiyati, qobiliyati, maylidan iborat murakkab sinergetik tizimdir.

Xodimlarni boshqarishda inson omiliga turli xil usullar orqali yondashishga, faollashtirishga, unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga harakat qilib kelinadi. Lekin buning uzil-kesil usuli hanuzgacha ishlab chiqilgan emas. Hayotda va ishlab chiqarishda qaysidir omillar ustuvor va muhim hisoblanib, asosiy e'tibor shunga qaratib kelinadi, ayrim omillar esa ahamiyatsizdek chekkada qolib ketaveradi. Vaqt kelib boy berilgan omillarning o‘rnida hosil bo‘lgan bo‘shliq o‘zining ta'sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Professor V.D.Kamaev boshchiligidagi mualliflar tomonidan yozilgan “Iqtisodiyot nazariyasi asoslari bo‘yicha darslik” nomli kitobda “Iqtisodiyot fanining predmeti - cheklangan resurslar dunyosida ne'matlarni ishlab chiqarishdagi kishilarning xulq-atvori va uni boshqarishni o‘rganishdan iborat”, deb ta'kidlanadi.

Boshqarishda inson omilini faollashtirish yo‘li bilan resurs va xizmatlarning unumdorligi, sifatining ortib borishini ta'minlash, va ulardan intensiv foydalanish natijasida maksimal darajadagi ishlab chiqarish qobiliyatini shakllantirish mumkin bo‘ladideb hisoblaymiz.

Ushbu ta'rifda diqqatga sazovor jihati shundaki, unda inson omili “resurslar ishlab chiqarish qobiliyati”ni tashkil etuvchisi sifatida asoslanadi. Darhaqiqat, inson omili - bu resurslarning son va sifat borasida muayyan natijalarga erishish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida foydalaniladigan va vujudga keladigan funksional xususiyatdir.

Inson hayoti - uning sifatlari majmuida qaror topadi. Ushbu sifatlar ikkiga bo‘linadi, birinchisi, ijobiy ahamiyat kasb etuvchi - fazilatlar, ikkinchisi esa uning aksi bo‘lgan salbiy tomoni hisoblanadi. Biz buni, ya'ni inson fazilatlarini insoniy sifatlar tarzida qo‘llashni tavsiya etamiz.

Chunki insoniy sifatlar deganda faqat insonlarning inson sifatida shakllanishi va namoyon bo‘lishini ta'minlovchi xislatlar nazarda tutiladi. Bu sifatlardan oqilona, to‘g‘ri va omilkorlik bilan foydalanish, inson umrini bezaydi, hayotini benuqson, betartib va samarali kyechishini ta'minlaydi. Ya'ni inson omili faolligi - nafaqat kishilarda mehnat faoliyatini tashkil etish, balki insoniyligini

tashkil etish xususiyatiga ham egadir.

Inson fe'l-atvori va faoliyatini tashkil etuvchi insoniy sifatlarga butun faoliyat davomida ustuvor ahamiyat qaratib kelindi. Lekin hayotda, ayniqsa, ishlab chiqarishda inson faoliyatini tashkil etuvchi insoniy sifatlardan foydalanish darajasini qoniqarli deb bo‘lmaydi. Chunki, inson omilining obyekt sifatida qanday elementlardan tashkil topganligining muayyan tizimi yo‘q. Hayotimizda, yoki ishlab chiqarishda insoniy sifatlarning qaysi birlaridan qay darajada foydalanyapmiz yoki foydalanishimiz lozimligini aniq tasavvur eta olmaymiz.

Sinergetika - o‘zini-o‘zi tashkil etish tizimi qonunlarining turlicha tabiatini o‘rganuvchi fan yo‘nalishidir. O‘z tabiatiga ko‘ra murakkab jonzot hisoblangan insonning fe'l-atvori va faoliyat doirasi shunchalik murakkabki, uning amalda namoyon bo‘lish holatlari va omillari benihoyadir. Shu jihatdan ham har qanday jamiyat salohiyatini, uning imkoniyatlarini namoyon etishda, baholashda inson omili muhim o‘rin egallab, jamiyat ulardan samarali foydalanishdan o‘ta manfaatdordir. Bir so‘z bilan aytganda inson omili - murakkab tizim, ya'ni sinergetikadir. Olamdagi barcha borliq(er, quyosh, planetalar, galaktikalar, hayvonu o‘simliklar)ning bifuraksiya (kuchli muvozanatlik holatidagi davrlar) va ularning paradigma (tashkil etish madaniyati)larining sinergiyasi amalga oshadiki, bunda ular o‘zlarining mavjudlik muvozanatini ta'minlaydi.Inson omilining sinergiyasi yuqorida qayd etilgan borliqlarning sinergetikasida aql bovar qilmaydigan darajada ko‘pdir. Ya'ni, jonsiz tabiat obyektlari, tabiat qonunlari ta'siri ostida harakatda bo‘ladi. Jonli hayvonlar esatabiat hodisalari bilan birgalikda instinktta'siri ostida bo‘ladi. Inson ularning barchasini o‘zida qamragan holda yana aqlni ham o‘z hayotida uyg‘unlashtiradi. O‘zi zarra bir mavjudot bo‘lishiga qaramay, inson olamning qonuniyatlarini kashf etadi, hodisalariga o‘z ta'sirini o‘tkazishga qodir. Shu sababli inson, inson omili nihoyat darajadagi murakkab tuzilmadir. Uni hech qachon bittayoki bir nechta fanlar orqali mohiyatini sir-sinoatini ochib bo‘lmaydi.

Sinergetika yordamida insoniy sifatlarning barchasidan boshqaruvda samarali qo‘llashni o‘rganish, buning uchun qanday mezonlarga tayanish zarurligi ular orasidagi bog‘liqlik qonuniyatlarini shrganishdan iboratdir.

Mehnat jamoalarining umumiy faoliyati natijalariga erishishida inson

faoliyatiga ta'sir etuvchi insoniy sifatlar tizimi va ularning o‘lchov mezoni yo‘qligi ko‘p imkoniyatlarni boy berilishiga olib kelmoqda. Shuning uchun insoniy sifatlarning xususiyatlarini tahlil etilib, tizimi va mezonini toppish juda dolzarb masalalardan biriga aylangan. Axir olamdagi barcha narsa o‘lchovli hisoblanadi. Buning uchun dastavval insoniy sifatlar majmuasini ishlab chiqib va shu orqali ularni turkumlab borish lozim.

Bunday tizimni yaratishdan maqsad uning yordamida insonni mukammal darajada shakllantirish, inson faoliyatini tashkil etishga ta'sir etuvchi asosiy elementlar ochib berishdan iboratdir.

Inson faoliyatiga ta'sir etuvchi insoniy sifatlar tizimi shunday qurilishi kerakki, u keng qamrovli, imkoniyatlari beqiyos, cheksiz, ochiq, barcha uchun qulay va foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lmog‘i darkor.

Insoniy sifatlardan to‘laqonli va barchasidan samarali foydalanish insoniyat oldida turgan eng murakkab va eng dolzarb masalalardan biri bo‘lganligi bois bu borada ko‘plab olimlar, tadqiqotchilar o‘zlarining g‘oya va nazariyalari, ishlanmalari va qarashlarini ilgari surmoqdalar. Inson faoliyatiga ta'sir etuvchi omillardan keng va samarali foydalanishning ko‘plab muqobil variantlari, shakllari ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilgan. Lekin inson fe'l-atvori va faoliyatini tashkil etuvchi insoniy sifatlarining tartibga solingan tizimi, ularning o‘lchov mezonlari va bir-biriga bog‘liqlik darajasi hanuzgacha yaratilmagan. Ularning muayyan tizim-majmuasini ishlab chiqmasdan, har bir insoniy sifatning vazifalari nimalardan iborat ekanligini bilmasdan, ulardan faol darajada foydalanib bo‘lmaydi.Bularsiz insoniy sifatlarning qaysi turlaridan qanday foydalanilayotganligini aniqlashqiyin masala bo‘lib, inson faoliyati doirasidan chetda qolib ketayotganligini aniqlash mavhumligicha qolmoqda.

Inson faoliyatini faollashtirish ko‘plab insoniy sifatlar ta'sirida yuzaga keladi. Shu boisdan inson faoliyatiga ta'sir etuvchi sifatlar tizimini ko‘rib olmoq kerak. Ularning har birini qanday ahamiyatga ega ekanligining tavsifini ishlab chiqish juda muhim masaladir. Shuningdek, ularning har birini insoniy sifatlar to‘plamidagi o‘rni, salmog‘i va mezonini ishlab chiqish zarur. Bu keng qamrovli, imkoniyatlari cheksiz, ochiq, barcha uchun qulay, foydalanish imkoniyati yuqori darajada aniq va ijtimoiylashtirilgan tizim shaklida qaror topmog‘i lozim.

Inson fe'l-atvori va faoliyatiga ta'sir etuvchi insoniy sifatlarning har biridan alohida foydalanish yoki bir tomonlama qarab chiqish hech qachon kutilgan natija bermaydi. Chunki, insoniy sifatlar majmua tarzida bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda mavjud bo‘ladi. Shuning uchun inson faoliyatini tashkil etuvchi insoniy sifatlarni majmua tarzida ko‘rish, ularning o‘zaro uzviylik darajasini aniqlash, sifatdagi o‘zgarishlar oqibatda ular insonni shakllantirishda qanday kuch va ahamiyatga ega ekanligini o‘rganish juda muhmdir. Chunki, inson faqat jisman emas, ruhiyati bilan ham yashaydi. Shuning uchun uning faoliyatida ruhiyati ham hal etuvchi vazifani o‘taydi.

**Takrorlash uchun savollar**

1. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalarga ta'rif bering?
2. Marketing innovatsiyalari va narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalarga ta'rif bering?
3. Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalarni ayting?
4. Jarayonlar bo‘yicha va marketing innovatsiyalari o‘rtasidagi farq nimada deb hisoblaysiz?

**Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar**


1. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
2. Christine G. Mark R. Innovation, intellectual property, and economic growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.385.
3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: TDIU, 2013 y.
4. **https://www.youtube.com/watch?v=edq07biGpC0**Harvard professor Clayton Christensen, disruptive innovation and higher education
5. www.aup.ruInnovatsiya i ekonomika, chto ix svyazuvaet?


## 2.3. Innovatsion iqtisodiyotda xizmatlar bozorini rivojlantirish

Globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanishida ilm-fanning tutgan o‘rnini belgilab olish va uni chuqur anglashga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Bilimlar iqtisodiyotiga o‘tish mamlakatda yangi bilimlarni yangi texnologiyalarga, milliy va global bozorlarda o‘z haqiqiy iste'molchilarini topa

oladigan mahsulot va xizmatlarga samarali tarzda aylantira oladigan yaxlit bir tizimini shakllantirishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilgan Respublika “Innovatsion g‘oyalar, ishlamalar va texnologiyalar”, “Sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjalar yarmarkasi”da taqdim etilgan ilmiy-tekshirish ishlamalari va texnologiyalari, qo‘shma korxonalarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sifat ko‘rsatkichlari xalqaro ISO standart talablariga mosligi va O‘zbekistonda lokalizatsiya qilingan import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan ko‘plab tovarlar ishlab chiqarilmoqda.

Yuqori tartibdagi raqobat afzalliklari (yangi ilmiy ishlamalar, texnologiyalar, novotarlarning innovatsion monopoliyasi)ga asoslangan innovatsion rivojlanishi yangi sohalar va yangi bozorlarga faol bostirib kirishni tashkil qilish uchun katta strategik imkoniyatlar yaratadi. Bu strategik imkoniyatlar o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishning sifat jihatidan yangi salohiyatini yaratadilar.

1. Birlashmalar, yutib yuborishlar yoki yangi va qo‘shma korxonalar tashkil qilish asosida yangi sohaga kirib borish.
2. Turdosh sohalarda har tomonlama rivojlanish.
3. Turdosh bo‘lmagan sohada har tomonlama rivojlanish.
4. Ishlab chiqarishni yig‘ishtirish va tuzatish.
5. Aralash har tomonlama rivojlanish va qayta qurish.
6. Ko‘p millatli har tomonlama rivojlanish.

Agar yangi sohaga kirib borishda yangi kompaniya yoki qo‘shma korxonani tashkil qilish strategiyasi har tomonlama rivojlanmagan kompaniya tomonidan kuchli va foydali raqobat o‘rinlarini egallash uchun qo‘llanilsa, qoloq ishlab chiqarishlarni yig‘ishtirish va tugatish, transmilliy har tomonlama rivojlanish maqsadidagi qayta qurish, rivojlanish strategiyasi, qoidaga ko‘ra, kuchli va yetarlicha keng har tomonlama rivojlangan koorporatsiyalarda vujudga keladi.

So‘nggi yillarda ko‘plab olimlar va mutaxassislar tomonidan innovatsion xizmatlar bozorini shakllantirish va boshqarish, rag‘batlantirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar ko‘lami kengayib borayotgan bo‘lsada, ammo innovatsion xizmatlar bozorining ayrim muhim jihatlarini tadqiq etish zarur darajada emas,

xususan, mazkur bozorning faoliyat yuritish shartlari, asosiy sub'etklarining o‘zaro samarali aloqalarini ta'minlash omillarini ochib berish, hududlarda innovatsion xizmatlar bozorini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish yo‘llarini aniqlashga ehtiyoj mavjud. Bundan tashqari,iqtisodiy tizimning muntazam rivojlanib borishi innovatsion xizmatlar bozorini rivojlantirishning yangi modellarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsion xizmatlar bozori deganda innovatsion xarakterga ega bo‘lganxizmatlarni yaratuvchilar bilan shunday xizmatlardan foydalanuvchilar (iste'molchilar) o‘rtasidagi innovatsion xizmatlarni sotish va xarid qilish, yetkazib berishga qartilgan iqtisodiy munosabatlar majmuasini tushunish mumkin[9].

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion xizmatlar bozori deyali barcha hududlarda (makonda) mavjud bo‘lishi ko‘zda tutiladi, shu bilan birga odatda innovatsion xizmatlar ilg‘or texnologiyalar, texnik va uskunalar, yondashuvlarni o‘zida mujassamlashtirgani sababli, ular innovatsiyalarga to‘lov qobiliyatiga ega talab yuqori bo‘lgan muhitda kengroq tarkib topadi. Shu nuqtai nazardan turli hududlarda innovatsion xizmatlar bozorini rivojlanganlik darajasi ko‘p hollarda mazkur hudud iqtisodiyoti, xususan uning real sektorining rivojlanganlik darajasiga mutanosib ekanligi kuzatiladi.

Hududiy innovatsion xizmatlar bozori hududda shakllangan innovatsiya tizimining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u innovatsiyalar yaratuvchilar hisoblanadigan institutlarni rag‘batlantirish orqali yangi innovatsiyalarni paydo bo‘lishiga, innovatsiyalarni amaliyotga tadbiq etish orqali rivojlatirishga intiladigan korxona, korxonalar, tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy makon vazifasini o‘taydi.

Agar hududiy innovatsiya tizimi, bilimlar, texnologiyalar innovatsiyalarni yaratish va sotish bilan band bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq

---

[9]Innovatsion darajasini aniqlash bo'yicha mezonlar xususida Ilmiy markazning 2015 yil bo'yichatayyorlagan ilmiy hisobotining “Hududlar iqtisodiyotini innovatsiyalar asosida rivojlanirishning mezon va ko'rsatkichlari” bo'limida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

tuzilmalar (korxonalar)ning hamda ta'lim, ilmiy, tadbirkorlik va notijorat korxonalarining hududiy darajada o‘zaro aloqalarini ta'minlaydigan huquqiy, moddiy-moliyaviy, axborot va ijtimoiy xaraktyerdagi tuzilmalar ekanini inobatga olsak hududiy innovatsion xizmatlar bozorini mazkur aloqalarni shakllanishiga xizmat qiluvchi omillardan biri sifatida talqin etish mumkin.

XXI asrning ikkinchi va uchinchi o‘n yilliklardagi dunyoning innovatsion o‘zgarishlari ishlab chiqarishning postindustrial iqtisodiy uslubining shakllanishi bilan ifodalanadi. Garchi bu jarayon uzoq muddatli va ziddiyatli bo‘lsada, hozirdanoq uning asosiy jihatlari ko‘zga tashlanmoqda.

Birinchidan, bu integral iqtisodiy tizim. Bu xususiy mulkchilikka yo‘naltirilgan, har tomonlama raqobatli ko‘rinishdir. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlarning shaxsiy tashabbuslari va innovatsion faolligi bilan hozirgi va kelajakdagi avlodlar uchun munosib turmush tarzini ta'minlash, davlatning marketing strategikinnovatsion funksiyalarini amalga oshirish, bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan tartibga solinishi hamda inson kapitali, tabiiy resurslar muhitini takror ishlab chiqarishni ta'minlovchi nobozor sektorining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan bog‘lashga imkon beradi.

Ikkinchidan, bu ko‘p ukladli iqtisodiyot bo‘lib, unda har bir iqtisodiy uklad o‘ziga xos bo‘lgan o‘rin egallab, boshqa ukladlar ustidan hukmronlik qilmaydi va ular bilan birlashadi. Bu yerda gap turli ukladlarning optimal tarzda birlashuvi va hamkorligi haqida boradi:

- texnologik o‘sishni amalga oshiruvchi, monopoliyaga qarshi kurash bo‘yicha kuchli nazorat ostida bo‘lgan ishlab chiqarish markazlashuv darajasi yuqori tarmoqlarda ishlab chiqarish strukturasini o‘zgartiruvchi yirik biznes;
- millionlab fuqarolarning tadbirkorlik tashabbuslari uchun keng imkoniyatlar ochib beruvchi, innovatsion faollikning yuqoriligi bilan ajralib turuvchi, yirik ishlab chiqarishdan bo‘shatiluvchi va mehnat bozoriga yangi kirib keluvchi ishchi kuchining bandligini ta'minlovchi kichik va o‘rta biznes;
- strategik ahamiyatga ega tarmoqlar va nobozor sektorida mujassamlashgan hamda davlatning strategik innovatsion funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlovchi davlat mulki;
- aholining hayot faoliyati muhitini (uy-joy, kommunal xo‘jalik va atrof-muhit muhofazasi), ma'naviy takror ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni (maktablar, madaniy muassasalar va hokazo) ta'minlovchi

munitsipal uklad;

- inson faoliyati va takror ishlab chiqarishda eng muhim funksiyalarni bajaruvchi, uy va shaxsiy oilaviy xo‘jalik bilan ifodalanuvchi natural uklad.

Shunisi muhimki, har bir uklad o‘ziga xos bo‘lgan funksiyalarni bajarish bilan birga egallab turgan o‘rnida eng samarali bo‘lishi lozim. Chunki, iqtisodiy o‘sish sur'atlari va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bog‘liq bo‘ladi.

Barcha bozorlar kabi innovatsion xizmatlar bozori talab va taklif, raqobat asosida, ta'kidlash joizki, mazkur bozor anan'aviy tovarlar va xizmatlar bozoridan o‘zining bir qator xususiyatlari bilan keskin farqlanadi. Innovatsion xizmatlar mahsuli aksariyat hollarda muayyan buyurtma asosida emas, mustaqil ravishda (ishlab chiqaruvchining o‘z tashabbusi bilan) yaratiladi va bozorga chiqariladi. Bundan tashqari, yangi innovatsion mahsulot yoki xizmat uni amalga tadbiq etish bilan bog‘liq qo‘shimcha amallar, xarajatlar va jarayonlarni amalga oshirishni talab etadi. Ularning amaliyotda qanchalik foydali bo‘lishini oldindan baholash mushkulligi sabab mazkur mahsulot yoki xizmatlar bilan bog‘liq risk darajasi yuqori.

Hududlarda innovatsiya xizmatlari bozori xususida so‘z borganda ayrim hollarda bozorga taklif etilayotgan innovatsion mahsulot uning potensial iste'molchilarining texnologik jihatdan yetarlicha tayyor emasligi tufayli ham talabga ega bo‘lmasligi mumkinligi ehtimolini hisobdan chiqarish mumkin emas.

Innovatsion xizmatlar bozori hudud iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri quyidagi jihatlar va natijalarda namoyon bo‘ladi (2.3.1-rasm).




**2.3.1- rasm. Innovatsion xizmatlar bozorini hudud iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri**

Innovatsion xizmatlar bozori o‘ziga xos makroiqtisodiy funksiyalarni ham bajaradi. Bu mahsulot ishlab chiqarishga moddiy va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish orqali iqtisodiy o‘sishning noinflyasion rag‘batlantirishda namoyon bo‘ladi.

Mamlakat hududlarini rivojlantirishning eng asosiy vazifalaridan biri yarim hududlarni turli omillar ta'sirida rivojlanishida boshqalarga nisbatan jiddiy ortda qolishi, ya'ni hududlar o‘rtasida rivojlanish bo‘yicha differensiyaning kuchayib borishini bartarf etish yoki oldini olishdan iborat. Mazkur vazifani amalga oshirishda innovatsion xizmatlar bozorining salohiyatini ham jalb etish mumkin. Bu obyektiv sabablarga ko‘ra (resurslar kamligi, geografik joylashuvning noqulayligi va h.k.) rivojlanishda ortda qolayotgan hududlarda turli mexanizmlar orqali innovatsion xizmatlar bozorini ustuvor rivojlantirish orqali mazkur hududning raqobatbardoshligini ta'minlash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Shu tariqa hududlarda innovatsion xizmatlar bozorini rivojantirish ularning raqobatbardoshligini hamda barqaror rivojlanib borishini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo‘libgina qolmay, mamlakat hududlarining mutanosibrivojlanishini ta'minlaydi.

Innovatsion xizmatlar bozorining yuzaga kelishi uchun zarur bo‘lgan eng asosiy elementlar qatoriga quyidagilarni kiritishmiz mumkin (2.3.2- rasm).




**2.3.2- rasm. Innovatsion xizmatlar bozorini shaklantiruvchi asosiy elementlar**

Mazkur baza innovatsion xizmatlar bozori barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur rag‘batlantiruvchi omillarni qo‘llab-quvvatlash hamda bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qilishi lozim.

O‘z navbatida hudularda innovatsion xizmatlar bozori bir qator asosiy shartlar va tamoyillarga javob berishi zarur, xususan: texnik- texnologik, tashkiliy-iqtisodiy darajaga muvofiq bo‘lish, iqtisodiy ishlab chiqarish kuchlari darajasiga mutanosibligini ta'minlaydi; universallik (iqtisodiyotning barcha tarkibiy qismlari va darajalari uchun xos bo‘lgan umumiy tamoyillarga asoslanishi) bilan hududiy o‘ziga xoslikning (hududiy ixtisoslashuvni hisobga olish, bevosita hududning o‘zida, uning strategik manfaatlari hisobga olgan holda shakllantirilishi) uyg‘unligini ta'minlashidan iborat.

Innovatsion xizmatlar bozorining asosiy subyektlari innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratuvchilar (odatda, ilmiy-tadqiqot muassasalari, o‘quv yurtlari, innovatsiyamarkazlari, konstruktorlik byurolari, tajriba korxonalari va boshqalar) va innovatsion mahsulot va xizmatlardan foydalanuvchilar hisoblanadi.

Innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratuvchilar va innovatsion

mahsulot va xizmatlardan foydalanuvchilardan tashqari, innovatsion xizmatlar bozorining yana bir ishtirokchisi sifatida innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratuvchilar va undan foydalanuvchilarning o‘zaro aloqasini ta'minlashga xizmat qiluvchi vositachi korxonalarni ko‘rsatish mumkin. Bunday korxonalarga innovatsiya markazlari, patent-litsenziya korxonalari, axborot-konsultativ xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar, marketing agentliklari kabilarni kiritish mumkin.

Garchi mazkur korxonalarning asosiy vazifasi ushbu aloqani ta'minlashdan iborat bo‘lsada, ayrim hollarda ular innovatsiyalar bozorida talab mavjud bo‘lgan innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishni moddiy yokiboshqa reurslarni jalb etgan holda raqobatlantirish yo‘li bilan ularga egalik qilish va kelgusida ularni sotish vazifalari bilan ham shug‘illanishlari mumkin. Bunday korxonalar odatda innovatsion bozor keng rivojlangan, innovatsion ishlanmalar ehtiyoj yuqori bo‘lgan hududlarda faoliyat yuritadi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan hududiy innovatsion xizmatlar bozori subyektlari tarkibiga kiritilishi mumkin subyektlarning tizimlashtirilgan holati keltirilgan (2.3.1-jadval).

2.3.1- jadval

**Innovatsion xizmatlar bozori subyektlarining tarkibi**

| Subyektlar | Funksiyalari |
|---|---|
| Mahalliy davlat va boshqaruv idoralari | Innovatsion xizmatlarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion xizmatlardan foydalanish |
| Akademik muassasalar | Kelgusida innovatsiyaga aylantirsh uchun fundamental va tajriba asoslarni yaratish |
| Oliy o‘quv yurtlari (OO‘Y) | O‘qitish va bilimlarni tarqatish OO‘Y qoshidagi innovatsiya markazlari, biznes-inkubatorlar orqali innovatsiya faoliyatini olib borish |
| Tarmoq ITI konstruktorlik binolari | Yirik va kichik biznes korxonalari, boshqa buyurtmachilar, shuningdek o‘z tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalar negizida innovatsion faoliyat olib borish |
| Kichik va o‘rta innovatsion korxonalar | Murakkab bo‘lmagan innovatsion ishlanmalarni olib borish va ta'minlash |
| Texnoparklar, innovatsiyamarkazlari | Kichik va o‘rta innovatsion korxona va korxonalar uchun xizmatlar ko‘rsatish.<br>Yuqori texnologiyali va ilmiy sig‘imga ega mahsulotlari marketingini ta'minlash |
| Kichik biznes subyektlari | Murakkab bo‘lmagan innovatsion ishlanmalarni olib borishni ta'minlash.<br>Innovatsiyalarvayangitexnologiyalarnio‘zlashtirish, amaliyotgatadbiqetish |
| Yirik korxona va korxonalar | Yangi mahsulotlarni tijorat mahsulotlariga aylantirish, yangi innovatsion mahsulotlarni seriyali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, amaliyotga tadbiq etish.<br>Amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar olib borish va moliyalashtirish |
| Konsalting firmalar | Innovatsiya faoliyati subyektlariga konsalting xizmatlarini ko‘rsatish |

Innovatsion xizmatlar bozorini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan hududiy siyosatni shakllantirishda mazkur bozorni haraktga keltiruvchi eng asosiy subyektlardan hisoblangan biznes tuzilmalarining funksiyalari hamda rolini aniqlab olish juda muhim.

XXI asr dastlabki kunlaridanoq dunyo rivojlanishining barcha jabhalarida iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy jarayonlar, demografiya, geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlar yangi sifat o‘zgarishlaridan darak bermoqda. Shu narsa tobora yaqqol ko‘zga tashlanib bormoqdaki, geostrategik holat, fan va texnika yutuqlari, kadrlar va ilmiy salohiyat, tabiiy resurslar kabi mavjud obyektiv omillardan samarali foydalangan

mamlakatlar rivojlanish borasida ancha ilgarib ketgan. Bu mamlakatlar ichki iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlar yangicha tizimini shakllantirib, odamlar hayot tarzini yanada yuqori darajaga yetkazib oldi. Ushbu ijtimoiy tizimga AQSH va G‘arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlari, sharqda esa Yaponiya misol bo‘la oladi.

Fan-texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan foydalana olmagan mamlakatlar vujudga kelgan sharoitlarga moslasha olmay rivojlanish yo‘lida ancha ortda qolib ketmoqda. Bunday tendensiyalar oldindan mavjud. Bu tendensiya yanada kuchayib, uning ta'siri ostida iqtisodiyoti rivojlanmagan mamlakatlar faol xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar doriasidan chetga chiqib qolmoqda. Bu mamlakatlar global xarakterga ega bo‘lib, o‘ta murakkablashgan munosabatlar tizimida teng huquqli hamkor bo‘la olmaydilar.

Hududiy innovatsion xizmatlar bozorining rivojlanish darajasi va mufaqqiyatli faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan zarur infratuzilmaning yaratilganligi bilan bog‘liq. Innovatsion xizmatlar bozorining infratuzilmasi degandainnovatsiya mahsulotlari va xizmatlar bozorini to‘laqonli faoliyat yuritishini ta'minlaydigan subyektlar, resurslar va maslahat xizmatlar majmuasini tushunish mumkin. Innovatsion xizmatlar bozorining infratuzilmasini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin (2.3.3-rasm).




**2.3.3- rasm. Innovatsion xizmatlar bozori infratuzilmasini guruhlash**

Innovatsion xizmatlar bozori infratuzilma elementlarining o‘zaro aloqasi sxema tarzda tarkib topishi maqsadga muvofiqdir.

Keltirilgan innovatsion xizmatlar bozori infratuzilma majmuasining har bir elementi o‘zining funksiyalarini amalga oshirish mexanizmi hamda mazkur mexanizmlarning faoliyatini ta'minlaydigan maxsus va ko‘p funksiyali korxonalar shaklida tegishli tuzilmaviy elementlariga ega bo‘lishi zarur. Ko‘zda tutilayotgan infratuzilma majmuasi mulkchilik shakli va maqomidan qat'iy nazar barcha subyektlarga xizmat ko‘rsatadigan o‘ziga xos tarmoqning asosi hisoblanadi (2.3.4-rasm).




**2.3.4- rasm. Innovatsion xizmatlar bozori infratuzilma elementlarining o‘zaro aloqasi**

Y.V.Xolopenkovaning fikricha, bugungi kunda hududlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi ko‘p hollarda ularning ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanishiga erishish sifatida qaraladi. Bunda mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi hududlar iqtisodiyotining o‘zaro va chambarchas bog‘liqligi hamda hududlarning o‘zaro yagona innovatsion muhitga integratsiyalashuvi jarayonlari asosida innovatsion rivojlanishiga bevosita asoslangan bo‘ladi.

M.N.Popov ijtimoiy-iqtisodiy muhitni hududlardagi investitsion loyihalarning amalga oshirilishining kompleks baholavchi ko‘rsatkichlar tizimi sifatida ko‘rib, mamlaktning yagona iqtisodiy muhitida hududiy omillardan unumli foydalanuvchining sharti va sharoiti deb hisoblanadi. Shu tariqa ijtimoiy-iqtisodiy muhitning holati bir qator omillar asosida belgilanadi, shu jumladan, innovatsiyalarni rivojlantirish omillari bilan ham.

N.V.Krakovetskaya va I.O.Chistiqovalar innovatsion infratuzilmalarga alohida e'tibor bergan holda “Jahonda innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish tendensiyalariga ko‘ra, davlatning hududlarda va umuman mamlakat bo‘yicha innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirishdagi muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi” degan g‘oyani ilgari surishadi.

Y.S.Makarova o‘zining “Hududning innovatsion salohiyati omillarini klassifikatsiyalash nomli tadqiqotida bugungi kunda Rossiya hududlarida innovatsion faoliyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘ratayotgan bir nechta to‘siqlarni yoritib bergan, jumladan yosh olimlarni qo‘llab- quvvatlash va rag‘batlantirish tizimi rivojlanmaganligi, ayrim hududlarda mavjud emasligi, ilmiy-tadqiqotlar va texnoloik ishlanmalarni moliyalashtirish tizimi yaxshi rivojlanmaganligi, kichik korxonlarning himoya qilishning huquqiy tomonidan to‘liq amal qilmasligi.

O.A. Staritseeva va N.N. Avakumova o‘zlarining “Hududlarni rivojlantirishning institutsional asoslari” deb nomlangan ilmiy- tadqiqotlarda milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishning institutsional asoslarini mamlakat hududlarida amalga oshiriladigan islohotlar bilan bog‘lashadi.

Umuman olganda, iqtisodiyot fanida innovatsion faoliyatga oid ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, bu aylanishning nazariy asoslari juda keng bo‘lib, uning aosiy xususiyatlarini xorij olimlaridan N.Druker, N.D.Kondratiev, J.Grossi, Y.Shumpeter, M.Porter va boshqalar tomonidan chuqur o‘rnatilgan.

Mahalliy adabiyotlarda innovatsion jarayonlarning mohiyati

g‘oyalarning tug‘ilishi, texnik amalga oshirilishini tekshirish va bozor talabini o‘rganish, tajriba namunasini yaratish, kompleks sinovdan o‘tkazish, texnik tavsiflarni takomillashtirish, bozorni o‘rganish, keng miqyoslarda ishlab chiqarish va marketingni tashkil etish kabilaradn iborat bosqichlar ketma-ketligini ifodalovchi innovatsion zanjir ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi olimlarning fikriga ko‘ra, hududlarda amalga oshirilishi belgilangan islohotlar institutlar tizimidagi o‘zgarishlar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim. Hududlarni rivojlanishini aks ettiruvchi institutsional ko‘rsatkichlardan biri bu uning innovatsion rivojlanganligi hisoblanadi. O‘z navbatida, innovatsiya faoliyatining rivojlanishi yangi g‘oyalarni ishlab chiqarish va kadrlar salohiyatini rivojlanishidan tortib to moliyaviy, moddiy-texnik, axborot, qounchilik, metodologik va tashkiliy ta'minotgacha bo‘lgan innovatsion jarayonning asosini tashkil qiluvchi turli tadbrlar majmuining amalga oshirilishini talab qiladi.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri innovatsion faoliyat, iqtisodiy rivojlanishning mazkur yo‘nalishida faollikni ta'minlovchi omillarni, shuningdek, innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar xususiyatlari o‘rganish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va rag‘batlantirish haqida yuqorida shakllantirilgan asos jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi vaziyatda innovatsion o‘sish strategiyasini amalga oshirish ustuvor hisoblansada bir qator sabablarga ko‘ra bugungi kunda uni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Muvaffaqiyatga erishish uchun mamlakat korxonalari hamkorlar e'tiborini jalb qilish o‘zaro raqobatlashishi lozim. Buning uchun nima sababdan xorijiy firmalar strategik ittifoq va hamkorlikka qadam qo‘yishini aniq tasavvur etish lozim.

## Takrorlash uchun savollar

1. Texnologiyalar transferi to‘g‘risida tushuncha bering?
2. Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari nimadan

iborat?

3. Texnologik konsorsiumlarning qanday turlari bor?
4. Texnologiyalar konsorsiumining innovatsiyalarga ta'siri qanday?
5. Texnologik innovatsiyalar va ularning turlarini sanab bering?
6. Jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalarni izohlab bering?
7. Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot deb nimaga aytiladi?

**Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar**


1. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
2. Christine G. Mark R. Innovation, intellectual property, and economic growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.385.
3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.:TDIU, 2013 y.
4. https ://www.youtube. com/watch?v=adpK 1 VyQpN4Dr. Clayton Christensen | Globalization of Higher Education.
5. https://www.youtube.com/watch?v=MpEmjwrOuxIClay Christensen: Principles of Innovation & Measuring Success


## 3- BOB. IQTISODIYOTDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

### 3.1.Innovatsiyalarning sohalar bo‘yicha turlari

Bugungi kunda nafaqat innovatsion loyihalar, balki innovatsion dasturlarni mamlakatimiz hayotida amalga oshirish muhim masalalardan biridir. Bu borada 2017-2021- yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasida” ham ijtimoiy va infratuzilma dasturlarini amalga oshirish belgilangan. Bu dasturda transport va savdo xizmatini yaxshilash, ichimlik suv ta'minoti, yo‘llarni tuzatish va boshqa tadbirlar amalga oshirilishida innovatsiyalardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Marketing innovatsiyalari deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o‘z ichiga mahsulotlarning

dizayni va qadoqlanishida jiddiy o‘zgartirishlarni, mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo‘yicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olg‘a siljitish bo‘yicha yangi uslublardan foydalanish, yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi. Bu o‘zgartirishlar mahsulot iste'molchilarining ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga, sotish hajmini ko‘paytirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlar iste'molchilarining tarkibini kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mahsulot dizaynidagi o‘zgartirishlar yangi marketing konsepsiyasining bir qismi bo‘lib, ular mahsulotning shakli va tashqi ko‘rinishidagi o‘zgartirishlarni o‘z ichiga oladi. Bular mahsulotning funksional va foydalanish xususiyalariga ta'sir ko‘rsatmaydi. Shuningdek, bunday o‘zgartirishlarga qadoqlanishi tashqi ko‘rinishini ta'riflab beruvchi iste'mol mahsulotlari, ichimliklar, yuvish vositalari kabi mahsulotlarning qadog‘idagi o‘zgartirishlar ham kiradi.

Mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo‘yicha yangi uslublardan foydalanish sotishni kengaytirish bilan bog‘liqdir. Bunga logistika (xomashyo, tarkibiy qismlar va tayyor mahsulotlarni tashish va omborxonalarda saqlashni boshqarish) uslublari kirmaydi. Mahsulot (xizmat)larni bozorga tanitish va olib chiqishning yangi uslublaridan foydalanish korxonaning mahsulot va xizmatlarini olib chiqish uchun yangi konsepsiyalardan foydalanishni anglatadi.

Mamlakatimizda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish yoki iqtisodiyot sohasida innovatsion ishlarni amalda qo‘llash va boshqa innovatsion tarmoqqa aloqador ishlarni amalga oshirishda me'yoriy- huquqiy hujjatlar mavjud. Ular quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Konistitutsiyasi ;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatasining qarorlari;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasinig qarorlari va farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Mamlakatimiz Prezidentining 2018- yil 7- maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-sonli qarori

katta imkoniyatlar yaratib berganligi va iqtisodiyotni rivojlantirishda ilim-fan bilan integratsiyasi ahamiyatli ekaligi jahondagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidan ham bizga ma'lum.

Mamlakatda qisqa muddatda innovatsiyaga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakillantirishga va innovatsiyalarni keng joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Respublikamizni innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ tashkil etilganligi, uning huzurida Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab- quvvatlash jamg‘armasi shakillantirilganligi maskur yo‘nalishdagi muhim bosqichlardan biri bo‘ldi.

Hozirda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishda bir qancha imkoniyatlar yaratilmoqda hamda innovatsion faoliyatga oid hujjatlar qabul qilingan (3.1.1-jadval).

Shu bilan birgailmiy-tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning samarali mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishga, aloqalarni mustahkamlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib kelmoqda:

oddiy ta'lim muassasalari ilmiy ishlari va ilmiy-tadqiqot korxonalari tadqiqotlarining natijalarini tijoratlashtirish ko‘rsatkichlarining pastligi hamda qoniqarsizligi;

3.1.1- jadval

**Innovatsion faoliyatga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida ma'lumot[10]**

| № | Qabul qilingan hujjat nomi | Qabul qilingan organ | Qabul qilingan hujjat raqami va sanasi |
|---|---|---|---|
| 1 | Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori | PQ-916-son 15.07.2008 |
| 2 | Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori | PQ-2789-son 17.02.2017 |
| 3 | Ilmiy-tadqiqot muassalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori | PQ-3365-son 01.11.2017 |
| 4 | Innovatsion loyihalarni amalga oshirish va idoraviy axborot tizimlarini jadal integratsiyalashuvini tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi PrezidentiQarori | PQ-3673-son 18.04.2018 |
| 5 | O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida ilg‘or texnologiyalar markazini tashkil qilish to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori | PQ-3674-son 19.04.2018 |
| 6 | Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori | PQ-3682-son 27.04.2018 |
| 7 | Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori | PQ-3697-son 05.05.2018 |
| 8 | Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori | PQ-3698-son 07.05.2018 |
| 9 | Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori | 24-son 12.01.2018 |

innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish, hududlar va tarmoqlar

[10] www.lex.uz veb sayti ma'lumotlari asosida mualllif tomonidan yaratildi.

darajasida innovatsion rivojlanish va innovatsion faollik kompleksa dasturlarini amalga oshirish, innovatsion faol tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mavjud emasligi;

xususiy sektor vakillarini innovatsion faoliyatiga, jumladan ularning manfaatdorligi pastligi sababli yetarli darajada jalb qilinmasligi;

davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlarni taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ta'sirchan chora-tadbirlarining mavjud emasligi;

ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy qilish sohasida xalqaro hamkorlik va investitsiyalar jalb etish darajasining qoniqarsizligi kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni yanada samarali joriy etish uchun shart- sharoitlarni yaratishda:

- oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida innovatsion jamg‘armalar va ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha bo‘linmalar tashkil etish;

- ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorlar hamda ilm-fan bo‘yicha o‘rinbosarlari innovatsiya faoliyatiga oid masalalar, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni joriy etish va tijoratlashtirish natijalari bo‘yicha bevosita O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga hisobdordir;

- oliy ta'lim muassasalarining innovatsion jamg‘armalarini (keyingi o‘rinlarda - innovatsion jamg‘armalar) shakillantirish innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan olinadigan daromadlar, oliy ta'lim muassasalarining ish haqi, stipendiya to‘lash, boshqa joriy xarajatlari to‘langandan keyin to‘lov kontrakti mablag‘larini 5 foizdan kam bo‘lmagan miqdorini yo‘naltirish hisobiga amalga oshiriladi.

Innovatsion jamg‘armalarning mablag‘lari:

- ilmiy-tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni rag‘batlantirishga;

- ilmiy labaratoriya uskunalari, sarflash materiallari va butlovchi buyumlar sotib olishga;

- ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini shakillantirish va yangilashga, ilmiy xodimlarni moddiy rag‘batlantirishga;

- innovatsiya faoliyati bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni amalga oshirishga yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

Quyidagilar oliy ta'lim muassasalarini ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha bo‘linmalarining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari hisoblanadi:

- bozorni tizimli ravishda tahlil qilish va innovatsion mahsulot (ish, xizmat)larga bo‘lgan talabni o‘rganish, o‘zini qoplash muddatini, rentabellik va innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish bilan bog‘liq xatarlarni baholash;
- yuqori tijorat salohiyatiga ega va amalga oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zlashtirish uchun istiqbolli loyihalarni tanlab olish;
- innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun investorlar, sheriklar va boshqa manfaatdor shaxslarni jalb qilish;
- yangi texnologiyalarni joriy qilish va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida sanoat korxonalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;
- oliy ta'lim muassasalarining ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha bo‘linamalari faoliyati innovatsion jamg‘armalar mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Innovatsiyalarni joriy qilishning eng optimal darajalarini e'tiborga olgan holda innovatsion faoliyatga quyidagicha ta'rif va tavsiflarni berish mumkin (3.1.1-rasm).

Innovatsion faoliyat - bu ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g‘oyalar va ishlanmalarni yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasidir.

**3.1.1- rasm. Innovatsiyani iqtisodiy faoliyat sifatida turlari**

Kumulyativ ilmiy izlanish tajribalardan biri kumulyativ mahsulotni o‘z ichiga olib, ushbu kumulyativ mahsulot texnologik jarayonning tarkibiy qismidir. Sanoat unumdorligini o‘sishiga oid empirik izlanishlari orqali texnologik rivojlanishni tannarxini kamaytirish yo‘lini mikroelektronika, telekommunikatsiya va mos sanoat turlarida aniqladi. Ushbu usullarga tayangan holda makon va zamonda innovatsion imkoniyatni quyidagi turlarga ajratish mumkin (3.1.2-rasm).

**3.1.2- rasm. Innovatsion imkoniyatning iqtisodiy kategoriya sifatida tasnifi**

Innovatsion imkoniyat yoki quvvat obyekt innovatsion taraqqiyotining

oxirgi chegarasidir. Davlatning innovatsion imkoniyatini uch xil usul bilan aniqlash mumkin:

- hududiy (hudud innovatsion imkoniyatining o‘rtacha solishtirma ko‘rsatkichi);
- tarkibiy (xo‘jalik yuritish tarmog‘ining innovatsion imkoniyatini o‘rtacha solishtirma ko‘rsatkichi);
- ijtimoiy (xalq innovatsion imkoniyatining o‘rtacha solishtirma ko‘rsatkichi).

Jati Senguptaning innovatsion modellar klassfikatsiyasi quyidagicha:

1. Raqobatdosh innovatsion modellar
2. Texnik innovatsiyalar va diffuzion modellar
3. Kurno-Nashning ortiqchalik samarasi dinamik modeli
4. Talabga oid innovatsion modeli.

Innovatsion faoliyat statistik hamda dinamik holatda ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Agar statistikada yangilik kiritish bu yangiliklarni tijoratlashtirishning yakuniy natijasi bo‘lsa, dinamikada yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish vatarqatish murakkab jarayoni hisoblanadi.

Innovatsion jarayonning mohiyati shunda namoyon bo‘ladiki, u innovatsiyalar tashabbusi bilan chiqish, yangi mahsulot va operatsiyalar ishlab chiqish, ularni bozorda sotish va diffuziyalash bo‘yicha maqsadli yo‘naltirilgan harakatlar zanjirini ifodalaydi.

Yangi mahsulot (jarayon) asoslab berilgach, taklif etilayotgan innovatsiyaning marketing tadqiqotlari o‘tkaziladi. Marketing tadqiqotlari davomida yangi mahsulot yoki jarayonga talab o‘rganiladi, agar ular limitlanadigan bo‘lsa ularni chiqarish hajmi yoki soni belgilanadi, innovatsion bozorga kirib borayotgan tovarlarning tovar tavsifnomalari va iste'mol xususiyatlari aniqlanadi. So‘ngra innovatsiyani sotish, ya'ni bozorda innovatsiyaning kichik partiyasi paydo bo‘lishi, uni ilgari surish, samaradorligini baholash va diffuziyalash amalga oshiriladi.

Quyidagi jadvalda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar tizimi ko‘rsatilgan (3.1.2-jadval).

3.1.2- jadval

**Innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar**

| Omillarguruhi | Salbiy ta'sir etuvchi omillar | Ijobiy ta'sir etuvchi omillar |
|---|---|---|
| *Iqtisodiy* | Investitsiya mablag‘larining etishmasligi | Zaruriy moliyaviy zahiralarning mavjudligi |
| *Texnologik* | Moddiy-texnika va ilmiy-texnikaviy ishlar uchun zarur bo‘lgan sharoitlarning talabga javob bermasligi. Mavjud texnologiyalarining eskiligi va hokazo | Yetarli darajada moddiy-texnikaviy baza va ishlab chiqarish texnologiyalari, xo‘jalik hamda ilmiy- texnikaviy infratuzilmaning mavjudligi |
| *Siyosiy* | Antimonopol qonunlar tomonidan cheklanganligi | Qonuniy chora-tadbirlarning yaratilishi |
| *Huquqiy* | Soliq, amortizatsiya, patentlash va litsenziyalashtirishning talabga javob bermasligi | Innovatsion faoliyatning rivojlanishini huquqiy ta'minlash |
| *Tashkiliy* | Tashkiliy tarkiblarning eskirishi | Bozor sharoitlaridan kelib chiqqan holda tashkiliy tarkibni takomillashtirishga moyilligi |
| *Boshqaruv* | Markazlashtirilgan avtoritar boshqaruv, axborotlar bilan ta'minlashning va subyektlar hamda ichki subyektlar munosabatlarining murakkabligi. Innovatsion jarayon bo‘yicha kelishuvning murakkabligi | Ishlab chiqarish tashkiliy tizimining muqobilligi, demokratik boshqaruvga asoslanishi, axborotlar bilan ta'minlanishi. Innovatsion jarayonni amalga oshirishda umumiy maqsadning shakllanishi |
| *Ijtimoiy-psixologik* | Ishlab chiqarish yo‘nalishining o‘zgarishi asosida yangi ish joylarining moslashuvi, mavjud ishlab chiqarish faoliyatini qayta tashkil etish. Ishlab chiqarish eski usullarining mavjudligi, ishlab chiqarish oldidagi qo‘rquv, omadsizlik | Ma'naviy rag‘batlantirish. Ijtimoiy tan olish, innovatsion mehnatga sharoit yaratish, talab darajasida psixologik sharoitlar yaratilishi |
| *Madaniy* | Subyektlar o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning talabga javob bermasligi, ishonchga, hurmatga asoslanmaganligi | O‘zining innovatsion mahoratini ko‘rsatishga sharoitning mavjudligi. Subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar tenglik, ishonchlilik munosabatlariga va hurmatga asoslanishi |

XX asrning ikkinchi yarmi innovatsion rivojlanish bo‘yicha hayratlanarli misollarni taqdim etdi. Jahon innovatsion maydonida o‘zlarining afzalliklarini ishga solishga barcha diqqatini qaratgan, o‘z milliy, ilmiy-texnikaviy va texnologik siyosatini shaklantirgan mamlakatlar raqobatbardosh bo‘lib chiqdilar.

## Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida tushuncha bering?
2. Oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida innovatsion jamg‘armalar asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. Xususiy sektor vakillarini innovatsion faoliyatining qanday turlari bor?
4. Ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalarni joriy qilish sohasida xalqaro hamkorlikni innovatsiyalarga ta'siri qanday?

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar


1. Atkinson, Robert D. Innovation economics : the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. https://www.youtube.com/watch?v=IkBp 1ntD3Zc Clay Christensen and Marc Andreessen at Startup Grind Global 2016
4. www.cyberleninka.ruInnovatsionnue modeli.

## 3.2. Iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish

Mamlakatimizda Yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va barcha tarmoqlarda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Har qanday tarmoqni rivojlanishi bevosita shu sohaga tegishli ilm-fan taraqqiyoti va ular negizida yaratilgan innovatsion texnologiyalar asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojlanishida ilm-fanning o‘rni katta ekanligini bugungi taraqqiyotimizda o‘z aksini topmoqda. Sababi, har bir aniq soha doirasida olib borilgan izlanishlarga asoslangan ilmiy-tadqiqot jamiyatning rivojlanishini birlamchi omili hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatni me'yoriy-huquqiy tartibga solish quyidagilarni ta'minlashi lozim bo‘lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish va joriy qilishni nazarda tutadi:

innovatsion faoliyat mahsulotlarini sotishdan olingan foyda va mablag‘lari ulushini imtiyozli soliqqa tortish hisobiga davlat, jamoat korxonalari, korxonalar va xususiy shaxslar o‘z daromadlarining sezilarli qismini innovatsion faoliyatga kiritishdan manfaatdorligi;

kooperatsiya bo‘yicha barcha hamkorlar va qatnashchilarning innovatsion g‘oyani tovar ko‘rinishigacha yetkazish va soliq to‘lovlarini kamaytirish yoki soliqlardan ozod qilish hisobiga ularni bozorda tijorat asosida sotish;

innovatsion faoliyat qatnashchilarining kafolatlangan va imtiyozli kredit olish imkoniyati;

ilmiy jamoalar, olimlar va mutaxassislarning ham intellektual mulk huquqlari himoya qilinishini ta'minlash;

innovatsion jarayon qatnashchilari, ijrochilarini hamda bu jarayonlarni moliyalashtiruvchi investorlarni ham sug‘urta himoyasi va umume'tirof etilgan ijtimoiy maqomini ta'minlash.

Aholi farovonligini oshirishning asosini mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va uning ilg‘or tarmoqlariga fan-texnika yutuqlarini olib kirish tashkil etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Bugun biz

davlat jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan investitsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajigimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.

**Texnologiyalar transferi markazlari (TTM)** ilmiy-texnik natijalarning tijoratlashuvini tezlatishi, kichik innovatsion korxonalar, jumladan, texnoparklar va innovatsion-texnologik markazlar tarkibida yaratishni ta'minlashi ko‘zda tutilgan (3.2.1-jadval).

**3.2.1- jadval**

**Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari[11]**

| Texnologiyaning rivojlanish bosqichlari | Texnologiyalar transferi bosqichlari |
|---|---|
| Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari bosqichlarini bajarish Texnologiyani amalga oshirish imkoniyatini tekshirish | Tadqiqot natijalarini e'lon qilish Patent arizalari berish Anjuman va ko‘rgazmalarda qatnashish Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari natijalariga egalikhuquqini sotish |
| Tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlarini bajarish Mahsulotni sinov namunasi Texnologiya prototipi Texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlash | Texnologiyani amalga oshirish uchun kichik korxona tashkil etish Texnologiyani sotish |
| Texnologiyani maromiga yetkazish Bozor namunalari yaratish Sinov tariqasidagi sotuvlar Servisni tashkil qilish Ruxsatnoma olish Sertifikatsiya | Mahsulotni ko‘paytirish (kichik seriyada) va sotish Foydalanuvchilarni o‘rgatish Dillerlarni o‘rgatish Servis Texnologiyani sotish Korxona aksiyalarini sotish Biznesni sotish |
| Sanoat texnologiyasi yaratish Ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish Mahsulotni sertifikatsiyalash va ishlab chiqarish Diversifikatsiya | Mahsulot va xizmatlarni sotish Servis Texnologiyani sotish Korxona aksiyalarini sotish Biznesni sotish |
| Ishlab chiqarishni kengaytirish Mahsulotlarni ko‘paytirish Ishlab chiqarishnisertifikatsiyalash Ishlab chiqarish va mahsulotniyangilash Diversifikatsiya | Mahsulot va xizmatlar sotish Servis xizmati Foydalanuvchilarni o‘rgatish Dillerlarni o‘rgatish Texnologiyani sotish Korxona aksiyalarini sotish Biznesni sotish |

Shuni ta'kidlash joizki, TTM tizimining samarali ishlashiga qator omillar to‘sqinlik qiladi. Ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish

"Ca.iHxoB C.A. HHHOBaaaoH (|)ao.an;iTHn oornKaparn. ^apcauk. - T.: T^HY. 2013. 24-25 6.

maqsadga muvofiq:

- mintaqalar miqyosida innovatsion jarayonlarni boshqarishning sust tashkil etilganligi;
- ko‘pchilik TTMda ichki va xorijiy bozorlarga chiqish bilan bog‘liq muammolar;
- TTM tashkil qilish va faoliyat ko‘rsatishi uchun resurslar bazasining yetarli emasligi;
- innovatsion faoliyat kuchayishini rag‘batlantiradigan me'yoriy-huquqiy asoslarni yetarli darajada emasligi.

Hozirda internet tarmog‘ida ommalashib borayotgan Cloud tizimi iqtisodiyotda ham o‘z ta'siriga egadir. Bunga misol sifatida texnologiyalar konsorsiumini tuzilishini keltirish mumkin. Unga ko‘ra, firmalar gorizontal yo‘nalishda koalitsiyalartuzishadi. Bu koalitsiyalarning maqsadi birgalikda innovatsiyalarni joriy etish, joriy etish bo‘yicha tajriba almashinish va birgalikda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdir. Ushbu ishlar texnologik innovatsiyalarni yaratishda tannarx pasayiga olib kelishini hisobga oladigan bo‘lsak, ular eng samarali hamkorlikda ishlarni tashkil etadi.

Hozirda ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, barcha resurslardan tejamli foydalanish va buning natijasida ichki hamda tashqi bozorda raqobatbardosh, innovatsion, yuqori texnologiyaga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish talab etiladi.

Ayniqsa, real sektor korxonalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish , raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor, innovatsion faoliyat tushunchalari mohiyatini o‘rganib olishimiz lozim.

O‘tgan asrning o‘rtalarida tobora rivoj topgan ilmiy-texnik revolyusiya, ishlab chiqarishning texnologik o‘zgarishlari o‘sha davrning barcha mulkdorlar, tadbirkorlar hamda iqtisodchilar diqqat markazida bo‘ldi. Bu kabi o‘zgarishlar ilmiy tilda - innovatsiya atamasi bilan ifodalana boshlandi. Bugungi zamonimizda - innovatsiya tushunchasi biron bir turdagi faoliyatni tarkibiy jihatdan yangilash, tubdan o‘zgartirish, xo‘jalik faoliyati subyektlari

tomonidan ilmiy-texnik tashkiliy, boshqaruv va boshqa yangiliklarning yaratilishi tarqalishi hamda joriy etilishini anglatmoqda.

Jahon amaliyotida “innovatsiya” atamasi bozorga tadbiq etilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki amaliy faoliyatda foydalanilayotgan ilg‘or texnologik jarayon yoki insonlar turmush sharoitini yaxshilash maqsadida yaratilgan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida belgilanadi. U hayotga tadbiq etilganidan keyin barcha xususiyatlarga ega bo‘lib ayirboshlash natijasida jamiyat a'zolariga ijtimoiy-iqtisodiy yoki ma'naviy naf keltiruvchi tovarlarga - innovatsiya deyiladi.

Fikrimizcha hozirgi zamon raqobat muhitida faoliyat yuritayotgan ilg‘or tadbirkor faqatgina innovatsiyalar, yangiliklar yordamida bozorda o‘zining mavqeini mustahkamlashi hamda daromadini yuqori darajasiga erishishi mumkin. Iqtisodiy sharoitlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonalarni innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Dunyoning aksariyat davlatlarida hukm surayotgan bozor iqtisodiyoti bozor subyektlari oldiga ilm-fan yutuqlari ya'ni innovatsion texnologiyalardan turmushimizning har bir jabhasida joriy etish va ulardan to‘liq foydalanish vazifasini qo‘ymoqda.

Aynan shu maqsadda, zamonaviy resurs tejovchi texnologiyalarni kichik va yirik korxonalar faoliyatiga tadbiq etish bosqichlari va usullarini, amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Korxonalar innovatsion rivojlanish strategiyasi rivojlantirish bo‘yicha zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Bizga ma'lumki, AQSH, Xitoy, Yaponiya,Germaniya kabi dunyoning eng rivojlangan davlatlari aynan innovatsion texnologik rivojlanish strategiyasini to‘g‘ri qo‘llaganliklari sababli jahonda mutloq ustunlikka erishganlar. Yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega mamlakatlar avvaldan kuchli innovatsion texnologik salohiyatga ega bo‘lib, sanoati rivojlangan hisoblanadi. Ular strategiyasining bosh maqsadi sanoatning mashinasozlik, avtomobilsozlik, to‘qimachilik kabi Yetakchi tarmoqlarni taraqqiy ettirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini qulay shakllantirish, yaratilayotgan kashfiyotlar va ixtirolarni ishlab chiqarishga tezkor tarzda yo‘naltirish va bu orqali iqtisodiy rivojlanishni yaqin davrlarga prognoz qilishdan iborat.

Bugungi kunda dunyoda barcha sohalarda sifatli o‘sishni ta'minlovchi

yangiliklarni amaliyotga dadil tatbiq etish jamiyatni va iqtisodiy rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchga aylanganini ko‘rsatmoqda. O‘zini iqtisodiyotida innovatsion modellarini va “aqlli” texnologiyalarni qo‘llayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqaror davlatlar hisoblanadi. Ularning izchil ravnaq topishi, jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligi hududidagi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarga asoslanadi. Iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat, ya'ni xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan fan-texnik, tashkiliy va boshqaruv sohalariga oid hamda boshqa turdagi yangiliklarni yaratib, ulardan foydalanish va keng yoyish iqtisodiyotni modernizatsiyalashning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Texnologik innovatsiyalar deganda yuridik shaxsning texnologik yangi mahsulotlar va jarayonlarni, shuningdek mahsulotlar va jarayonlarda sezilarli darajada takomillashtirishlarni, texnologik yangi va sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, xizmatlar ishlab chiqarilishi (yetkazib berilishi) bo‘yicha yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog‘liq faoliyati nazarda tutiladi. Texnologik innovatsiyalar yuridik shaxs tomonidan birinchi marotaba ishlab chiqilayotgan mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar va usullar shaklida (agar ular boshqa yuridik shaxslar tomonidan qo‘llanilayotgan bo‘lsa ham) bo‘lishi mumkin.

Texnologik innovatsiyalarning ikkita turi mavjud. Bular: mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar.

Sanoat ishlab chiqarishida mahsulot bo‘yicha innovatsiyalar texnologik yangi va takomillashtirilgan mahsulotlarni tayyorlash va joriy etishni o‘z ichiga oladi. Texnologik yangi mahsulot - texnologik xususiyatlari (funksional belgilari, konstruktiv yo‘l bilan bajarilishi, qo‘shimcha jarayonlar, shuningdek qo‘llaniladigan tarkibiy qismlar va materiallar tarkibi) yoki qo‘llanilish maqsadi prinsipial jihatdan yangi yoki yuridik shaxs tomonidan ilgari ishlab chiqarilgan shunga o‘xshash mahsulotdan sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovatsiyalar prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalardan, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo‘lishi mumkin.

“Texnologik konsorsiumlarning 4 turi mavjud:

ishlab chiqarish samaradorligini koalitsiyalar orqali takomillashtirish; o‘zgarmas kapitalga investitsiyalar kiritishdagi xarajatlarni bo‘lishish;

texnologiyalarni ortiqchalik samarsini oshirish uchun o‘zaro bo‘lishish;

narx diskriminatsiyasi orqali innovatsiyalar xarajatini o‘zaro taqsimlash.

Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot - bu yuqoriroq samarali tarkibiy qismlar va materiallardan foydalanish yoki undan ortiq texnik tarkibiy qismlarini qisman o‘zgartirish (kompleks mahsulotlarda) yo‘li bilan ishlab chiqarilishining sifat bo‘yicha xususiyatlari yaxshilanadigan va iqtisodiy samaradorligi oshadigan mahsulotdir.

Innovatsion texnologiyalar doirasidagi ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarga bag‘ishlangan adabiyotlarda xorijiy tajribalarga asoslanib biror tizim yoki korxonani har jihatdan rivojlanishi mustahkam milliy innovatsion tizim mavjudligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar eng muhim strategik resurs hisoblanadi. Chunki, sanoat va moliyaviy texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishi korxonalarda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi, intellektual potensialni oshishi, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarning ishlab chiqarilishi hamda mamlakatda valyuta zahiralarining jamg‘arilishi kabi iqtisodiy masalalarning ijobiy hal etilishiga olib keladi.

Innovatsiyalar haqida gap yuritganimizda milliy innovatsion tizimni shakllantirish muhim omillardan biri sanaladi. Bunday innovatsion tizimni tashkil etishdan asosiy maqsad innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, davlat ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish va xususiy mulk egalari, tadqiqotchilar va oliy ta'lim muassasalari o‘zaro aloqasini rivojlantirish hisoblanadi. Natijada innovatsiyalarni rivojlantirish jarayonlari tezlashishi ro‘y beradi.

Iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda eng avvalo institutsional qo‘llab-quvvatlash zarur. Bunda mamlakatni Yetakchi tarmoqlarini innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ixtisoslashgan xo‘jalik yuritishning yangi modelini shakllantirish talab etiladi. Innovatsion faoliyatni shakllantirish doirasida yagona huquqiy normalar tizimini yaratish,

unda innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi, ilm-fan sig‘imiga ega ishlab chiqarish sohasida asosiy atamalarni aniqlashtiruvchi, innovatsion biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash (respublika va hududiy darajada) choralari, shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish bilan bog‘liq bir asosiy me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish lozim.

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlanishiga zamonaviy moliya-kredit mexanizmi bilan ko‘maklashayotgan tizimlarga rag‘batlantirish mexanizmini yaratish, innovatsion faoliyatini moliyalashtirayotgan tijorat banklariga maxsus imtiyoz va pereferensiyalar tizimini o‘rnatish kerak. Innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari va soliqqa tortish umumiy darajasini pasaytirish yo‘li bilan ularning xo‘jalik yuritish sharoitini takomillashtirish, venchurli moliyalashtirish tizimini kengaytirish, yirik kompaniyalar, tijorat banklari, sug‘urta korxonalarning innovatsion biznes subyektlari bilan hamkorligini ta'minlashga erishish lozim. Innovatsion mahsulot bozorlari “muhit” va “sotish” o‘rtasidagi munosabatni kengaytirish, bunda ularning qimmatli qog‘ozlar, birinchi navbatda, korporativ bozorda, mehnat va resurslar bozorlarida, shuningdek, birjalar, sotuvlarda, yarmarkalar va auksionlarda faolligiga erishishni ta'minlash darkor.

Jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar texnologik yangi yoki texnologik jihatdan sezilarli darajada takomillashtirilgan ishlab chiqarish, shuningdek mahsulotlarini yetkazib berish usullarini ishlab chiqish yoki joriy etishni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yangi usullaridan foydalanishga yoki ularni birgalikda qo‘llashga, shuningdek tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo‘lishi mumkin. Bunday innovatsiyalar, odatda, korxonada ilgari mavjud bo‘lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki yetkazib berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lishi, shuningdek odatdagi usullar yordamida amalga oshirish imkoni bo‘lmaydigan texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

Jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalarni korxona birinchi bo‘lib joriy qilgan bo‘lishi muhim emas.

Texnologik innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi: mahsulotdagi

estetik (rangida, bezatilishida) o‘zgartirishlar; mahsulotning konstruktiv vazifalarini o‘zgartirmaydigan, uni tarkibiy qismi hisoblangan materiallar va komponentlarning ko‘rsatkichlariga, xususiyatlariga, narxiga yetarlicha sezilarli ta'sir ko‘rsatmaydigan texnik va tashqi ko‘rinishda sezilarsiz darajadagi o‘zgartirishlar;

vaqtinchalik talabni va korxona daromadlarini ta'minlash maqsadida korxona tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, ammo mahsulotlar, ishlar, xizmatlar bozorida yetarlicha ma'lum bo‘lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yish (boshqa ixtisoslik bo‘yicha bo‘lishi ham mumkin) evaziga ularning turlarini ko‘paytirish. Masalan, mashinasozlik zavodida mavsumiy talabdan foydalangan holda yozgi davrda boshqa ixtisoslik bo‘yicha mahsulotlar ishlab chiqarilishi;

ma'lum modeldagi qo‘shimcha dastgohlarni o‘rnatish, hatto ularni shu modelning oxirgi modifikatsiyaga almashtirish evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;

to‘laligicha boshqa korxona tomonidan ishlab chiqarilgan va tayyorlangan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish;

tashkiliy va boshqarish bo‘yicha o‘zgartirishlar.

Innovatsion faoliyatda davlat va xususiy sherikchilik asosida kooperatsiya aloqalarning turli shakllarini amalga oshirish, kichik texnologik zonalarni rag‘batlantirish va moliyalashtirish bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, ilmiy-texnik mahsulotlar bo‘yicha davlat buyurtmalari tizimini kengaytirishga erishish lozom. Innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun innovatsion xizmatlar bozori infratuzilmasini shakllantirish, maslahat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ilm-fan institutlarini rivojlantirish hamda professional innovatsion menedjment tizimini shakllantirish zarur.

Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil qilish va ushbu yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislar malakasini doimiy oshirib borish, shuningdek o‘quv, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni boshqarish masalalari bo‘yicha yangi innovatsion loyihalarni yaratish talab etiladi.

Iqtisodiyotni turli sohalarida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi innovatsion klasterlarni tashkil etish va ular

faoliyatini rag‘batlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu yo‘nalish innovatsion faoliyatni ilmiy-tadqiqot muassasalari, yirik sanoat korxonalari, moliyaviy tuzilmalar va hukumat organlari bilan klaster bo‘g‘inlari doirasila kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda ishtirok etayotgan subyektlar uchun o‘zaro barqaror manfaatli aloqalarni shakllantirish, tashqi va ichki bozorlarda raqobat ustunliklarga erishish o‘ta muhim vazifalardan hisoblanadi. Innovatsion klasterlarni shakllantirish va ularga innovatsion faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratish davlatning iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi va u alohida kichik innovatsion korxonalarni qo‘llab- quvvatlashga yo‘naltirilishigina emas, balki turli hajimdagi va turdagi faoliyatni birlashtiruvchi “yuqori texnologiyalar” tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirishga asoslanmog‘i lozim.

“Ko‘chirib o‘tkazish” strategiyasimavjud xorijiy ilmiy-texnika salohiyatidan foydalanish va yangiliklar kiritishni o‘z iqtisodiyotiga ko‘chirib o‘tkazishdan iborat. Bu strategiya birinchi navbatda, Yaponiyada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda foydalanilgan, AQSH, Angliya, Fransiya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarda xorijda talab yuqori bo‘lgan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish uchun yuqori samarali texnologiya litsenziyalar xarid qilingan, kelgusida fundametal tadqiqotlar va loyihalardan tortib to innovatsiyalarni joriy qilish, ularni mamlakat ichkarisida va jahon bozorida amalga oshirishgacha bo‘lgan butun innovatsion siklni ta'minlagan o‘zining ilmiy-texnik salohiyati yaratilgan.

“O‘zlashtirish” strategiyasishundan iboratki, arzon ishchi kuchiga tayangan o‘zining yo‘qotilayotgan ilmiy-texnik salohiyati bir qismidan foydalangan holda ilgari sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish o‘zlashtiriladi, kelgusida ishlab chiqarishga muhandislik-texnik hamkorlik qilish hamda iqtisodiyotning davlat va bozor shakllarini uyg‘unlashtirgan holda innovatsion faoliyatni kuchaytirishni ta'minlash, o‘zining ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstruktorlik ishlarini o‘tkazishga qodir bo‘lgan ilmiy-texnik salohiyat tiklanadi.

Mamlakatda innovatsion faoliyatni shakllantirish va ularni kengaytirish maqsadida quydagi chora-tadbirlarni ko‘rishi zarur (3.2.1-rasm):

**3.2.1- rasm: Iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘llari.**

• turli tarmoqlarda innovatsion klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha davlat tomonidan maqsadli innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;

• erkin iqtisodiy zonalarda hududiy biznesni rivojlantirish dasturlarini innovatsion loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari bilan uyg‘unlashtirish;

• innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash institutlari faoliyatini barcha darajada tarmoqlararo va ijrochi organlar bilan kelishilgan holda amalga oshirishni ta'minlash.

Shu bilan bir qatorda iqtisodiyotdagi korxonalarni innovatsion klasterlarga kirishini ta'minlovchi tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish, ularni zaruriy axborot ta'minoti bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash, klasterlar doirasida faoliyat yuritayotgan hukumat boshqaruv organlari, ilmiy- tadqiqot korxonalari va yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik masalalari bo‘yicha innovatsion maslahat markazlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu klasterlar doirasida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan korxonalarni moliyaviy tomondan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat va xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonlarga davlat va mahalliy byudjet mablag‘larinigina emas, balki venchur fondlar, yirik kompaniyalar va tijorat banklar kreditlarini jalb qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish lozim. Shu bilan bir qatorda, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro

moliyaviy resurslardan samarali jalb qilishga mas'ul bo‘lgan franchayzing kompaniyalarni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirda innovatsion iqtisodiy faoliyatini samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion, yuqori texnologiyaga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan korxonalar manfaatlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, ularning eksport salohiyatini oshirish va mamlakat eksport hajmida innovatsion mahsulotlar ulushini ko‘paytirish lozim. Bu jarayonlarda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun zaruriy infratuzilmani shakllantirish;

yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish;

yuqori qo‘shilgan qiymatga ega eksportbop va import o‘rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqish;

sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jaryonlarini chuqurlashtirish;

innovatsion korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xalqaro standartlar bo‘yicha litsenziyalash;

tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy va boshqa xatarlarni sug‘urta qilishni ta'minlash;

eksportyorlarga axborot-maslahat ko‘magini tashkil qilish hamda maxsus imtiyozlar tizimini taqdim etish;

innovatsion mahsulotlar yarmarkasi va ko‘rgazmalarini o‘tkazish, reklamani tashkil qilish va xorijiy davlatlarda sheriklarni topishga ko‘maklashish;

xalqaro bozorlarda milliy innovatsion mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha shart-sharoitlar yaratish zarur.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ushbu yo‘nalishi yuqori texnologiyaga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan korxonalarda eksport salohiyatini oshirish va ularning tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Jumladan, zamonaviy innovatsion infratuzilmani shakllantirishda

quyidagilarga:

davlat organlari boshqaruvining innovatsion shakillarini joriy etish;

hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o‘sishi, aholinig hayot darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashga qodir bo‘lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish;

innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish;

innovatsion iqtisodiyotni rivojlanishini ta'minlovchi normativ- huquqiy bazani takomillashtirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini uyg‘unligini ta'minlash;

mamlakatda yuqori texnologiyalar markazlari hamda chet el investorlari ishtirokida innovatsion markazlar faoliyatini tashkil etish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

ishlab chiqarishda resurs va energiya tejaydigan innovatsion texnologiyalarni, jumladan, muqobil energiya manbalaridan oqilona foydalanishning zamonaviy shakllarini keng qo‘llash orqali faol joriy etish;

soliqni saqlash sohasida insonlar salomatligini samarali davolashga imkon beruvchi ilg‘or innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish tizimni takomillashtirish;

agrar sohada innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalardan samarali foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash;

iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya, sanoat va boshqa innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;

innovatsiya faoliyati sohasida ilg‘or xorijiy (xalqaro) korxonalar bilan, shu jumladan ularni nou-xau, nanotexnologiyalar va yuqori texnologik tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning mahalliy bozoriga jalb qilish orqali hamkorlikni kengaytirish.

Shunday qilib, davlatning innovatsion iqtisodiyot tarmog‘i faoliyatini kengaytirishga ko‘maklashishi, samarali milliy innovatsion siyosatini olib borish, yuqori texnologiyaga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan korxonalar faolligini rag‘batlantirish, innovatsion

texnologiyalardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Bu borada rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarining boshqarishda innovatsion texnologiyalar faoliyatni strategik va tizimli tashkil etishga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, bundan aniq bir tarmoqda ishlab chiqarish samarali amalga oshirish, boshqaruvni markazlashtirish va innovatsion texnologiyalar faoliyatni yanada kuchayish jarayoni kelib chiqmoqda.

**Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Atkinson, Robert D. Innovation economics : the race for global advantage / Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. https://www.youtube.com/watch?v=RQSG dOmmlOClavton Christensen (Innovators Dilemma) at Startup Grind 2013 www.aup.ruRazvitie nauchnoy texniki.

## 3.3. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish.

Faol innovatsion siyosatni amalga oshirish muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion faoliyat bugungi kunda va yaqin kelajakda respublika iqtisodiyoti rivojlanishining muhim shartlaridan biri, ishlab chiqarish va tarmoqlarni modernizatsiyalashning real mexanizmlari bo‘lib hisoblanadi.

Innovatsion siyosat uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan va mamlakat qudrati va salohiyatining o‘sishida muhim omil, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va mustahkam rivojlanishning hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu esa strategik muhim ilmiy-texnika va istiqbolli innovatsion loyihalarni Yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, mahalliy innovatsion texnologiyalarni faollashtirishni ko‘zda tutadi.

Bizning fikrimizcha, mustahkam innovatsion jarayon uchun ilg‘or rivojlangan mamlakatlarning innovatsion faoliyatini yaxshi bilish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish zarur.

Innovatsion faoliyat davlat boshqaruvi orqali tartibga solinadi (muayyan qonunchilik va soliqqa tortish orqali, davlat va ma'muriy usullar, yirik davlat dasturlari, mudofaa qudratini mustahkamlash, axborot kommunikatsiya texnologiyalarni, biotexnologiyalarni, noan'anaviy energetika va boshqalarni rivojlantirish). Undan tashqari, iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyat mustaqil yirik koorporatsiyalar, universitetlar, venchur jamg‘armalar va boshqalar bilan muvofiqlashtiriladi.

Xorijiy mamlakatlarda innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning ilg‘or tajribalarini ikki guruhga ajratish mumkin:

iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Xitoy) tajribasi;

bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan rivojlangan mamlakatlar (Rossiya, Ukraina, Bellarussiya, Moldoviya, Ozarbayjon, Armeniya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston) tajribasi.

1.Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasi.

AQSH. Stenford universiteti qoshidagi “Silikon vodiysi” nomi bilan tanilgan birinchi va yirik ilmiy-tadqiqot va texnologik park, o‘z ichida butun bir yaxlit ilmiy-sanoat kompleksiga ega. Bu yerda boshqaruv vositalari va kompyuter tizimlari, mikroprosessorasboblari asosiy rivojlanishi mavjud. Shuningdek, bu yerda 1980yilda AQSHda ilk bor innovatsion jamg‘arma tashkil etildi. Innovatsion faoliyat AQSHning ko‘pgina davlat departamentlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi.Masalan, energetik, qishloq xo‘jaligi, mudofaa, aerokosmik kompleks va boshqalar.

Hozirgi kunda innovatsion ishlanmalarning korxonachisi bo‘lgan AQSHning ko‘pgina universitetlarida ilmiy park, transfer texnologiyalari bo‘yicha bo‘linmalar, texnologik innovatsion markazlar va boshqa infratuzilmalar, shuningdek ilmiy-texnik ishlarni innovatsion ishlanmalarga o‘tkazishni qo‘llab-quvvatlovchi davlat jamg‘armalari tashkil etilgan. Ushbu tuzilmalarning innovatsion faoliyati hukumat bilan bir qatorda yirik transkontenintal koorporatsiyalar tomonidan ham qo‘llab- quvvatlanadi.

Buyuk Britaniya. Innovatsion faoliyat beshta vazirlik tasarrufida bo‘lib, Innovatsiya va tajriba biznesi, Mudofaa, Atrof muhit va qishloq xo‘jaligi, Energetika va iqlim o‘zgarishi, Xalqaro rivojlanish vazirliklari qo‘llab-

quvvatlaydi. Mamlakatda ilmiy markazlar, universitetlar, kichik innovatsion firmalarning innovatsion ishlanmalarni qo‘llab quvvatlovchi rivojlangan va samarali amal qiluvchi tizimi qaror topdi. Ular innovatsion faoliyatni oltita maxsus kengashlar orqali moliyalashtiradi (oliy ta'lim muassasalari bo‘yicha, fan va texnologiyalarni tashkil etish sohasida, biotexnologiyalar, texnik va tabiiy fanlar bo‘yicha,tibbiy tadqiqotlar bo‘yicha va atrof muhitni o‘rganish bo‘yicha). Ajratilgan mablag‘lar Yetakchi universitetlar, yirik markazlar va noyob jahon miqyosidagi ilmiy laboratoriyalari - Rezerford, eplton va boshqalar, shuningdek xususiylashtirilgan ilmiy-tadqiqot muassasalariga taqsimlanadi. Innovatsion mahsulotni tijoratlashtirish bo‘yicha transfer texnologiyalari va bilimlarni uzatish, shartnomalar bo‘yicha maxsus sektorlar, shuningdek mintaqaviy rivojlanish agentligi va boshqalar shug‘ullanadilar.

Innovatsiya ishlanmalarining asosiy qisni universitetlarda amalga oshirilganligi tufayli, 1999- yil Buyuk Britaniyada Oliy ta'lim innovatsiya fondi tashkil qilingan. Innovatsiya sohasida Oksford, Kembridj va xalqaro universitetlarida innovatsiya fondlar tashkil qilingan. Kembridj universitetida innovatsiya parki tuzilgan, uni maxsus kompaniya boshqaradi. Bristol universitetida innovatsion fondlarni maxsus Biznes rivojlanishi tezlatuvchi Markaz boshqaradi. Ushbu hamma tadbirlar innovatsiya kompaniyalarini o‘z mahsulotlari bilan jahon bozoriga chiqishiga olib keladi.

Germaniya. Hukumat doimiy ravishda tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni oshirib boradi. Germaniyaning Iqtisodiyot va mehnat federal vazirligi ilmiy, texnologik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun, shu jumladan innovatsion jarayonlarni tartibga solish bo‘yicha qator imtiyozlarni ishlab chiqqan va amalga oshirmoqda. 1984- yilda 20- gektar maydonni egallaydigan tarkibiga 3 mindan ortiq yuqori malakali mutaxassislar kirgan texnologiklar parki qurilgan.

Xitoy. Xitoyda hozirgi kunda innovatsion faoliyat qizg‘in rivojlanish pallasida, so‘nggi yillarda ustuvor innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha 140 dan ortiq texnologiyalar tashkil etilgan. Ular mahalliy innovatsion texnologiyalar va boshqa innovatsion mahsulotlarni ichki va jahon bozorlariga faol yetkazib bermoqda.

2. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari - MDH tajribasi.

MDH davlatlarida innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish va boshqarish bo‘yicha butunlay boshqacha tizim yuzaga kelgan. Bu davlatlarning aksariyatida rivojlangan innovatsion infratuzilma yaratilmagan innovatsion sohadagi qonunchilik esa rivojlanish bosqichida turibdi. Xususan, MDHning qator davlatlarida (Ukraina, Moldoviya, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston) u yoki bu nomlanishda innovatsion faoliyat to‘g‘risida qonunlar qabul qilingan. Rossiyada 2011- yilda “Fan va ilmiy-texnika siyosati to‘g‘risida”gi Federal Qonunga (1996yilda qabul qilingan) qo‘shimcha 254-raqamli Federal qonunni qabul qilish orqali 4 shtrix maxsus bobi kiritildi. Boshqa mamlakatlarda (Belarussiya, Ozarbayjon) innovatsiya faoliyatining shu kabi qonuniy asoslarini shakllantirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Misol uchun, 2010-yilda Bellarussiya Prezidentining farmoni bilan milliy innovatsion tizim yaratildi. Mazkur tizim mamlakatda innovatsion faoliyatini barqaror rivojlanishini ta'minlovchi qonuniy, tuzilmaviy va funksional kontinentlarni o‘zida mujassamlaydi.

Ta'kidlash joizki, MDH davlatlarida innovatsion faoliyat faqatgina tashkiliy shakllanish bosqichida turibdi, shuning uchun innovatsion infratuzilma va texnoparklar tashkil etilmoqda. Misol uchun Rossiyada ushbu faoliyatga oxirgi misollardan biri sifatida Federal qonun asosida innovatsion markaz tashkil etilganini ta'kidlash mumkin. Yetakchi akademik institutlar va ilmiy markazlarda innovatsiya faoliyati bo‘yicha muayyan tajriba to‘plangan. Ustuvor ilmiy va innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha butun ilmiy muassasalar tizimini birlashtiradigan Novosibirsk akademik shaharchasi kompleksi va universiteti, Kurchatov ilmiy markazi, Zelenograd, Pushin, Fryazinsk va Arzamazsk ilmiy markazlarining tajribalari ma'lum. Rossiya, Ukraina va Bellarussiya akademiyalarida innovatsion faoliyat va ilmiy hajmdor mahsulotlarni yaratishda muayyan tajriba to‘plangan.

Innovatsion klaster texnologiyalarini qo‘llash butun dunyo bo‘ylab anchagina keng rivojlandi. Aksariyat Yevropa davlatlari o‘zlari uchun eng maqbul bo‘lgan klasterlar asosida iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishdi. Bunda rivojlangan mamlakatlar hukumatlari o‘z kuch harakatlarini mavjud klasterlarni qo‘llab-quvvatlash va yangi tarmoqli tuzilmalarni yaratishga qaratmoqdalar. Davlat nafaqat innovatsion

klasterlarni yaratish tashabbuskori, balki tashkil etiladigan klasterlarning faol ishtirokchisi ham hisoblanadi. Misol sifatida Germaniya tajribasini olish mumkin. Germaniyada 1995-yildan beri Bio Regio nomli biotexnologik klasterlar tizimi faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur klasterlashtirish yo‘nalishi Buyuk Britaniyada ham faol tarzda rivojlanmoqda. Edinburg, Oksford va Janubiy-SHarqiy Angliya hududlarida biotexnologik firmalarning faoliyatini yo‘lgan qo‘yish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Jahon tajribasida klasterlar asosida iqtisodiyotni rivojlantirishning bir nechta markazlari mavjud bo‘lib, ular innovatsion klasterlarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular quyidagilar: Amerika, G‘arbiy Yevropa, Osiyo va Lotin Amerikasi modellari. YUqorida tilga olingan modellarning solishtirma xarakteristikasi berilgan (3.3.1-jadval).

**3.3.1-jadval Xalqaro iqtisodiyotdagi klaster modellarini solishtirma xarakteristikasi**

| Qiyoslash mezonlari | Amerika modeli | G‘arbiy Yevropa modeli | Osiyo modeli | Lotin Amerikasi modeli | Rossiya model |
|---|---|---|---|---|---|
| Klaster tashkil etish maqsadi | Axborot tarqatish, marketing ishlarini yuritish, logistika masalalar | Innovatsion rivojlanishni avj oldirish maqsadida tarmoqli tuzilmalar | Subshartnoma asosida ishlab chiqarishni optimallashtirish innovatsion rivojlanish barqarorligi | Tor ixtisoslik yo‘nalishlarda innovatsion jarayonlarni kuchaytirish | Tarmoqli tuzilmalarni rivojlantirish |

Xorijiy davlatlardagi innovatsion klasterlarning rivojlanishi tahliliga ko‘ra, mazkur tuzilmalarning asoslari sifatida texnoparklar,texnologiyalar, yuqori texnologiya hududlarini e'tirof etish mumkin.

Ma'lumki, innovatsion jarayon texnologiyalar transferi asosida yotadi.Texnologiyalar transferi o‘zining chiziqli ko‘rinishda rivojlanishiga muvofiq qo‘yidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

fundamental ilmiytadqiqotlar;

amaliy tadqiqotlar;

innovatsion ishlanmalar;

yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;

marketing va texnologiyalar tijorati (tayyor mahsulotlarni bozorga

chiqarish).

Texnologiyalar transferining barcha bosqichlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlarni amalga oshirish zarur:

olimlar tomonidan yaratilgan yangi g‘oyalar va yangiliklar zarur;

g‘oyadan to ilmiy hajmdor mahsulotga aylanish mumkin bo‘lgan real patentlangan ilmiy natijaga bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tish lozim. Buning uchun yetarli moddiy-texnik, tajriba-eksperimental va moliyaviy ta'minot kerak bo‘ladi. Bu yerda ishlab chiqarish tarmoqlari tomonidan investitsiya berilishi muhimdir;

ilmiy ishlanma ishlab chiqarish tarmog‘ining amalda qiziqishini uyg‘otishi va uni texnologik jarayonlarga joriy etilishi lozim;

sanoat sinovi uchun ishlab chiqarish tarmog‘ida tegishli infratuzilma va sharoit yaratilgan bo‘lishi zarur;

innovatsion mahsulot ichki va xalqaro bozorlarda to‘lovga qodir talabga ega bo‘lishi lozim, ya'ni import o‘rnini bosadigan va eksportga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Xususiy vaaksioner kapital, venchur kapital ishtirokida, innovatsion jarayonni tashkil qilish, uni barcha bosqichlarida innovatsiyalarni amalga oshirish va taqdim etilgan maqsadli investitsiyalar mavjud sanoatga innovatsiyalarni targ‘ib qilish lozim.

Davlat yoki boshqa korxonalar topshirig‘iga asosan innovatsion jarayon oxirgi bosqichni tashkil qilish va boshqarish orqali menedjerlar guruhini ishga solish va zaruriy infratuzilmaniyaratish orqali amalga oshiriladi.

Shuni qayd qilish kerakki, ko‘pgina mahalliy ilmiy ishlanmalar butun sharoitda amalda bo‘lgan texnologiyalar va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning guruhiga to‘g‘ri kelmaydi. Ishlab chiqaruvchilarga tayyor va yaxshi reklama qilingan yangi texnologiya yoki mahsulotlarni sotib olish, ularning ishlab chiqarishdan ko‘ra osonroq hisoblanadi. Respublika ishlab chiqaruvchilari hali ham yangi mahalliy ishlanmalarga mablag‘larni ishonchsiz qo‘ymoqda.

Davlat amaliy ilmiy-texnik dasturlari darajasida ilmiy loyihalarni moliyalashtirishda bu ishlarga qiziqqanlarni sanoat tomonidan ishtirok etishini ta'minlash va ayniqsa tarmoqlar,respublikaning Yetakchi sanoat

obyektlari va ularning moliyaviy ishtiroki bilan yaratiladigan venchur fondlari loyihalar amaliy ishlanmalarning birinchi monitoringgini olib borish hamda innovatsiya bosqichiga o‘tkazishi zarur. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishda innovatsion loyihalarni venchur fondlari orqali moliyalashtirishi kerak.

### Takrorlash uchun savollar

1. Zamonaviy innovatsion marketing strategik ko‘rinishlarini sharhlab bering?
2. Yuqori texnologik tovarlarning innovatsion marketing xususiyatlari qanday tavsiflanadi?
3. Yangi innovatsion tovarlarni ishlab chiqarishda maqsadli bozorning tahlili.?
4. Innovatsion marketing strategiyasida texnologiyalar transferasi qanday tashkil etiladi?

### Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage / Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. https://www.youtube.com/watch?v=omYJhCLi9XIAn Insight, An Idea with Clayton Christensen - World Economic Forumwww.aup.ruIntellektualn Nykapitalkaksredstvoinnovatsiy.

## 3.4. Korxonalarda eksport salohiyatini oshirishda innovatsion marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish

Marketing texnologiyalarini qo‘llar ekan, korxona maqsadli segmentda ishlashi, xaridorlarning ehtiyojlarini chuqurroq tushunish hisobiga maqsadli segmentda sotuvni ta'minlashi, xaridorlar ehtiyojlarini va bozorning

rivojlanish tendensiyalarini yaxshiroq bilish hisobiga boshqa kompaniyalar bilan muvaffaqiyatli raqobat qilishi, korxona maqsadlariga qarab foydalilikni oshirishi yoki bozorda kattaroq ulush egallab olishi mumkin.

Marketing texnologiyalari bu - firmaning bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yo‘naltirilgan usullardir. Beshta asosiy marketing texnologiyalari mavjud: segmentlash, yo‘naltirish, joylashtirish, tahlil qilish (jumladan, sotuvni), bashoratqilish[12].

Bunda bir necha turdagi innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalaniladi. Ularga axborot-marketing texnologiyalari, SRM, integratsiyalashgan marketing texnologiyasi, brend texnologiyasi, tarmoqlimarketing texnologiyasi, merchendayzing marketing texnologiyasi, virusli marketing texnologiyasi, kross marketing texnologiyasi, Ca11-markaz, mobil marketing texnologiyalarini kiritish mumkin.

Axborot marketing texnologiyalari bu eng yangi axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda mahsulotni ilgari surish orqali sotuvni oshirish va yaxshilash borasida biznes yuritish bo‘yicha qator texnikalardir.

Bozorga samarali yo‘naltirilganlikni ta'minlaydigan axborot tizimlari SRM sinfiga oid tizimlar hisoblanadi. Ushbu tizimlar aynan ko‘rsatkich uchun uzoq muddatli raqobatli ustunlik hisoblangan «sodiq» mijozlar keng bazasini yaratishga yo‘naltiriladi. Bunday tizimlar 90 yillarning o‘rtalarida vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi paytda rivojlanish bosqichida turibdi.

Yuqorida keltirilgan ta'rifga ko‘ra, SRM bu - mavjud va potensial mijozlar haqida barcha axborot manbalarini integratsiya qilish va ulardanmaksimal darajada foydalanish imkoniyatidir. Shunday qilib, SRM texnologiyalari birinchi navbatda, axborot to‘plash, qayta ishlash vasamarali foydalanish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Mamlakatimizda SRM tizimlar endi ommalashmoqda. Turli seminarlar, taqdimotlar o‘tkazilmokda, dasturiy mahsulotlar namoyish etilmoqda. Biroq SRM texnologiyalarniommalashtirish bu aksiyalarda hozirgacha asosiy e'tibor mijozlar bilan mahsulot va xizmatlarni ilgari surish, sotish va qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha uzluksiz aloqa

---

[12]Ильичева, И. в. Маркетинговые технологии: учебно-методическое пособие / N. в.Ильичева. - Ульяновск: УлгтУ, 2012 - 54 с.

qilish imkoniyatiga, ya'nijarayon faolligiga qaratiladi. Ushbu faoliyat SRM texnologiyalarning juda muhim elementi hisoblanadi. Biroq u mijozga yo‘naltirilganlik strategiyasi berishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarning faqat bir qisminigina amalga oshiradi.

SRM strategiyalarni amalga oshirishda ham tezkor ham strategik tahlilni ta'minlashi, korxonaning sotuv va marketing sohasida boshqaruv qarorlari qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash va vaziyatni baholashi lozim bo‘lgan vositalar ham bundan kam ahamiyat kasb etmaydi. SRMtizimlarida bunday vositalar yo‘qligi ularni joriy qilish bo‘yicha loyihalar muvaffaqiyatsizligining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

SRM atamasi bilan qoidaga ko‘ra, nafaqat mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish funksiyalaridan iborat bo‘lgan axborot tizimlarini, balki mijozga yo‘naltirilgan strategiyaning o‘zini ham belgilanadi. Ushbu strategiyaning mohiyati shundan iboratki, mijozlar bilan eng qalin aloqalar o‘rnatish uchun mijozlar, sotuv, marketing tadbirlariga javoblar, bozor tendensiyalari haqida turli axborot manbalarini birlashtirish lozim.

SRM strategiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan axborot texnologiyalarini tasniflash uchun uning asosida yotadigan quyidagi tamoyillarni keltirib o‘tamiz:

mijozlar bilan barcha o‘zaro aloqa holatlari haqidagi barchama'lumotlar tezkor joylashtiriladigan va undan yagona (umumiy, birlashtirilgan) axborot ombori mavjudligi;

ko‘plab o‘zaro aloqa kanallarini boshqarishning bir-biriga moslanishi. Ko‘rinib turibdiki, mijoz bilan aloqa usulidan (email bo‘yicha) sotuv bo‘yicha menejer mijoz haqida to‘liq axborot olishi lozim;

mijozlar haqida to‘plangan axborotni doimiy tahlil va mos keluvchi qarorlarni qabul qilish, masalan, mijozlarning kompaniya uchun muhimligi, mijozning ehtiyojlariga muvofiq unga individual yondashuv ishlab chiqish asosida ularning ustuvorliklarini aniqlash.

Mos ravishda, marketingni rejalashtirish metodologiyasida ikkita qismni ajratish mumkin.Birinchidan ma'lumot to‘plash va qayta ishlash, ikkinchidan boshqaruv marketing qarorlari qabul qilish. Ma'lumot to‘plash va qayta ishlash har bir korxona uchun o‘ziga xos sanaladi. Ular korxona turi,

texnologik imkoniyatlar va an'analarga bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi kunda korxonalarning marketing sohasida ixtisoslashgan dasturiy ta'minoti o‘sib borayotgan ehtiyojlarini faqat SRM tizimlargina to‘liq darajada qondirishi mumkin. Bunday tizimlarda ma'lumot to‘plash va qayta ishlash imkoniyatlari dasturlash, statistika va matematika sohasida mutaxassis bo‘lmagan marketologlarga dasturiy-matematik vositalardan emas, balki o‘zining bozor borasidagi bilimlaridan foydalanib, marketing axborotlari sifat tahlilini o‘tkazishga yordam berishi lozim.

Virusli marketing bu - shunday strategiyaki, unda tovar, xizmat yoki ularning reklamasi kishiga shu qadar ta'sir ko‘rsatib, uni mahsulot yoki xizmatni tarqatish g‘oyasi bilan «kasallantirali» va uning o‘zi faol reklama tarqatuvchiga aylanadi. Bu kishining u xaqida do‘stlari va tanishlariga o‘zi mamnuniyat 6nlan gapirib beradigan, unga yoqadigai reklamadir.

Virusli marketing bu - brend (tovar, xizmat) xaqida xabardorlikni oshirish uchun mavjul ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan marketing texnikasi.

Virusli marketing bu e-mailmarketing uchun xos bo‘lgan uslubiy tamoyillar bo‘lib, ular shaxsning marketing xabarini boshqa shaxslarga yetkazishini rag‘batlantirishga asoslanadi, bu esa ushbu xabarning eksponensial o‘sishi uchun salohiyat yaratadi. Huddi viruslar kabi, bunday texnologiyalar uzatilgan xabarlar sonini oshirish uchuy har kanday imkoniyatdan foydalanadi.

Virusli marketing - brend (tovar, xizmat) haqida xabardorlikni oshirish uchun odamlarning o‘zidan foydalanadigan marketing texnikasi. Bu «og‘izdan og‘izga» marketing kommunikatsiyasidan foydalangan holda axborotni tarqatish, mish-mishlarni boshqarish texnologiyasi, yashirincha marketing elementi, tavsiyalar bo‘yicha marketing yoki «uzunquloq radio» deb atalishi ham mumkin.

Hozirgi paytda virusli marketingning eng tarqalgan vositasi internet hisoblanadi.

Virusli marketing bu - tovar, xizmat yoki ularning reklamasi insonga uning ma'lum bir kontentni tarqatish g‘oyasini «yuqtiradigan» va o‘zi faol retranslyatorga aylanadigan strategiya. Virusli marketingga e'tibor kattaligi hozirgi kunda maqsadli muloqot doirasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri

kommunikatsiya imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Virusli marketingning siri shundan iboratki, u odamlarning axborot va xabarlar bilan o‘rtoqlashish odatidan foydalanadi. Kishi kulgili video, chiroyli musiqa, g‘ayriodatiy fotosurat olgach, birinchi o‘rinda ularni o‘z do‘stlariga yetkazishga harakat qiladi va shu tariqa olingan fayl tarmoq bo‘ylab tez tarqaladi[13].

Tarmoq marketingi bu - kompaniyaning mustaqil vakillari yoki distribyutorlar tomonidan mahsulot yoki xizmatlar haqida axborotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarqatish bilan bog‘liq biznes. Tarmoq marketingining asosiy vazifasi maksimal sondagi odamlarni axborot bilan qamrab olish hisoblanadi. Tarmoq marketingining zamonaviyroq sanalgan MLM (Multi-Level Marketing) tushunchasi «Ko‘p tarmoqli marketing» sifatida izohlanadi. Tarmoq marketingida mahsulot yoki xizmatni tarqatishga juda ko‘p odam jalb qilinadi. Tarmoq marketingi sohasida faoliyat yuritadigan juda ko‘p kompaniyalar mavjud. Har qanday mahsulot yoki xizmat bugungi kunda tarmoq marketingi tizimi yordamida tarqatiladi[14]

Tarmoq marketingi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotuv usuli bilan chakana savdoning eng tarqalgan varianti. Tarmoq marketingi uchun tovar ishlab chiqaruvchi va sotuvchi o‘rtasida ulgurji savdo firmalari yo‘qligi xarakterli tovarning butun harakati yangi ustama narxlar yuzaga keltirmagan holda tarqatuvchilar tarmog‘ida ro‘y beradi. Keng tarmoqlangan tarqatuvchilar tarmog‘i vujudga keladi. Tovar ishlab chiqaruvchi kompaniya sotuv hajmini oshirganlik uchun qo‘shimcha chegirmalar taqdim etgan holda tarmoqning o‘sishini rag‘batlantiradi. Tarmoq marketingida qoidaga ko‘ra ommaviy axborot vositalarida reklama kampaniyalari o‘tkazilmaydi - sotuvchining o‘zi tovarni xaridorga taqdim etadi, tovar xususiyatlari haqida ma'lum qiladi, uning afzalliklarini namoyish etadi.

Tarmoq marketingi bu - tovar va xizmatlarni inson bilan insonning bevosita aloqaqilishidan foydalangan holda ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berish ko‘zda tutilgan tarmoq (ko‘p pog‘onali) korxona yaratishni nazarda tutadigan marketing konsepsiyasi. Tarmoq

---

[13]Зварич Э. Отличия скрытого маркетинга от вирусного и партизанского Э.Эварич. Рекламодатель: теория и практика. - 2010. - К95. - С. 56-61.

[14]www.marketing.kharkov.ua/marketing/setevoy-marketing.html

marketingi harakatlantiruvchi kuch sifatida amal kiladi.

Brend mavjudligi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishining albatta qilinishi kerak bo‘lgan sharti umumiy firma uslubiga - korxona obrazining vizual va mazmuniy birligiga rioya qilish hisoblanadi. Firma uslubining elementlari quyidagilar hisoblanadi: mahsulot nomi, logotipi, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi, firma nomi, firma ranglari, korxona xodimlarning maxsus kiyimlari ranglari va uslubi, shuningdek, korxonaga tegishli bo‘lgan boshqa intellektual mulk obyektlari.

Brendlash tovar belgilarini bozorga ilgari surish tor ma'nosida poligrafiya usullari, shelkografiya, gul tikib bezash, bosma naqsh usullari,reklama, jumladan, ommaviy axborot vositalaridagi reklama yordamida amalga oshiriladi.

Brendni tovar, xizmat yoki kompaniya bilan bog‘liqravishda tasavvur qilinadigan kompleksli tushunishda bunday obraz shakllantirishning barcha jihatlarini hisobga olish muhim. Provayderishlab chiqaruvchi va iste'molchimijoz o‘rtasida kommunikatsiyalar jarayonida barcha sezgi organlari - ko‘rish, eshitish va harakatni his qilish organlari ishga tushadi. Shu sababli, brendlashga to‘laqonli kompleksli yondashuvda shuningdek, firma ovoz bilan rasmiylashtirishi (musiqiy logotip, firma oxangi), kinestetik rasmiylashtirish (aroma-imzo. aroma-marketing, va shunga o‘xshash muqobil marketingshakllari) haqida gapiriladi.

Samarali brendlash uchun brenddan o‘rin olgan barcha tasavvurlar va tavsifnomalar kompleksini yetkazadigan personaj tobora ko‘prok foydalanilmoqda. Personajdan foydalanish brend bilan muvaqqat darajada ham (reklama kampaniya), doimiy darajada ham (logotip va nom bilan birgalikda brendbukka kiritilgan) ishlashga imkon beradi. Personaj brend va uning tavsifnomalarini aks ettirilishi ham, iste'molchini aks ettirishi va shu tariqa uning kutilayotgan iste'mol reaksiyalari va tasavvurlarini ko‘rsatishi ham mumkin.

Brending bu - uzoq davr davomida savdo markasi yoki markasiz mahsulotning uni yakuniy iste'molchi uchun yanada jalb etuvchan qiladigan qo‘shilgan qiymati, emotsional yoki oqilona “belgisini” yaratish orqali brend

imidjini shakllantirish jarayonidir[15].

Brending quyidagicha ta'riflanadi: xaridor ongida tovar obrazini yaratish, tovar belgisi obrazining nufuzi, sifati, mashhurligi va jalb etuvchanligini qo‘llab-quvvatlash,belgilangan tovar markasiga nisbatan uzoq muddatli xaridorlar afzal ko‘rishini shakllantirishdir.

Kross-marketing - bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalish bo‘yicha iste'molchilarni jalb qilishga imkon beradigan texnologiya eng katta foyda keltiradigan texnologiya hisoblanadi.

Usulning mohiyati quyidagidan iborat bo‘lib, ikki yoki undan ortiq kompaniya o‘z mahsulotlarini ilgari surish uchun birgalikda aksiya tashkillashtiradi. Bunda reklama qilinadigan tovar yoki xizmatlar bir-biriga yo‘ldosh bo‘ladi va go‘yoki bir-birini to‘ldirib turadi. Kross-marketing turli tovarlar va xizmatlarni ilgari surishda faol qo‘llanadi.

Call-markaz bu - ko‘p sonli telefon qo‘ng‘iroqlari bilan ishlash tizimi. Umuman olganda, faqat bitta korxonaehtiyojlari uchun ishlaydigan “ichki” Call-markazlar mavjud (masalan, uyali aloqa kompaniyasining abonentlar xizmati), lekin ko‘pchilik hollarda sall-markaz turli resurslar bilan ishlash va buning hisobiga pulni tejash maqsadida inson va texnika resurslaridan parallel ravishda foydalanishga imkon beradi.

Call-markazning har bir operatori tizimga kirish uchun o‘z nomi va paroliga ega bo‘lib, uning ayni paytda sall-markaz xizmat ko‘rsatayotgan turli mavzulardagi qo‘ng‘iroqlarga xizmat ko‘rsatishdagi malakasining tavsifi ularga bog‘langan bo‘ladi. Birorta telefon raqamidan qo‘ng‘iroq kelib tushganda tizim avtomatik ravishda qo‘ng‘iroq qaysi raqamdan kelib tushgani va qaysi mavzuga mansub ekanligini aniqlaydi. Shundan keyin, mavzuni aniqlagach, tizim qo‘ng‘iroqni suhbat mavzusida javob bera oladigan bo‘sh operatorga yo‘naltiradi.

Call-markazlar iskoniyatlarining rivojlanishida navbatdagi qadam IP kanallar (elektron pochta, chat va forumlar) orqali iste'molchilar bilan muloqot qilish imkoniyatlarining qo‘shilishi hisoblanadi va hosil bo‘lgan struktura “kontakt markaz” nomini oladi.

---

[15]Ильичева, И. В. Маркетинговые технологии: учебно-методическое пособие / И. В.Ильичева. - Ульяновск: УлгтУ, 2012. - 78 с.

Internetglobal miqyosda sotuv hajmini oshirish uchun mo‘ljallangan yangi texnologiyalar taklif etadi. Intranet va extranet ilovalari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak bo‘lgan internetdagi korporativ web-sahifa biznesning asosiga aylanmog‘i lozim. Marketing tashabbuslari amalga oshiriladigan asosiy joyga web-sahifa aylanadi, chunki bu iste'molchi eslab qoladigan asosiy narsadir. Tashrif buyuruvchi kompaniya sahifasiga tashrif buyurishi bilan, asosiy vazifa uni kerakli joyga yo‘naltirish va unga amalga oshishi lozim bo‘lgan harakatlarda yordam berishi qisoblanadi.

Kompaniyalar va iste'molchilar o‘rtasida axborot ayirboshlash uchun web-ilovalar, pochta dasturlari, tarmoq konferensiyalari va chatlardan foydalaniladi. Bu ilovalar juda ommalashgan, foydalanish uchun sodda bo‘lib, barqaror ishlashi bilan ajralib turadi, Shu sababli, korxonaga maksimal darajada muvafaqqiyat ta'minlaydigan variantlarni tanlab olish uchun ularning qanday ishlashini bilish zarur.

Internet marketing texnologiyasidan kutilayotgan asosiy vazifa nafaqat yangi iste'molchilar topish, balki saytga mavjud ist'molchilarning qaytishini ham kafolatlashdir. Buning uchun uning xodimlari iste'molchilar savollariga tez va aniq javob beradigan hamda ularga yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda tezkor yordam ko‘rsatadigan sotuvga ko‘maklashish xizmatini tashkil qilish zarur. Mijozlarning va ularning so‘rovlari o‘ziga xosliklarini yaxshiroq bilib olish uchun marketing ma'lumotlarini to‘plash va tahlil qilish, shu tariqa, biznes uchun muhim qarorlarni axborot bilan qo‘llab-quvvatlashni ta'milashi lozim.

Mobil marketing - ularni amalga oshirishda uyali aloqa (mobil) telefoni, smartfon yoki cho‘ntak portativ komp'yuteri (KPK) foydalaniladigan kommunikatsiyalar interaktiv marketing vositasi[16].

Mobil marketingning asosiy afzalliklari - reklama kampaniyasiga boshqa vositalarni integratsiya qilish hisobiga reklama imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, korxonalar faoliyatida innovatsion marketing texnologiyalari usullaridan samarali foydalanish orqali tabiiy

---

[16]Ульяновский А.В. Маркетинговое коммуникации: 28 инструментов миллениума / А.В. Ульяновский М.: Эксмо, 2008. - с.17

resurslardan oqilona foydalanish, yangi raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni va xizmatlar ko‘rsatishni o‘zlashtirish, ushbu mahsulotlar va xizmatlar bilan nafaqat ichki bozorga, balki jahon tovar va xizmatlar bozoriga kirib borish, umuman korxona iqtisodiyotini yuksaltirishga hamda samarali faoliyat yuritishiga muhim ahamiyat kasb etadi.

## Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsiya faoliyatiga davlatning faol aralashuv strategiyasining maqsadi nimadan iborat?
2. Ilmiy faolliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini tushuntiring?
3. Ilmiy-texnik raqobat nima?
4. Innovatorlar mehnatini rag‘batlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish yo‘llarini aytib bering?
6. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik shartnomalarni ahamiyati.
7. Innovatsion texnologiyalarni yaratishda hozirgi davr ilm fanning ahamiyati.
8. O‘zbekistonda intellektual mulk yutuqlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage / Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. https://www.youtube.com/watch?v=omYJhCLi9XIAn Insight, An Idea with Clayton Christensen - World Economic Forum

4. www.aup.ru innovatsionnue sistemu natsiy.

# 4- BOB. MAMLAKATIMIZNING MILLIY INNOVATSION TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

## 4.1. O‘zbekiston milliy innovatsion tizimi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ichkiva tashqi bozorlarda ham xaridorgir, ilm talab va yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishning o‘rni katta. Shu bois, butun dunyoda yangi va ilg‘or texnologiyalarni bozor qiymati oshib bormoqda. O‘zbekiston bu yo‘nalishda o‘ziga xos salohiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda davlatimiz rahbarining ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotgani tufayli ushbu salohiyat yuksalib bormoqda. Har yili istiqbolli ilmiy g‘oya va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari ajratilmoqda. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida ro‘yobga chiqarilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar jahon ilm-fani uchun ham katta ahamiyatga egadir. Olimlar o‘z ishlarini, birinchi navbatda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar oldida turgan aniq vazifalarni hal etishga yo‘naltirayotir.

Innovatsion salohiyatni oshirish kichik korxonalarni rivojlantirish bilan bog‘liq. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik korxonalar katta korxonalarga qaraganda, 4 barobar ko‘p innovatsiyalar yaratadi yoki ilmiy tadqiqotga kiritilgan har bir dollarga kichik innovatsion korxonalar 2,5 barobar ko‘p mahsulot yaratadilar. Korxonalarda innovatsion salohiyatni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ilmiy-texnik salohiyat (ilmiy darajaga ega xodimlar soni, bir xodimga to‘g‘ri keladigan ratsionalizatorlik takliflar soni, patentlar soni va boshqalar);
- kommersializatsiya ko‘rsatkichlari (ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmida yangi mahsulot ulushi, litsenziya shartnomalari soni va boshqalar);
- bajarilayotgan ishlarning davomiyligi (innovatsion davrning kattaligi);
- innovatsiyaning boshqarilayotgan tizimi tavsifi (korxonada innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish shakllari, yuqori darajadagi rahbarlarning innovatsion loyihalarni amalga oshirishda qatnashishi, innovatsion faoliyatga qatnashuvchilarga erkinlik darajasini ta'minlanishi).

Innovatsion faoliyat maqsadlarni amalga oshirish miqyosi va

xususiyatlardan kelib chiqib, innovatsion strategiyani ishlab chiqish mumkin. Innovatsion strategiya korxonaning uzoq muddatga rivojlanishida innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasidir. Innovatsion o‘zgarishlar raqobat afzalliklari asosida o‘rganilib, quyidagi strategiyalar ishlab chiqiladi:

- differensiatsiyalash;
- xarajatlarni pasaytirish;
- eng yaxshi qiymat.

“Innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini misollarda ko‘rib chiqish materialni tushunishni yanada soddalashtirish lozim. Shunday ekan innovatsiyalarning turli mamlakatlar, xususan, Xitoy, Tayvan, Koreya va Singapurlar misolida mamlakat sanoatida va iqtisodiyotining o‘sishidagi ahamiyati e'tiborga sazovordir. Ularning innovatsion rivojlanishi boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan ancha tez bo‘lganligi sababi, bu mamlakatlar innovatsiyalarni yaratish uchun texnologiyalarni xorijdan sotib olib, o‘zlari uni takomillashtirish ustida ishlashgan.

“Milliy innovatsion tizim” tushunchasini fanga dastlab amerikalik olim K.Frimen 1987 yilda kiritgan. “Milliy innovatsion tizim” turli istitutlarni birgalikda yoki alohida yangi texnologiyalarni yaratishga hissa qo‘shgan va hukumat a'zolarining yangi siyosatni ishlab chiqash va amalga oshirishga ta'sir etuvchi innovatsion jarayondir. U o‘zaro bog‘langan institutlar tizimi bo‘lib, ular “bilimlar, yangiliklar va yangi texnologiyalarni tashkil etish, saqlash va uzatishni amalga oshiradilar”[17].

Dunyo olimlarining fikricha mamlakat innovatsion taraqqiyoti to‘g‘ri olib borilgan innovatsion siyosatga bog‘liq.Rivojlanish yo‘lidan borayotgan har bir davlatning innovatsion siyosatini bosh maqsadi milliy

[17] Freeman.C (1995), “The National System of Innovation in Historical Perspective”, Cambridge Journal of Economics, No. 19, pp. 5-24

innovatsion tizimning barcha zaruriy unsurlari shakllanishi va o‘zaro integrallashgan aloqada bo‘lishini ta'minlashdan iborat. Innovatsiyalar u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo.) foydalanish tushuniladi.

Bugungi kunda yangiliklar, ularni amalga oshirish, samarali joriy etish va ulardan oqilona foydalanish yo‘nalishlari, bozorni egallash, iste'molchilar talabini qondirishga qaratilgan strategiyalarini o‘rganuvchi alohida fan vujudga keldi. Innovatsiyalarning har bir necha turlarini ajratish mumkin. Iqtisodiyotda mahsulot va jarayon innovatsiyalari degan tushuncha bo‘lib, ular o‘ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi.

Jarayon innovatsiyasi ko‘proq foyda olishga qaratilgan yangicha ishlash uslubi, ishlab chiqarish, sotuv jarayonlarini oqilona tashkil etish va bajarishni yanada takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Innovatsion jarayonlarga innovatsion marketing va menejment, raqobat, liderlik strategiyalarini misol qilishimiz mumkin. Bunday innovatsion jarayonlar yirik kompaniyalar raqobatbardoshligi ortishida markaziy rol o‘ynaydi.

Innovatsion jarayon yangi g‘oya paydo bo‘lganidan tortib to bozorda sotiladigan mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish amalga oshirilgunga qadar bo‘lgan o‘zaro bog‘liq bosqichlar murakkab zanjirini ifodalaydi. Umumiy jihatdan innovatsion jarayon bu voqea-hodisalarning ketma-ketlikdagi zanjiri bo‘lib, uning davomida yangilik oddiy bir g‘oyadan muayyan mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha “pishib etadi” va xo‘jalik amaliyotida tarqaladi[18].

Innovatsion jarayon subyektlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi.

1. Korxonada faoliyat yuritayotgan novatorlar fan-texnika taraqqiyot generatori.
2. Dastlabki renioisitlar - bu birinchi bo‘lib yangilikni joriy qilgan tadbirkorlar hisoblanadi.
3. Dastlabki ko‘pchilik yangilikni joriy qilgan korxonalar.
4. Nofaollar ma'naviy eskirgan yangilikni endi joriy qiluvchi

[18] A.M.HcMangoB Pean cekTopga nHBecTnunoH Ba HHHOBamoH (|)ao.an;iT $aHu oyaaaa yKVB ycnyöun Ma>i<Mya. T 2015н.

korxonalar.

Ijtimoiy iqtisodiy globallashuv sharoitida innovatsion rivojlanishning uchta asosiy yo‘nalishini qayd etishi mumkin:

1. Makromiqyosda ilmiy ishlab chiqarish davrining barcha bosqichlarini o‘zida mujassam etgan maqsadli loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish modeli (AQSH, Angliya, Fransiya).

2. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini mo‘‘tadil innovatsion muhit yaratish orqali optimallashtirish, yangilik va ixtirolarni keng tarqatishga ixtisoslashgan model(Germaniya, Shvetsiya, Shvetsariya).

3. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali yangiliklar yaratishni rag‘batlantiruvchi model(YAponiya, Janubiy Koreya).

Shu nuqtai nazardan O‘zbekistonda innovatsion rivojlanishning birinchi modelida, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini iqtisodiy amaliyotga tadbiq etish yo‘lidan borildi.[19]

Innovatsion rivojlanish haqida fikr yuritar ekanmiz, uni belgilovchi ko‘rsatkichlar haqida bilish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda universitetlar sifati ham oshirilishi venchur investitsiya kiritilishi kabi jihatdan hisobga olinadi.

Reyting tuzishda ekspertlar etti mezonga asoslanadi;

-tadqiqot va ishlanmalarga yo‘naltirilayotgan xarajatlar;

-YaIMning foizlardagi ishlanmasi;

-YaIMdagi texnologik ishlab chiqarish qiymati;

-sanoatdagi samaradorlik;

-mamlakatdagi yuqori texnologiyalar sektoridagi kompyuterlar soni;

-xizmatlar ko‘lamining rivojlanganligi;

-prefessional tadqiqotchilar;

-patentlar soni.

2017 yilda ushbu reytingda g‘oliblikni qo‘ldan boy bermagan Janubiy Koreya yana birinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi. Shu yili O‘zbekiston esa ushbu ro‘yxatda 133-o‘rinda qayd etilgan.

Olimlarning fikricha, mamlakat innovatsion taraqqiyotga erishish

---

[19] I.Y.Umarov “Sanoat korxonalarining innovatsion slohiyati ko'rsatkichlari taxlili”// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4 iyul-avgust, 2015- yil.

uchun ushbu tarmoqqa YAIMning 1 foizi miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda mablag‘ yo‘naltirishi kerak. Hisob-kitoblarga ko‘ra bu O‘zbekistonda taxminan 0.19 foizni tashkil etadi.

Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tish uchun YaIM hajmida innovatsion xarajatlar miqdorini oshirishi lozim. Yurtimiz dunyoning innovatsion rivojlangan davlatlar ro‘yxatidan joy egallashi uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud bo‘lib, avvalambor iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish talab etiladi.

Fanning zimmasiga jamiyatga yangi imkoniyatlar berish kabi asosiy vazifa yuklatilsa, yangilikni joriy etishning asosiy vazifasi insonlar yashash tarziga ta'sir qilishdan iborat bo‘ladi. Demak, yangilikni joriy etish birinchi bo‘lib mahsulot yoki xizmatni qo‘llash, yangi g‘oya va ilmiy natijalarni tijorat darajasida o‘zlashtirishdir.

Mamlakatimizda 2012-2020-yillar uchun fan va texnologiyalarni rivojlantirishning 8ta ustuvor yo‘nalishlari tasdiqlandi:

innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish;

energetika va energiyaxomashyosini tejash;

qayta tiklanuvchi elektr manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

axborotlashtirish va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;

qishloq xo‘jaligi,biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish;

tibbiyot va farmakologiyadagi tadqiqotlar; kimyotexnologiyalari va nanotexnologiyalar; er to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geografiya, seysmologiya).

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tanlov asosidagi grant tizimi joriy etildi. 2016yilda Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 1978 ta fundamental,amaliy va innovatsion ishlanmalar loyihalari bajarilmoqda.

Mamlakatda ilmiy-tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi 400 ta muassasa ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularda 35,5 ming olim-tadqiqotchi va mutaxassislar mehnat qilmoqda.Ulardan 2,5 ming nafari fan doktori va 9,2 ming nafari fan nomzodi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 24- iyuldagi PF 4456-sonli “Oliy malakali ilmiy va ilmiypedogog kadrlarni

tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni bilan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'limning jahon standartlariga mos keluvchi bir bosqichli tizimi joriy etildi.Shu asosda respublikamizda innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkalari tashkil etilmoqda (4.1.4-jadval).

4.1.1- jadv
al **Har yili o‘tkazilgan “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkalarining samaradorligi to‘g‘risida”gi ma'lumot**

| Yarmarkalar | Namoyish etilgan ishlanmalar soni | Tuzilgan shartnomalar soni | SHartnomalarning moliyaviy hajmi (mln so‘m) |
|---|---|---|---|
| I yarmarka, 2008- yil | 605 | 202 | 9141,8 |
| II yarmarka, 2009- yil | 504 | 324 | 15597,0 |
| III yarmarka, 2010- yil | 502 | 389 | 7979,38 |
| IV yarmarka, 2011- yil | 387 | 329 | 7779,38 |
| V yarmarka, 2012- yil | 554 | 322 | 11689,1 |
| VI yarmarka, 2013 - yil | 527 | 407 | 16348,0 |
| VII yarmarka, 2014- yil | 389 | 356 | 18564,0 |
| VIII yarmarka, 2015- yil | 428 | 766 | 24461,1 |
| IX yarmarka, 2016- yil | 476 | 944 | 30732,7 |
| X yarmarka, 2017- yil | 404 | 459 | 34631,7 |
| **Jami:** | **4776** | **4498** | **176924,16** |

4.1.1- jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2008yilda tashkil etilgan birinchi yarmarkada 605 ta ishlanma namoyishlar etilgan. Lekin shartnomalar 202 ta ya'ni kam tuzilgan, bunga sabab hali mamlakatimizda innovatsiyalar kirib kelmaganligi hamda ishlab chiqarish bilan ilmfanning o‘zaro integratsiyabo‘lmaganligidadir. 2017- yilga tahlil qilsak 404ta ishlar namoyish etilgan bo‘lib, shundan 459 ta shartnoma imzolangan.Umumiy so‘mmasi 34631,7 mln. so‘mni tashkil etgan. 2016- yilga nisbatan solishtirsak 476 ta ishlanma namoyish etilgan bo‘lib 1,17 barobarga ortgan. Shartnomalar esa 944 ta bo‘lib, 2,05 martaga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin ularning so‘mmasi 2017- yilga nisbatan 11,3 foiz ga kamaygan.

2015-2017- yillarda davlat ilmiy-texnik dasturlarini ishtirok etgan ilmiy xodimlar dinamikasidan quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin. Tibbiyot sohasida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amaliy tibbiyotga yurak

kasalliklari, yuqumli kasalliklar, nafas olish organlari va o‘pka kasalliklarini tashhislash va davolashning yuzdan ortiq yangi usullari joriy etildi. Sil, virusli gepatit va ichak infeksiyalarini davolash, tashhislash, oldini olishning yangi usullari ishlab chiqildi (4.1.2-jadval).

4.1.2- jadval

**2015-2017- yillarda davlat ilmiy-texnika dasturlarining ijrosida ishtirok etgan ilmiy xodimlar soni**

| | | 2015-yil | 2016-yil | 2017-yil |
|---|---|---|---|---|
| | Fan doktorlari | 2111 | 2242 | 1863 |
| | Falsafa doktorlari (fan nomzodlari) | 8360 | 8200 | 6337 |
| | Darajasizlar | 9364 | 9571 | 7822 |
| | **Jami** | **19835** | **20013** | **16022** |

2017- yilda davlat ilmiy-texnik dasturlarida jami 16022 nafar olim va mutaxassis, jumladan, 47 nafar akademiklar, 1863 nafar fan doktorlari, 6337 nafar fan nomzodlari, 7822 nafar ilmiy darajasi yo‘q xodimlar faoliyat olib borgan. 2017- yilda 2016- yilga nisbatan davlat ilmiy-texnik dasturlarida fan doktorlari 17 foizga, fan nomzodlari 22.8 foiz foizga, ilmiy darajasi yo‘q xodimlar 18,3 foiz ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

2017- yilga kelib davlat ilmiy-texnik dasturlarida ishtirokchilar soni o‘tgan yillarga biroz pasayganligini ko‘rish mumkin. Bunga sabab, 2017-yilda 2016 yilga nisbatan mablag‘ kam ajratilganligi va loyihalarning hozirda dolzarbligi bo‘yicha soni emas sifatiga zarurligiga qarab mablag‘ ajratilganligi bilan izohlashimiz mumkin bo‘ladi.

2015-2017- yillarda davlat ilmiy-texnika dasturlarida ishtirokchilarning vazirlik va idoralar bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan. Agar tahlil qiladigan bo‘lsak 2015yilda ishtirokchilar soni 19835ni tashkil etgan, shulardan 7359 ta ishtirokchi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi ta'lim muassasalariga to‘g‘ri kelgan. 2016- yilda esa ishtirokchilar soni 20013 tani tashkil etib 2015- yilga nisbatan 0.9 foiz ga o‘sgan bo‘lib eng ko‘p 7520 ta ishtirokchilar Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi muassasalardir (4.1.3-jadval).

4.1.3- jadval

**2015-2017 yillarda davlat ilmiy-texnika dasturlarining ijrosida sohalar bo‘yicha ishtirok etgan ilmiy xodimlarining soni**

| | Korxonalar | 2015-yil | 2016-yil | 2017-yil |
|---|---|---|---|---|
| | Fanlar akademiyasi | 2950 | 2942 | 2533 |
| | Oliy va o‘rta MTV | 7359 | 7520 | 6547 |
| | Sog‘liqni saqlash vazirligi | 1702 | 1880 | 1568 |
| | Xalq ta'limi vazirligi | 105 | 130 | 125 |
| | Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi | 1963 | 2013 | 1524 |
| | Boshqalar | 5756 | 5528 | 3725 |
| | **Jami** | **19835** | **20013** | **16022** |

Eng kam ishtirokchi Xalq ta'limi vazirligiga huzurlaridagi korxonalardan bo‘lib 2015yilda 105 tani 2016yilda 130 tani 2017yilda esa 125 tani tashkil etgan. 2017yilga kelib ishtirokchilar soni 2015yilga nisbatan 19,2foiz ga kamaydi.

2017-yil yakuni bo‘yicha ilmiy-tadqiqot 103 patent va dasturiy mahsulotlarga guvohnoma olingan. 1653 ta ilmiy muassasa (shundan 462 tasi xorijda), 83 ta monografiya (shundan 7tasi xorijda) ilmiy anjumanlar to‘plamlarida 1948 ta tezislar (shundan 669 tasi xorijda) chop etilgan. Bundan tashqari 284 ta ishlanma amaliyotga joriy etilgan.

“Web of Science”” xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasiga milliy obuna bo‘lishni ta'minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 17- iyundagi 642-F-son farmoyishi ijrosini ta'minlash bo‘yicha “Web of Science” xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanishni tashkillashtirish to‘g‘risida o‘tkaziladigan o‘quvlar va seminarlar rejasi ishlab chiqildi.

“Web of Science” xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanishni tashkillashtirish bo‘yicha 2017- yilda o‘tkaziladigan o‘quv seminarlari yuqori saviyada o‘tkazilishini tashkil etish yuzasidan ishchi guruh tarkibi tuzildi.

“Web of Science”xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasini keng jamoatchilikka tanishtirish yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng

yoritildi. Xususan, 12 ta teledastur, 19 ta radioeshittirishlar, 9 ta gazeta maqolalari va 24 ta internet nashrlari chiqarildi.

Hozirgi kunda ko‘plabkorxonalar “Web of Science” bazasiga ulandi. Bular jumlasiga ilmiy muassasalar, oliy o‘quv yurtlari, markaziy kutubxonalar (O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xo‘jaligi, Ilmiy ishlab chiqarish markazi kutubxonasi va boshqalar), tajriba

konstruktorlik byurolari, ilmiy ishlab chiqarish hamda fanlar akademiyasi boshqaruv hay'ati, Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasi, qishloq xo‘jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazi, elektron ta'lim markazlari “Web of Science” bazasiga login parolsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulandi.

Bugungi kunda jamiyat shu darajada taraqqiy etib ketdiki, unda o‘z o‘rniga ega bo‘lishni istagan har qanday mamlakat yoki kompaniya raqobatga kirishmog‘i shart bo‘lib qoldi. Rivojlangan mamlakatlarda yohud dunyo sahnida aynan mana shunday raqobatbardosh kompaniyalargina o‘z hayotlari davomiyligini saqlab qolishi mumkin.

Zamonaviy innovatsion muhit holati ayrim obyektiv sabablarga ko‘ra qisqa muddat ichida mahalliy biznesning innovatsion darajasi yuqori bo‘lishiga imkon bera olmaydi va shu sababdan uning rivojlanishi davlatning ko‘plab yo‘nalishlari bo‘yicha kuch sarflashini talab qiladi. Bunda quyidagi muammolarga e'tibor qaratish zarur:

- biznesning ilmiy-texnik axborotlarga ega bo‘lishi uchun transaksiya xarajatlari juda katta;
- yangi texnologiyalarning qiymat va bozor risklari kichik korxonalar uchun yuqori;
- innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun o‘z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng qamrovli va diversifikatsiyalangan bozori mavjud emas;
- xususiy sektordagi ko‘plab korxonalarda innovatsion boshqaruv qarorlari tizimi shakllantirilmagan;
- fanni ishlab chiqarish bilan bog‘lab turishi mumkin bo‘lgan innovatsion vositachilar instituti rivojlangan tarmog‘i yaratilmagan;
- raqobatli muhit mahalliy korxonalarni innovatsiyalarni jalb qilishga yetarli darajada rag‘batlantirmaydi;
- iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida biznes texnologiyalarining asosiy massasida biznesni tashkil qilishning mablag‘larni namunaviy tovarlar ishlab chiqarish yoki ular bilan savdo qilishga kiritishni nazarda tutuvchi an'anaviy yondashuvlar ustunlik qiladi.

Jamiyat va tabiat rivojlanishi qonuniyatlarini yaxlit holda, tizimlar rang barangligida anglash oldindan ko‘ra bilish uchun zarur asos va zamin

hisoblanadi. Istalgan bir fanning asosiy funksiyasi shundan iborat. Biroq bu har qanday yirik xo‘jalik, ijtimoiy va ekologik qarorlar qabul qilishda ham amaliy zarurat hisoblanadi.

Boshlag‘ich holatni baholash va undan foydalanishda ikki narsani inobatga olish zarur. Birinchidan, tabiiy qonunlardan farqli o‘laroq ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari jamiyatning o‘zidagi tub o‘zgarishlar bilan birgalikda o‘zgarishi mumkin. Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tish bulardan keyingisiga xos bo‘lgan qonuniyatlar tizimini yangidan o‘rganib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy qonun va qonuniyatlar tarkibi bir turda emas, ular ierarxik bo‘lib, bilishning turli darajalarini aks ettiradi. Statistika qonunlari evolyusion rivojlanish davrida nisbatan muvozanatli holatda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyat ko‘rsatuvchi struktura va shart- sharoitlarni aks ettiradi. Siklik dinamika qonuniyatlari tizim dinamikasidagi notekislikni, sikllar bosqichlarining almashish qonuniyatlari va tizimlar rivojlanish sikllarining o‘zini, jamiyatning innovatsion yangilanish jarayonini to‘lqinsimonligini ochib beradi. Bu davriy o‘zgarayotgan voqelikni anglashning ikkinchi bosqichidir. Bilishning oliy bosqichi sotsiogenetika qonuniyatlari bo‘lib, unda ijtimoiy- iqtisodiy tizimlar dinamikasida nasliylik, o‘zgaruvchanlik va tanlov yig‘indisi (birikuvi) hisoblanadi.

## Takrorlash uchun savollar

1. Ilmiy kashfiyotlar nima ularni obyektlari ularni aniqlash usullarini sharhlab bering?
2. O‘zbekiston Respublikasida ilmiy kashfiyotlarni muhofazalash qanday amalga oshiriladi?
3. Ilmiy kashfiyotlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qaysi qonunlarini bilasiz?
4. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida ilmiy kashfiyotlarning roli nimalardan iborat?

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012

2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. www.wipo.int.

## 4.2. Intellektual kapital va intelektual mulkni shakllantirish va boshqarish

Respublikamizda innovatsiya infratuzilmasini shakllantirish hozirda institutlar va yordamchi innovatsion korxonalar asosida barpo etilmoqda. Ular tarmoqlar innovatsiyasini rivojlanishini ko‘pgina masalalarini hal qiladi. Respublikamiz oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlarida innovatsion jarayon tashkil qilish masalalariga tarmoqlar doirasida e'tibor qaratilmoqda. Ishlab chiqaruvchilar va korxonalarning innovatsiya jarayonlarda ishtirok etish uchun mablag‘larni ajratish maqsadida zaruriy sharoitlar yaratilmoqda.

XXI asrda innovatsion loyihalar va yangi g‘oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Texnologiya taraqqiyoti asrida ilmiy loyihalarni ishlab chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biridir.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 1996- yil 30- avgustda qabul qilingan.

I. Umumiy qoidalar.

1-modda. Asosiy tushunchalar.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Muallif - ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs;

Yozuv - ovozlar va (yoki) tasvirlarning ularni texnikaviy vositalar yordamida qayta-qayta idrok etish, takrorlash yoki uzatish imkonini beradigan biror-bir moddiy shaklini ifodalaydi;

Ijrochi - aktyor, qo‘shiqchi, musiqachi, raqqos yoki rol o‘ynaydigan, o‘qiydigan, ifodali o‘qiydigan, musiqa asbobini chaladigan, adabiyot yoki san'at asarini (shu jumladan estrada, sirk) boshqa bir tarzda ijro etadigan shaxs, shuningdek spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyori va dirijyor;

E'lon qilish (oshkor qilish, chop etish) - ommaning oqilona talab va ehtiyojlarini qondirish uchun hamda asarning, fonogrammaning xususiyatidan kelib chiqqani holda asar, fonogramma nusxalarini muomalaga yetarli miqdorda chiqarish;

Manzarali amaliy san'at asarlari - amalda foydalaniladigan buyumlarga ko‘chirilgan ikki o‘lchovli yoki uch o‘lchovli san'at asari, shu jumladan, badiiy hunarmandchilik asari yoki sanoat yo‘li bilan tayyorlanadigan asar;

Fonogramma - biron-bir ijro yoki boshqa ovozlarning har qanday mutloqo ovozli yozuvi;

Asar nusxasi - asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan ko‘chirmasi;

Fonogramma nusxasi - fonogrammadan bevosita yoki bilvosita tayyorlangan va shu fonogrammaga jam bo‘lgan ovozlarning hammasini yoki bir qismini qamrab olgan har qanday moddiy jismdagi fonogramma ko‘chirmasi.

Davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solish sohasidagi tartibga solish tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi zarur:

- davlat siyosatining aniq belgilangan maqsadlarini;
- belgilangan maqsadlarni amalga oshiradigan boshqaruv organlari va ularning funksiyalarini;
- boshqaruv funksiyalarini to‘liq amalga oshirishda tartibga solish obyekti va axborot beradigan axborot tizimini;
- davlat boshqaruv organlarining qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish instrumentlari, davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solishning asosiy instrumentlariga nafaqat uning elementlari taalluqli bo‘ladi balki davlatning ilmiy imtiyozlar tizimiga muvofiq, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar sohasi o‘rtasida byudjet va byudjetdan tashqari resurslarni taqsimlash orqali ilmiy texnika yangiliklarini davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab quvvatlash;
- innovatsion jarayonlarning subyektlariga turli xil imtiyozlarni taqdim etishni (ham innovatsiyalarni amalga oshirayotgan bevosita tadbirkorlarga ham ularni yoki bu darajada qo‘llabquvvatlayotgan infratuzilma elementlariga);
- iqtisodiyotda innovatsion muhitni shakllantirish va ilmiy-texnik

axborotlar milliy xizmatini, patentlash va litsenziyalash, standartlashtirish, sertifikatlash, statistika, xorijiy tajribani o‘rganuvchi tahliliy markazlar, ilmiy-texnik rivojlanish, prognozlashtiruvchi kadrlarni tayyorlash kabilarni o‘z ichiga oluvchi tadqiqotlar va ishlanmalar ta'minoti infratuzilmasi hamda ular asosida qaror qabul qiluvchi shaxslarni ustuvor ilmiy, milliy tizimlar bilan ta'minlashdan iborat.

Innovatsion faoliyati rivojlantirish uchun istiqbolli amaliy ishlar natijalarini targ‘ib qilishni ta'minlash va respublikada texnologiyalar transferini ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida rivojlantirish zarur.

Birinchidan, respublika fanning bu jarayonni amalga oshirishga bo‘lgan hissasini yaxshilab aniqlash kerak va mavjud innovatsion xulosa qilish kerak. Real moliyaviy, moddiy-texnik imkoniyatlari, asbob-uskuna va ma'lumotlarni ta'minlash asosida tugatilgan ishlanmalarni targ‘ib qilish uchun ustuvor ishlab chiqarish yo‘nalishlarini topish kerak. Mamlakatlar olimlari va ishlab chiqaruvchilarning mavjud tarmoqlararo aloqalarni birin-ketin kengaytirish lozim. Buning uchun bu masalalarni kamida ikki o‘zaro bog‘liq holda hal qilish lozim.

Birinchi daraja, mahalliy ishlab chiqarishning asosiy ustuvor masalalari uchun va ilmiy-texnik va integratsion texnologik dasturlar bajarilishi uchun kooperatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalari va tarmoqlar ilmiy kuchlarini birlashtirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Ikkinchi daraja - bu mexanizmlarning ishlab chiqilishi va texnologiyalar transferini ta'minlash uchun normativ-huquqiy bazani shakllantirish va innovatsiyalarni tijoratlashga e'tibor qaratishni talab etadi.

Bunday rivojlangan infratuzilma yaratish targ‘ibot, marketing konsalting va boshqa korxonalarning sotish bilan shug‘ullanadigan tuzilmalari va maxsus vositachi firmalarni tashkil qilishni taqozo etadi. Ularning maqsadi - olimlarga hamda ishlab chiqaruvchilarga yordam ko‘rsatish va ularning targ‘ibot faoliyatini ta'minlash va innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshirishdir.

Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning o‘zaro qiziqishlari uchun davlat darajasida zarur sharoitlar yaratish, maqsadli, kerakli qarorlarni qabul qilish va innovatsiya faoliyati ishtirokchilariga soliqlarda imtiyozlar tizimini kiritish, bunda davlat va xususiy korxonalar mablag‘larini birlashtirishhamda

berilgan takliflarini tezlik bilan amalga oshirish lozim.

Ikkinchidan, respublikada yaratilgan intelektual mulk obyektlarini tashkil qilishda fan va ishlab chiqarishning ikki tomonlama qiziqishlarini ta'minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish kerak. Olimlarning patent bilan himoyalangan har bir ishlanmasi belgilangan respublika korxonasi, firmasi yoki fermer xo‘jaligida tajribada amalga oshirish uchun kerakli monitoringdan o‘tkazilishi kerak.

Eksportga yo‘naltirilgan ishlanmalarni ajratish uchun mahalliy ixtirolarning keng ekspertizasini o‘tkazish va davlat tarkiblari tomonidan ularga zarur ko‘maklashishi kerak. Bu maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tassarufida patentlangan ixtirolar monitoringi va ekspertizasi bo‘yicha maxsus bo‘linmalar yoki korxonalar tashkil etish lozim.

Intelektual mulk obyektlarining eng muhimlarini tadbiq etish uchun, nafaqat tashkiliy tomondan qo‘llash, balki tadbiq etayotgan korxona tomonidan maqsadli mablag‘ bilan ta'minlash ham zarur. Intelektual mulkdan foydalanuvchilar uni mualliflarini ishlab chiqarilgan mahsulotning iqtisodiy samaradorligiga qarab rag‘batlantirish lozim. Respublikada yaratilgan intelektual mulkka mualliflik huquqini kengroq rivojlantirish, korxonalar, manfaatdor ishlab chiqaruvchilar va fermalar, davlat tuzilmalari tomonidan ularni qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirishi kerak. Bu patentlar bilan himoyalangan innovatsiyalarni tijoratlashtirish yo‘li hisoblanadi.

Uchinchidan, fan va ishlab chiqarishdagi takliflarni davlat uchun eng muhimlarini ustuvorlarini tanlash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ustuvor innovatsion loyihalarini ajratib, respublika innovatsion ilmiy- texnika dasturini doimo to‘ldirib turish lozim. Ushbu loyihalarni bajarish uchun maqsadli davlat investitsiyalari va bank kreditlarini ushbu sohaga yo‘naltirish.

To‘rtinchidan, innovatsiya texnologiyalarini samarali transferini ta'minlash uchun “fan-innovatsiya-ishlab chiqarish” zanjirini o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish joiz. Shuningdek, olimlar kashf etgan yangiliklar va texnologiyalarni sanoatga tadbiq etish mexanizmlarini amalga oshirish kerak. Ushbu mexanizmlarni joriy etish ma'lum bir tashkiliy ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shunga muvofiq qonunchilik bazasini yaratish va maqsadga yo‘naltirilgan mablag‘larni izlab topish zarur. Buning uchun

texnologiyalar transferi va mahalliy innovatsiyalarni tijoratlashtirish va harakatlantirish mexanizmlarini qamrab oladigan bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

Beshinchidan, qonunchilik darajasida, olimlarning innovatsiya ishlanmalarini va yangi texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etishni mablag‘ bilan ta'minlashni tarmoqlarga biriktirib qo‘yish, yangi texnologiyalar hamda modernizatsiya fondlaridan kengroq foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim. Uni “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasida ko‘rsatish va innovatsiya faoliyatiga investitsiyalar kiritish to‘g‘risida namunaviy Nizom ishlab chiqish lozim.

O‘zbekistonda muhofaza qilinadigan ixtiro, foydali modellar, sanoat namunalari tarkibidagi qurilmalarni boshqa davlat - Parij konvensiyasi ishtirokchisining transport vositasida, bu transport vositasi vaqtincha yoki tasodifan O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lganda qo‘llanish, bunda bu qurilmalar faqat shu vosita ehtiyojlari uchungina foydalanilishi shart. Tarkibida patentlangan obyektlar bo‘lgan vositalar ustida ilmiy tadqiqot yoki tajribalar o‘tkazish.

Tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tarkibida patentlangan obyektlar bo‘lgan vositalarning qo‘llanishi. Vazirlar Mahkamasi milliy xavfsizlik manfaatlari yo‘lida patentlangan obyektlardan foydalanish to‘g‘risida patent egasining roziligini olmasdan turib qaror qabul qiladi lekin bunday hollarda obe'ktdan foydalanilgani uchun unga tegishli moddiy yordam ko‘rsatiladi.

Tarkibida patentlangan obyektlar bo‘lgan vositalarni, agar bu vositalar qonuniy yo‘l bilan xo‘jalik aylanmasiga kiritilgan bo‘lsa (patent egasining o‘zi yoki uning litsenziyasi)dan foydalanish.

Dorixonalarda shifokor resepti bo‘yicha dorilarni bir marta tayyorlash.

Ixtiroga patent - ixtironing ustuvorlik sanasidan boshlab yigirmayil mobaynida amal qiladi va u mohiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi.

Hozirgi vaqtda respublikada xorijiy mamlakatlar Yetakchi tajribalaridan foydalanib, bir qancha viloyatlar (mintaqalar) markazlarida Innovatsiya markazlarini ochilishi, o‘z navbatida mintaqa, viloyat va tumanlar innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi bo‘yicha fondlari, venchur fondlari

tashkil qilinishi bilan berishi lozim. Ushbu fondlarni tashkil etishda innovatsiya infratuzilmasi yaxshi rivojlangan yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tuzilmalari, kichik innovatsiya firmalari, konsalting, marketing va tadbiq etuvchi korxonalar ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. YAngi ochilgan firmalarda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi. Bu esa aholini ish bilan ta'minlash va bandligi muammosini yechishga o‘z ulushini qo‘shadi.

Bizning fikrimizcha, innovatsion faoliyatni keng rivojlanishini ta'minlash hamda respublikani yuqori texnologiyalarni tadbiq etish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko‘tarilishini ta'minlash maqsadida quyidagi ustuvor tadbirlar kompleksini amalga oshirish lozim:

1. Milliy innovatsiya ustuvorlikni amalga oshirish strategiyasi va mexanizmlarini rivojlanishi uchun vazirliklararo Innovatsiyalar va texnologiyalar transferi bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish.

2. “Innovatsion faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ishlab chiqilishi va qabul qilinishi, Soliq kodeksiga tegishli o‘zgarishlar kiritilishi, shuningdek, rag‘batlantirish mexanizmlari, samarali intelektual mulk himoyasini tashkil etish va uni xo‘jalik amaliyotiga kiritish lozim.

3. Ustuvor innovatsiya loyihalarini, ilmiy g‘oya ishlab chiqilgandan boshlab, texnik konsepsiyasi tayyorlanib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qadar, doimiy mablag‘ bilan ta'minlash maqsadida innovatsiyani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tashkil qilish lozim. Ushbu tizim innovatsiya faoliyatida qatnashuvchi xo‘jalik subyektlari uchun muayyan soliq imtiyozlarini ko‘zda tutishi, shu jumladan:

- yangi raqobatga chidamli mahsulot ishlab chiqishga bevosita yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga, tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga sarflanadigan mablag‘lar soliqlardan ozod qilinishi;

- fundamental tadqiqotlarga va innovatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi tarmoq va tarmoqlararo fondlar, mablag‘lar soliqlardan ozod qilinishi;

4. Innovatsiya faoliyatni mablag‘ bilan ta'minlovchi ko‘p manbali tizimni shakllantirish.

5. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish va ustuvor texnologiyalarni tadbiq qilish uchun Milliy innovatsiya fondi tashkil qilish kerak. Uning manbalari,

byudjetdan tashqari, iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsiya mahsulotlarini tadbiq etishidan olingan foyda ulushidan tashkil topadi.

6. Yetakchi ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bazasida bir qancha texnologik parklar, markazlar tashkil etib, ularning faoliyatini yirik korxonalar va banklar bilan birgalikda tashkil etish lozim.

7. Innovatsion kichik biznes rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarishga Yetakchi mahalliy innovatsiya texnologiyalarni tadbiq etishni rag‘batlantirish lozim.

8. Innovatsiya infratuzilma korxonalarining, davlat, xususiy yoki mulkning qaysi turi bo‘lishidan qat'iy nazar tarmoqlangan to‘rtlik tashkil etish lozim. Ular konsalting, marketing, dilerlik, amalga oshiruvchi va boshqa o‘rtada turuvchi korxona va firmalar bo‘lishi mumkin. Ularning vazifalari:

- innovatsiya texnologiyalari va bozordagi mahsulotlarni tijoratlashtirish;
- aholi bandligini ta'minlash maqsadida qo‘shimcha ishchi o‘rinlarini yaratish.

Butun jahon intellektual mulk tashkilotining tarixi 1883-1886yillardan Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasi, Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish, Bern konvensiyasi qabul qilingandan boshlangan. Bu Konvensiyalar “Xalqaro byurolar” deb nomlangan o‘z kotibiyatlarini tashkil etishni ko‘zda tutgan edi. 1893yilda bu ikki kotibiyat “Intellektual mulkni muhofaza qilish bo‘yicha birlashgan xalqaro byurolar”ga birlashtirildi.

Hozirgi Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (qisqartirilgan shaklda “BIMT”, ingliz tilida -“WIPO”, fransuz va ispan tillarida “OMRI”) 1967yil 14 iyulda imzolangan. “Butun jahon intellektual mulk korxonaini ta'sis etish Konvensiyasi”ga muvofiq tuzilgan. Bu Konvensiya 1970 yildan o‘z faoliyatini boshlagan.

Hozirda Butun jahon intellektual mulk tashkiloti o‘z faoliyat yuritishi bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimi tarkibiga (1974yil dekabridan) kiruvchi ixtisoslashgan muassasadan iborat.

Shunday qilib, xalqaro va mahalliy innovatsiya faoliyatida to‘plangan tajriba hamda integratsiya yo‘li bilan tashkil etilgan korxona, respublika innovatsiya kompleksini rivojlantirish maqsadida innovatsiya qayd qilingan

ko‘p tashkiliy-texnik muammolarni yechish imkoniyatini beradi. Bu esa respublika olimlarini mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishidagi faol ishtirokini ta'minlaydi.

**Takrorlash uchun savollar**

1. Patent, litsenziya va sertifikat tushunchalarini izohlab bering?
2. Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun shartnoma tuzish shartlari?
3. Patent, litsenziyalarni chet elda patentlashga qo‘yiladigan talablar?
4. Sanoat mulkini va xizmatlarni chet elda patentlashning sababi va vazifasi.

**Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage Robert D.Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.

## 4.3. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash

O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuni 1994- yil 6- mayda qabul qilingan va mazkur qonunga 2008- yil 30- iyulda o‘zgartirish kiritilgan. Ushbu Qonunning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasidagi ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini huquqiy muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Sanoat mulki obyektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va boshqa hujjatlardan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Patent idorasi sanoat mulki obyektlariga patent berish haqidagi talabnomalarni ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo‘yicha davlat ekspertizasini o‘tkazadi, ularni davlat ro‘yxatiga oladi, sanoat mulki obyektlariga patentlar beradi, rasmiy axborotnoma nashr etadi, sanoat mulki obyektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qo‘llanilishiga doir qoidalar

qabul qiladi va tushuntirishlar beradi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Patent idorasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

4.3.1- **jadval**

**Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi haqidagi talabnomalarning tuzilishi**

| № | *Ixtiro haqidagi talabnoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi* | *Foydali model haqidagi talabnoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi* | *Sanoat namunasi haqidagi talabnoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi* |
|---|---|---|---|
| **1.** | Ixtironing muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so‘ralayotgan bo‘lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko‘rsatilgan patent berish haqidagi arizani | Foydali modelning muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so‘ralayotgan bo‘lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko‘rsatilgan patent berish haqidagi arizani | Sanoat namunasining muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so‘ralayotgan bo‘lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko‘rsatilgan patent berish haqidagi arizani |
| **2.** | Ixtironi uni amalga oshirish uchun yetarli darajada to‘liq ochib berilgan tavsifni | Foydali modelni uni amalga oshirish uchun yetarli darajada to‘liq ochib berilgan tavsifni | Buyumning tashqi ko‘rinishi haqida to‘la-to‘kis, bor tafsiloti bilan tasavvur qilish imkonini beruvchi buyum aks ettirilgan tasvirlar turkumini, maket yoki rasmni |
| **3.** | Ixtironing mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to‘la muvofiq bo‘lgan formulasini | Foydali modelning mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to‘la muvofiq bo‘lgan formulasini | Agar sanoat namunasining mohiyatini ochib berish uchun zarur bo‘lsa, buyum umumiy ko‘rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfeksion xaritasini |
| **4.** | Agar ixtironing mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lsa, chizmalar va boshqa materiallarni | Agar foydali modelning mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lsa, chizmalar va boshqa materiallarni | Sanoat namunasining undagi muhim belgilar majmuini aks ettirgan tavsifi |
| **5.** | Ixtiro referatini | Ixtiro referatini | x |

Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi:

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalari;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;

- elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;
- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizmalar;
- estetika talablarini qanoatlantirishga yo‘naltirilgan, buyumlarning faqat tashqi ko‘rinishiga oid yechimlar;
- integral mikrosxemalarning topologiyalari;
- o‘simlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar.Innovatsion salohiyat tushunchasi keng ma'noni anglatib, mamlakatda fan, iqtisodiyot,texnologiya, tibbiyot,ta'lim va boshqasohalarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va yangiliklarni ifodalaydi. Innovatsion salohiyatning oshishi, o‘z navbatida, innovatsion faoliyat va uning samarali tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Innovatsiya tizimini uch xil darajada o‘rganish mumkin. Mikrodarajada, bunda yaxshilab boruvchi innovatsiyalar asosida doimiy ravishda ro‘y beruvchi mahsulotlar va ularning parametrlari yangilanib turishi yuz beradi. Mezodarajada, texnikaning yangi avlodlari almashinuvi, o‘rta muddatli iqtisodiy davrlar asosini tashkil etgan asosiy fondlar faol qismining yangilanishi yuz beradi. Makrodarajada esamuhim tayanch innovatsiyalar asosida texnologiya uzaro bog‘langan ishlab chiqarishlar majmui sifatida Yetakchi texnologik bosqichlar almashinuvining jadallashuvi. U taxminan ellik yilda bir marotaba yuz beradi.

Ishlab chiqarish texnikasi yoki yangi jarayon ko‘rinishidagi texnik o‘zgarishlar texnik ixtirolar va kashfiyotlarni ta'riflash uchun ishlatiladi. Bunday kashfiyotlar ishlab chiqarish va xarajatlarni firma va sanoat tarmoqlari darajasida o‘zgartirishi mumkin.

Kashfiyot deb bilim darajasiga tubdan o‘zgartirish olib kiradigan ilgari noma'lum bo‘lgan, ammo obyektiv mavjud moddiy nuqtaning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limotga aytiladi (4.3.2-jadval).

4.3.2- jadval

**Kashfiyotlarni aniqlash bosqichlari**

| **Kashfiyotni aniqlash bosqichlari** | **Amalga oshiriladigan ishlar** |
|---|---|
| *1-bosqich* | Asos qidiruv tadqiqotni ilmiy-amaliy injenerlik tadqiqotdan ajratish lozim. Tadqiqotning obyekti tabiiy yoki texnik bo‘lishi mumkin va uni tartibli amalga oshirish |
| *2-bosqich* | Kashfiyot predmeti hodisa, xossa, qonuniylikni oldindan belgilash |
| *3-bosqich* | Kashfiyot shakliga muvofiq kashfiyot predmetini qat'iy shakllantirish |

| | |
|---|---|
| *4-bosqich* | Bunda ilmiy qoidalarni jamoatchilik tomonidan muhokama qilish |

Kashfiyotni himoya qilish maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

ilmiy mazmun ishonchliligini tasdiqlash uchun;

muallif va davlat ustunligini o‘rnatish;

kashfiyot muallifining xususiyatlarini tan olish va unga tegishli imtiyozlar berish;

kashfiyot bilan bog‘liq ilmiy-texnologik masalalarni hal qilishda ko‘maklashish;

fan va texnikadan foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma'lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni 1994- yil 6- mayda qabul qilingan va 2002- yil 30- avgustda tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan. Ushbu Qonun EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazalarini yaratish, ularning huquqiy himoyasi va ulardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni O‘zbekiston Respublikasida tartibga soladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi borasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari yoki bitimlarida ushbu Qonunda nazarda tutilganidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo‘llaniladi.

Ushbu Qonun EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi obyektlari sirasiga kiritadi.

Obyektiv shaklda ifodalangan, bosib chiqarilgan hamda bosib chiqarilmagan, muallif (hammualliflar) ijodiy faoliyatining natijasi bo‘lgan, EHM uchun yaratilgan har qanday dastur va ma'lumotlar bazalariga nisbatan mualliflik huquqi tatbiq etiladi. EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasiga mualliflik huquqi isbotlanmagunga qadar saqlanib qolaveradi.

Bugungi kunda kompyuter insonlarning o‘zaro munosabatlari, axborot bilan almashishning bosh vositasiga aylandi.Kompyuter har qanday ishda

insonning eng yaqin yordamchisidir. Lekin kompyuterning o‘zi to‘laqonli yordamchi emas. Uning qandaydir masalani hal qilishdagi foydaliligi to‘laligicha u ishlaydigan dasturga bog‘liqdir. Dasturiy ta'minot kompyuterning jonidir.

Har qanday EHMni ikki qismga bo‘lish mumkin:

1. Apparat-texnik (hardware)
2. Dasturiy ta'minot (software).

Dasturiy ta'minot yoki EHM uchun dastur bu EHMning tarmoqlari va boshqa kompyuter vositalarining muayyan natijalar olish maqsadida ishlash uchun mo‘ljallangan ma'lumotlar va buyruqlar majmuidir.

Mualliflar mulkiy huquqlari shaxsiy nomulkiy huquqlar kabi o‘zining huquqiy tabiatiga ega. Agarda, muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari uning ajralmas huquqlari toifasiga kirsa, mulkiy huquqlar esa o‘zga (uchinchi shaxs)larga ma'lum muddatlarda va ma'lum harakatlarni amalga oshirish sharti bilan vaqtincha o‘tkazib turilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunining “Muallifning mulkiy huquqlari” nomli 19-moddasida muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga ega ekanligi mustahkamlangan.

Muallifning huquqlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin:

shaxsiy nomulkiy huquqlar. Bu huquqlar jumlasiga u asarga muallif bo‘lish huquqini, asarni nomlash huquqini, asar daxlsizligi huquqini va asarni nashr qilish huquqlarini o‘z ichiga oladi;

mulkiy huquqlar.

Ayrim olimlar mualliflik huquqlarini shaxsiy va mulkiy huquqlarga ajratilish zarurati va imkoniyatlarini tan olishmasa, ba'zilari muallif huquqlarining bunday ajratilishini shartligi, ba'zilari esa huquqlarni bunday turkumlashni nisbiy ekanligini ta'kidlashadi, yana bir guruh mutaxassislar muallif shaxsiy huquqlarini intellektual huquqlar jumlasiga kiritishadi.

Muallifning huquqlari o‘zining tarkibiga bir vaqtning o‘zida ham shaxsiy, ham mulkiy huquqlarni birlashtiradi, shu ma'noda uning intellektual huquqlari, deb yuritish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Muallif mulkiy huquqlarining tabiati, muallifning shaxsiy huquqlari tabiatidan keskin farq qiladi.

Innovatsion salohiyatni oshirishda innovatsion loyihalarni tuzish va ishlab chiqish muhim o‘rin egallaydi. Chunki, innovatsion loyihalar amalga oshirilayotgan yangiliklarning samaradorligini aniqlaydi. Amaliyotda innovatsion loyihalarning foydaliligi uning rentabelligi bilan baholanadi. Innovatsion loyihalar rentabellik koeffitsienti darajasi birdan past bo‘lsa unday loyihalarni to‘xtatib quyish kerak.

Patentlash - O‘zbekiston Respublikasi korxonalari, korxonalari, ayrim fuqarolarining chel el patentlari va boshqa tegishli muhofaza hujjatlarini ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalariga olish maqsadida, shuningdek tovar belgilarini amalga oshiriladigan barcha ishlar majmui.

Patentlar, savdo belgilari va litsenziyalarni mohiyatini Kouz teoremasida keltirilgan qonuniyat bilan tushuntirish mumkin. Kouzning fikricha patentlash jarayoni faqat iqtisodiy samarani emas, balk atrof muhit tozaligi va xavfsizligi masalasini o‘z ichiga olishi shart. Patent berayotganda patent egasiga atrof muhitni ifloslantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar va soliq tizimi tomonidan alohida yondashuvni ham vazifa yoki burch sifatida berish mumkin”[20].

Bunda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va korxonalari uchun patent olishga vakolatlangan vazifasini bajaradi, talabnomachi huquqiy tavsifdan hujjatlar (dalolatnoma, berganlik hujjatlari va boshqalar)ni rasmiylashtirishda yordam ko‘rsatadi. talabnomani chet elga jo‘natadi, chet el patent idorasi bilan (chel eldagi patent olishga patent idorasining ishonchli vakillar orqali) aloqani amalga oshiradi. Patent idorasi qarorlari, patent olishga vakolatlangan Patent idorasining vakillarining so‘rovini va tarjimasini ta'minlaydi, bu qaror va so‘rovlarga javoblar tayyorlashga, shuningdek mamlakatlar patent ma'muriy, appelyasiya va boshqa idoralarida mamlakat sanoat mulklari bo‘yicha ishlar ko‘rilishida yordamlashadi.

Chet elda patentlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.

Patentlashtiruvchi korxona, sanoat mulklarini chet elda patentlash to‘g‘risida qaror qabul qilsa, agar konvensiyaviy ustuvorlik talabnomasi uchun yoki boshqa vaziyatlarga ko‘ra bundan ko‘ra istisno va talab etilmasa,

---

[20] Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010.45-6.

sanoat mulk tavsifini (uning tushuntiruvchi chizmasini) tayyorlaydi. Sanoat mulklarini patentlashga mo‘ljallanayotgan mamlakatning patent qonunchiligi o‘sayotgan talablarga muvofiq tavsif o‘zbek va tegishli chet tilida tayyorlanadi. Bu tavsif yetarli nusxada ko‘paytiriladi va jo‘natishdan oldin O‘zbekiston Respublikasining Patent idorasida sanoat mulkini tavsifi va chizmalari chet elda patentlash xizmati bilan kelishib olinadi.

Kouzning fikricha, mamlakatlarda patentlash tizimi mulkchilik huquqi bilan chambarchas bog‘liq ravishda raqobatdosh yoki noraqobatdosh mahsulotlarga nisbatan o‘zgacha yondashuv bo‘lishi kerak, ya'ni patentlashda mahsulot turini raqobatdoshlik darajasini mulk qo‘mitalari aniqlab berishlari shartdir. Bunday deb ta'kidlashiga sabab, bu kabi aniqlashtirishlar iqtisodiy ahamiyatga egadir[21].

Chet elda patentlash uchun tayyorlangan talabnoma materiallarini Patent idorasi kelishib olish uchun patentlashtiruvchi korxonaga yuboradi, u bir oy ichida mualliflar bilan talabnoma materiallari kelishilganligini ta'minlaydi yoki o‘z mulohazalarini bayon qilib patent idorasiga qaytaradi. Agar korxonadan belgilangan muddatda hech qanday ma'lumot kelmasa, u holda patent idorasi materialni kelishilgan deb hisoblaydi. Har qanday vaziyatda ham talabnoma materiallarini kelishib olish bilan bog‘liq ishlar konvensiya ustuvorligini yo‘qotishga sabab bo‘lmasligi lozim.

Patentlashtiruvchi korxona, maxsus so‘rovni kutmay, sanoat mulklarini patentlash haqidagi qarorni olgan kundan boshlab bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Patent idorasiga mualliflar, talabnomachilar haqidagi barcha ma'lumotlarni ixtironi patentlash bo‘yicha chel elda ish olib borish va rasmiylashtirish uchun tadim etadi. O‘zbekiston Respublikasi sanoat mulklarini patentlash uchun chet el patent idoralariga talabnomani O‘zbekiston Respublikasi Patent idorasiga jo‘natadi va ular bilan yozishmalar olib boradi.

Texnika obyektlarining patentga loyiqligini va patent sofligini aniqlash tartibi.

Sanoat mulklarini patentlash bilan bir qatorda O‘zbekiston

---

[21]Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010.46-6.

Respublikasining chet davlatlar bilan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalari rivojlanishi munosabati bilan patent tavsifidagi boshqa masalalar ham yuzaga keladi. Shulardan biri, O‘zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotlari (mashina, qurilmalar)ning, shuningdek texnologiya jarayonining patent sofligini aniqlash hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi korxonalari chiqarayotgan buyumlar uchun patent sofligini ta'minlash zarurati mamlakat uskunalarini eksport qilish bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari chel elda korxonalar qurilishiga texnikaviy hamkorlik qilish va chel el firma hamda korxonalarining O‘zbekiston Respublikasiga beradigan patentlari sonining ko‘payishi tufayli ham shunday zarurat paydo bo‘lmoqda. Patent sofligi - patent egasining huquqiy obyekti bilan bog‘liq tushuncha. Patent egasi huquqining buzilishi bir qator mamlakatlarda tovarlarni ushlab olish, jarima solish, ba'zan esa jamoa olishgacha olib keladi. Patent egasi shunday qoidabuzarlik tufayli ko‘rgan zararini qoplashni talab etishi mumkin.

Qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish usullari yoki qandaydir boshqa obyektlar qaysi mamlakatda amal qilayotgan patentga xilof bo‘lmasa shu mamlakatda patent sof hisoblanadi.

Patent sofligi tushunchasini patentga loyiq tushunchasi bilan aralashtirmaslik lozim. O‘rtadagi farq avvalo shundan iboratki, “patent sofligi” atamasini moddiy obyektlar (mashina, qurilmalar va h.k.)ga taalluqli, “patentga loyiq” atamasi esa texnikaviy yechimga tegishli. Patent sofligi deganda, muayyan buyum begona patent ta'siri ostiga tushib qolmasligi nazarda tutiladi. Patent sofligiga ega buyum boshqa mamlakatlarda mavjud bo‘lgan patentlarga xilof bo‘lmaydi, shuning uchun unga nisbatan boshqa patent egalari tomonidan hech bir da'vo bo‘lmaydi. Agar buyumdagi texnikaviy yechimga patent olish mumkin bo‘lsa, unda bu yechim patentga loyiq hisoblanadi.

Patent sofligi va patentga loyiqlik masalasi bir vaqtda yuzaga kelishi mumkin, lekin ularning mohiyati har xil. Shunday qilib, patent sofligi texnika obyektining huquqiy xossasi bo‘lib, u mazkur mamlakatlarda amal qiluvchi patentlar mutlaq huquqi uchinchi shaxsga taalluqli degan xavfdan holi, erkin foydalanish mumkinligidan iboratdir. Patent sofligi qandaydir bir mamlakatga nisbatan yoki bir necha mamlakatlarga nisbatan ta'minlanishi mumkin. Sanoat

mulklariga bo‘lgan huquqning hududiy tavsifiga ko‘ra, qandaydir texnika obyekti (buyum) patenti, masalan, AQSHda berilgan patent ta'siri ostida bo‘lishi mumkin.Shu bilan birga Hindistonga nisbatan patent sofligiga ega bo‘lishi mumkin. Patent sofligini aniqlash, u yoki bu mamlakatda berilgan patentning amal qilish muddati bilan ham bog‘liq.

Patent huquqi. U dastlab feodalizmning so‘ngi davrlarida feodal jamiyat negizida xo‘jalik yuritishning kapitalistik usuli vujudga kelib, rivojlana boshlashi bilan yuzaga keldi (4.3.1-rasm).




**4.3.1- rasm. Milliy patent tizimlari sxemasi**

Innovatsion musobaqa patentlar poygasini o‘z ichiga olib, firmalararo innovatsiyada birinchilikka sazovor bo‘lish deganidir. Patentlar poygasida birinchilikni olgan firma o‘z mahsulotini sotishda maxsus huquqqa ega bo‘lib bozorda o‘z monopoliyasiga 15 yildan 20 yilgacha bo‘lgan davrda erishadi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashi, balki boshqaruv hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda o‘z kuchi bilan innovatsion mahsulot yoki xizmatlarishlab chiqargan korxonalar dinamikasi keltirilgan (4.3.2-rasm).




**4.3.2- rasm. O‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar, ishlab chiqargankorxonalar soni(2010-2016 yillar).**

Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar soni 2016- yilda 2010- yilga nisbatan 8 barobarga kupayib, 289 tadan 2374 taga ortgan. Jumladan birinchi martta innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirgan korxonalar soni 696 taga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin.

Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlar dinamikasini2010-2016- yillardagi holatini tahlili qiladigan bo‘lsak, 2008- yilda innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmi 521,5 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2016- yilda bu ko‘rsatkich 2571,4 mlrd so‘mga ortganligini ma'lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin (4.3.3-rasm).




**4.3.3- rasm. Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlar dinamikasi (2010-2016- yillar).**

2016- yilda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining asosiy qismi Toshkent shahriga (48 foizi), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (18,3 foizi), Toshkent viloyati (9,3 foizi) va Andijon viloyatiga (8,3 foizi) to‘g‘rikelmoqda. O‘zbekiston

respublikasining boshqa viloyatlari hududiga 16,1 foizi to‘g‘ri keladi (4.3.4-rasm).




**4.3.4- rasm. 2016- yilda mamlakatimizda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmi**

2016- yilda 893 ta korxona va korxonalar tomonidan 1816 turdagi texnologik innovatsiya joriy etildi. Joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning 44 foizi (799 tasi) kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keladi (4.3.3-jadval).

4.3.3- jadval

**Respublikamizda 2016- yilda joriy qilingan texnologik innovatsiyalar to‘g‘risida ma'lumot**

| | Jami | Shu jumladan tadqiq qilinganlar: | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | o‘z kuchi bilan | boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda | ulardan : | | boshqa tashkilotlar tomonidan |
| | | | | ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda | oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda | |
| | | | | | | |
| **Texnologik innovatsiyalar** | **1816** | **1523** | **117** | **41** | **5** | **176** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar | 1118 | 973 | 73 | 15 | 4 | 72 |
| jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar | 698 | 550 | 44 | 26 | 1 | 104 |
| Marketing innovatsiyalar | 51 | 39 | - | - | - | 12 |
| Tashkiliy innovatsiyalar | 39 | 29 | - | - | - | 10 |

Respublikamizda 2016- yilda joriy qilingan texnologik innovatsiyalar holatini o‘rganadigan bo‘lsak, jami 1816 ta bo‘lib, shundan mahsulot bo‘yicha innovatsiyalar 1118 ta, jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar 698 ta, marketing innovatsiyalari 51 tani tashkil etadi (4.3.4-jadval).

4.3.4- jadval

**Respublikamizda 2016- yilda joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni to‘g‘risida ma'lumot**

| | | **Shu jumladan tadqiqqilinganlar:** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | O‘z kuchi bilan | Boshqakorxonalar bilan hamkorlikda | Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda | Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda | Boshqakorxonalar tomonidan |
| | | | | | | |
| Texnologik innovatsiyalar | 1816 | 1523 | 117 | 41 | 5 | 176 |
| Shu jumladan: | | | | | | |
| Mahsulotlar bo‘yicha | 1118 | 973 | 73 | 15 | 4 | 72 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| innovatsiyalar | | | | | | |
| Jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar | 698 | 550 | 44 | 26 | 1 | 104 |
| Marketing innovatsiyalar | 51 | 39 | - | - | - | 12 |

Respublika bo‘yicha 2016- yilda har bir innovatsion faol korxonao‘rtacha 2 tadan innovatsiya joriy qildi. Jumladan har bir innovatsion faol korxonaga Andijon, Farg‘ona viloyatlari, Toshkent shahridao‘rtacha 3 tadan innovatsiya, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari o‘rtacha 2 tadan innovatsiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Surxandaryo va Xorazm viloyatlarida o‘rtacha 1 tadan innovatsiya joriy qilingan.




**4.3.5-rasm. Respublikamizda innovatsiya joriy etgan korxonalar soni**

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashi, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo‘llaniladigan o‘ziga

xos jihatlarini tadqiq etish lozim.

Sanoat namunasi inson ijodiy faoliyati yo‘nalishining amalga oshishi bo‘lib, aniq maqsad va iste'molchilar doirasiga ega. Ta'rifga ko‘ra sanoat namunalariga qandaydir bir obyekt tashqi ko‘rinishining badiiy-konstruktorlik (dizayn) yechimi kiradi. Sanoat namunalari hajmiy (modellar), yassi (rasmlar) yoki ularning aralash ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sanoat namunasining yangiligi, o‘ziga xosligi va sanoatda qo‘llanilishi uning patentga layoqatlilik shartlari hisoblanadi.

Agar sanoat namunasining buyumning estetik va (yoki) erganomik xususiyatlarini belgilovchi muhim belgilari (alomatlari) majmui uning ustuvorlik sanasidan oldin jahondagi nufuzli axborot manbalari orqali barchaga ma'lum bo‘lmagan bo‘lsa yangi deb tan olinadi. Sanoat namunasining muhim belgilari majmui buyum estetik xususiyatlarning ijodiy xarakteri bilan bog‘liq bo‘lsa u o‘ziga xos deb tan olinadi. Sanoat namunasi ko‘p karra qayta ishlab chiqarish imkoniyatini beradigan bo‘lsa sanoatda qo‘llaniladigan deb tan olinadi.

Aynan sanoat namunalarini patentlash bugungi kunda eng risk yuqori hisoblangan sohadir. Bunday deyishimizga sabab, jahon bozorida bu kabi “xato”larga ko‘p martalab yo‘l qo‘yilgandir. Muammoning negizi nimada? Buni topish uchun firmalar qaysi, qanaqa va nima uchun innovatsiyalarga ehtiyoj sezishlari to‘g‘risida asosiy savollarga javob berishlari kerak[22].

Sanoat namunasiga O‘zbekiston Respublikasining patenti berish uchun talabnoma quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

patent yoki dastlabki patent berish to‘g‘risida belgilangan shaklda tuzilgan ariza, u sanoat namunasi muallifi (mualliflari), patent kim (kimlar)ning nomiga berilishi so‘rayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxs (shaxslar) va talabnoma beruvchi to‘g‘risidagi talab etiladigan ma'lumotlardan iborat bo‘ladi;

buyum, maket yoki rasmni aks ettiruvchi fotosuratlar to‘plami, ular buyumning huquqiy muhofaza hajmini belgilab beruvchi muhim belgilar

[22]Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010.41-6.

majmuini aniqlash imkonini beradigan tashqi ko‘rinishi to‘g‘risidagi mufassal tasavvur hosil qiladi;

buyum tashqi ko‘rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfeksion kartasi va sanoat namunasi mohiyatini ochib berishi;

sanoat namunasining tavsifi, u fotosuratlarda aks ettirilgan buyumning tashqi ko‘rinishini so‘zlar vositasida ochib berishi va uning muhim belgilari majmuini o‘z ichiga olishi;

talabnomaga berilgan miqdorda boj to‘laganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi zarur.

Qonun talablariga muvofiq har bir talabnoma bitta sanoat namunasiga tegishli bo‘lishi va bu namunaning variantlarini o‘z ichiga olishi mumkin (sanoat namunasining birligi talablari). Bunda bitta sanoat namunasi deyilganda yagona bir buyumning badiiy konstruktorlik yechimi, vazifalari umumiy bo‘lgan buyumlar majmui (masalan, mebel garnituri, serviz va boshqalar) tushuniladi.

Yagona bir buyum deyilganda birorta butun buyum (avtomobil) hamda uning bir qismini tashkil etuvchi buyum (masalan, bamper, fara va boshqalar) tushuniladi.

Sanoat namunasi variantlari deyilganda bitta buyum (to‘plam, komplekt)ning bir xil estetik va ergonomik xususiyatlarini belgilab beradigan muhim belgilari majmui bilan farqlanadigan badiiykonstruktorlik yechimi tushuniladi.

Talabnoma hujjatlariga qo‘yiladigan asosiy talablarni o‘z ichiga oladi (buyum, maket, rasm fotosuratlari to‘plami).

Buyumning tashqi ko‘rinishini aks ettiruvchi fotosuratlar talabnoma berilgan sanoat namunasi to‘g‘risidagi tasviriy axborotni o‘z ichiga olgan asosiy hujjatdir.

Sanoat namunasining tavsifi.

Sanoat namunasining tavsifi quyidagicha tuzilishi kerak:

sanoat namunasining nomi;

vazifasi va qo‘llanish sohasi;

sanoat namunasini tasvirlovchi fotosuratlar va boshqa taqdim etiladigan materiallar ro‘yxati;

sanoat namunasining mohiyati;

sanoat namunasini ko‘p marta qayta ishlab chiqarish imkoniyati;

sanoat namunasining muhim belgilari (alomatlari) ro‘yxati.

Sanoat namunasi umumiy ko‘rinishining chizmasi namunani mohiyatini ochib berish va uning o‘lchamlari, mutanosiblik nisbatlarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan hollarda taqdim etiladi.

Sanoat tovar belgilarining turlari va ularga talabnoma yozishda ko‘pchilik firmalar bozor iqtisodiyoti sharoitida “xudbinlik” qilishga moyildir. Bu bilan biz tovar belgilarini belgilashda xalqaro huquq normalari bilan hisoblashishda buzg‘unchilikning uchrashi va talabnoma yozishda olib borilgan IIRning natijasiga tayangan holda bo‘limlarni kiritishda og‘ishishlar borligiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz[23].

Agar talabnoma berilgan sanoat namunasi ergonomik jihatdan qayta ishlashni ko‘zda tutadigan buyumga oid bo‘lsa, shuningdek, ushbu buyumning ergonomik sxemasi ham taqdim etiladi.

Tovar belgilarini huquqiy muhofaza qilmasdan madaniy bozor munosabatlarini o‘rnatish mumkin emas. Intellektual mulk obyekti sifatida tovar belgisining o‘ziga xos xususiyati uning tovar va xizmatlar bozoridagi bajaradigan roli bilan tushuntiriladi.

Tovar belgisi (yoki xizmat ko‘rsatish belgisi) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari va ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xususiy alomatlarni aks ettiruvchi (individuallashtirish) uchun xizmat qiladigan belgidir.

O‘zbekistonda tovar belgilari bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlar “Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Tovar belgisi (xizmat ko‘rsatish belgisi)ning huquqiy muhofazasi u ro‘yxatga olinishi bilan yuzaga keladi.

Qonunga muvofiq quyidagi belgilar tovar belgisi sifatida ro‘yxatga olinishi mumkin:

so‘zlar yoki harflar birikmasidan iborat bo‘lgan so‘z bilan ifodalanadigan belgilar;

tasviriy belgilar-liniyalar kompozitsiyasi, istalgan shakldagi

---

[23]Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010.41-6.

figuralarning tekislikdagi soyasi shaklidagi;

hajmiy belgilar - uch o‘lchamli fazodagi figuralar (liniyalar) yoki ularning kompozitsiyasi shaklidagi;

aralash-tasviriy, so‘zli, hajmiy haraktyerdagi elementlarning kombinatsiyasidan iborat va hokazo.

Tovar belgisi istalgan rangda yoki ranglar birligida ro‘yxatga olinishi mumkin.

Talabnoma beruvchi o‘z tovar belgisini ishlab chiqarishda qanday asosiy tamoyillarga amal qilishi zarur. Odatda tovar belgisi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur:

ifodalik va ma'nodorlik (o‘ziga xoslik), ya'ni tovar belgisi uni boshqalardan ajratib turuvchi belgiga ega bo‘lishi, oson ko‘chirilishi, (so‘z bilin ifodalangan tovar belgilari uchun) va yodda qolishi kerak;

qisqa va aniqlik, ya'ni tovar belgisi qisqa bo‘lishi (so‘zli belgilar uchun) va tasvir elementlari soni haddan tashqari ko‘payib ketmasligi (tasviriy belgilar uchun) kerak;

estetiklik, ya'ni tovar belgisi idrok etilishi bo‘yicha zamonaviy va tushunarli hamda ko‘rgazmali bo‘lishi kerak;

barqarorlik (uzoq muddatlilik), ya'ni tovar belgisi uzoq muddat, hatto mahsulot assortimeni o‘zgargan hollarda ham foydalanish uchun yaroqli bo‘lishi kerak;

tasavvur etadigan, ya'ni tovar belgisi iste'molchidan tovar yoki uning biror-bir xususiyati to‘g‘risida tasavvur hosil qilishi zarur.

Bundan tashqari, so‘z bilan ifodalanadigan tovar belgisi uchun yangi bo‘lishi bilan birga, ohangdorligi, talaffuzi qulay bo‘lishizarur sifatlardan hisoblandi.

Shuni qayd etish zarurki, tasviriy tovar belgisi turli-tuman ranglarning uyg‘unligi, uning o‘ziga xosligini, kishilarni o‘ziga jalb etishi va farqlanuvchi qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga rangli so‘zlar bilan ifodalangan, hajmi va qo‘shma tovar belgilari uchun ham muhim omillardan hisoblanadi.

## Takrorlash uchun savollar

1. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlarini sharhlab

bering?

2. Sanoat va tovar belgilari nima sababdan qo‘yilishini va uni ahamiyatini aytib bering?

3. Sanoat namunalariga patent olish uchun talabnoma tuzishda qanday hujjatlarni to‘ldirish zarur?

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar


1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage / Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: TDIU, 2013 y.
4. Innovation, intellectualproperty, andeconomic growth Christine Greenhalghand Mark Rogers. USA Princeton University Press, 2010 . 46b.

# 5- BOB. INNOVATSION IQTISODIYOTNI SAMARALI BOSHQARISH VA UNI MOLIYALASHTIRISH

## 5.1. Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari

Innovatsion faoliyatning nazariy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Avstriyalik olim Y.Shumpeter innovatsion o‘zgarishlarni besh yo‘nalishga bo‘lganbo‘lib, yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni yangi bozor asosida ta'minlash, yangi xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulot turlarini yaratish, yangi xomashyolardan foydalanish, ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash, yangi iste'mol bozorlarini ochish[24].

Demak, ichki investitsion faoliyat innovatsion faoliyatga nisbatan mazmunan keng tushuncha hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga sarflangan mablag‘lar jami kapital investitsiyaning yangi g‘oya, ishlanmalar, jarayonlar, mahsulot, xizmat turlarini yaratish, o‘zlashtirish va joriyetishgataalluqli bo‘lganqismidir. Shunday qilib, innovatsion faoliyat makon va zamonda yuz bergan va berayotgan, o‘zining moddiy va nomoddiy ko‘rinishdagi hamda pulda baholanadigan mulk shaklidagi pirovard mahsuliga egabo‘lgan, bunga erishish uchun ma'lum sarf- xarajatlarni talab qiladiganxo‘jalik faoliyatining bir turi hisoblanadi. Aynan shu mazmunda korxonalarning innovatsion faoliyati ularda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi hamda o‘tkaziladigan audit predmetini tashkil qiluvchi obyektlardan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat yakunlangan ilmiy-tadqiqot va loyihalar natijalari yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlarni (fan-texnika yutuqlarini) yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga: bozorda sotiladigan, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga, shuningdek, shu bilan bog‘liq qo‘shimcha ilmiy-tadqiqot va loyihalarga joriy qilishga yo‘naltirilgan jarayon ekan, unga quyidagi faoliyat turlarini kiritish mumkin:

amaliyotda qo‘llash uchun mo‘ljallangan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotchilik, tajriba-konstruktorlik yoki texnologik ishlar bajarish;

yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot chiqarish, yangi yoki

---

[24]Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: Прогресс, 1982. С. 386.

takomillashtirilgan texnologik jarayon joriy qilish uchun ishlab chiqarishni tayyorlash va texnologik qaytajihozlash;

yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni sinab ko‘rishni amalga oshirish;

xarajatlar o‘zini oqlashiga qadar yangi yoki takomillashtirilgai texnologik jarayon qo‘llash, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotchiqarish;

yangi mahsulotni bozor tomon harakatlantirish bo‘yicha faoliyat;

innovatsion infratuzilma yaratish va rivojlantirish;

innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

sanoat mulki obyektlari yoki maxfiy ilmiy-texnik axborotlarga egalik huquqini boshqalarga berish yoki xaridqilish;

yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yaratish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ekspertiza, maslahat, axborot, yuridik va boshqa xizmatlar ko‘rsatish;

innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni tashkil qilishdan iboratdir.

Innovatsion faoliyat subyektlari quyidagilardan iborat:

innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar;

innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar;

innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan intellektual mulk egalari bo‘lib, korxonalar loyihalari, qurilmalar, sanoat namunalari, texnologik jarayonlar, “nou-xau”, kashfiyot va ixtirolar mualliflari, dizaynerlar;

innovatsiyalar amalga oshirishga kapital kirituvchi investorlar bo‘lib, banklar, fondlar, koorporatsiyalar, lizing firmalar;

innovatsion jarayonga xizmat ko‘rsatadigan va uning infratuzilmasini ta'minlaydigan vositachilar esa konsalting va injiniring firmalari, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, texnopolislar, axborot markazlari;

innovatsion faoliyatni boshqarish, muvofiqlashtirish va tartibga solishda ishtirok etadigan davlat organlari va mahalliyo‘zini-o‘zi boshqarish organlari;

subyektlar o‘rtasida ular borasida iqtisodiy va huquqiy munosabatlar vujudga keladigan innovatsion faoliyat mahsulotlari (natijalari) quyidagilar hisoblanadi:

muayyan innovatsiyalarni o‘zlashtirish natijalari va texnologiyalarni belgilab beradigan innovatsion loyihalar (biznes-rejada o‘z aksini topadigan oraliq natija);

yakuniy mahsulotni sotishda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samarani ta'minlaydigan texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishda o‘zlashtirish;

fan-texnika yutuqlarining natijasi hisoblangan tamomila yangi va yaxshilangan mahsulotlar (tovar va xizmatlar).

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida innovatsiya va ilmiy texnika sohasidagi siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lib, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirishga ta'sir etuvchi, innovatsiya va ilmiy-texnika taraqqiyotini rag‘batlantirishning huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy sharoitlarini yuzaga chiqarish. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va sanoat korxonalarini texnologik jihatdan qayta qurollantirishning asosiy vositasi davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Mazkur dasturning maqsadi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: natijalari o‘rta muddatli sharoitlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beruvchi, ilmiy va texnologik innovatsiyalarni davlat tomonidan tashkillashtirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

ilmiy-texnika tadqiqotlari, amaliy-texnik tadqiqotlar, texnologiyalar raqobatbardosh mahsulotni sanoat ishlab chiqarishsiklining uzluksizligini ta'minlash;

dastur doirasida ishlab chiqilgan va o‘zlashtiriladigan, progressiv, resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalar bo‘yicha investitsion loyihalarni amalga oshirishga hamkorlik qilish;

ilmiy innovatsiya va sanoat sohalarida yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solish tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi zarur:

davlat siyosatining aniq belgilangan maqsadlarini ishlab chiqish;

belgilangan maqsadlarni amalga oshiradigan boshqaruv organlari va ularning funksiyalarini shakllantirish;

boshqaruv funksiyalarini to‘liq amalga oshirishda tartibga solish obyekti va axborot beradigan axborot tizimini shakllantirish;

davlat boshqaruv organlarining qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish instrumentlari davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solishning asosiy instrumentlariga nafaqat uning elementlari taalluqli bo‘ladi balki davlatning ilmiy imtiyozlar tizimiga muvofiq, ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar sohasi o‘rtasida byudjet va byudjetdan tashqari resurslarni taqsimlash orqali ilmiy texnika yangiliklarini davlat tomonidan to‘g‘ridan- to‘g‘ri qo‘llabquvvatlash;

innovatsion jarayonlarning subyektlariga turli xil imtiyozlarni taqdim etish;

iqtisodiyotda innovatsion muhitni shakllantirish va ilmiy-texnik axborotlar milliy xizmatini, patentlash va litsenziyalash, standartlashtirish, sertifikatsiyalash, statistika, xorijiy tajribani o‘rganuvchi tahliliy markazlar, ilmiy-texnik rivojlanish, prognozlashtiruvchi kadrlarni tayyorlash kabilarni o‘z ichiga oluvchi tadqiqotlar va ishlanmalar ta'minoti infratuzilmasi hamda ular asosidaqaror qabul qiluvchi shaxslarni ustuvor ilmiy, milliy tizimlar bilan ta'minlashdan iborat.

Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati ko‘proq darajada uni tashkil qilish shakllari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash usullari bilan belgilanadi. Yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalar davlat milliy kuchining asosiy tashkil qiluvchilari bo‘lganlari sari rivojlangan davlatlar innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning turli-tuman imkoniyatlarini topadilar. Bunda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning turli-tuman usullari va innovatsiyalarni vositali qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadbirlarni kengaytirish.

Rivojlangan mamlakatlar innovatsion faoliyat uchun moliyaviy resurslarni davlatning xususiy manbalardan to‘playdilar. G‘arbiy Yevropaning ko‘pgina mamlakatlari uchun moliyaviy resurslarni ITTKI uchun davlat va xususiy kapital o‘rtasida teng taqsimlanishi xosdir.Ma'lumki, ilmiy salohiyat birinchi navbatda fanlarning fundamenti tadqiqotlarni rivojlantirishga investitsiyalarning hajmi, patentlar va litsenziyalarning soni, jahon ilmiy adabiyotiga ulush va boshqalar bilan belgilanadi. Yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlarda ITIga xarajatlar YAIM ning 3foiz yaqinini tashkil qiladilar. Moliyalashtirish tizimi orqali innovatsion faoliyatni rivojlantirish mumkin. Innovatsion faoliyatda korxonalar, sanoat kompaniyalari, moliya

sanoat guruhlari, kichik innovatsion biznes, investitsion va innovatsion fondlar, mahalliy boshqaruv jarayonlarida ishtirok etadilar.

## Takrorlash uchun savollar

1. Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot chiqarish shartlarini sharhlab bering?
2. Yangi mahsulotni bozor tomon harakatlantirish bo‘yicha faoliyatini aytib bering?
3. Innovatsion infratuzilma yaratish va rivojlantirish zarur?

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar


1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: TDIU,2013 y.


## 5.2.Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish

Bugungi kunda mamlakatimizdagi korxonalar faoliyatida innovatsion marketing usullaridan foydalanishda yangi tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarishga va ularni bozorga kiritishga, korxonaning bozordagi brendini yanada kuchaytirishga, reklama faoliyati samaradorligini oshirish, ichki va tashqi bozorlarda tovarlar raqobatbardoshligi va sifatini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda .

Marketing innovatsiyalari deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy o‘zgartirishlar;

mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo‘yicha ularni bozorlarga tanitish va

olg‘a siljitish bo‘yicha yangi uslublardan foydalanish;

yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi.

Bu o‘zgartirishlar mahsulot iste'molchilarining ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga, sotish hajmini ko‘paytirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlar iste'molchilarining tarkibini kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mahsulot dizaynidagi o‘zgartirishlar yangi marketing konsepsiyasining bir qismi bo‘lib, ular mahsulotning shakli va tashqi ko‘rinishidagi o‘zgartirishlarni o‘z ichiga oladi. Bular mahsulotning funksional va foydalanish xususiyalariga ta'sir ko‘rsatmaydi. Shuningdek, bunday o‘zgartirishlarga qadoqlanishi tashqi ko‘rinishini ta'riflab beruvchi iste'mol mahsulotlari, ichimliklar, yuvish vositalari kabi mahsulotlarning qadog‘idagi o‘zgartirishlar ham kiradi.

Mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo‘yicha yangi uslublardan foydalanish sotishni kengaytirish bilan bog‘liqdir. Bunga logistika (xomashyo, tarkibiy qismlar va tayyor mahsulotlarni tashish va omborxonalarda saqlashni boshqarish) uslublari kirmaydi. Mahsulot (xizmat)larni bozorga tanitish va olib chiqishning yangi uslublaridan foydalanish korxonaning mahsulot va xizmatlarini olib chiqish uchun yangi konsepsiyalardan foydalanishni anglatadi. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi va ularning asosida tamomila yangi tovar va xizmatlar turlarini sotish tezligi shunga olib kelmoqdaki, bozordagi vaziyat va iste'molchilarning ehtiyojlari tobora o‘zgarmoqda. Iste'molchi nimani, qayerdan qanday ko‘rinishda va qanday narxda sotib olishni istashini aytmoqda. Marketing konsepsiyasini tushunishga yangicha yondashuv ya'ni maqsadli guruhlar strategik bozor segmentidan potensial mijozlar bilan yaqinroq ishlashga asoslanmoqda. Bozor tadqiqotlari yordamida bir xil iste'molchilar guruhlarini ajratib, stategik segmentlarni aniqlangan holda korxona sezilarli miqdorda mablag‘lar talab qiladi hamda mavjud potensial mijozlar bilan kelgusi aloqalarda ko‘proq unumdorlikka erishadi. Tanlab olingan bozor sektorlari bilan faol kommunikatsiyalar iste'molochilarning katta qismi e'tiborini jalb etishga imkon beradi va ularning aksariyati kompaniya mijozlariga aylanadi. Mana shu sababdan XXI asrning boshlaridan boshlab turli tarmoqlarda bozor Yetakchilarining ko‘pchiligi reklama, to‘g‘ridan to‘g‘ri sotuvlar, ichki firma munosabatlari uchun javob beradigan bo‘limlarni birlashgan kommunikatsiya xizmatlariga birlashtirish ro‘y beradi. Integratsiyalashgan marketing

kommunikatsiyalardan foydalanuvchi kompaniyalar soni o‘smoqda.

O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilgan Respublika “Innovatsion g‘oyalar, ishlamalar va texnologiyalar”, “Sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjalar yarmarkasi”da taqdim etilgan ilmiy-tekshirish ishlamalari va texnologiyalari, qo‘shma korxonalarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sifat ko‘rsatkichlari xalqaro ISO standart talablariga mosligi va O‘zbekistonda lokalizatsiya filingan import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan ko‘plab tovarlar ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi davrda respublikamiz kundalik hayot va uning dinamikasi o‘zgarib bormoqda, bu esa iqtisodni yangilashda marketing tadqiqotlarini natijalarini tahlil qilib, yaqin kelajakka va uzoq davrga nisbatan innovatsion strategiyani tanlash, rejalash va amalga oshirishni bu esa O‘zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatida obro‘sini oshirishda va iqtisodiyotini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ilmiy-texnik innovatsiyalar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida innovatsion jarayon markaziy rol o‘ynaydi.Innovatsiyalar esa texnik taraqqiyot sur'ati yuqori bo‘lgan tarmoqlarda asosiy raqobat quroli hisoblanadi. Texnik taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi institutlarga alohida e'tibor qaratgan. XX asrning birinchi yarmi iqtisodchisi Yozef Shumpeter (18831950) innovatsiyalarni olg‘a suruvchi va unda normal darajadan katta bo‘lgan daromadning asosiy manbasi bo‘luvchi raqobat mexanizmini ko‘rsatib bergan.

Martekingning uchta asosiy aspekti sanoatning rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Birinchisi innovatsion musobaqadir. Firmalar musobaqasida birinchi bo‘lib innovatsiyaga erishgan firma marteking sohasida ham Yetakchi hisoblanadi. Ikkinchisi, yirik firmalar bozorda innovatsiyalarni izlash bilan bog‘liq ishlarni doim takomillashtirishga harakat qilishlaridir. Uchinchisi, Kristensen (1997) bozor talabi asosiy innovatsiyalarga bo‘lgan talabni aniqlashtiruvchi omil ekanligini ta'kidlab o‘tgan.

Innovatsion faoliyat yo‘nalishlari eng avvalo ishlab chiqarishni takomillashtirish vazifalari va imkoniyatlari bilan emas balki iste'molchilarning yangi mahsulot tavsifnomalari borasida nimalarni afzal

ko‘rishini o‘rganish natijalari bilan belgilanishi lozim. Yangi mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirishda ushbu mahsulotni tajriba joylarida so‘ngra esa bozorda tekshirib ko‘rishga ko‘proq e'tibor qaratish kerak. Yangi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar yangi mahsulot muvaffaqiyatinning quyidagi omillari aniqlab berdi (5.2.1-jadval).

**5.2.1- jadval. Yangi mahsulotning muvaffaqiyat omillari.**

| **Muvaffaqiyat omili** | foiz |
|---|---|
| Mahsulotning bozor talabiga moslashganligi | 8 |
| Mahsulotning firma imkoniyatlariga muvofiqligi | 5 |
| Mahsulotning texnologik ustunliklari | 6 |
| Yangi mahsulotlarning firma rahbariyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi | 2 |
| Yangi modellar tanlashda baholash jarayonlaridan foydalanish | 5 |
| Qulay raqobat muhiti | 2 |
| Tashkiliy tuzimaning yangi mahsulot ishlab chiqish vazifalariga muvofiqligi | 4 |

5.2.1- jadval ma'lumotlaridan kelib chiqadiki, asosiy muvaffaqiyat omili mahsulotning bozor talablariga moslashganligi hisoblanadi. Bu innovatsion marketingning asosiy kompetensiyasi hisoblanadi.

Innovatsion marketing texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular jismoniy jihatdan mavjud mahsulot bilan emas, balki uning ishlab chiqarilayotgan konsepsiyasi bilan ishlaydilar. Bu esa an'anaviy marketingdan farqli ravishda, marketing tadqiqotlari o‘tkazishda katta qiyinchiliklar yuzaga keltiradi.

Innovatsion marketing innovatsiyalar bozori konyunkturasini o‘rganish, innovatsion loyihani biznesloyihalashtirish, uni amalga oshirishdan tortib innovatsiyalarni bozorga harakatlantirish, innovatsiyalar diffuziyasi va daromad olishgacha bo‘lgan butun innovatsion siklning tizimli integratsiyasini ifodalaydi.

Innovatsion marketing obyekti intelektual mulk, yangi materiallar va tarkibiy qismlar, yangi mahsulotlar, yangi jarayonlar, yangi bozorlar, tovar va xizmatlarni siljitish yangi usullari, boshqaruvning yangicha tashkiliy shakllari hisoblanadi.

Innovatsiyalar yaratish mamlakatimizda doimo muhim ahamiyatga ega

bo‘lib kelgan. Biroq bugungi kunga kelib, raqobat kurashida innovatsiyalar ishlab chiqarishni emas, ularni amaliy qo‘llashni tashkillashtirishdan iboratdir. Korxonalarda innovatsion marketingni iste'molchilar xulq-atvorini o‘rganishda turli strategiyalardan foydalanish talab etiladi, ya'ni o‘zaro munosabatlar marketing, ijtimoiy marketing, B2B, B2C, xolistik marketing, “yashil” marketing, geomarketing, tarmoq marketing, taassurotlar marketinggi, neyromarketing strategiyalari kabi turlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu innovatsion marketing strategiyasi turlaridan mamlakatimiz korxonalarda, ularning yangi mahsulot ishlab chiqarishida hamda xizmat ko‘rsatishida yangi bozor segmentlarini o‘zlashtirishda, korxonaning raqobatli ustunligini yaratishda samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Korxonalar faoliyatida innovatsion marketing strategiyalaridan samarali foydalanish orqali yangi xizmatlar to‘rini yanada kengaytirish, ushbu xizmatlar bilan nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham yangi xizmat ko‘rsatish turlarini ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda “Innovatsion marketing” - marketing faoliyatidagi yangi paydo bo‘lgan yo‘nalish hisoblanib, innovatsion mahsulot va xizmatlarni shakllantirishda ishlab chiqarish texnologiyalarni joriy qilish hamda ushbu innovatsion g‘oyani tijoratga tayyorlashni amalga oshiradi. U korxonaga innovatsion mahsulotni maksimal samara bilan joriy qilish imkonini beradigan usul va vositalar majmuidan foydalanadi. Innovatsion marketing texnologiyalarini o‘z vaqtida qo‘llash innovatsion ishlab chiqish bilan bog‘liq risklarni pasaytiradi, chunki ular potensial talabni baholash, maqsadli bozor segmentini aniqlash va ishlanmalarini davom ettirish kerakmi, ular kutilgan samarani beradimi degan savollarga javob berishga imkon yaratadi.

Xizmat ko‘rsatishda esa **“innovatsion marketing”**, ayirboshlash natijasida yangiliklarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish orqali foyda olishga yo‘naltirilgan inson faoliyati majmui hisoblanadi. Bu faoliyat yangiliklarga ehtiyojni aniqlashdan tortib yangi innovatsion xizmatlarni yaratish, bozorga kirib borish, xizmatlarning hayotiylik davri, amaliyotda qo‘llash, innovatsion xizmatlarni sotib olish uchun xaridorlarni qiziqishini orttirish, yangiliklarga bo‘lgan talabni va ularni yaratilish istiqbollarini aniqlash kabi vazifalarni o‘z

ichiga oladi. Xizmat ko‘rsatish innovatsiyasi va xizmatlar innovatsiyasi ilm-fan va amaliyotga yetarli darajada qo‘llanilmagan keng tushunchali atamadir.

Innovatsion mahsulotdan innovatsion xizmatning farqli belgilaridan beri, innovatsion xizmat yangilik bozordagi muvaffaqiyati tegishli texnik bilimlarni amalga oshirish jarayonini kamroq talab qiladi. Innovatsion xizmatni tijoratlashtirishda texnikaga nisbatan ko‘proq iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi jarayonlarni qamrab oladi.

Yuqoridagi ko‘rib o‘tilgan olim va mutaxassislarning innovatsion marketinga bergan ta'rif va tavsiflarini tahlil qilar ekanmiz, ular tomonidan asosan innovatsion mahsulotni bozorga siljitish bilan bog‘liq marketing faoliyati nuqtai nazaridan yondashilganligini guvohi bo‘lamiz. Lekin, ularni fikricha biz, marketingni iqtisodiy faoliyat sifatida o‘zini olib ko‘radigan bo‘lsak, unda qo‘llaniladigan yangi vosita va usullar ham innovatsion faoliyat bo‘lib yuzaga chiqadi. Bundan kelib chiqib, innovatsion marketingga quyidagicha mualliflik tarifini keltirishni lozim topdik.

**Innovatsion marketingga,** yangi tovarlarni izlash, mahsulotlarni yaratish va amaldagi mahsulotni takomillashtirib borish hamda innovatsion texnologiyalar yordamida tijoratlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyat deb ta'rif berishimiz mumkin.

Demak, innovatsion marketingga berilgan ta'rifdan kelib chiqib mahsulotni siljitishda marketingning u yoki bu vositasidan foydalanishimiz mumkin (5.2.1-rasm).




**5.2.1- rasm. Innovatsion marketing bilan an'anaviy marketing vositasida mahsulotning bozorga siljitishning umumiy ko‘rinishi**

Ushbu marketing vositalari mahsulot siljitish holatidan foydalanishni quyidagicha ifoda etiladi:

an'anaviy marketing vositalaridan innovatsion mahsulotlarni siljitishda foydalanish;

an'anaviy mahsulotni innovatsion marketing vositalari bilan siljitishda foydalanish;

innovatsion marketingdan an'anaviy mahsulotlarni hamda innovatsion mahsulotlarni siljitishda qo‘llash.

Korxonada marketing faoliyatini tashkil etish I.Ansoff va ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan “mahsulot-bozor” portefeli doirasidagi muhim bir yo‘nalish sifatida o‘rganilgan. Har bir mahsulot bozordagi talabning har qanday sharoitida sotilishi va uning iqtisodiy natijadorligi bilan belgilanadi. Shuning uchun biz mavjud bo‘lgan va innovatsion mahsulotni bozorga siljitishda pozitsiyasini belgilovchi “mahsulot-talab- marketing” matritsiyasi asosiy jarayon hisoblanadi

Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar korxonaning mahsulot va xizmatlar bilan savdo qilishi uchun yangi narx strategiyalaridan foydalanishini bildiradi. Marketing vositalaridagi mavsumiy, doimiy yoki boshqa joriy o‘zgarishlar yangilik olib kelmasalar bu jarayon marketing

innovatsiyalari hisoblanmaydi. Mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar bilan marketing innovatsiyalarini bir-biridan farqlovchi asosiy mezon - bu mahsulotning funksiyalarida yoki undan foydalanish usullarida jiddiy o‘zgarishlar mavjudligidir. Agar mahsulot va xizmatlarning funksional yoki foydalanish xususiyatlari mavjud mahsulot va xizmatlardan yaxshilanishi bu mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar hisoblanadi. Mahsulot dizaynidagi o‘zgarishlar esa uning funksional yoki iste'mol xususiyatlari sezilarli darajada o‘zgarmagan bo‘lsa, bu marketing innovatsiyalari hisoblanadi.

Jarayonlar bo‘yicha va marketing innovatsiyalari o‘rtasidagi farq quyidagicha namoyon bo‘ladi. Jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar mahsulot birliklariga xarajatlarni kamaytirish yoki sifatini oshirishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish va mahsulotlarni yetkazib berish usullarini takomillashtirish bilan bog‘liqdir. Marketing innovatsiyalari esa sotish hajmini yoki mahsulotlar narxini (yangi narx strategiyalarini qo‘llagan holda) oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida G‘arbda kuzatilgan o‘ziga xos bashorat shov-shuvi Rossiya bashoratchilk maktabi Yetakchisi I.V.Besstijev Lada tomonidan tuzilgan klassik bashoratchilik antologiyasida yaqqol tasvirlab berilgan. Intellektual va siyosiy doiralarda qizg‘in munozaralarga sabab bo‘lgan o‘nlab fundamental asarlarda jahon rivojlanishi istiqbollari turli ssenariylardaeng yorkin ranglardan boshlab katastrofik holatlargacha asoslab berilgan. Uzoq muddatli u yoki bu bashorat ssenariylarini asoslab berish uchun foydalanilgan ko‘plab global modellar yaratilgan. Ushbu bashoratchilikka BMT ham qo‘shilgan bo‘lib, uning tarkibida “Bashorat va istiqbolli tadqiqotlar” bo‘limi tashkil qilingan. Nobel mukofoti sovrindori V.V.Leontev rahbarligidagi BMT ekspertlar guruhi tomonidan o‘tgan asrning 70- yillarida o‘ziga xos tarmoqlararo balansning mintaqalararo modeli asosida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining 2000- yilgacha bo‘lgan bashoratlari ishlab chiqilgan.

Biroq 80- yillar oxirlariga kelib bashoratchilik to‘lqini pasaya boshladi vabuning sababi oddiy edi.Jahon industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tib, tendensiyalar o‘zgardi va chuqur bifurkatsiyalar klasteri vujudga keldi. Avvalgi bashoratlar va ularning metodologik asoslari bu muhitda o‘z ta'sir kuchini yo‘qotgan bo‘lib, yangi metodologiya esa hali rivoj

topmagan edi.

O‘tish davrida ijtimoiy va texnologik tizimlar traektoriyasi keskin o‘zgaradi. Ularning ayrimlari o‘tmishda qolib ketib, ularning o‘rniga yangilari paydo bo‘ladi va jahon miqyosida keng tarqaladi. Bu davrda oldindan ko‘ra bilishning qiyinligi an'anaviy inqilobiy paradoks e'lon qilingan bo‘lib, maqsadlar va amalda erishilgan natijalar o‘rtasidagi farqlar bilan ham izohlanadi. Lekin shunga qaramay XX asrning yirik olimlari qalamiga mansub bo‘lgan eng oxirgi asarlardan birida insoniyatning rivojlanishiga doir asosli bashoratlar, ekologik va sivilizatsiya inqirozlarining bartaraf etilishiga qaratilgan.

Sivilizatsiya strategiyasining paydo bo‘lishi hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib u tabiat strategiyasi bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi lozim. Bu esa insoniyat tarixida uning kuch-quvvati o‘sishi bilan birga kuzatiluvchi sifat yangiligidir. Bizni nafaqat ekologik balki sivilizatsiya inqirozi kutib turibdi. O‘z mohiyatiga ko‘ra biz sivilizatsiya tarixining butkul yangicha bosqichi esa butun xalqlar oldida sog‘lom turmuz tarzini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Bunday strategiyani uzoq muddatli bashoratlarsiz, tabiat va jamiyat rivojlanishining muqobil yo‘llarini oldindan ko‘ra bilmasdan turib amaliy jihatdan ishlab chiqish mumkin emas.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib har bir faoliyatda yangicha qarash, yangi xomashyolarni yaratish va ishlab chiqarishga sarflash, iste'molchilar ehtiyojini to‘laqonli qondirishga qaratilgan faoliyatini amalga oshirish, innovatsion mahsulotni siljitishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarning har birida innovatsion marketingni o‘zida namoyon qiladi.

## Takrorlash uchun savollar:

1. Zamonaviy innovatsion marketingni strategik ko‘rinishlarini sharhlab bering?
2. Yuqori texnologik tovarlarning innovatsion marketing xususiyatlari qanday tavsiflanadi?
3. Yangi innovatsion tovarlarni ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlili?

## Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012.

2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.

3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.:TDIU, 2013 y.

4. Innovation, intellectual property, and economic growth / Christine Greenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010 .46-b.

## 5.3. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi

Innovatsion faoliyatning samaradorligi uni tashkil qilish shakllari va moliyaviy tomonidan qo‘llab-quvvatlash jarayonlariga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Yaratilgan yangi ilmiy ishlanmalar va innovatsion texnologiyalar mamlakat iqtisodiyotining rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bunda innovatsion faoliyatda loyihalarni moliyalashtirishning turli-tuman usullari va vositalarini amaliyotga tadbiq etish zarur.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion loyihalar faoliyati uchun moliyaviy resurslar davlat va xususiy sektorlar tomonidan yo‘naltiriladi. G‘arbiy Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarida innovatsion loyihalar uchun moliyaviy resurslarni davlat va xususiy kapital o‘rtasida teng taqsimlanishga harakat qilinadi. Bu esa o‘z navbatida fundamental tadqiqotlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi, patentlar va litsenziyalar hamda boshqalar bilan belgilanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirilgan xarajatlar YAIMning 3 foiz yaqinini tashkil qiladi.

Innovatsiya loyihasining asosiy maqsadlaridan biri korxona yuqori sifatga ega bo‘lgan kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarish layoqatiga ega ekanligini raqobatchilarga isbotlashdan iborat.

“Innovatsion loyiha” tushunchasi bir qancha nuqtai nazardan qaralishi mumkin:

- innovatsion maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan tadbirlar yig‘indisi sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni sifatida;
- ushbu tadbirlarni asoslovchi va bayon qiluvchi hujjatlar paketi sifatida.

Ushbu uch jihatlar innovatsion loyihaning innovatsion faoliyatini tashkil qilish va maqsadli boshqarish shakllari sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, innovatsion loyiha - bu resurslar, muddatlar va ijrochilar bo‘yicha o‘zaro bir-birini asoslaydigan hamda o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, ilm-fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarida muayyan maqsadlar (vazifalar)ga erishishga qaratilgan jarayonlarning murakkab tizimidir.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ularni moliyaviy asoslash va investitsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihaviy moliyalashtirish jarayonlari nuqtai nazaridan o‘ziga xos xususiyatlarga ega innovatsion loyihalarni farqlash lozim:

a) investitsion loyihalar, masalan, yangi sanoat obyektlari qurilishiga (energetika, transport, aloqa va h.k.) yirik kapital qo‘yilmalar;

b) ilmiy-texnik (innovatsion) - ilg‘or texnologiyalar, yangiliklar, mahsulotlar va xizmatlar.

Ushbu ikki xil loyiha o‘rtasida muhim farqlar mavjud bo‘lib bular quyidagilar hisoblanadi:

sanoat obyektlariga kapital qo‘yilmalar haqidagi mavjud moliyaviy axborotlarni mavjudligi;

innovatsion ilmiy-texnik loyihalar mavhumlikning yuqori darajasiga ega bo‘lib moliyaviy yo‘qotishlar sababli to‘xtatilib qo‘yilishi mumkin;

ilmiy-texnik loyihalarda axborot investitsiyaviy loyihalarga qaraganda ko‘proq cheklanganligi va mos emasligi bilan farq qiladi. Bu esa mustaqil ekspertlarning loyihalarini baholash bo‘yicha fikrlarini korrelyasiyalashni nihoyatda qiyinlashtiradi;

innovatsion loyihalar ko‘p mezonliligi va yuqori darajali mavhumliligi bilangina farq qilmasdan, balki sifatli baholash bo‘yicha ham farqlanadi.

“Loyiha” tushunchasi bilan bir qatorda, “innovatsion dastur” degan tushuncha ham mavjud. Bu tushunchalar o‘zaro chambarchas bog‘langan. Dastur - bu loyiha shakllaridan biri, dasturlash esa (dasturni shakllantirish) -

loyihalar hayot sikli bosqichlaridan biri bo‘lsa-da, ularning xususiyatlari anchagina farqlanadi, dastur qo‘shimcha qator yangi xususiyatlarni orttiradi.

Iqtisodiyotda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mustaqil korxonalar, sanoat kompaniyalari, kichik sanoat zonalari, kichik innovatsion markazlar, innovatsion fondlar, mahalliy boshqaruv idoralari, xususiy shaxslar va boshqa moliyalashtirish subyektlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ularning barchalari u yoki bu shaklda qayta ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadilar va innovatsion faoliyatni rivojlanishida bevosita ishtirok etadilar. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning tashkil qilish tamoyillari moliyalashtirish manbalarining ko‘pligi, tizimning alohida elementlarining egiluvchanligi, innovatsion faoliyatdan moliyaviy qaytarilishni o‘sishni ta'minlashi lozim.

Buning uchun ikkita asosiy shartga amal qilish zarur bo‘lib, davlatning innovatsion, ilmiy-texnik va sanoat siyosatini faollashtirish va tadbirkorlarni faol investitsion rivojlantirishga o‘tishga tayyorligi hisoblanadi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi mulkchilik turi, markazlashtirilganlik darajasi, mulk egalarining darajasi va moliyalashtirish shakllari bilan farqlanuvchi shakllar va manbalarning o‘zaro hamkorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Mulkchilik turlariga ko‘ra innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari quyidagilarga bo‘linadi (5.3.1-rasm):

- davlat investitsion resurslari (byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari fondlar, davlat tomonidan qarz olish, aksiyalar paketlari, davlat tasarrufidagi mulk);
- tijorat va notijorat xarakteriga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda jismoniy shakllarining investitsion moliyaviy resurslari.

**5.3.1- rasm: Mulkchilik turlariga ko‘ra innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari.**

Bular qatoriga sug‘urta kompaniyalari, investitsion fondlar va kompaniyalar, nodavlat nafaqa fondlarining investitsion resurslari va boshqa subyektlarni ham kiritish mumkin bo‘ladi. Korxonalarga tegishli shaxsiy mablag‘lari, tijorat banklari va boshqa kredit korxonalari hamda hukumat tomonidan maxsus vakil qilingan investitsion banklarning kredit resurslarini ham kiritish mumkin.

Innovatsion loyihalarni davlat darajasida moliyalashtirish manbalari quyidagilarni kiritish mumkin. Davlatga tegishli byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, bank kreditlari va sug‘urta tizimlari bo‘yicha “jalb qilingan” mablag‘lar, davlatning tashqi (xalqaro qarz olish) va ichki qarzi (davlat obligatsiya va boshqa ziyomlari) ko‘rinishidagi qarz mablag‘larini hisobidan amalga oshirish mumkin (5.3.2-rasm).




**5.3.2- rasm: Innovatsion loyihalarni davlat darajasida moliyalashtirish manbalari.**

Byudjetdan mablag‘ ajratilishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish faoliyatning har xil shakllarining muhim moliyaviy manbalari bo‘ladi.Bular hisobidan maqsadli innovatsion dasturlar, davlatning ustuvor innovatsion loyihalari bajariladi.Innovatsion dastur loyihalarning (multiloyiha va megaloyihalar) murakkab kombinatsiyasi bo‘lib, boshqaruv obyekti sifatida alohida loyihadan yoki o‘zaro bir-biri bilan juda zaif bog‘langan, korxona yoki uning ijrochilari tomonidan bajariladigan loyihalardan juda kuchli farq qiladi. Dasturni faqat yirik korxonalar birlashmasi, masalan, MSG (moliyaviy sanot guruhlari), yirik koorporatsiyalar konsorsiumi, mintaqa yoki megapolis, federal organlar amalga oshirishi mumkin. Innovatsion dasturlarni shakllantirish va amalga oshirishga ko‘plab misollar mavjud.

Innovatsion loyiha portfelini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. Innovatsion loyihalarni dastlabki tanlash.

Bosqichning maqsadi - taqdim etilgan innovatsion loyihalarni umumlashtirilgan tahlildan o‘tkazish va baholash. Ushbu bosqich quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

innovatsiyalarni amalga oshirishning korxonaning asosiy muammolari

yechimini taklif eta oladigan asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

ajratib olingan yo‘nalishlar bo‘yicha ekspertizalar olib borish uchun loyihalarni taqsimlash;

ekspertizaning ishchi usulini ishlab chiqish;

ekspert guruhlar ishini tashkil qilish (marketing bo‘limi va boshqa bo‘linmalardan mutaxassislarni jalb etgan holda);

hisob-kitoblar va ekspertizalar natijalari bo‘yicha loyihalarga dastlabki baho berish;

istiqboli yo‘q loyihalarni chiqarib tashlash.

Mazkur bosqichda loyiha bitta eng muhim mezon (masalan, iqtisodiy samaradorlik mezoni) bo‘yicha tanlanadi, bunda baholash parametri past bo‘lgan loyihalarni chiqarib tashlashdan iborat oddiy qoidadan foydalaniladi.

2. Ustuvor (boshlang‘ich) yo‘nalishlar bo‘yicha portfelni shakllantirish.

Bosqichning maqsadi - loyihalarni ustuvorliklar bo‘yicha puxta tahlil qilish va taqsimlash. Bu yerda quyidagi bosqichlar ko‘zda tutiladi:

innovatsion loyihalarni bir nechta mezonlar (3-5 ta) bo‘yicha tahlil qilish;

loyihalarning ustuvorlik darajasini aniqlash;

loyihalarni ustuvorlik darajalari bo‘yicha taqsimlash.

Barcha loyihalar tegishli shkala bo‘yicha, masalan, “past”, “o‘rtadan past”, “o‘rtadan yuqori”, “yuqori” baho bilan baholanadi.

“O‘rtadan yuqori” yoki “yuqori” baho olmagan loyihalar dastlabki tanlov bosqichidayoq chiqarib tashlanadi va rad etilgan deb hisoblanadi.

Qolgan loyihalar ustuvorlik darajasi (sinfi) bo‘yicha taqsimlanadi:

ustuvor loyihalar - bu umumiy samarasi (natijalarsarf-xarajatlar) 70 - 80 foizdan kam bo‘lmaydigan loyihalardir;

ustuvor loyihalarning birinchi 20-30 foizi o‘ta ustuvor loyihalar hisoblanadi.

3. Moliyaviy va boshqa resurslarni innovatsiyalar portfeli ichida taqsimlash.

Bunda “xarajatlar-samaradorlik” sxemasiga asoslangan qaror qabul qilish qoidasidan foydalaniladi. Birinchi navbatda, naqd pul mablag‘lari iqtisodiy samaradorligi maksimal darajaga (ustuvorlik darajasiga) ega bo‘lgan loyihaga ajratiladi.

Jahon amaliyotida “xarajatlar-samaradorlik”ni tahlil qilish barcha moliyani taqsimlash mexanizmlari uchun majburiy jarayondir. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ushbu qoidani amaliy qo‘llash qanchalik oson bo‘lmasin, u quyidagilarga erishish imkonini beradigan loyihalar portfelini ta'minlaydi:

- berilgan cheklangan mablag‘lar doirasida maksimal mumkin bo‘lgan samaradorlik;
- talab etilgan natija va samaradorlik darajasiga eng minimal sarf-xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Korxonada shunday vaziyat yuzaga kelishi mumkinki, innovatsion loyihalarni amalga oshirishga innovatsion mablag‘larning yetarli emasligi to‘sqinlik qiladi.

Bunday holda qo‘shimcha investorlarni hamda xususiy moliyaviy mablag‘larni izlab topish yoki mavjud innovatsion loyihalar portfelini o‘zgartirish zarur bo‘ladi.

Loyihalar portfelini aniqlashtirish - loyihalarning bir qismini o‘ziga jalb qilishi ko‘proq loyihalar foydasiga hamda investitsion mablag‘larning miqdoriga qarab moliyalashtirish hisoblanadi.

Davlat innovatsion siyosatini amalga oshirishning moliyaviy mexanizmi butun innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni ta'minlashga qaratilgan bo‘ladi.

Bir qator mualliflar tomonidan taklif qilinayotgan innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat byudjetidan, moliyasanoat guruhlari, tijorat banklari, birlashmalar, korxonalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishtirokini faollashtirish talab etiladi. Bu jarayonlarni amalga oshirishda davlat innovatsion siyosatining rolini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning investitsion va ilmiy-texnik dasturlari davlat tomonidan maqsadli moliyalashtirishning obyekti bo‘lishlari kerak.

Innovatsion loyihalarni korxonalar darajasida moliyalashtirish manbalari quyidagilarga bo‘linadi (5.3.3-rasm):




**5.3.3-rasm: Innovatsion loyihalarni korxonalar darajasida moliyalashtirish manbalari.**

korxonani shaxsiy mablag‘lar, foyda, ammortizatsion ajratmalar, sug‘urtali to‘lovlar, nomoddiy aktivlarning jalb qilinmagan ortiqchalari, asosiy va aylanma mablag‘lar;

jalb qilingan mablag‘lar, aksiyalarni sotishdan olingan mablag‘lar hamda badallar, maqsadli tushumlar va boshqalar;

har-har xil turdagi byudjet, bank va tijorat kreditlari ko‘rinishdagi qarz mablag‘lari va hakozalar.

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda investitsion va moliyaviy resurslarni qidirib topish muhim omil hisoblanadi. Buning natijasida intelektual bozor, oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo‘limlari, innovatsion biznes markazlari, novatorlik korxonalari, ilmiy xodimlardan tashkil topgan har xil uyushmalar, sanoat firmalarining innovatsion bo‘linmalari shakllantiriladi.

Intelektual bozor talabi - ishlab chiqarishda qo‘shilga qiymatni o‘sishi, aqliy mulkni himoyalash va innovatsion infratuzilmani shakllantirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy bazasini yaratish zarur. Innovatsion bozorni samarali faoliyat yuritish bevosita raqobat muhitini ta'minlash va fandagi yakka hokimlikka faol qarshilik ko‘rsatishini ko‘zda tutadi. Yakunlangan ishlab chiqarishlarni tijoratlashtirish, ijara, lizing, va boshqa bozor qurollari

hisobiga ilmiyishlab chiqarish infratuzilmasidan to‘liqroq foydalanishga yordam beradi.

Bozor munosabatlarini rivojlanishi bilan xatarli (venchurli) sarmoyalar fondlarini innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirish uchun sharoitlar vujudga keladi. Jahon amaliyotida asosiy sarmoyadagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qarz mablag‘lari, ayniqsa bank kreditlari keng qo‘llaniladilar. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan shakllaridan biri aksiyalar va obligatsiyalarni bosib chiqarish hamda ulushli yoki qarzli turdagi emissiya (bosib chiqarish)dir.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarni takomillashtirishda turli infratuzilmalarga birlashgan moliya-sanoat guruhlari, konsorsiumlar, strategik al'yanslar hamda loyihaviy moliyalashtirish va venchurli fondlarga alohida e'tibor qaratish kerak.

Innovatsion loyihalarning samaradorligini озЫпзЫ uchun у1г1к kompaniyalarga innovatsion axborotlarni ке11Ь ШзЫбЫ uchun axborot vositalaridan foydalanish va norasmiy korxonalarga тиго|аа1 цИаБЫда zaruriy sharoitlarni yaratish 1о/1т.

Innovatsion loyihaviy moliyalashtirish jarayonida innovatsion fondlar, 1х11зоз1аз1111г11дап тоНуа котрашуа1ап, ха1раго moliyaviy korxonalar, sug‘urta va ¡^тд kompaniyalarini yangilik kiritish Ьо‘yicha institutsional tuzilmasining з11ак11ап11г1з11 тиЫт hisoblanadi. Атто, Щогак Ьапк1ап, shu jumladan ixtisoslashgan investitsion va innovatsion banklar kreditlarning asosiy manbalari Ьо‘1adi1ar.

Jahon ата11уо11с!а qabul qilingan innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy -азкк111у зЫакПап ЬегПдап (5.3.1-jadval).

5.3.1- jadval

**Innovatsion 1оу1Ьа1агп1 moliyalashtirishning tashk111y shak11ari[25]**

| Shakl | ЕИкто1 Ьо‘1дап загтоуадог1аг | Qarz таЬад‘1апш о1иусЫ1аг | SHak11ardan foyda1anishninд ак/а111к1аг1 | SHak11ardan ГоукакшЫпппд тигаккаЬ11д1 |
|---|---|---|---|---|

[25] Мухамедьяров А.М. «Инновационный менеджмент» Учебник. - М: Инфра 2010, 82 с.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Difitsitli moliyalashtirish | Хоп^у каукикиа хак\|аго moliyaviy тз-йШ^аг, О’/ЬеНзЮп Respublikasi когхопа1ап | Никита- | 1ппоуа-ыуа1агш кауки -ототаап 1агиЬда зоНтзЫ уа па/ога- цШшзЫ | Мо11уа1аз1-1г1з1п1 потарзаску хагаИеп 1азНр1 уа 1с1к1 кауЫ раЫапптд оХЫп. Вуик\|е1птд хагарИ qismini ko‘paytirish |
| АкыуааогНк (когрогаНу) шикаа moliyalashtirish | Тр\|ога1 ЬапИап | Коогрога-ыуа уа когхопа1аг | Коогрога-ыуа (когхопаки’ка inyestitsiyadan ГоукакипзН уапат Ье1д1з1) | Faqat рптта-Ьако род’о/ки’ Ьо/оНаа 1з111аз1п. Sarmoyador ха-апптд уирог1 ¿ага\|аз1 |
| Loyihani moliyalashtirish | Хикитакаг, Хак\|аго moliyaviy ¡п8иШ11аг, Тр\|ога1 ЬапИап, Мат1ака-когхопакиа, Хоп_^у загтоуакогкиа ТпБйШБЮпа! загтоуаког1аг | кшоххПзюп 1оуШа1аг | МокуаИзЫтзЫш тас\|зак11 хагаИеп. Ха1аг1аппд 1ас\|31т1ап1з111. Day1at 1зНи гокск1 то11уау1у тиаззаза1агп1 какокш. Nazoratni уироп ¿ага\|аз1 | ХпуезЬ-зюп тикида Ьод’кц кгеШ- ха-аг1аг1п1пд уи\|ог1 ¿ага\|аз1. Верагог \|опипс1111к уа зо11\| -аг-1Ь1 |

Venchurli fondlar orqali innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yangiliklar bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lib, qoidaga ko‘ra, pioner (birinchi) sohalardagi yuqori ishga doir faollik bilan bog‘langan. Bunday holatlarni yirik firmalar faoliyatida kuzatishimiz mumkin. Masalan, Kaliforniyadagi Silikon vodiysida venchurli fondlar orqali innovatsion loyihalarni moliyalashtirish natijasida yuqori texnologiyalarni ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi bunga misol bo‘lishi mumkin.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni samarali boshqaruvning ustuvor maqsadlari innovatsion faoliyatni faollashtirish asosida yangi texnologiyalar va tovarlar bozori tomoniga faol harakatlantirish, iqtisodiy taraqqiy etish va yangi bozorlarga bostirib kirishni faol o‘sishi uchun ishlab chiqarishni yanada ixtisoslashtirish va har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanishdan iboratdir.

## Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsion loyihalarni asosiy maqsadi nima?
2. Ilmiy-texnik loyiha bilan axborot investiiyaviy loyihalar orasidagi farqni sharhlab bering?
3. Innovatsion loyihalarni ilmiy-texnik ahamiyati darajasi bo‘yicha tavsiflang?.

4. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish strategiyasini sharhlab bering?

**Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012

2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.

3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.:TDIU, 2013 y.

4. Innovation, intellectual property, and economic growth Christine Greenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010. 46-b.

## 5.4. Iqtisodiyotda innovatsion klasterlarni shakllantirish zarurati

Hozirgi kunda viloyatlarda ko‘plab fundamental tadqiqotlar va texnologik ishlar, ilmiy-ishlab chiqarish bazasi, intelektual kadrlar mavjud. Ammo, olib boriladigan tahlillar shuni ko‘rsatib turibdiki, yetarli innovatsion salohiyat bo‘lsa ham yangi taraqqiy etgan texnologiyalar sust ravishda tadbiq etmoqda. Innovatsion faoliyat subyektlariga marketing, axborot, huquqiy va boshqa ko‘mak beradigan innovatsion infratuzilmalar sust tashkil etilmoqda. Shuningdek, innovatsion sohaning holati, innovatsion mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif to‘g‘risida axborot bazasi lozim darajada rivojini topmagan, bu esa innovatsiya bozorining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Innovatsion marketing ilmiy-texnik va yangi g‘oya, ishlama va texnologiyalarni hamda yaratilgan intellektual mulkni chuqur va har tomonlama o‘rganib uning natijalarini zudlik bilan ishlab chiqarishga transfera qilish. Innovatsion marketing resurslari zamonaviy ilmiy-texnik axborotlar hisoblanib, ular iqtisodiy qimmat turadigan iste'mol bozori hisoblanadi. Ularni qidirish, tanlash, maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish va bular orqali o‘z biznesini tashkil etish lozim bo‘ladi.

Innovatsion marketingni asosiy o‘rganadigan yo‘nalishlari iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv, sotsial, psixologik, huquqiy faktorlari innovatsion jarayonlarga o‘z ta'sirini ko‘rsatadi:

- ishlab chiqarish korxonalardagi innovatsion guruhlarni ishlari tezlik bilan tarqalishi innovatsion texnologik bilimlarni yuksalishiga, raqobatbardosh bosimlarni boshqa klaster bo‘limlarga o‘tib korxona faoliyatini iqtisodiy o‘sishiga olib keladi;

- yangi bilimlarni va texnologiyalarni tezlik bilan rag‘batlantirilishi ishlab chiqarishda bo‘limlarni shakllantirishga sababbo‘ladi.

Oxirgi o‘n yilliklar davrida yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo‘lgan davlatlarda klaster strategiyalari rivojlanib bormoqda. Bu esa dunyo ilm-faniga yangi g‘oyalarni va ishlamalarni yaratish bo‘yicha katta saboq bo‘lmoqda. Shuning uchun bugungi kunda ishlab chiqariladigan tovarlarni sifat ko‘rsatkichlari darajasini oshirishda zamonaviy yangi nanotexnologiyalar, asbob uskunalar, laboratoriyalar uchun aniqlikni va tezlikni oshirish uchun yangi usullari mavjud. Klasterlar asosan yuqori bilim darajasi, talablariga raqobatbardoshlik mezonlariga javob beradigan markazlarda tashkil topmoqda. Hozirgi vaqtda klaster talablari bo‘yicha olib borilayotgan ko‘p ishlar iqtisodiy tomondan rivojlangan davlatlarda kuzatilmoqda. Klaster asosan yangi g‘oyali ilm-fan yutuqlarini har tomonlama mutaxassislar ishtirokida tashkil etilishi mumkin bo‘lgan texnologiyalar va texnikalar orqali olingan yangi assortimentdagi tovarlarni yoki xizmatlarni zudlik bilan ishlab chiqarishga tadbiq etilishini ta'minlaydigan, bozor "chuqurligini" yangi talab uchun zarur bo‘lgan raqobatbardosh tovarlar bilan ta'minlashga yo‘naltirilgan va foydani olishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday zamonaviy talablarga javob beradigan ilmiy-tadqiqot ko‘rsatkichlari bilan isbotlangan va xalq xo‘jaligida ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bunday ishlarni kichik biznes subyektlarida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Klaster talablari siyosatini markazida esa har tomonlama o‘zaro faoliyatlar bo‘yicha bog‘lanish orqali qatnashuvchilarni bir-biriga xizmat yuzasidan bo‘lgan e'tibori va sadoqati birgalikda bajarilayotgan ishlarni tez va muvaffaqiyatli bo‘lishini ta'minlaydi. Klaster sistemasini tashkil etishda kichik va katta ishlab chiqarish korxonalar orasidagi gorizantal bog‘lanish esa bozorda bir guruhga oid tovarlarni zamonaviy talablariga mosligini ta'minlaydi. Zamonaviy klasterlar, odatda bir yo‘nalishga yo‘naltirilgan bir qancha ishlab chiqarish bo‘laklaridagi shu sohaga tegishli bo‘lgan firmalarni

maqsadga yo‘naltirilgan zanjirni bo‘laklari hisoblanib doimo ular ma'lum bir mahsulotlar yaratishga ixtisoslashgan bo‘ladi.

Innovatsion texnologiyani xalq xo‘jaligiga tadbiq qilishda iqtisodiy samaradorlikni quyidagi usullarda baholash mumkin:

yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligni aniqlash;

yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish asosida ishlab chiqarishida yuqori ko‘rsatkichlarga erishish uchun texnik chora- tadbirlarning qaysi biri foydali ekanligini aniqlash zarur.

Fan-texnika taraqqiyoti tadbirlari iqtisodiy samarasini hisoblash tartibi uslubiy qo‘llanmalarda izohlab berilgan.

Unga ko‘ra quyilagilarga e'tibor qaratilgan:

- kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo‘yicha namunali metodika;
- xalq xo‘jaligida yangi texnika, ixtirochilik va ratsionalizatorlik tavsiflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;
- korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalari boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimining iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodikasi;
- boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimi samaradorligini;
- mehnatni ilmiy tashkil etish, ya'ni MIT bo‘yicha tadbir-choralarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;
- atrof-muhitni muhofaza etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlarning iqtisodiy samarasini aniqlash uchun vaqtinchalik metodika.

Zamonaviy fan va texnologiya tobora raqobatli bozor kurashiga jalb qilib borilmoqda. Fundamental bilimlar va ularning yakuniy mahsuli ilmiy texnik mahsulot hozirgi iqtisodiyotning globallashuvi sharoitlarida davlatlarning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Aholining turmush farovonligi o‘sishi, mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur'ati, ta'lim, fan va madaniyatning rivojlanishi, mudofaa qobiliyati bevosita yuqori texnologiyali kompleksni tarkibiy va texnologik jihatdan qayta tuzishga bog‘liq bo‘lmoqda. Bu sohada yuqori malakali ilmiy, tadqiqotchi va

muhandis kadrlar salohiyati katta rol o‘ynaydi.

Respublikaning ilmiy-innovatsion sohadagi hozirgi holati xo‘jalik aylanmasi ilmiy-texnik faoliyatning natijalarini jalb qilish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari talablarga mos kelmaydi. Amaldagi holat fan va texnologiyalarni rivojlantirishda yangi ustuvorliklarni rivojlantirishda yangi ustuvorliklarni ishlab chiqishni talab etadi.

Innovatsion jarayonlarni rivojlantirish mavjud ehtiyojlar qondirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

jamoat ishlab chiqarish tarkibini o‘zgartiruvchi va uning samaradorligini oshiruvchi texnik va boshqa yangiliklarning moddiy ne'matlarga tezkor o‘zgartirishni ta'minlash maqsadida innovatsion jarayonlarning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;

ilmiy-texnik rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni asoslagan tartibda tanlab olish va resurslardan foydalanish ustuvorliklari bilan muvofiq halda ularni oqilona ta'qsimlash;

innovatsion faoliyatni rivojlantirish markazlari, ilmiy korxona va muassasalardagi rolini kuchaytirish;

ilmiy-innovatsion salohiyatni“fan-ta'lim-ishlab chiqarish” o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni kuchaytirish;

mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;

iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishda fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalarini o‘zlashtirish;

bozor konyukturasini dinamikasini hisobga olgan holda innovatsion jarayonlarni tahlil qilish va prognozlash;

barqarorlashtirish va texnologik inqirozdan chiqishga ko‘maklashuvchi yangiliklarni yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha innovatsion faoliyatni faollashtirish yo‘li bilan Yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan tubdan yangilash;

iqtisodiyotning real sektorida raqobatbardoshli, murakkab texnologik jarayonlarni boshqarishni avtomatlashtirish sohasidagi mahsulotlarni chiqarishga ko‘maklashuvchi innovatsion texnologiyalardan ishlab chiqarishda foydalanish;

chet ellik hamkorlar bilan mahalliy ilmga oid mahsulotlarni chiqarishni tashkil etish va ularni ichki va tashqi bozorlarda sotish bo‘yicha qo‘shma

korxonalarni tashkil etish uchun sharoitlarni yaratib berishni ko‘zda tutuvchi tashqi iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashni faollashtirish zarur.

Hozirgi kunda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim bo‘ladi (5.4.1-rasm).




**5.4.1- rasm. Innovatsiya faoliyatini faollashtirish yo‘llari**

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun qulay huquqiy muhitni ta'minlab beruvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Qonunchilik hujjatlarini o‘zaro aloqalarini hisobga olib, qonunchilik tashabbusi tartibida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun qulay huquqiy muhitni ta'minlovchi takliflarni shakllantirish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion faollikni rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi quyidalarni o‘z ichiga oladi (5.4.2-rasm).




**5.4.2-rasm. Innovatsion faollikni rag‘batlantirish tizimi**

Yangiliklarni amaliyotga joriy etish, innovatsion jarayonlarning holati innovatsion loyihalarni va innovatsion faoliyat infratuzilmalarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan moliyaviy institutlarning innovatsion faoliyat bo‘yicha o‘zaro bog‘langan tizimini shakllantirishni talab etadi (5.4.3-rasm).

Mazkur yo‘nalishni amalga oshirishda quyidagi muommalarni hal etish lozim bo‘ladi:

soliq tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

soliq solinadigan bazani aniqlashtirish;

soliq solish mexanizmini takomillashtirish;

korxonalarga investitsiya manbasi sifatida amortizatsion jamg‘armalarni ko‘paytirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida amortizatsiya siyosatini o‘zgartirish;

kredit tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;




**5.4.3- rasm. Mintaqada innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmi**

ilmga oid uskunalar lizingini rivojlantirish;

chet el sheriklar bilan mahalliy ilmga oid mahsulotni chiqarish va uni tashqi bozorda sotish bo‘yicha korxonalarni tashkil etish uchun sharoitlarni yaratish;

tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish;

ilmiy salohiyatni yanada to‘laroq joriy etish hamda ilmiy- texnik,

ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish uchun ilmiy-texnik, ilmiy korxonalar va muassasalarning innovatsiyalarini majmuaviy holda qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish;

innovatsionsanoat majmualari va markazlari, texnoparklar, innovatsion korxonalar va alohida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning moliyaviy-iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish;

milliy ilmiy-texnik ishlanmalarni o‘zlashtiruvchi korxonalar faoliyatni rag‘batlantirishdan iborat.

1. Innovatsion faoliyatning investitsiya bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish. Mazkur masalani yechishda ustuvor yo‘nalishlar sifatida xususiy investitsiyalar bilan hamkorlikda ulushli asosda xatarning bir qismini o‘z zimmasiga olgan holda yuqori samarali juda tez o‘zini qoplay oladigan innovatsion loyihalar bo‘lishi lozim. Bunda quyidagi masalalar echiladi:

ilmiy-texnik va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimining barqaror faolliyat ko‘rsatish me'yoriy bazani yaratish;

byudjet va nobyudjet innovatsiya jamg‘armalari, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha chet el jamg‘armalarini tashkil etish;

tez o‘zini qoplay oladigan innovatsion loyihalarni amalga oshirish maqsadida mahalliy va chet ellik xususiy investorlar uchun jozibador sharoitlarni yaratish(ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish);

innovatsion loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq moliyaviy xatarlarni sug‘urtalash tizimini joriy etishdan iborat.

2. Innovatsion jarayonning yaxlit infratuzilmasini shakllantirish innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Innovatsionfaoliyat infratuzilmasi - iqtisodiyot innovatsion rivojlanishning moddiy asosi, yangi texnologik ukladlarga o‘tishning zarur dasturi, mintaqa iqtisodiyotining kichik ilmga oid sektorini mustahkamlashning muhim omili va umuman iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarning Yetakchi omillaridan biridir.

Rivojlangan innovatsion infratuzilmalarni tashkil etish bo‘yicha ishlar quyidagi tizimlarni tashkil etishni ko‘zda tutadi:

a) innovatsion faoliyatni axborot bilan ta'minlash tizimi quyidagi

ishlarni bajarni taqazo etadi:

innovatsion faoliyat bo‘yicha ma'lumotlar bazasi va banklarni shakllantirish;

korxona, innovatsion markazlarning ishlab chiqarish faoliyatini faollashtirish dastagi sifatida yagona axborot jamlanmasini tashkil etish maqsadida ma'lumotlar bazasi va banklarga kira olish imkoniyatini beradigan innovatsion faoliyatning mintaqaviy axborot-tahliliy tizimini joriy etish;

innovatsion jarayonlarning yagona axborot tizimini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich joriy etish;

ma'lumotlar bazasini yaratish va ularni to‘ldirish hamda ularning hududlararo axborot tizimiga integratsiyasini ta'minlash;

turli mulkchilik shakldagi korxonalarning xo‘jalik faoliyatini faollashtirish dastagi hamda mintaqada yagona axborot bazasining tarkibi sifatida ishchan mintaqalararo kommunikatsiyalarni joriy etish va rivojlantirish;

“Internet” tarmog‘ida innovatsion faoliyatni aks ettirish uchun web-portallarni yaratish;

innovatsion loyihalarning ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va joriy etish;

“Intellektual mulkchilik” mezoni bo‘yicha samaradorlikni baholash;

ishlanmalar va yaratilgan intellektual mulkchilik natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini baholash;

b) ilmiy-texnik, innovatsion tadbirkorlik sohasidagi innovatsion faoliyatda ishlash uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

milliy ilmiy-texnik mahsulotlar bozorini yaratish va shakllantirishda ishtirok etadigan va ilmiy-texnik ishlanmalarni milliy va chet el ilmiy- texnik mahsulotlar bozorida sotishning barcha sikllarini samarali boshqara oladigan yuqori kasbiy ma'lumotga ega bo‘lgan sifat jihatdan yangi toifadagi mutaxassislarni tayyorlash;

integratsiyalashgan kasbiy ta'lim tizimini tashkil etish (malakaviy ishchi, texnik, muhandis va boshqa barcha toifadagi kasbiy kadrlarni tayyorlash) unda kadrlarni tayyorlash zamonaviy moddiy-texnik bazasidan foydalangan holda bevosita ishlab chiqarish korxonalarida amalga oshiriladi;

“Texnologiya va innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo‘yicha menejer”, “Texnologik innovatsiyalar (tarmoqlar) bo‘yicha menejer” ixtisosliklarini ochish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

v) ilmga oid mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi quyidagi masalalarni yechishni talab etadi:

sanoat tarmoqlari bo‘yicha qo‘shma sertifikatsion tajriba laboratoriya va sertifikatlashtirish organlarini tashkil etish;

ISO seriyadagi xalqaro sifat standartiga muvofiq holda korxonalarning sifat tizimini ishlab chiqarish va joriy etishga ko‘maklashish;

tajriba laboratoriyalarni faollashtirish, uning maqsadi tovar, ishlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish uchun oliy o‘quv yurtlarining ilmiy salohiyatini oshirish, uslubiy bazasi, uskuna va o‘lchov texnikalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

ro‘yhatdan o‘tgan sertifikatlashtirish va tajriba laboratoriya bo‘yicha organlarning Yevropa Hamjamiyatining sertifikatlashtirish va akkreditatsiya qilish tizimlarini qo‘llash;

import o‘rnini bosuvchi salohiyatga ega bo‘lgan va istiqbolda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan mahsulotni aniqlash maqsadida ishlab chiqarish jahon standartlariga muvofiqligini aniqlash uchun barcha mintaqaviy ishlab chiqarish tuzilmalarini pasportlashtirish va sertifikatsiyalashtirish ishlarini olib borishdan iborat.

g) innovatsion loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish tizimi o‘z oldiga quyidagi maqsadni qo‘yadi:

respublika ekspertiza ilmiy-maslahat tadqiqot markazlari kuchlari bilan ilmiy darajasi, iqtisodiy samaradorligi, ekologik xafsizligini mustaqil baholashni olib bora oladigan ilmiy-texnik va innovatsion loyihalar ekspertizasini tashkil etish zarur.

d) patentli-huquqiy tizim quyidagilarni ta'minlaydi:

xo‘jalik aylanma intellektual va sanoat mulkchilik obyektlarini jalb qilish, uni inventarizatsiya qilish va ruhsat berilmagan holda foydalanishdan ishonchli himoya qilishni ta'minlashni olib borish;

patentli va ixtiro qilish faoliyatini moliyaviy tomondan qo‘llab-quvvatlash, respublika va xorijiy davlatlarda intellektual mulkchilikni va unga bo‘lgan huquqni himoyalashga ko‘maklashish;

“Intellektual mulkchilik” mezoni bo‘yicha innovatsion loyihalar samaradorligini baholashni joriy etishdan iborat.

e) marketing tizimi quyidagilarni nazarda tutadi:

ichki va tashqi bozorlarda ilmiy-texnik ishlanmalar va innovatsion mahsulotlarnisotishni muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadigan marketing markazlarini tashkil etish;

raqobat qiluvchi korxonalar o‘rtasida ulushlar taqsimlanishini tahlil qilish;

iste'molchilarning yangi mahsulotga bo‘lgan ta'sirini tahlil qilish;

mahsulotlarni sotish strategiyasini variantlarini tadqiq etish va mahsulotni sotishni tahlil qilish;

mahsulot sotishning qisqa muddatli va uzoq muddatli prognozlash;

ishchan faollik tendensiyasini o‘rganish;

raqobatchilarning mahsulotlarini o‘rganish;

muayyan faoliyat turi uchun qonunchilik cheklovlarini o‘rganish;

narx-navo siyosatini ishlab chiqish uchun tegishli narxlarni belgilashdan iboratdir.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va rag‘batlantirish jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi vaziyatda innovatsion o‘sish strategiyasini amalga oshirish ustuvor hisoblanadi.

Hozirgi paytda mamlakatda innovatsion faoliyat amalga oshirilayotgan sharoitlar quyidagicha tavsiflanadi:

qonunchilik tomonidan yaqin, o‘rta va uzoq istiqbollarga belgilangan milliy maqsadlar va ularga erishish bo‘yicha aniq ifodalangan mexanizmlarning yaratilganligi;

makroiqtisodiy barqarorlik vazifalariga bo‘ysundirilgan davlat strukturalari faoliyati natijalari doim ham texnologik rivojlanish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga mos kelavermasligi;

mamlakatning milliy xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi manfaatlarini ta'minlash vositasi sifatida innovatsion faoliyatga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish ehtiyojlarining hozirgi siyosiy darajada aniq ifodalanmaganligi.

Mamlakatning milliy maqsadlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi innovatsion siyosat o‘tkazishni quyidagicha ifodalash

mumkin:

milliy xavfsizlikni ta'minlash;

iqtisodiy barqarorlikka erishish, iqtisodiyotning imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy quvvatini oshirish;

sanoatni texnologik qayta jihozlash, jahon bozorida mamlakatimiz tovar va xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish;

tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muammolarini hal qilish;

aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish, munosib turmush tarzini ta'minlash;

sog‘liqni saqlash va ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratish;

oziq-ovqat, xomashyo, material va energiyaga bo‘lgan milliy ehtiyojlarni kafolatli ta'minlash.

Boshqa mamlakatlar tajribalaridai kelib chiqqan holda innovatsion jarayonning tarkibiy qismlarini quyidagicha aks ettirish mumkin:

- akademik va tarmoq, institutlari, universitetlar va firmalarning ilmiy-tadqiqot
bo‘linmalari ular davlat tomonidan moliyalashtiriluvchi yoki boshqa turda qo‘llab quvvatlanuvchi fundamental ilmiy-tadqiqotlar va izlanish loyihalari uchun mas'ul bo‘ladi. Sanab o‘tilgan korxonalar hisobotlar, turli hujjatlar, ixtirolar, ilmiy maqolalar shaklida intellektual mahsulot ishlab chiqaradi hamda ilmiy kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanadi;

texnik va sanoat-texnik korxonalar - ular innovatsion nou-xauga ega bo‘lib, boshlang‘ich loyihalar ustida ishlaydilar, sinov namunalari yaratish va ularni sinab ko‘rish bilan shug‘ullanadilar, texnik tavsiflar, patentlar, standartlar va reglament tayyorlaydilar. Mazkur tuzilmalar namunalar tayyorlash uchun kuchli ishlab chiqarish quvvatlari, professional va texnologik markazlarga ega bo‘lishi kerak;

ilmiy va muhandis texnik xodimlar, shuningdek, innovatsion faoliyatning joriy muammolarini yechishda talab qilinuvchi malakali kadrlar uchun ta'lim va o‘qitish tuzilmalari;

tadqiqot va loyihalarning bajarilishini nazorat qiluvchi hamda ularning sanoat sektori bilan o‘zaro aloqalarini muvofiqlashtiruvchi korxonalar;

mahsulot va xizmatlarga talabni va ularning tarqalishini o‘rganish bilan

shug‘ullanuvchi konsalting korxonalari;

ilmiy-texnik axborot xizmatlari -ular istiqbolli loyihalar haqida ma'lumot to‘plash, tayyorlash va tarqatish bilan shug‘ullanadi;

iste'molchilar va mahsulotni sotish masalalari bilan shug‘ullanuvchi professionallarni birlashtiruvchi bozor strukturalari.

YUqorida sanab o‘tilgan struktura birliklari o‘rtasidagi aloqalar sxemasi murakkab bo‘lib, bevosita aloqalarni ham, vositachilar va taqsimot tarmoqlari hamkorlikni o‘z ichiga oladi.

## **Takrorlash uchun savollar**:

1. Zamonaviy innovatsion marketingni strategik ko‘rinishlarini sharhlab bering?
2. YUqori texnologik tovarlarning innovatsion marketing xususiyatlari qanday tavsiflanadi?
3. YAngi innovatsion tovarlarni ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlilini izohlang?

## **Mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar**


1. Atkinson, Robert D. Innovation economics: the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012
2. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.:TDIU, 2013 y.
4. Innovation, intellectual property, and economic growth Christine Greenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010. 46-b.

# “INNOVATSIYA IQTISODIYOT”
# FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

№1. Qiyinlik darajasi - 1

| |
|---|
| O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan? |
| 1996 yil 30-avgustda |
| 1998 yil |
| 1996 yil 1-yanvar |
| 1997-yil 1-yanvar |

№2. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Sanoat na'munalari bu-? |
| bu sanoat yoki hunarmandlik buyumlarining tashqi ko‘rinishini belgilovchi badiiy konstruktorlik yyechimidir |
| ishlab chiqarilgan mahsulotlar |
| sifatli ma'hsulot va buyumlar |
| yangi yaratilgan mahsulotlar |

№3. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Tashkiliy innovatsiya deganda nimani tushunasiz? |
| bu firmaning ish faoliyatiga yangi tashkiliy uslubni joriy etish |
| firmaning innovatsion jarayoni |
| firma faoliyati |
| firmada yangi mahsulot ishlab chiqish |

№4. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Turli sohalardagi mahsulotga(xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtamplari, o‘simlik va hayvonlar hujayralariga) yoki usulga(moddiy obyektlar ustidan harakatni amalga oshirish jarayoniga) tegishli texnik yyechim deb nimaga aytiladi? |
| ixtiro |
| nau xau |
| foydali model |
| Tovar belgisi |

№5. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ” O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” gi 5264-sonli farmoni qachon qabul qildi? |
| 28-noyabr 2017-yil |
| 29-noyabr 2017-yil |
| 30-noyabr 2018-yil |
| 29-noyabr 2018-yi |

№6. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Mahsulotni muvaffaqiyatga erishishidagi zaruriy shartlardan biri -bu? |
| sinovdan o‘tkazish |
| ishlab chiqarish |
| iste'molchilarga taqdim etish |
| talabga ega ekanligi |

№7. Qiyinlik darajasi - 3

Endogen innovatsiya deganda nimani tushunasiz? ichki innovatsiya

tashqi innovatsiya
ekzogen innovatsiya
foydali model

№8 . Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsiya jarayonlarini davlat tomonidan bevosita boshqarish usullari qanday shaklda amalga oshiriladi?
ikki shaklda, ma'muriy - idoraviy
ma'muriy
dasturli-maqsadli
dasturli-rejali

№9. Qiyinlik darajasi - 2
Ijtimoiy tizim a'zolari o‘rtasida yangiliklarning kommunikatsion vositalari orqali vaqti-vaqti bilan uzatilish jarayoni bu-?
innovatsiya diffuzyasi
innovatsiya ihtilofligi
innavatsion yangilik
innavatsiyani yaratilishi

№10. Qiyinlik darajasi - 2
Yangi texnika samaradorligini hisoblash nimaga asoslanadi? qiyosiy samaradorlikni aniqlash
yillik samaradorlikni aniqlash
texnik samaradorlikni aniqlash
ishlab chiqarish samaradorligi

№ 11. Qiyinlik darajasi - 3
Evolyutsion tanlov mexanizmi firmalarni nimalar orqali tanlaydi? Dinamik bozor samaradorligi, patent
Soni va sifati
Ustav kapitali
Mulkchilik huquqlari orqali №12. Qiyinlik darajasi - 1
Innovatsiya tushunchasi qachon kiritildi?
1930
1931
1932
1929
№ 13. Qiyinlik darajasi - 2
Iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli jarayoni qaysi iqtisodchi olimlar tomonidan kashf qilingan? R. Soloun, T. Svon
Pol Roumer
V. Zombart, Shumpeter
Larani

№14. Qiyinlik darajasi - 3
Ft <-> At <-> I <-> L <-> Q <-> O‘ <-> Si <-> M <-> S. ushbu sxema nimani tasvirlaydi? Sanoat va innovatsiya uyg‘unligi
Ishlab chiqarish hajmi
Iqtisodiy o‘sish
Texnologiya prototipi, servisni tashkil qilish

№15 . Qiyinlik darajasi - 3

Texnologiyalar transferlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping? Texnologiya prototipi, servisni tashkil qilish

Korxona boshqaruv organlari faoliyati

Diversifikatsiya

Korxona buxgalteriya hisoboti

№16. Qiyinlik darajasi - 2

Qaysi olimning fikricha innovatsiyalarni turlarga ajratishda biznesga kirib kelsa olish imkoniyatini bera olish va IIR xarajatlarini qoplay olish asosiy mezon sifatida ta'kidlangan? Romer

Shumpeter

Valras

Bomol

№17. Qiyinlik darajasi - 1

1776-yil chop etilib bozor tizimi hamda yangi texnologiyalarning ahamiyatini yoritib bergan asar?

A. Smit “barcha xalqlar boyligi”

Shumpeter “Capitalism”

Sengupta “Sanoat o‘sishi dinamikasi”

Keyns “pul, foiz va kreditlar”

№ 18. Qiyinlik darajasi - 2

... strategiyasi mavjud xorijiy ilmiy-texnika salohiyatidan foydalanish va yangiliklar kiritishni o‘z iqtisodiyotiga ko‘chirib o‘tkazishdan iborat?

“Ko‘chirib o‘tkazish”

“O‘zlashtirish”

“Yangi tajriba”

“Innovatsion faolioyat”

№19. Qiyinlik darajasi - 2

Texnik, iqtisodiy, ma'muriy, moliyaviy xaraktyerdagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olib, to‘liq yoki qisman sir bo‘lgan tajriba nima?

Nou-xau

Innovatsiya

Kashfiyot

Ixtiro

№20. Qiyinlik darajasi - 2

Seleksiya yutug‘ini yaratish to‘g‘risida topshiriq bergan va bu topshiriq bajarilishini moliyalashtirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs?

ish beruvchi

listenziar

listenziat

patent egasi №21. Qiyinlik darajasi - 2

Seleksiya yutug‘iga berilgan patentning egasi? patent egasi

listenziat listenziar ish beruvchi

№22. Qiyinlik darajasi - 1

Seleksiya yutug‘idan foydalanish huquqini listenziatga litsenziya shartnomasi asosida beruvchi patent

egasi?
listenziar
ish beruvchi
listenziat
patent egasi

№23. Qiyinlik darajasi - 2
Seleksiya yutug‘idan foydalanish huquqini listenziardan litsenziya shartnomasi asosida olgan yuridik yoki jismoniy shaxs?
listenziat
listenziar
ish beruvchi
patent egasi

№24. Qiyinlik darajasi - 2
O‘simliklarning yangi navi, hayvonlarning yangi zoti? seleksiya yutug‘i
ish beruvchi
listenziat
patent egasi
№25. Qiyinlik darajasi - 2
Seleksiya yutug‘iga patent berish haqida talabnoma topshirgan yuridik yoki jismoniy shaxs?
talabnoma beruvchi
ish beruvchi
listenziat
patent egasi №26. Qiyinlik darajasi - 2 Zamonaviy texnologik almashinuv? Litsenziya savdosi
Litsenziya
Patent axboroti
Sertifikatlash

№27. Qiyinlik darajasi - 2
Davlat nomidan sanoat mulki obyektiga beriladigan va muayyan vaqt oralig‘ida amal qiladigan muhofaza hujjati?
Patent
Ixtiro
Modda
Litsenziya

№28. Qiyinlik darajasi - 2
Patent egasining boshqa shaxslar bilan alohida huquqlarining bir qismini sotish (berish) bo‘yicha tuzgan huquqiy bitimi?
Litsenziya
Patent
Ixtiro
Modda

№29. Qiyinlik darajasi - 2
Ixtirolar ekspertizasini qonuniy o‘tkazish, bahs munozalar bo‘yicha qaror qabul qiluvchi Patent Agentligining kollegial idorasi?
Appelyatsiya Kengashi
Patent

Modda _____
Litsenziya

№30. Qiyinlik darajasi - 2_____
Milliy Innovatsiya tizimining 1 chi konseptual poydevori qachon yaratilgan? o‘tgan asr 80-yillarida
_____
o‘t.asr 90- yillarida _____
o‘tgan asr 50- yillarida _____
o‘tgan asr boshlarida
№31. Qiyinlik darajasi - 1_____
Sanoat ishlab chiqarishda Davrlar ko‘pligini aniqlagan olim kim? N.D.Kondratev
Y. Shumpeter _____
Roumer _____
T.Svon

№32. Qiyinlik darajasi - 2_____
Kashfiyotlar qanday maqsadlarda himoya qilinadi?_____
Ilmiy mazmun izchilligini tasdiqlash,Muallif va Davlat ustunligini o‘rnatish
Kashfiyotlami ommaga taqdim etish maqsadida _____
Tijorat va Foyda maqsadida _____
O‘z huquqlarini himoya qilish maqsadida

№33. Qiyinlik darajasi - 2_____
Mualliflik huquqlarini Shaxsiy nomulkiy va Mulkiy ga ajratgan olim kim? E.P.Gavrilov
R.Soloun _____
V.Zombart_____
Valros

№34. Qiyinlik darajasi - 2_____
Butunjahon intellectual mulk tashkiloti (BIMT) ga nechta Davlat azo?
184_____
181_____
190_____
178

№35. Qiyinlik darajasi - 1_____
BIMT ning Xalqaro Byurosi qayerda joylashgan? Jeneva
Nyu York _____
Amstyerdam _____
Madrid №36. Qiyinlik darajasi - 1 Seleksiya yutug‘i nima? o‘simlik va hayvonlaring yangi turi
o‘simliklar turlarining yo‘qolishi hayvonot olamidagi o‘zgarishlar eski navlarning yo‘qolishi

№37. Qiyinlik darajasi - 2_____
Sanoat na'mualarining Xalqaro Klassifikatsiyasi ta'sis etish to‘g‘risidagi qonun? Lokarno bitimi
Madrid bitimi _____
Budapesht shartnomasi _____
Bern konvensiyasi

№38. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| J.Senguptaning innovatsion modellar klassifikatsiyasi nimalarni o‘z ichiga oladi? |
| Raqobatdosh va Diffuzion innovatsion modellar |
| Taklifga oid innovatsion modellar |
| Birlamchi innovatsion modellar |
| Murakkab modellar |

№39. Qiyinlik darajasi - 1

| |
|---|
| Innovatsiyaviy jarayonni samarali boshqarishni tashkil etishnig nechta yo‘nalishi mavjud? |
| 2 |
| 5 |
| 1 |
| 3 |

№40. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Investision faoliyat - bu: |
| Investisiyalarni realizasiya qilish bo'yicha barcha amaliy harakatlar yig'indisi |
| Investisiya kiritish |
| Istalgan maqsadda pul mablag"larini jalb etish |
| Istalgan maqsadda pul mablag"larini jalb etish |

№41. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Sanoat namunalariga patent huquqi nechi yil ? |
| 10 yil |
| 20 yil |
| 17 yil |
| 15 yil |

№42. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Ixtiro ommaga e'lon qilingandan keyin qancha vaqtda patentga talabnoma bilan murojaat qilmasa patent olish muammolari vujudga keladi? |
| 6 oy |
| 5 oy |
| 3 oy |
| 1 oy |

№43. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Quyidagilardan qaysi biri sanoat namunasi bo‘la olmaydi? |
| Nashriyot bosma mahsulotlari |
| Hajmiy modellar |
| Yassi rasmlar |
| Aralash tipdagi modellar |

№44. Qiyinlik darajasi - 2

Agar patent olgandan so‘ng qancha vaqt ichida u ixtirodan foydalanmasa, foydalanib izlanishni hoxlayotgan boshqa shaxsga litsenziya beriladi?

3 yil

2 yil

5 yil

1 yil

№45. Qiyinlik darajasi - 3
Foydali model bo‘lmagan obektlar to‘g‘ri va to‘liq ko‘rsatilgan qatorni ko‘rsating
Kashfiyotlar, ilmiy nazariya va matematik usullar, kompyuter dasturlar
Fayllar , texnik qurilmalar, ixtirolar, ekonometrik usullar
Majmuaviy dasturlar, mahsulotning faqat estetik ehtiyojlarini yyechishga qaratilgan qaroriy yyechimlar
o'yin qoidalari va usullari, intellektual va iqtisodiy faoliyat

№46. Qiyinlik darajasi - 2
Sof investisiya - bu:
Äsos^
Eskias^
Äsbob-uskunalarni kapital ta'mirdan chiqarish uchun ketadigan xarajatlar Äsbob-uskunalarni modernizasiya qilishga ketadigan xarajatlar

№47. Qiyinlik darajasi - 2
2015-yili O‘zbekiston saksonga yaqin ko‘rsatkichlar bilan baholanadigan Global innovatsion indeks ko‘rsatkichida nechinchi o‘rinni olgan ?
122- o‘rin
115-o”rin
147-o‘rin
153-o‘rin

№48. Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsion ishlanmalarga YaIMdan ajratadigan mablag‘lar jihatidan yYetakchi mamlakatlar ro‘yhatini aniqlang.
Yaponiya, Finlandiya, Germaniya, AQSh, Isroil.
Xitoy, Canada, Ispaniya, Janubiy Korea
Rossiya, Germaniya, Shvetsariya, Avstraliya.
Chexiya, Slovakiya, Niderlandiya, AQSh

№49. Qiyinlik darajasi - 2
. . . bu biror ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlarini boshqa ishlab chiqaruvchining o‘xshash tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo‘ljallangan original grafik tasvir, raqam, harf yoki so‘zlarning birikmasidir.
Tovar belgisi
Nou-xau
Ixtiro
Foydali model

№50. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Innovatsiya jarayonlarini davlat tomonidan bevosita boshqarish usullari nechta shaklda amalga oshiriladi? |
| 3 ta |
| 2 ta |
| 6 ta |
| 5 ta |

№51. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida” gi qonuni nechinchi yilda qabul qilingan? |
| 2011-yil 30-avgust |
| 2000-yil 30-avgust |
| 1989-yil 30-avgust |
| 1996-yil 30-avgust |

№52. Qiyinlik darajasi - 3

| |
|---|
| Innovatsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri? |
| ilmiy-texnik yangilik |
| xo‘jalikni tashkil etish va boshqarish |
| o‘simlik navlari va hayvon zotlari |
| muallif va davlat ustunligini o‘rnatish |

№53. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| .. .bu ishlab chiqarish siri hisoblangan, egasi bu ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ishlatilishidan himoya qilish huquqi. |
| Nou-xau |
| Ixtiro |
| Tovar belgisi |
| Kashfiyot |

№54. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Fan texnika taraqqiyotining nechta asosiy yo‘nalishi mavjud. |
| 3 ta |
| 6 ta |
| 1 ta |
| 10 ta |

№55. Qiyinlik darajasi - 3

| |
|---|
| ...deb yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish hamda xizmatlar bilan ta'minlash darajasini yaxshilashga aytiladi. |
| Texnologik innovatsiya |
| Jarayon innovatsiyasi |
| Tashkiliy innovatsiya |
| Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar |

№56. Qiyinlik darajasi - 2

.. .ijtimoiy tizim a'zolari o‘rtasida yangiliklarning kommunikatsion vositalar orqali vaqti-vaqti bilan uzatilish jarayoni.

Tashkiliy diffuziya

Texnologik diffuziya

novatsiya diffuziyasi

Endogen diffuziyasi

№57. Qiyinlik darajasi - 2

Bjútexna^

Ishlab chiqarish maqsadlarida btotogik jarayonlar va agentlardan foydalanish;

Mashina va mexanizmlarni ishlab chiqarish uchun, btotogik jarayonlar va agentlardan foydalanish;

Gazlama ishlab chiqarish uchun btotogik jarayonlar va agentlardan foydalanish;

Shakarli moddalarni ishlab chiqarish uchun btotogik jarayonlar va agentlardan foydalanish;

№58. Qiyinlik darajasi - 2

Ishlab chiqarish robotlari

Texnologik moslamani va ishlab chiqarish predmetlarini uzatib berishga moslashgan, programma usulida boshqariladigan, avtomatlashtirilgan manipulyatorlar;

Tûvar^

Temirchilik-presslash va quymakcriik uskunalarini uzatib berishga moslashgan programma usulida boshqariladigan, avtomatlashtirilgan manipulyatorlar;

Rotor guruhiga kiruvchi stanoklar;

№59. Qiyinlik darajasi - 2

Elektronlashtirish:

Mehnat jarayonida ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, uzutish va ishtov berishga EHMdan foydalanish;

Ishlab chiqarishni boshqarishda EHMdan foydalanish;

Rotor liniyalarida EHMdan foydalanish;

Avtomatlashtirilgan stanok liniyalarda EHMdan foydalanish;

№60. Qiyinlik darajasi – 1

| Inson kapitali bu … |
|---|
| Aql |
| Pul |
| Texnologiya |
| Ehtiyoj |

№61. Qiyinlik darajasi - 2

Ixtiroga berilgan to‘liq ta'rifni tanlang.

Xalq xo‘jaligining turli sohalariada ijobiy samara beradigan o‘ziga hos texnikaviy yyechimga ega bo‘lgan yangilik

Ijtimoiy soxada qilingan yangilik

Texnologik yangilik

Fizik nazariyalar jamlanmasi

№62. Qiyinlik darajasi - 2

“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risidagi” qonun qachon qabul qilingan?

1994 yil 6-may

1992 yil 2-dekabr

1995 yil 8-dekabr

1995 yil 2-dekabr

№63. Qiyinlik darajasi - 2
Ilg'or tajriba (nau-xau)
Patentlar bilan himoyalanmagan ommalashtirilgan bilim, ilm va malaka;
Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmagan bilim, ilm va malaka;
Ommalashtirilgan bilim, ilm va malaka;

Ommalashtirilgan bilim

№64. Qiyinlik darajasi - 2
E.P. Gavrilov muallifning huquqlarini qaysi guruhlarga bo‘ladi? shaxsiy nomulkiy huquqlar va mulkiy huquqlar
ijtimoiy huquqlar va shaxsiy huquqlar
shaxsiy nomulkiy huquqlar va ijtimoiy huquqlar

konstitutsiyaviy huquqlar

№65. Qiyinlik darajasi - 2
Kashfiyot atamasiga ta'rifni tanlang.

Avval mavjud bo‘lgan lekin fanga ma'lum bo‘lmagan yangilikni topish Kelajakda insoniyatga nafi tegadigan ma'lum bir ilmiy yangilik nazariyasi Kashfiyot avval mavjud bo‘lmagan yangilikni topish

Gumanitar sohadagi yangiliklar

№66. Qiyinlik darajasi - 2
Tashkilotning mahsulotlar va xizmatlar bilan savdo qilish uchun yangi narx strategiyalaridan foydalanish nima?
Narxlarga ta'siri bo‘lmagan innovatsiyalar
Sifatga bog‘liq innovatsiya
So‘nggi inovatsiyalar

Narxlarni shakklantirishdagi innovatsiyalar

№67. Qiyinlik darajasi - 2
Ta'sir xarakteriga bog‘liq innovatsiyalarga ta'sir qiluvchi omillar? iqtisodiy, tashkiliy
siyosiy
tarkibiy

davriy

№68. Qiyinlik darajasi - 2

Tutam bog‘lam-axborot xaritasini tuzish yo‘li barcha tuzilmaning momhiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish nima deyiladi?

klaster

VENN Diagrammasi

”Nima uchun” sxemasi

SWOT analizi

№69. asi - 2

Potensial ilmiy-texnik taraqqiyotni yangi mahsulot va texnologiyalar ko‘rinishida real hayotga aylanishi nima?

innovatsiya

ixtiro

kashfiyot

iqtisodiyot №70. Qiyinlik darajasi - 1

Yangi texnikaga narx belgilash turlari:

Resurslarni to'la baholash

Limitli, pog'anali, vaqtinchalik va hisobiy;

Pog'anali, vaqtinchalik;

Hisobiy, shartnomali;

№71. Qiyinlik darajasi - 1

Innovatsiyaviy nazariyani asosiy rivojlanishi qaysi shaxlarning ishlariga to‘g‘ri keladi?

Shumpeter,Mitcherlix,Zombart

Karl Marks, Adam Smit

Vayner, Shvitt,Gramt

Barcha javoblaar to‘g‘ri

№72. Qiyinlik darajasi - 3

Sanoatga yangiliklarni kiritish:

Ijtimoiy samara keltirish maqsadida yaratish, o'zlashtirish, yoyish va natija. Buning natijasida yangi mahsulotlar, texnologiyalar, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvning yangi shakllari hamda usullariga erishiladi.

Yangi ijtimoiy talabni shakllantirish va mavjudlaridan qoniqish hosil qilish uchun, qayta ishlab chiqarish jarayoniga maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirishlar kiritish;

Yangi mahsulotlar, texnik va texnologiya, ishlab chiqarish ni tashkil etishni usullari va shakllari, mehnat va boshqaruv;

Yaratish, o'zlashtirish, yoyish va natija olish jarayoni;

№73. Qiyinlik darajasi - 2

Malum bir strategiyani qabul qilishda korxona qanday omillarni hisobga olishi kerak? Tavakkalchilik,

Vaqt omili

Korxona kapitali

Korxonada kadrlar faoliyati

Korxonaning boshqaruv organlari

№74. Qiyinlik darajasi - 2

Qaysi olim dissertatsiyasidan keyin, iqtisodiy osish nazariyasi kelib chiqqan? Pol Romer

Y. Shumpeter

S. Janti

R. Soloun

№75. Qiyinlik darajasi - 2

Yangiliklarni kiritishni hayotiylik davri:

ilmiy-texnik hujjatlarni marketing tadqiqotlari, amaliy tadqiqotlar va tajriba-eksperimental nazorat asosida tayyorlash, yaratish, joriy etish, foydalanish va eskirish jarayoni;

Yaratish, joriy etish, foydalanish va eskirish jarayoni;

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikdan va natijalardan amaliy foydalanishning texnik imkoniyatlarini ochib berish;

Tabiat va jamiyatni ob'ektiv hodisalarini o'rganish, sistemaga solish va ochib berish;

№76. Qiyinlik darajasi - 2

Ilmiy ishlab chiqarish tashkilotlardagi ishlab chiqarish fondalari.

ilmiy asboblar, uskunalar va o'lchov tizimi; ITT sohasidagi asosiy fondlarning aktiv qismi, yangi ma'lumotlar olish uchun xizmat qiladigan ilmiy asboblar, uskunalar va o'lchov apparatlari;

Umumiy foydalanish uchun xizmat qiladigan, bino, inshootlar, uzatish moslamalari, transpor vositalari, quvvat uskunalari va boshqalar;

Yangi ma'lumotlar olish uchun qo'llaniladigan ilmiy asboblar, bino, inshootlar, uzatish uskunalari, transport vositallari, quvvat uskunalari va boshqalar;

Ilmiy-texnik tashkilotlar.

№77. Qiyinlik darajasi - 2

Kurno Nashning ortiqchalik samarasi dinamik model qaysi olim qalamiga mansub? Yati Sengupta

Romer

Y. Shumper

Saloun

№78. Qiyinlik darajasi - 1

Kashfiyot va ixtironing bir-biridan farqi nima

ixtiro bu yangilik, kashfiyot tabiatda mavjud lekin ochilmagan

kashfiyot bu yangilik, ixtiro tabiatda mavjud lekin ochilmagan

ixtiro ilgari qilinmagan yangilik, kashfiyot esa avval qilingan yangilikni mukammallashtirgan holda yaratish

ikkalasining bir-biridan farqi yo'q №79. Qiyinlik darajasi - 2

Katta tolqinlar nazariyasi asoschisi kim? N.D.Kondratev

Y. Shumper

S. Yati

S. Romer

№80. Qiyinlik darajasi - 1

Ilmiy-texnik mahsulotni sotishdan tushgan daromad hisobidan uning harajatlarini qoplanishi;
Ilmiy-texnik va ijtimoiy rivojlanish uchun etarli darajada bo'lgan xususiy aylanma mablag'lari va asosiy fondlarga bo'lingan, uning vositalaridan xo'jalik aylanmasida haqiqiy foydalanishga ^sos[anad^
Ilmiy-texnik mahsulotni rejali smeta asosida moliyalashtirishdan kelishilgan narxlarda sotishga o'tish;
Hamma turdagi qo'shimcha to'lovlarni va chegirmalarni hisobga olgan holda haqiqiy mavjud narxlar;

№81. Qiyinlik darajasi - 3
O‘zbekistonda Texnologik nazariya fundamental asoslari qachon shakllandi?
1910-1930
1910-1915
1920-1950
1900-1910

№82. Qiyinlik darajasi - 3
Bazis innovatsiyalar nima
qator ishlab chiqarish tarmoqlarida va quyi tarmoqlarda jiddiy strukturaviy o'zgarishlarga olib keladigan yangi avlod mashina va materiallar tamomila yangi texnika va texnologiyani o'zlashtirishga qaratilgan inovatsiyalar kiradi
o'zlashtirilgan yangi texnika va texnologiyani tarqatishga asoslangan inovatsiyalar, yangi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish; o'zlashtirilgan texnika va texnologiyaning jamiyatga foydasizlarini qisman ta'mirlash; qator ishlab chiqarish tarmoqlarida va quyi tarmoqlarda jiddiy strukturaviy o'zgarishlarga olib keladigan yangi avlod mashina va materiallar tamomila yangi texnika va texnologiyani o'zlashtirishga qaratilgan inovatsiyalar kiradi
o'zlashtirilgan texnika va texnologiyaning jamiyatga foydasizlarini qisman ta'mirlash
o'zlashtirilgan yangi texnika va texnologiyani tarqatishga asoslangan inovatsiyalar, yangi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish

№83. Qiyinlik darajasi - 3
Ilmiy-texnik salohiyat
Tadqiqotchilar, yangiliklarni yaratuvchilar, tajriba ishlab chiqarish bo'limi ishchilaridan tuzilgan tashkiliy yig'ilma bo'lib, ular yangiliklarni yayaratishlari uchun zarur bvlgan qobiliyatga , malakaga, ilmiy axborotga, uskunalarga va boshqa vositalarga ega bo'lishlari kerak.
Yangiliklarni yaratish uchun zarur bo'lgan ilmiy axborotga, uskunalarga va boshqa vositalarga ega bo'lgan tadqiqotchilar yig'indisi.
Ilmiy axborotga ega bo'lgan yuqori malakali va zarur qobiliyatli tadqiqotchilar.
Tadqiqotchilar, yangiliklarni ishlab chiqaruvchilar va tajriba ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan tashkiliy yig'indi.

№84. Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsion o‘zgarishlar raqobat afzallikli asosida o‘rganib nechta strategiya mavjud?
3ta
2ta
1ta
4ta

№85. Qiyinlik darajasi - 2
1920 yilda qaysi ingliz olimi o‘z asarida “yirtqich” kapitalizm va umumiy boylik haqida so‘z yuritgan
A. Artur Pigu

Romer
A. Y. Shumpeter
A. Nordhaus

№86. Qiyinlik darajasi - 3
Ilmiy ishlab chiqarishning ilmiy-texnik darajasi
Ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasi va usullarining mukammallik darajasi bo'lib, ilmiy yutuqlarni o'zlashtirish bilan aniqlanadi. IITD korxonaning bozordagi raqobatdoshlik talablariga mos kelishi kerak. U ishlab chiqarish sohasidagi ilmiy-texnik salohiyatning moddiylashganlik darajsini aks ettiradi;
Erishilgan ilmiy yutuqlarga, moddiy-texnik bazani takomillashtirish darajasiga va ishlab chiqarish usullariga bog'liq.
Kompleks mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan korxonadagi ishchi o'rinlari va mahsulotlar ulushi;
Shu tarmoqqa doir bo'lgan bazaviy progressiv, resurslarni tejaydigan texnologik jarayonlar asosidagi ishlab chiqarish hajmi;

№87. Qiyinlik darajasi - 2
Asosida yangi bilimlar yotadigan innovatsiyalarini amaliyotga joriy qilishini va ommalashtirilishi nima orqali ifodalaniladi?
Bilimlar diffuziyasi
Innovatsiya diffuziyasi
Innovatsiyaning tavakkalchiligi
Innovatsiyaning ahamiyatliligi

№88. Qiyinlik darajasi - 1
Sanoat mulkini muhofazalash bo'yicha Parjj Konvensiyasi qachon tuzilgan
1883 yil
1881 yil
1900 yil
1923 yil

№89. Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsion faoliyatni memoriy huquqiy tartibga solish nechta bosqichlari bor? 5ta
6ta
4ta
3ta

№90. Qiyinlik darajasi - 2
Texnologiyalar o'zgarishi mumkin bo'lgan davr va firmalarning butunlay yangi mahsulotlarni tanishtirishi mumkin?
juda qisqa muddatli
qisqa muddat
uzoq muddat
juda uzoq muddat

№91. Qiyinlik darajasi - 1
Texnologik taraqqiyot uch bosqichli jarayondir- ishlab chiqarish, ventilyatsiya va reklama yaratish, narxlash va marketing ixtiro, innovatsiya va diffuziya boshlang'ich, taqlid va ijodiy halokat

№92. Qiyinlik darajasi - 2

Tasavvur qilish, aql-idrok, tajriba va uning ishlashi haqidagi birinchi dalilni qo'llash orqali mahsulot yoki jarayonning birinchi kashfiyoti...
mahsulot yangiliklari
innovatsion jarayon
ijodiy halokat
ixtiro

№93. Qiyinlik darajasi - 2
.bir necha yillar davomida har qanday yangi va foydali jarayonni, mashinani yoki mahsulotni sotishning mutlaq huquqiga deyiladi
tovar belgisi
patent
mualliflik huquqi
tovar belgisi

№94. Qiyinlik darajasi - 2
Soxta innovatsiyalar nima
eskirgan texnikani (texnologiyani) qisman yaxshilash bo'yicha, jamiyat uchun samara keltirmaydigan yoki salbiy samara beradigan faoliyat
tovarlar (xizmatlar) bozorida yangi mahsulot yaratishga olib keladigan ilmiy-texnik faoliyatning tijoratlashgan natijalari
ishlab chiqarish tarmoqlari va quyi tarmoqlarida jiddiy, strukturaviy o'zgarishlarga olib keladigan yangi avlod mashina va materiallari, tamomila yangi texnika va texnologiyalar yaratish va o'zlashtirishga yo'naltirilgan innovatsiyalar
o'zlashtirilgan avlod texnika va texnologiyalarini tarqatish va takomillashtirish, mashina va materiallarning yangi modellarini yaratish, ishlab chiqarayotgan tovarlar (xizmatlar) ko'rsatkichlari va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaxshilash

№95. Qiyinlik darajasi - 2
FTR ning asosiy yo'nalishlariga:
kompyutr va robotlardan foydalanish ,kam chiqitli va energiyani tejaydigan texnologiyalarni qo'llash , mexnat predmetlarining yangi turlaridan foydalanish.
kam chiqitli va energiyani tejaydigan texnologiyalarni qo'llash
mexnat predmetlarining yangi turlaridan foydalanish
Jarayonlarni tartibga solish;
№96. Qiyinlik darajasi - 2
Sanoatda ITTni tashkil etishdan maqsad:
Jarayonlarni tartibga solish;
Ilmiy ishlab chiqarish tsiklini tashkil etish;
Jarayonlarni tartibga solish, xossalarini yaxshilash, ichki o'ziga xos bo'lgan betartiblikdan bartaraf qilish;
Aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ilmiy-texnik taraqqiyot salohiyatining kadrlar, moddiy- texnik, axborot tarkibiy qismlarini bir biriga samarali bog'lovchi tadbirlar majmuasi tushuniladi;

№97. Qiyinlik darajasi - 1
Innovatsion iqtisodiyot bu ...
bilimlar va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyot
davlat iqtisodiyoti
innovatsiyalarni yurutuvchi iqtisodiyot
xorijiy iqtisodiyot

№98. Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsiyalar raqobatning asosiy omili-
innovatsion firmalarning monopolistik holatini kafolatlash

Ishlab chiquvchilarning investitsiyalarini himoya qilish uchun patent olish firmalarning raqobatchilarning mahsulotlarini eskirishiga imkon beradi firmalar uchun tadqiqot va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish

№99. Qiyinlik darajasi - 2
McDonald'ning fast-food gamburgerini muvaffaqiyatli tanishtirishi misolida qanday g'oyani eng yaxshi tasvirlab beradi, keyin bu fikr Burger King va Wendy kabi boshqa firmalar tomonidan qabul qilinadi. Bunday holat?
diffuziya
ixtiro
start-uplar

tezkor ikkinchi strategiya

№100. Qiyinlik darajasi - 2
Texnologik rivojlanishning zamonaviy ko'rinishi bu- shaxslar va firmalar o'rtasida kuchli raqobatning natijasi ilmni mustaqil taraqqiyotiga asoslangan

davlat Ar-ge xarajatlari orqali eng yaxshi rag'batlantirildi iqtisod tartibga soladigan tasodifiy tashqi kuch

№ 101. Qiyinlik daraj asi - 2
Mahsulotni rivojlantirishda o'tgan yutuqlar odatda tadbirkorlar va innovatsion firmalarni anglatadi

kelgusida innovatsiyalarni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga ega

keyingi innovatsiyalar uchun ko'proq xususiy resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega qo'shimcha innovatsiyalar uchun kamroq xususiy resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega yangi innovatsiyalar uchun xususiy yoki davlat resurslarining mavjudligida o'zgarishlar bo'lmaydi

№102. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Innovatsiya nazariyasining rivojlanishiga asos solgan olim avstriyalik iqtisodchi kim? |
| Shumpeter |
| Matteo Politano |
| Eynshteyn |
| Aristotel |

№ 103. Qiyinlik daraj asi - 2

| |
|---|
| Mexnat predmetlaridagi FTR asosiy yo'nalishlariga: |
| Materiallarni tabiy xossalarini oshirish,avvaldan xossalari belgilangan sintetik materiallardan foydalanish.amorf,mikrokristal materiallarni yaratish. |
| amorf,mikrokristal materiallarni yaratish. |
| avvaldan xossalari belgilangan sintetik materiallardan foydalanish |
| Materiallarni tabiy xossalarini oshirish |

№104. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| O‘zbekiston BIMT ga qachon a'zo bo‘lgan? |
| 1991-yil |
| 1996 |
| 1998 |
| 1992 |

№ 105. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Butun Jahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish konvensiyasi qachon kuchga kirgan? |
| 1970-yil |
| 1945 |
| 1990 |
| 1963 |

№ 105. Qiyinlik darajasi - 3

| |
|---|
| Mualliflik va turdosh huquqlar sohasida BIMT nechta shartnoma asosida boshqaruvni amalga oshiradi? |
| 7 ta |
| 6 ta |
| 5 ta |
| 3 ta |

№106. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Sanoatda texnologiyalarni joriy etish: |
| Texnologiyalarni amalga oshirish; |
| Ishlab chiqarish mahsulotlari yig'indisini amalga oshirish; |
| Texnik hujjatlarni amalga oshirish; |
| Moddiy, informatsion ITTKI natijalarini amalga oshirish ishlari yig'indisi; |

№107. Qiyinlik darajasi - 3

| |
|---|
| Sanoatda yangi tenikani ijarasi (lizing): |
| Qimmat turadigan va noyob ob'ektlarga texnologiyalarni uzatishda ishlatiladi; |
| Yangi texnikani uzatishda foydalaniladi; |
| ITTKI natidalarin uzatishda ishlatiladi; |
| Murakkab ob'ektlarni uzatishda ishlatiladi; _____ |

№ 108. Qiyinlik daraj asi - 2_____

Ilg'or tajriba

Patentlar bilan himoyalanmagan ommalashtirilgan bilim, ilm va malaka; Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmagan bilim, ilm va malaka;

Ommalashtirilgan bilim, ilm va malaka;

Bilim, ilm va malaka;

№109. Qiyinlik darajasi - 2

Kashfiyot mualliflariga berilgan diplom nimalami tasdiqlaydi? Mualliflik huquqini

Kashfiyotning ommaga taqdim etilishini

Kashfiyotning foydali tomonlarini

Kashfiyotning qaysi sohada yaratilganini

№110. Qiyinlik daraj asi - 2

Klassik bashoratchilik antologiyasi qaysi olim tomonidan tuzilogan?

I. V. Bessiev - Lada

V. V. Leontiev

Y. Shumpeter

S. Jati

№ 111. Qiyinlik daraj asi - 3

Innovatsion strategiyalarga quyidagilardan qaysinisi kirmaydi? Zastava strategiyasi

Oshirish strategiyasi

O‘zlashtirish strategiyasi

Ko‘chirib o‘tkazish strategiyasi

№112. Qiyinlik darajasi - 3

Davlatning innovatsion imkoniyatini qanday usullar bilan aniqlash mumkin? Hududiy, tarkibiy, ijtimoiy

Iqtisodiy, ma'muriy

Tarkibiy, davriy

Iqtisodiy, siyosiy.

№ 113. Qiyinlik daraj asi - 2

Fundamental tadqiqotlar.

Tabiat va jamiyatni ob'ektiv xodisalari va qonunlarini ochish,o'rganish,sistemaga solish.

Tabiat va jamiyatni ob'ektiv xodisalari va qonunlarini ochish

Tabiat va jamiyatni ob'ektiv xodisalari va qonunlarini o'rganish

Tabiat va jamiyatni ob'ektiv xodisalari va qonunlarini sistemaga solish.

№114. Qiyinlik darajasi - 2

Kim innovatsion jarayonda ishtirok etishi mumkin emas? Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari

Investorlar

Tadqiqotchilar va ishlab chiquvchilar

Sanoatchilar, tadbirkorlar va tadbirkorlar

№ 115. Qiyinlik daraj asi - 2
ITT ni boshqarish:

Ilmiy -texnik va boshqaruv axborotlarini yig'ish,qayta ishlash va taxlil qilish tizimi,qaror qabul qilish ,nazorat qilish,kadirlarni tanlash va joylashtirish
Ilmiy -texnik va boshqaruv axborotlarini yig'ish,qayta ishlash va taxlil qilish tizimi
qaror qabul qilish, nazorat qilish
Ilmiy -texnik va loyihalash

№ 116. Qiyinlik daraj asi - 2
Yangiliklar samaradorligini mezoni.
Natijalarni baxolash va ilmiy-texnik siyosat nuqtai nazardan resurslarni taxsimlash variantlaridan eng yaxshisini tanlashning o'lchovidir.
Eng yaxshisini tanlashning
Ilmiy-texnik siyosat nuqtai nazardan resurslarni taxsimlash variantlaridan eng yaxshisini tanlash
Natijalarni baxolash

№117. Qiyinlik daraj asi - 2
Innovatsion jarayonning ishtirokchilari e'tiborini innovatsion tsiklning barcha bosqichlarida va bosqichlarida tashkil qilishni talab qiladigan libodan nimani anglatadigan kontseptsiyasi haqida tushunchaning nomi nima?
Innovatsion g'oya
Biznes rejasi
Avanproekt
Tashabusko‘r murojatnomalar

№118. Qiyinlik darajasi - 1
Ilmiy texnik tashkilot :
ilmiy texnik maxsulotlarni yaratish va realizatsiya qilishga ishlab chiqarish vositalarini egalik kilish xukukiga ega bulgan mexnat jamoasidir.
ilmiy texnik maxsulotlarni yaratish
realizatsiya qilishga ishlab chiqarish vositalarini egalik
egalik kilish xukukiga ega bulgan mexnat jamoasidir

№119. Qiyinlik darajasi - 1
Institut - ...
fanni ma'lum tarmog'ini rivojlantirishga ma'sul va fundamental tatqiqodlarga maxsuslashtirilgan umumfan tashkilotidir
fundamental tatqiqodlarga maxsuslashtirilgan umumfan tashkilotidir
fanni ma'lum tarmog'ini rivojlantirishga ma'sul tashkilotidir
oliygox

aniq (soxa) tarmoq, ishlab chiqarish yoki ilmiy-texnik yo'nalishni tarmoqlararo majmuasini ilmiy-texnik darajasiga ma'sul bo'lgan va tadqiqod hamda uni ishlatishga maxsuslashtirilgan tarmoq (tarmoqlararo) tashkilotidir.
ilmiy-texnik yo'nalishni tarmoqlararo majmuasini ilmiy-texnik darajasiga ma'sul bo'lgan va tadqiqod hamda uni ishlatishga maxsuslashtirilgan tarmoq (tarmoqlararo) tashkilotidir
fanni ma'lum tarmog'ini rivojlantirishga ma'sul va fundamental tatqiqodlarga maxsuslashtirilgan umumfan tashkilotidir, aniq (soxa) tarmoq , ishlab chiqarish yoki ilmiy-texnik yo'nalishni tarmoqlararo majmuasini ilmiy-texnik darajasiga ma'sul bo'lgan va tadqiqod hamda uni ishlatishga maxsuslashtirilgan tarmoq (tarmoqlararo) tashkilotidir

№120. Qiyinlik darajasi - 1
Ilmiy tadqiqot institutlari (ITI):

fanni ma'lum tarmog'ini rivojlantirishga ma'sul va fundamental tatqiqodlarga maxsuslashtirilgan umumfan tashkilotidir

№ 121. Qiyinlik daraj asi - 3
Loyixa, kastruktorlik loyixa, kastruktorlik, texnik tashkilotlar:
ma'lum tarmoq texnologiya, maxsulot samaradorligiga ma'sul bo'lgan, kostruktorlik, texnologik qayta ishlash, yangi yoki rekonstruktsiya qilingan maxsulotni loyixalashga maxsuslashtirilgan tarmoq ITT tashkilotdir.
ma'lum tarmoq texnologiya, maxsulot samaradorligiga ma'sul bo'lgan, kostruktorlik, texnologik qayta ishlash, yangi yoki rekonstruktsiya qilingan maxsulotni loyixalashga maxsuslashtirilgan tarmoq
ITT tashkilotdir
ma'lum tarmoq texnologiya

№122. Qiyinlik darajasi - 2
Ilmiy texnik xizmat ko'rsatish tashkilotlari:
asbob uskuna va moslamalardan jamoa bo'lib foydalanish va ularni ijaraga olish markazlari va bu^
metrolig maslaxat beruvchi vositachilik markazlari
foydalanish va ularni ijaraga olish markazlari va bular analitik sinovdan o'tkazuvchi metrolig maslaxat beruvchi vositachilik markazlari
asbob uskuna va moslamalardan jamoa bo'lib foydalanish

№ 123. Qiyinlik daraj asi - 2
Biznes inkubatorning asosiy maqsadi nima?
Yangi biznesni rivojlantirish
Bozorda yangi korxonalarni ustunlik bilan ta'minlash
Korxonaga rejalashtirilgan va buxgalteriya ishlarini amalga oshirishda ko'maklashish Bozorga yangi korxonalar mahsulotlarini ilgari surish

№124. Qiyinlik darajasi - 2
Ilmiy-texnik litsenziya:

kashfiyotlar va ixtirolarga asoslangan yangiliklar to'g'risidagi axborotlardan (ishlab chiqarishga qo'llash uchun tayyor bo'lgan) foydalanish imkonini beruvchi ruxsatnoma
kashfiyotlar va ixtirolarga asoslangan yangiliklar to'g'risidagi axborotlardan (ishlab chiqarishga qo'llash uchun tayyor bo'lgan) foydalanish imkoni
ITTning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga erishishda foydalanilishi mumkin bo'lgan resurslarning o'zaro bog'liq yig'indisi tayyor yangiliklar (razrabotka)larning miqdori va sifati
yangiliklarni yaratish uchun zarur bo'lgan qobiliyatga malakaga ilmiy axborotga, asbob-uskunalarga va boshqa vositalarga ega bo'lgan tadqiqotchilar ishlab chiqaruvchilar (razrabotchiki) va noishlab chiqarish ishchilarining to'plami

№125. Qiyinlik darajasi - 1
Maxsulot sifati...
maxsulotning jamiyat va shaxs talablarini qondira olish qobiliyati
hammabop mahsulot
maxsulotning talablarni qondira olishi
qondira olish qobiliyati

№126. Qiyinlik darajasi - 2
Maxsulotning texnik darajasi?
Maxsulotning konstruktsiyasining mukamallik darajasi
Maxsulotning texnologiyasining mukamallik darajasi
Maxsulotning ishlatiladigan materiallarning mukamallik darajasi Maxsulotning mehanik darajasining mukammal darajasi

№127. Qiyinlik darajasi - 2
Eng yangi texnika?
bu istiqbolli standartlar talablariga javob bera oladigan texnika bo'lib, u yangi texnologik tamoyillar, kashfiyotlar va ixtirolarga asoslanadi. U ijtimoiy mexnat unumdorligini ko'p martalab oshishini, bir-birlik mexnat sarfi o'rtacha qiymatini kamayishiga olib keladi
istiqbolli standartlar talablariga javob bera oladigan texnika bo'lib, u yangi texnologik tamoyillar, kashfiyotlar va ixtirolarga asoslanadi
Yangi texnika DTS, TST va texnik shartlarga to'liq javob berib va ixtirolardan foydalanib xalq xo'jaligida samara bo'lishni ta'minlaydi va ishlab chiqarilgan vaqtiga muvofiq maxsulotni yangilash me'yorlariga mos keladi
istiqbolli standartlar talablariga javob bera oladigan texnika

№128. Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsion loyihalar kompleksini boshqarish va joriy etish qanday shaklda tashkil etilgan?
Innovatsion dasturlar
Texnologik park
Strategik ittifoq
Kichik korxona

№129. Qiyinlik darajasi - 2

Innovatsion loyihaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini turli vaqt oralig'ida taqqoslash darajasiga yetkazish

Innovatsion loyihaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini inflyatsiya miqdori bo'yicha tuzatish _____
Innovatsion loyihaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tuzishda, loyiha tavakkallarini hisobga olgan holda _____
Muqobil investitsiyalarni hisobga olgan holda innovatsion loyihaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tartibga solish №130. Qiyinlik darajasi - 2 To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar nima? Asosiy kapitalga investitsiyalar Xarajatlarni
Obligatsiyalar
Ipoteka majburiyatlari

№ 131. Qiyinlik daraj asi - 3_____
Qaysi biri Ixtiroga tegishli ? _____
Yangi, texnika muammosini ixtirochilik yo'li bilan tatbiq etadigan ijodiy yyechimga ega ixtirochilik bosqichiga ega_____
Mahsulotning tashqi ko'rinishini belgilaydigan yangi va sanoatga tegishli grafik yechim. Asosiy g'oya, mazmunni belgilovchi fikr _____
Muayyan tashkilot uchun nisbatan yangilik bilan texnikaviy yyechim

№132. Qiyinlik darajasi - 3_____
Intellektual mulkdan foydalanish litsenziyasi? _____
Mahsulotning tashqi ko'rinishini belgilaydigan yangi va sanoatga tegishli grafik yechim. Muayyan tashkilot uchun nisbatan yangilik bilan texnikaviy yyechim _____
Texnik muammoli yangi, ixtirochi, sanoat tomonidan qo'llaniladigan ijodiy yechim ____
Intellektual mulk huquqining egasi boshqa shaxsga ushbu huquqdan foydalanishga imkon beruvchi shartnoma

№ 133. Qiyinlik daraj asi - 3_____
Tashkilotning innovatsion tizimining elementlariga nimalar tegishli emas? Innovatsion faoliyatni huquqiy qo'llab-quvvatlash _____
Innovatsiya texnologiyasi va tashkiliy tuzilmasi _____
Innovatsion jarayon va uning ishtirokchilari _____
Maqsad va yangilik

№134. Qiyinlik darajasi - 2_____
Quyidagi qaysi biri tashkilotning innovatsion muhiti boshqaruvning strategik yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi:_____
Innovatsion mikroiqtisodiyot _____
Innovatsion makroiqtisodiyot _____
Tashqi mikroiqtisodiyot _____
Atrof muhit

№135. Qiyinlik daraj asi - 2

| |
|---|
| Innovatsion marketing jarayonining shakllari to'g'ri berilgan javobni tanlang. |
| Marketing, texnologik, iqtisodiy-tashkiliy va ijtimoiy; |
| Iyerarxik, bosqichli, dinamik va ilmiy, murakkab; |
| Maqsadli yo'nalish, tizimlilik, komplekslilik va moslashuvchanlik; |
| Innovatsion prognozlash, innovatsiyalar uchun shart-sharoitlar, innovatsiyalarni rejalashtirish, riskni minimallashtirish. |

№136. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Kashfiyot predmeti hodisa, xossa, qonuniylikni oldindan belgilash. Bu kashfiyotlarni aniqlashning nechinchi bosqichi. |
| 2 |
| 3 |
| 5 |
| 4 |

№137. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Bilim darajasiga tubdan o'zgartirish olib kiradigan ilgari noma'lum bo'lgan, ammo obyektiv mavjud moddiy nuqtaning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limotga nima deyiladi. |
| Kashfiyot. |
| Ixtiro; |
| Tadqiqot; |
| Izlanish; |

№ 138. Qiyinlik daraj asi - 2

| |
|---|
| Tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi. |
| Konsorsium; |
| Kartel; |
| Konsern; |
| Sindikat. |

№139. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Yozef Aloiz Shumpeter qachon tug'ilgan? |
| 1883 y. |
| 1711 y. |
| 1886 y. |
| 1950 y. |

№140. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Klassik bashoratchilik anatalogiyasi kim tomonidan tasvirlab berilgan? |
| Besstijev-Lada; |
| Shumpeter; |
| Isoqov; |
| Jabborov. |

№ 141. Qiyinlik daraj asi - 2
Innovatsiya uchun sinonim
yangilik
qattiq sirlar
moddiy bo'lmagan aktivlarga investitsiyalar Modernizatsiya, investitsiyalar

№142. Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsiyalarni tarqatish ko'lami bo'yicha qanday tasniflash mumkin?
transmilliy; tarmoqlararo tarmoq; mintaqaviy; sanoat; korxona ichida innovatsiyalar; pioner,
asosan yangi, takomillashgan
mahsulot, jarayon, texnologik, tashkiliy, boshqaruv
strategik va adaptive

№ 143. Qiyinlik daraj asi - 2
Quyidagilardan qaysi biri korxona innovatsion faoliyatining ichki sabablariga taalluqli emas?
bozorlardagi bozor o'zgarishlari
uzoq muddatda korxonaning foydasini maksimal darajada oshirish
korxonaning yangi bozorlarga kirishi, bozor ulushini kengaytirish
raqobatbardoshlikni oshirish zarurati

№144. Qiyinlik darajasi - 2
Amaliy tadqiqotlar va loyihalarni ishlab chiqish natijalariga asoslangan ma'lum texnologiyalari,
texnologiya yoki mahsulot obyektlarini takomillashtirishga qaratilgan yangilik nima?
yangiliklarni takomillashtirish
kashshof,
asosan yangiroq
modifikatsiya

№145. Qiyinlik darajasi - 3
Texnologiyalarni transferi bu ...
ilmiy, ilmiy va texnikaviy bilimlarni (shu jumladan, ilmiy, ilmiy va texnik faoliyat natijalarini va bunday natijalarga bo'lgan huquqlarni), mamlakat ichida va undan tashqarida ishlab chiqilgan texnologiyalarni ularning amaliyotga tatbiq etilishi sohasida chet elda ishlash imkoniyatini beradi
innovatsion texnologiyalarni eksport qilish
sotib olish va sotish jarayonida moddiy va moliyaviy oqimlarni strategik boshqarish
texnologiyalarni import qilish

№146. Qiyinlik darajasi - 2
Yangi yoki takomillashtirilgan texnologiya, mahsulotlar yoki xizmat turlari yaratildi
innovatsiyalar
kompaniya sirlari
moddiy bo'lmagan aktivlarga investitsiyalar
investitsiyalar
bu korxona (tashkilot) uchun yangi va foydali bo'lgan, qo'llanilayotgan texnika yoki ishlab

№147. Qiyinlik darajasi - 2
Ratsionalizatorlik taklifi:

chiqarishni texnologiyasini, buyumlar konstruktsiyasini o'zgartirishni nazarda tutuvchi texnik qarorlardir
ishlab chiqarishni texnologiyasini
texnik qarorlardir
ishlab chiqarishni texnologiyasini, buyumlar konstruktsiyasini o'zgartirishni nazarda tutuvchi texnik qarorlardir

№148. Qiyinlik darajasi - 2
Yangiliklarning taqqoslama iqtisodiy samaradorligi
maxsulot rentabelligini oshishi yoki tannarxini pasayishidan iqtisod qilingan mablag'ni yangiliklarni turli xil variantlari o'rtasidagi kapital qo'yilmasi va boshqa avanslangan xarajatlar orasidagi farqga munosabatdir
jamiyatda insonlarni o'zlarini xar tomonlama rivojlantirish uchun o'zlarini ijodiy kuch qobiliyatlaridan foydalanish uchun yaratilgan shart sharoitlar bilan belgilanadi
texnik yangiliklar natijasida atrof muxit xolatini o'zgarishidir (suv va xavoda zararli moddalar darajasini ko'payishi, sanoat va transport shovqini)
eng kam xarajatlar bilan jimiyatni barcha soxalarida moddiy va ma'naviy extiyojlarini maksimal qondirishdan olinadigan umumiy samaradir

№149. Qiyinlik darajasi - 2
ITTni tashkil etish
konkret ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, ITT saloxiyatining kadrlar, moddiy-texnik, axborot tarkibiy qismlarini bir-biriga samarali bog'lovchi tadbirlar majmuasi
tarkibiy qismlarini bir-biriga samarali bog'lovchi tadbirlar majmuasi
konkret ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar
iqtisodiy sharoitlarda, ITT saloxiyatining kadrlar, moddiy-texnik, axborot tarkibiy qismlarini bir-biriga samarali bog'lovchi tadbirlar majmuasi

№150. Qiyinlik daraj asi - 2
Innovatsiyalar, shu jumladan texnologik jihatdan yangi va takomillashtirilgan mahsulotlar, yangi materiallar, komponentlar va boshqalarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va ishlab chiqarish bu
mahsulot yangiliklari
texnologik yangiliklar
yangiliklarni qayta ishlash
tashkiliy

№ 151. Qiyinlik daraj asi - 2
Innovatsiyalarning ahamiyatliligi bilan qanday tasniflanadi? pioner, asosan yangi, takomillashtiruvchi
mahsulot, jarayon, texnologik, tashkiliy, boshqaruv
tarmoqlararo; mintaqaviy; sanoat
strategik, adaptiv

№152. Qiyinlik daraj asi - 2
Texnologik tizimda sifat o'zgarishi, texnologiya avlodi o'zgarishi, yangi ishlab chiqarishning paydo bo'lishi asosida qanday yangiliklar mavjud?
asosan yangi yangiliklar
kashshof innovatsiyalar
innovatsiyalarni takomillashtirish
oddiy, o'zgartirilgan yangilik

№153. Qiyinlik daraj asi - 2
Innovatsion investitsion loyihalar va ularni amalga oshirish shartlari bilan muvofiqlashtirilgan va amalga oshirilishi rejalashtirilgan innovatsion investitsiya loyihalari va faoliyatining yangi texnologiyalari samarali rivojlanishini ta'minlash, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish ...
korporativ innovatsiyalar dasturi
korporativ innovatsiya siyosati
korporativ innovatsion mahsulot
investitsiyaviy takliflar

№154. Qiyinlik daraj asi - 2
Unifikatsiya
maxsulot turlarining, uning konstruktiv elementlarining, materiallar texnologik jarayonlar va texnik xujjatlarning ratsional bir xilligini ta'minlash
xujjat bo'lib, unda maxsulot sifatiga, uni loyixalashga, tayyorlashga, priemkasiga, transportirovkasiga, saqlash va ekspluatatsiyasiga qo'yilgan talablar ko'rsatilgan
konstruktiv elementlar
qaytarilish koeffitsienti

№ 155. Qiyinlik daraj asi - 2
Innovatsion loyihalar Davlat reestriga kiritish uchun zarur bo'lgan shart: innovatsiya
ro'yxatga olish
malaka
orientatsiya №156. Qiyinlik darajasi - 2 Innovatsion loyihaning natijasi nima? maxsulot
obyekt subyekt ekspertiza

№157. Qiyinlik daraj asi - 2
ITTni boshqarish
ilmiy-texnik saloxiyatni oshirish ishlab chiqarishni doimiy o'zgartirish samaradorlikni oshirish va muddatlarini qisqartirish maqsadida yangiliklarni o'zlashtirish va tadqiqiot jarayoniga maqsadli yo'naltirilgan xarakatdir
maqsadi, mazmuni, vazifalari, printsiplari va usullari
muddatlarini qisqartirish maqsadida yangiliklarni o'zlashtirish va tadqiqiot jarayoniga maqsadli yo'naltirilgan xarakatdir

ilmiy-texnik saloxiyatni oshirish ishlab chiqarishni doimiy o'zgartirish

№ 158. Qiyinlik daraj asi - 2
Qaysi holatda mahsulot innovatsion deb tan olinishi mumkin?
Mamlakatda ishlab chiqarilgan (birinchi marta) ishlab chiqarilgan (yoki birinchi marta emas) va boshqa shunga o'xshash mahsulotlarga qaraganda raqobatbardosh va yuqori texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega

innovatsion loyihani amalga oshirish natijasi _____
ekspertizadan o'tganligi _____
foyda keltiradigan mahsulot

№159. Qiyinlik daraj asi - 2_____
Innovatsion loyiha nimani nazarda tutadi? _____
innovatsion mahsulotni ishlab chiqish, realizatsiya qilish va sotish; marketing, innovatsion mahsulotni reklama qilish; _____
bozorda innovatsion mahsulotni ilgari surish; _____
strategiyani ishlab chiqish

№160. Qiyinlik darajasi - 2 _____
Innovatsion loyihani amalga oshirish uchun davlat tomonidan qanday sharoitlarda yordam ko'rsatiladi? _____
Investorlarning mavjudligi; _____
davlat ro'yxatiga olish; _____
hukumat ruxsatnomasi; _____
loyiha haqida ma'lumot berish.

№161. Qiyinlik darajasi - 2 Moddiy ishlab chiqarish asoslari? ilmiy bilimlar
kapital
inson
moddiy-texnik baza №162. Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsion faoliyat tizimining asosiy elementi? inson
investitsiya yangilik ilm-fan №163. Qiyinlik daraj asi - 2
_____
Texnologiyalarni uzatish. Yangi texnikani ijarasi (lizing). Ilg'or tajriba (nou-xau)
Texnologiyalarni uzatish _____
Ilg'or tajriba (nou-xau) _____
Yangi texnikani ijarasi (lizing)
№164. Qiyinlik darajasi - 3

Yangiliklarning hayotiylik davri. Tadqiqotlar. Texnik-iqtisodiy ishlanmalar. Yangiliklarni birlamchi o'zlashtirish. Iqtisodiy o'zlashtirish. Yangiliklarni tarqatish yangiliklarni eskirishi
Yangiliklarning hayotiylik davri. Tadqiqotlar. Texnik-iqtisodiy ishlanmalar. Yangiliklarni birlamchi o'zlashtirish. Iqtisodiy o'zlashtirish _____
Yangiliklarning hayotiylik davri, Texnik-iqtisodiy ishlanmalar. Yangiliklarni birlamchi o'zlashtirish. Iqtisodiy o'zlashtirish _____
Yangiliklarning hayotiylik davri

№ 165. Qiyinlik daraj asi - 2 _____
Tashkilotning innovatsion salohiyatini baholash sxemasi? resurs - vazifa - loyiha
maqsad - resurs - natija _____
maqsad - jarayon - natija _____

vazifa - loyiha - jarayon

№166. Qiyinlik darajasi - 2
Ilmiy-texnik tashkilotlar va ularning faoliyat natijalariga ko'ra turlari:
Institut. Ilmiy tadqiqot institutlari. Loyixa, konstruktorlik, texnologik tashkilotlar. Ilmiy texnik xizmat ko'rsatish tashkilotlari.
Texnik iqtisodiy tadqiqotlar, ilmiy texnik axborotlar instituti. Ilmiy texnik xizmat ko'rsatish tashkilotlari.
Loyixa, konstruktorlik, texnologik tashkilotlar
Institut. Ilmiy tadqiqot institutlari

№167. Qiyinlik darajasi - 2
Innovatsiya uchun patentning asosiy vazifasi - unga berilgan shaxsga ..... beriladi
ixtiroga bo'lgan mutlaq huquq
avtorlik huquqi mukofoti uchun
ixtironi ishlab chiqarishga tadbiq etishning mutlaq huquqi
pul mukofoti uchun
№ 168. Qiyinlik daraj asi - 2
Ilmiy ishlab chiqarish xodimlari funksiyaasi:
Ilmiy texnik kadrlar tayyorlash. Qayta tayyorlash. Malakasini oshirish. Kadrlarni tanlash va joy joyiga qo'yish
Ilmiy texnik kadrlar tayyorlash
kadrlar tayyorlash. Qayta tayyorlash. Malakasini oshirish. Kadrlarni tanlash va joy joyiga qo'yish
Kadrlarni tanlash va joy joyiga qo'yish

№169. Qiyinlik darajasi - 2
Butun jahon intellektual mulk tashkiloti qachon tashkil etilgan?
1974- yil
1978-yil
1944-yil
1975- yil
№170. Qiyinlik darajasi - 2
Hozirgi kunda nechta davlat BIMT ga a'zo? 184 ta
175 ta
200 ta
102 ta

№ 171. Qiyinlik daraj asi - 3
Ilmiy texnik salohiyat va uni baxolash usullari.
Ilmiy saloxiyat. Kadrlar. Moddiy-texnik baza. Axborot. Tashkiliy kismlar. Ilmiy texnik _sa^ ___
Ilmiy texnik kadrlar tayyorlash. Qayta tayyorlash. Malakasini oshirish. Kadrlarni tanlash va joy joyiga qo'yish
Attestatsiyalash. Ilmiy ishlab chiqarish xodimi mehnatiga haq to'lashni tashkil etish
^chnatgahaqjo'^

№172. Qiyinlik darajasi - 2
Mahsulotni sifati va texnik darajasi:
Mahsulot sifati. Mahsulot sifatini oshirish. Mahsulotning texnik darajasi. Oraliq baxolash.

Mahsulotning yuqori sifatligini. Texnikani ishonchligi. _____
Mahsulot sifati _____
Texnikani ishonchligi. _____
Mahsulotning yuqori sifatligini

№ 173. Qiyinlik daraj asi - 3 _____
Ishlab chiqarishni ilmiy texnik va tashkiliy darajasi._____
Ishlab chiqarishni ilmiy texnik darajasi. Mehnat vositalarining texnik darajasi. Texnologiyalar darajasi. Ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish sohasidagi texnik daraja. Ishlab chiqarishning tashkiliy darajasi. Boshqarishni tashkil etish darajasi _____
Ishlab chiqarishning tashkiliy darajasi. Boshqarishni tashkil etish darajasi._____
Mahsulotning yuqori sifatligini _____
Mahsulot sifati. Mahsulot sifatini oshirish. Mahsulotning texnik darajasi. Oraliq baxolash. Mahsulotning yuqori sifatligini. Texnikani ishonchligi

№174. Qiyinlik darajasi - 2 _____
Ilmiy texnik taraqqiyotning ijtimoiy-iqtisodiy samarasining turlari:_____
ITTning iqtisodiy samarasi. ITTning axborot samarasi , ITTning resurs samarasi. ITTning ijtimoiy samarsi. ITTning xalq xo'jaligi samarasi _____
ITTning axborot samarasi , ITTning resurs samarasi. ITTning ijtimoiy samarsi. ITTning xalq xo'jaligi samarasi _____
ITTning resurs samarasi, ITTning axborot samarasi. ITTning iqtisodiy samarasi _____
ITTning ijtimoiy samarsi. ITTning xalq xo'jaligi samarasi.

№ 175. Qiyinlik daraj asi - 2

| |
|---|
| Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ning shtab kvartirasi qaerda joylashgan |
| Shvetsariyaning Jeneva shahrida |
| AQShning Vashington shahrida |
| Avstriyaning Vena shahrida |
| Germaniyaning Myunxen shahrida |

№176. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| O'zbekistonda qonunchilikka muvofiq O'zbekiston seleksiya yutuqlariga huquqlar qanday hujjat bilan tasdiqlanadi? |
| Patent yoki guvohnoma |
| litsenziya |
| sertifikat |
| diplom |

№177. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Dunyo miqyosida yuqori texnologiya tarmoq darajasiga erishish me'yori kamida necha foiz bo'lishi kerak? |
| 3,5foiz |
| 5foiz |
| 2foiz |
| 3foiz |

№178. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Eng yaxshi o'rganilgan innovatsiyalar qaysi sohada bo'lgan |
| texnologik |
| geologik |
| fizik |
| arxitektura |

№179. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Fan-texnika siyosatining muhim yo'nalishi bu ... |
| intellektual mulk huquqini himoya qilish |
| milliy xavfsizlikni himoya qilish |
| yangi texnologiya yaratish |
| loyihalarni ishlab chiqish |

№180. Qiyinlik darajasi - 1

| |
|---|
| Foydali model- |
| bu moslamaga taalluqli texnik yyechimdir |
| bu sanoat yoki hunarmandlik buyumlarining tashqi ko'rinishini belgilovchi badiiy-konstruktorlik yyechimidir |
| ijodiy mehnat orqali o'simlikning yangi navi yoki hayvonlarning yangi zotini yaratish (aniqlash) kabi insonning anq bir maqsadga qaratilgan faoliyatining natijasidir |
| to'g'ri javob yo'q |

№ 181. Qiyinlik daraj asi - 2 _____

BIMT qanday konvensiyalarni boshqarish bilan shug'ullanadi ? _____

Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi va sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasini _____

Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parjj konvensiyasin
Mulk tashkilotini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya
Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi

№182. Qiyinlik daraj asi - 2
Sanoatda amaliy tadqiqotlar.
Yangiliklarni texnik-iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini o'rganish va ulardan amaliyotda foydalanish yo'llarini belgilab beradi.
Hamma javob to'g'ri.
Yangiliklarni ijtimoiy imkoniyatlarini o'rganish
Yangiliklarni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab beradi

№ 183. Qiyinlik daraj asi - 2
Sanoatda texnik-iqtisodiy ishlovlar
Bu tsiklda birinchi namunalar va ularning oreginal qismlari yaratilib, ularni sinash orqali sifati va texnix talablariga to'g'ri kelishi tekshiriladi.
Bu tsiklda birinchi namunalar va ularning oreginal qismlari yaratiladi
Bu tsiklda birinchi namunalar va ularning oreginal qismlari yaratilib, ularni sinaladi
Xamma javob to'g'ri

№184. Qiyinlik daraj asi - 2
Ilmiy texnik taraqqiyotga xarajatlar.
ITTga umumiy xarajatlar. ITTga bir vaqtdagi xarajatlar yangiliklarni joriy xarajatlari.
ITTning iqtisodiy xarajatlar. ITTning axborot xarajatlar , ITTning resurs xarajatlar. ITTning ijtimoiy xarajatlar. ITTning xalq xo'jaligi xarajatlar
ITTga umumiy xarajatlar. ITTga bir vaqtdagi xarajatlar yangiliklarni joriy xarajatlari , ITTning iqtisodiy xarajatlar. ITTning axborot xarajatlar , ITTning resurs xarajatlar. ITTning ijtimoiy xarajatlar. ITTning xalq xo'jaligi xarajatlar
ITTning iqtisodiy xarajatlar. ITTning axborot xarajatlar , ITTning resurs xarajatlar. ITTning ijtimoiy xarajatlar. ITTning xalq xo'jaligi xarajatlar

№ 185. Qiyinlik daraj asi - 2
BIMT qanday xodimlar shtatiga ega ?
90 ta mamlakat vakillaridan iborat xodimlar shtatiga ega
10 ta mamlakat vakillaridan iborat xodimlar shtatiga ega Jeneva mamlakati vakillaridan iborat xodimlar shtatiga ega Norvegiya mamlakat vakillaridan iborat xodimlar shtatiga ega

№186. Qiyinlik daraj asi - 2
ITTni tashkil etishning asosiy tamoyillari.
ITTni tashkil etish. ITTni tashkil etishning tamoiyllari. ITTni tashkil etishning asosiy shakllari. Marketing. YAngiliklar bozorini tashkil kilish. ITTni tashkil etish printsiplari
ITTning iqtisodiy samarasi. ITTning axborot samarasi , ITTning resurs samarasi. ITTning ijtimoiy samarsi. ITTning xalq xo'jaligi samarasi
ITTning ijtimoiy samarsi. ITTning xalq xo'jaligi samarasi, axborotlar samarasini baholash, resurs-ekologik samarni baholash. Ijtimoiy samarni baholash
ITTning xalq xo'jaligi samarasi, axborotlar samarasini baholash, resurs-ekologik samarni

№187. Qiyinlik daraj asi - 2
Fundamental tadqiqotlari tashkil etish asosiy bosqichlari:
Yangil^
Patcntegasi^
Yangil^
Fundamental tadqiqotlari tashkil etish asosiy bosqichlari:

№188. Qiyinlik darajasi - 2
Amaliy tadqiqotlarni va ishlarni tashkil etish.
Yangil^
Texnik topshiriqlarni ishlab chiqarish va tasdiklash. Nazariy tadqiqot. Ilmiy-tadqiqot. Ishlar natijasini umumlashtirish va baholash. Amaliy ilmiy tadqiqot ishlarining natijasi
Texnik topshiriqlarni ishlab chiqarish va tasdiklash. Nazariy tadqiqot
Amaliy ilmiy tadqiqot ishlarining natijasi

№189. Qiyinlik darajasi - 3
nmiy-tcxnik taraqqiyotni boshqarishni tashkil etish.
Ilmiy texnik taraqqiyotni boshqarish. YOshlarni ilmiy texnik ijodiyoti (YOITI). Fan va texnika Davlat qo'mitasi (FTDQ). O’zbekiston Respublikasi hisoblash texnikasi va axborotlar Davlat qo'mitasi. O’zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muxofaza qilish Davlat qumitasi standartlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish Davlat qumitasi. Kontsern, assotsiatsiya, konsortsium.
Ilmiy texnik taraqqiyotni boshqarish
Texnik topshiriqlarni ishlab chiqarish va tasdiklash. Nazariy tadqiqot. Ilmiy-tadqiqot. Ishlar natijasini umumlashtirish va baholash. Amaliy ilmiy tadqiqot ishlarining natijasi
Yangil^

№190. Qiyinlik darajasi - 3
Ilmiy ishlab chiqarish majmualarning asosiy turlari.
Injenerlik markazi. Vaqtinchalik ilmiy ishlab chiqarish majmualari. Tarmoqlararo ilmiy texnik majmua. Ilmiy ishlab chiqarish uyushmalari.
Yangil^
O’zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muxofaza qilish Davlat qumitasi standartlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish Davlat qumitasi. Kontsern, assotsiatsiya, konsortsium

№ 191. Qiyinlik daraj asi - 2
Fann^J^
Tarmoqlararo ilmiy texnik majmua. Ilmiy ishlab chiqarish uyushmalari.
Tadqiqot - ishlab chiqarish
O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muxofaza qilish Davlat qumitasi standartlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish Davlat qumitasi. Kontsern, assotsiatsiya, konsortsium
Injenerlik markazi. Vaqtinchalik ilmiy ishlab chiqarish majmualari. Tarmoqlararo ilmiy texnik majmua. Ilmiy ishlab chiqarish uyushmalari.
Yangil^

№192. Qiyinlik darajasi - 2
Ilmiy-texnik taraqiyotni rejalashtirishning vazifasi
Tubdan yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish balan bog'loq bo'lgan IITning Yetakchi yo'nalishlarida resurslarni jamlash
Ilmiy texnik taraqqiyotni rejalashtirishning kompleksliligi, perspektivliligi. Rejalashning iqtisodiy metodlari
To'g'ridan-to'g'ri rejalashtirish
Ilmiy texnik taraqqiyotni rejalashtirish

№ 193. Qiyinlik daraj asi - 2
Ilmiy texnik taraqqiyotini rejalashtirish strukturasi.
Rejalashtirish ko'rsatkichlari
Ilmiy texnik taraqqiyotni rejalashtirish
To'g'ridan-to'g'ri rejalashtirish
Ilmiy texnik taraqqiyotni rejalashtirishning kompleksliligi, perspektivliligi. Rejalashning iqtisodiy metodlari

№194. Qiyinlik darajasi - 2
Kashfiyot nima?
bilim darajasiga tubdan o'zgartirish olib kiradigan ilgari noma'lum bo'lgan ammo ob'ektiv mavjud bo'lgan moddiy dunyoning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limot
bilim darajasiga tubdan o'zgartirish olib kiradigan, ammo ob'ektiv mavjud bo'lgan moddiy dunyoning qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limot
bilim darajasiga tubdan o'zgartirish olib kiradigan ilgari noma'lum bo'lgan ammo ob'ektiv mavjud bo'lgan moddiy dunyoning qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limot
ilgari noma'lum bo'lgan moddiy dunyoning hodisa va xossalarini tushuntirib beruvchi ta'limot

№ 195. Qiyinlik daraj asi - 2
Ilmiy texnik taraqqiyotni raqbatlantirish mexanizmi.
Ilmiy texnik taraqqiyotni rag'batlantirish. Ilmiy texnik taraqqiyot rag'batlantirish printsiplari. Kompleksliylik. Perspektivliylik. Normativ xarakatliylik. Oshkorolik
Kompleksliylik
rag'batlantirish printsiplari
rag'batlantirish

№196. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Korxonaning sof foydasi nima? |
| Foydadan soliqlar chegirgandan so'ng qolgan qismi |
| Daromaddan harajatni ayirgandan qolgan qismi |
| Daromaddan ishlab chiqarish harajatlarni ayirgandan qolgan qismi |
| Daromaddan harajatni ayirgandan qolgan qismi, daromaddan ishlab chiqarish harajatlarni ayirgandan qolgan qismi |

№197. Qiyinlik darajasi - 1

| |
|---|
| BIMTning bosh direktori kim? |
| Jennis Garrid |
| Jon Toms |
| Nikolay Solayev |
| li Tyan |

№198. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Hozirgi kunda mamlakatimizda nechta Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazi faoliyat yuritib kelmoqda? |
| 8 ta |
| 5 ta |
| 1 ta |
| 2 ta |

№199. Qiyinlik darajasi - 1

| |
|---|
| Ilmiy texnikaviy ijodiyotga ko'maklashish,ixtirochilik va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida Toshkentdagi xalqaro innovatsion forum doirasida nechta mukofot taqdim qilingan? |
| 2ta |
| 4ta |
| 3ta |
| 1ta |

№200. Qiyinlik darajasi - 2

| |
|---|
| Seleksiya mualliflik huquqi boshqaga o'tkazilmaydigan shaxsiy huquq bo'lib u qancha muddatga himoya qilinadi |
| muddatsiz |
| 10 yil |
| 15 yil |
| 20 yil |

# GLOSSARIY

| Atamaning o‘zbek tilidagi nomlanishi | Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi | Atamaning rus tilidagi nomlanishi | Atamaning ma'nosi |
|---|---|---|---|
| **Innovatsiya** | **Innovation** | **Innovatsiya** | bu qandaydir yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi uslubini ish amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy uslubni iste'molga kiritishdir. |
| **Innovatsion faoliyat** | **Innovative activity** | **Innovatsionnay a deyatelnost** | innovatsiyani amalga oshirishga olib keladigan yoki shu maqsad bilan ko‘zlab qilingan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat, marketing harakatlardir. Innovatsion faoliyat shuningdek qandaydir aniq innovatsiyani tayyorlash bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan tadqiqotlar va ishlanmalarni o‘z ichiga oladi. |
| **Texnologik innovatsiyalar** | **Technological innovations** | **Texnologicheski e novinki** | bu yangi mahsulot va jarayonlarni ishlab chiqarish va joriy etish, shuningdek mahsulot va jarayonlarni sezilarli takomillashtirish; texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlar, yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqarish (ko‘rsatish) usullarini ishlab chiqarish va joriy etish. |
| **Mahsulot innovatsiyasi** | **Product innovation** | **Innovatsiya produkta** | bu yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan tovar va xizmatlarni joriy etishdir. Masalan, texnika xususiyatlari, komponent va materiallari, ichiga o‘rnatilgan dasturiy ta'minoti, foydalanuvchi uchun qulayligi yoki boshqa funksional xususiyatlari. |
| **Jarayon innovatsiyasi** | **Process innovation** | **Innovatsioniibiy protsess** | yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan ishlab chiqarish yoki yetkazib berish uslubini, texnik jarayonlar, uskunalar yoki dasturiy ta'minotdagi sezilarli o‘zgarishlarni joriy etishdir. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Marketing innovatsiyasi** | **Marketingovbie innovatsii** | **Marketing innovation** | bu firma tomonidan marketingning yangi uslubini joriy etish (mahsulotning dizayni va qadoqlash, uni joylashtirish, narx belgilash, bozorga chiqarish) agarda u firma tomonidan birinchi marta ishlatilayotgan bo‘lsa. |
| **Tashkiliy innovatsiya** | **Organizationa l innovation** | **Organizatsionnaya innovatsiya** | bu firmaning ish amaliyotiga yangi tashkiliy uslubni joriy etish. |
| **Nou-xau** | **Know-how** | **Nou-xau** | bu ishlab chiqarish siri hisoblangan, egasi bu ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ishlatilishidan himoya qilish huquqiga ega bo‘lgan, himoyalovchi hujjatlar (masalan, patentlar) bilan muhofazalanmagan va to‘liq yoki qisman nashr qilinmagan texnik, tashkiliy yoki tijorat ma'lumotlaridir. |
| **Tovar belgisi** | **Trademark** | **Tovarnbiy znak** | bu biror ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlarini boshqa ishlab chiqaruvchining o‘xshash tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo‘ljallangan original grafik tasvir, raqam, harf yoki so‘zlarning birikmasidir. |
| **Ixtiro** | **Invention** | **Izobretenie** | bu turli sohalardagi mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtamplari, o‘simlik va hayvonlar hujayralariga) yoki usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy obyektlar ustidan harakatni amalga oshirish jarayoniga) tegishli texnik yechim. |
| **Foydali model** | **Model** | **Poleznaya model** | bu moslamaga taalluqli texnik yechim. Ishlab chiqarish vositalarining konstruktiv bajarilishi va iste'mol qilish predmetlari hamda ularning tarkibiy qismi foydali modellarga kiradi. |
| **Sanoat namunalari** | **Industrial Designs** | **Prombishlennbi e obrazsib** | bu sanoat yoki hunarmandlik buyumlarining tashqi ko‘rinishini belgilovchi badiiy-konstruktorlik yechimidir. |
| **Seleksion yutuqlar** | **Selection achievements** | **Seleksionnibe dostijeniya** | ijodiy mehnat orqali o‘simlikning yangi navi yoki hayvonlarning yangi turini yaratish (aniqlash) kabi insonning aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyatining natijasidir. |

# Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

## Asosiy adabiyotlar

1. Salixov S.A. va boshqalar. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. Toshkent “Iqtisodiyot”, 2013 yil.

2. Ergashxodjaev SH. Innovatsion marketing. Darslik. Toshkent “CHo‘lpon”, 2014 yil.

3. Akabirova D.N.Innovatsionnaya strategiya. Uchebnoe posobie. ToshkentIqtisodiyot, 2011.

4. Ishmuhamedov A. E. Innovatsion strategiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, TDIU, 2007.

5. Podsorin V.A. Ekonomika innovatsiy: uchebnoe posobie. dlya magistrantov po napravleniyu «Ekonomika». - M.: MIIT, 2012. - 123 s

6. Kurakov L.P., Krasnov A.G., Nazarov A.V. Ekonomika innovatsionnue podxodu: Uchebnoe posobie. - M.: Gelios, 2008. -600 s

## Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b

4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.

5. Mirziyoyev SH.M. 2017 yil 19 sentyabr Birlashgan Millatlar Korxonai Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.// Xalq so‘zi, 2017-yil 20- sentyabr.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2018- yil 29- dekabr.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng

jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma./Nashr uchun mas'ul R.S. Qosimov. - T: “Ma'naviyat”, 2018. - 320 bet.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 5- iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.// Xalq so‘zi, 2018 yil 6 iyun.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yilning 7- iyundagi “Har bir oila — tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Qarori// "Xalq so‘zi", 2018- yil 8- iyun

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017- yil 7- fevral, PF-4947-son.

11. O‘zbekiston Respublikasining 2014-2018- yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. http://www.stat.uz.

12. Bogatova E.V. «Innovatsionnaya ekonomika»: uchebniki, obuchenie. Moskva -2014.

13. YAkushev A.A., Dubbinina «Innovatsionnaya ekonomika»: uchebnoe posobie. Izdatelstvo Finansb i statistika. - M:2017.

## Internet saytlari

14. http://www.mineconomy.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)

15. http://www.mehnat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)

16. http://www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

17. http://www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)

18. http://www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)

19. http://www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)

20. http://www.semi.rssi.ru- Rossiya Federatsiyasi Markaziy-iqtisodiy matematika instituti sayti.
21. http://www.nber.com- AQSH iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.
22. http://www.webofscience.com- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
23. http://www.scopus.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
24. http://www.elibrary.ru - Rossiya ilmiy maqolalar indeksi.

**Y.E.ALIEV**

# INNOVATSION IQTISODIYOT

**O‘QUV QO‘LLANMA**

Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil, 236 bet.